O`zbeklarning “nayman” urug`i ham xonliklar davrida o`ziga xos mavqega ega bo`lgan urug`lardan biridir. XVI-XIX asrlarda yozilgan manbalarning deyarli barchasida ushbu urug` nomi uchraydi. Jumladan, nayman urug`ini Shayboniyalar davrida, ayniqsa, Abdullaxon II tomonidan amalga oshirilgan harbiy yurishlarda faol ishtirok etganliklarini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, “Ubaydullanoma” asarida Buxoroda, Termizning Derf qal`asida va Samarqandda yashagan naymanlar to`g`risida ma`lumotlar mavjud. Asarda muallif keltirgan ma`lumotlarga ko`ra nayman urug`i vakillari xonning saroyida nufuzli mansablarni egallab, xonning har doim chap tarafida o`tirganlar. Bunga manbadagi to`qsabo lavozimida faoliyat ko`rsatgan Ne`matullabiy nayman to`g`risidagi ma`lumotni misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, Mir Muhammad Amin Buxoriy Abulfayzxon davrida yuzaga kelgan ichki ziddiyatlar hamda qabilalararo kurashlarni bayon etib borar ekan, Ne`matullabiy boshchiligidagi naymanlar bilan qo`ng`irot qabilasi o`rtasidagi kurash natijasida qo`ng`irotlar Termizni egallaganligi haqida ma`lumot beradi. Uning yozishicha, mag`lubiyatga uchragan Ne`matullobiy Balxga kelgan. Bu kabi ma`lumot ikki etnik guruh o`rtasidagi ziddiyat to`g`risida guvohlik beribgina qolmay, xonlik hududida kechgan migratsion jarayonlar va uning sabablaridan biri haqida ham axborot beradi.

Ashtarxoniyalar davrida otaliq hamdadodxoh mansablarida faoliyat yuritib borgan “kelachi” urug`i ham xonlik aholisi tarkibida yashagan etnik guruhlardan biri bo`lgan [8]. “Tarixi salotini mang`itiya”da yozilishicha, ular Xiva xonligi chegaralari va oz miqdorda Zarafshon vodiysida yashagan [9].

Qisqasi, asli kelib chiqishi Dashti Qipchoq bo`lgan ko`chmanchi o`zbek urug`larining Zarafshon vohasida o`rnashishi bu yerdagi davlat boshqaruviga, etnik transformatsiya jarayonlariga, ma`lum ma`noda hududning toponimik xususiyatlariga, ijtimoiy-siyosiy hayotga ta`sir o`tkazib bordi. Bu asosan Dashti qipchoqlik aholi guruhlari tomonidan O`rta Osiyoning katta bir qismi egallanishi va ushbu voqeliklarga qadar mavjud etnik holatning birmuncha o`zgarishi va har ikkala hudud – Dashti qipchoqlik va Amudaryo – Sirdaryo oralig`i va unga tutash hududlar aholi guruhlarning omuxtalashib borishida kuzatiladi. Bugungi kunda uchraydigan ko`plab urug` hamda joy nomlarida asli Dashti qipchoqlik urug`lar va ularning lingvistik xususiyatlari ko`zga tashlanishi buning yaqqol o`rnagidir.

## REFERANS

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. 143-bet
2. Xofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 11-kitob. 37-38-betlar
3. Xofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1-kitob. 39-bet
4. Mahammad Yusuf Munshiy. “Tarixi Muqimxoniy” 163-bet
5. Abdurahmon ibn Tole. Abulfayzxon tarixi. 134-bet
6. Xo`ja Samandar Termiziy. Dastur ul-muluk. 201, 202-betlar
7. Muhammadyor ibn Arab Qatag`an. Musahhir al-bilod. 187-bet
8. Muhammad Yusuf Munshiy. Tarixi Muqimxoniy. 123-bet
9. Mirza Abdul Azim Somiy. Tarix-i salatin-i mang`itiya. 135-bet

## XVIII-XIX ASRLARDA QO'QON XONLIGINING SAVDO-IQTISODIY ALOQALARIDA SAYYOH VA ELCHILAR ESDALIKLARIDAGI AYRIM MA'LUMOTLAR

*Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich*  
*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i*  
<https://orcid.org/0009-0003-6958-0605>

*Аннотация. Ushbu maqolada XVIII asrdan Qo'qon xonligining O'rta Osiyo xalqlari shuningdek, Xitoy, Sharqiy Turkiston bilan savdo aloqalari o'rnatgan vositachi davlat bo'lib qolganligi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Shuningdek, Xitoy tovarlari Qo'qon xonligi orqali Buxoro va Xiva xonliklariga ular orqali esa Sharq davlatlariga kirib borganligiga izoh beriladi. Qo'qon xonligining Rossiya bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lganligi, Toshkentning xonlik tasarrufiga kiritilishi bilan Rossiyaning Qo'qon xonligiga kirib borishi haqida ayrim ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqollarda O'rta Osiyo xonliklarining tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida ayrim ma'lumotlarni to'liq tasavvur qilish imkonini berilgan.*

*Kalit so'zlar: Xitoy, Hindiston, Buxoro, O'rta Osiyo, Rossiya, Xiva, Afg'oniston, Dashti Qipchoq, Sharqiy Turkiston, Taxtapul, Sebzor, Labzak, Qorasaray, Yangi-Qo'rg'on, Julek, Din-Qo'rg'on, Oq-Machit, Qamish-Qo'rg'on, Avliyo-Ota, G. Kolmogorov, V.V.Vel'yaminov-Zernov, A.Teterevnikov.*

## SOME INFORMATION FROM THE MEMOIRS OF TRAVELERS AND AMBASSADORS ON THE TRADE AND ECONOMIC RELATIONS OF THE KOKAND KHANATE IN THE 18TH-19TH CENTURIES

*Berdiev Abduvali Abduganievich*  
*Doctor of Philosophy in History (PhD)*  
*Head of educational and methodological department*

*Annotation. This article provides information on the fact that since the XVIII century the Kokand Khanate has become an intermediary state, which established trade relations with the peoples of Central Asia, as well as China and East Turkestan. It is also explained that Chinese goods entered the Bukhara and Khiva khanates through the Kokand khanate, and through them to the Eastern countries. Some information is given about the importance of the relations of the Kokand khanate with Russia, the entry of Russia into the Kokand khanate with the annexation of Tashkent to the khanate. The article also provides an overview of some of the details of the foreign economic relations of the Central Asian khanates.*

*Keywords: China, India, Bukhara, Central Asia, Russia, Khiva, Afghanistan, Dashti Kipchak, East Turkestan, Takhtapul, Sebzor, Labzak, Karasaray, Yangi-Kurgan, Julek, Din-Kurgan, Ak-Machit, Qamish-Kurgan, Avliyo-Ota, G. Kolmogorov, V.V.Velyaminov-Zernov, A.Teterevnikov.*

## В ТОРГОВЫХ И ЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЯХ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА В XVIII-XIX ВЕКАХ: НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ ИЗ ЗАПИСОК ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ И ПОСЛАННИКОВ

*Бердиев Абдували Абдуганиевич  
Доктор философии по истории (PhD)  
Начальник учебно-методического отдела*

*Аннотация. В этой статье приводится информация о том, что с XVIII века Кокандское ханство стало промежуточным государством, которое установило торговые отношения с народами Центральной Азии, а также Китая и Восточного Туркестана. Также объясняется, что китайские товары поступали в Бухарское и Хивинское ханства через Кокандское ханство и через них в восточные страны. Приводится некоторая информация о важности отношений Кокандского ханства с Россией, вступлении России в Кокандское ханство с присоединением Ташкента к ханству. В статье также дается обзор некоторых деталей внешнеэкономических связей центрально-азиатских ханств.*

*Ключевые слова: Китай, Индия, Бухара, Центральная Азия, Россия, Хива, Афганистан, Дашти Кипчак, Восточный Туркестан, Тахтапул, Себзор, Лабзак, Карасарай, Янги-Курган, Джулек, Дин-Курган, Ак-Мачит, Камыш-Курган, Авлиё-Ота, Г. Колмогоров, В.В.Вельяминов-Зернов, А.Тетеревников.*

**Kirish.** Dunyo hamjamiyatining zamonaviy globallashuv jarayoni bevosita mintaqalararo aloqalarning tarixiy ildizlariga chambarchas bogʻliq. Oʻrta Osiyo mintaqasi turli madaniyatlar va siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlar kesishgan hudud sifatida bu borada alohida oʻringa ega. Mintaqadagi Buxoro, Xiva va Qoʻqon xonliklariga qarashli hududlar esa, umuminsoniy qadriyatlar rivojiga katta hissa qoʻshgan qadimiy sivilizatsiya oʻchoqlaridan biri boʻlib, ularning taraqqiyoti jahon xalqlari tarixi bilan uzviylikda kechgan. Vatanimiz oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritishi bilan jamiyatimizning turli sohalarida tub oʻzgarishlar amalga oshirildi, jumladan tarix sohasida ham koʻzga tashlanar darajada ilmiy oʻzgarishlar kuzatilmoqda. Haqqoniy tarixni yoritish borasida keng imkoniyatlar ochilib, tadqiqotchilarga barcha imkoniyatlar davlatimiz tomonidan yaratib berildi, bu yoʻldagi qoʻyilgan asosiy talab va maqsad esa faqatgina tarixni xolisona yoritishdan iborat. Mazkur maqollada ham Rossiya imperiyasi, Angliya va boshqa qoʻshni davlatlarning Markaziy Osiyo, shu jumladan uchala xonlik bilan olib borgan savdo-iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy va diplomatik munosabatlarda elchilar va sayyohlarning esdaliklariga katta eʼtibor qaratilgan. Oʻrta Osiyo davlatlari uzoq davrlar mobaynida Xitoy, Hindiston, Eron, Afgʻoniston va Sharqdagi boshqa mamlakatlar hamda Rossiya davlati bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada boʻlib keldi. Ayniqsa, Oʻzbekistonning qoʻshni davlatlar bilan hozirgi kundagi yaqin doʻstona aloqalarining ildizlari ana oʻsha uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. Oʻzbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati ayniqsa, dunyoning yirik davlatlari bilan keng miqyosda olib borayotgan tashqi aloqalari yangi sifat bosqichiga koʻtarilayotgan hozirgi sharoitda xalqaro aloqalar tarixini chuqur tadqiq etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

**Asosiy qism**

Qoʻqon xonligi Oʻrta Osiyo xonliklari, qoʻshni Xitoy, Hindiston, Qirgʻiz dashtlari bilan jadal savdo munosabatlarni oʻrnatgan. Ammo qoʻshni ikki davlat oʻrtasidagi XVIII va XIX asrlardagi aloqalar etarli darajada oʻrganilgan emas. Vaholanki, bu davr tarixini oʻrganish uchun muhim qoʻlyozma manbalar, rus sayyohlari va elchilarining hisobotlarida qiziqarli maʼlumotlar mavjud. Oʻrta Osiyo bilan Sharqiy Turkiston hamda



Xitoy o'rtasidagi XVI-XVII asrlarda mavjud bo'lgan o'zaro munosabatlar to'g'risida Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Mahmud ibn Valining «Bahr ul-asror», Sang Muhammad Badaxshiyning «Tarixi Badaxshon», Mirza Olim Toshkandiyning «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin», Niyoz Muhammad Xo'qandiyning «Tarixi Shohruhiy», Qurbon Ali Ayog'uziyning «Tavorixi xamsayi sharqiy» asarlarida noyob ma'lumotlar mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning Xitoydan kelayotgan Andijon karvonida ming odam bo'lganligi haqidagi ma'lumoti, bu ikki davlat o'rtasida iqtisodiy aloqalarning uzoq o'tmishga borib taqalishidan guvohlik beradi.

Qo'qon xonligining nisbatan taraqqiy etishiga uning qulay geografik xudud, karvon yo'llari kesishgan va dehqonchiligi qadimdan taraqqiy etganligiga nisbatan bo'lishi mumkin. Xonlikning markazi va bosh shahri bo'lgan Qo'qonga oid ma'lumotlarga ko'ra, uning yoshi 2000 yildan ortiqdir. Qo'qon shahri XVIII-XIX asr birinchi yarmida nafaqat xonlikning ayni paytda O'rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri edi. O'tmishda Qo'qon shahri bir necha marta dushmanlar tomonidan talanib, vayron qilingan. Ma'lumki, XIII asrda mo'g'ullar O'rta Osiyoni istilo qilgan davrda juda ko'p shaharlar vayron qilinib, yer bilan yakson qilingan edi. Shunday shaharlar orasida Qo'qon ham bor edi. Shundan so'ng Qo'qon faqat 1709-yili qayta tiklangan va 1740-yilda shahar xonlik poytaxtiga aylantirildi. Qo'qon mustahkam mudofa devori bilan o'rab olingan. Qo'qon shahri xonlikning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylantirilgan.

Qo'qon honligining iqtisodiy hayotida tashqi savdo ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mamlakat g'arb va janubda Buxoro, Xiva, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, sharqda Xitoy (Qashg'ar orqali), shimolda Dashti Qipchoq ko'chmanchilari va ayniqsa Rossiya bilan keng savdo aloqalar o'rnatgan. Ayrim manbalarda xonlikda yaponiyalik va angliyalik savdogarlar ham kelganligi eslatib o'tiladi.

Xonlikdan chet elga asosan ipak va ipak matolar, paxta, charm, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, zargarlik buyumlari va boshqa mahsulotlar chiqarilgan. Chet eldan asosan choy, metall, chinni, uy-ro'zg'or buyumlari, tayyor gazlama, kiyim-kechak, poyafzal va boshqalar keltirilgan.

Xonlikda Qo'qon, Toshkent, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar mavjud bo'lib, ularda xo'jalik tarmoqlaridan hunarmandchilik sohasi keng ko'lamda taraqqiy topgan edi. Masalan: Qo'qonda hunarmandchilikning quyidagi turlari bor edi: misgar, zargar, o'ymakor, qurolsoz, kulol, qog'ozgar, to'qimachi, do'ppi tikuvchi, kashtakach, ko'priksiz, temirchi, nonvoy, aravasozi, baxmalbof. bujgun, buyoqchi, gilkor, dorikash, jibachi, devorzan, degrez, yormado'z, ko'nchi, miltiqsoz, najjor, nayzagar, panjarasozi, pillakash, po'stindo'z, taqachi, to'brez, paranjido'z, chodirchi, chevar, chitgar, gilamchi va hokozolar. Qo'qon shahrida haftaning chorshanba va yakshanba kunlari bozor bo'lgan. Qo'qon xonligida keng tarmoqli hunarmandchilik sohasining rivojlanganligi uning qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalari o'rnatishga imkon yaratgan.

Zargarlikning rivojlanishiga Qo'qonga qarashli bo'lgan xududda oltin konlarining mavjudligi sabab bo'lishi mumkin. Masalan, oltin Kosonsoydan, Qoratog' shimolidagi Ko'krev daryosidan, Chirchiq daryosi bo'ylaridan, Chatkol daryosi yuqori oqimlaridan olingan.

XVIII-XIX asrlarda Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish tanazzulga ketayotgan davrda Qo'qonda qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yila boshlanadi. Bu tovar tayyorlash Samarqandlik qog'oz ishlab chiqaruvchi ustalarning Qo'qonga ko'chib kelishi bilan bog'liq. Buning natijasida Qo'qon Orol dengizidan Xitoygacha qog'oz ta'minoti bilan shug'illanuvchi monopoliyaga aylanib qolgan desak xato bo'lmaydi. Qo'qon qog'ozi Koshg'ar, hattoki shimoliy Afg'onistonga ham olib borilgan. Qog'oz ustaxonasi Qo'qon shahrining Mo'yi Muborak darvozasi orqasidagi maqbara yonida joylashgan. Qog'oz juvozi oddiy saroydan iborat bo'lib, sathi 25-30 kvadrat metr, ayvonning bir tomonida

juvozxona, boshqa tomonida qog'oz xamiri uchun katta moslama joylashgan. Usta o'z xalfalari yordamida bir kunda 300 varoq qog'oz tayyorlagan. Qo'qondan tashqari boshqa joylarda ham qog'oz ishlab chiqilardi. Ammo Qo'qon qog'ozi o'zining sifati va ko'pligi bilan ulardan ancha ustun bo'lgan. So'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyolik olimlar, tarixchilar, shoirlar o'z asarlarini Qo'qon qog'ozida yozishadi. Bu qog'ozlardan devonxonada ham keng foydalanilgan. Mahalliy qo'lyozma asarlar va turli xil diplomatik hujjatlar Qo'qon qog'ozida yozilgan. XIX asr boshlarida Toshkentda bo'lgan Sibir kazaki Maksimovning ta'kidlashicha ... qog'oz Qo'qon va Toshkentda tayyorlanadi. ... deb ma'lumot qoldiradi.[8:28-b]

Qo'qon qog'ozining hajmi uzunligi 58 sm, eni 50 sm bo'lgan. Uning 240 varog'i 1 bog' bo'lib, birinchi jahon urishi arafasida va boshlarida birinchi navi 6 rub, ikkinchi navi 4 rub va uchinchi navi 3 rub turgan.[9:124-b]

Qo'qonda ipakdan tayyorlangan, juda sifatli qog'oz ham bo'lgan. Ipak qog'ozi juda qimmat bo'lganligi uchun ehtiyoj kam edi. Ipak qog'ozi maxsus buyurtma asosida tayyorlangan.

Qo'qon xonligi O'rta Osiyo xonliklari, Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan karvon yo'llari orqali bog'langan bo'lib, xonlik ular bilan qizg'in savdo munosabatlarga kirishgan. Rossiyaning Qo'qon xonligi bilan savdo-siyosiy munosabatlari boshqa O'rta Osiyo xonliklariga nisbatan biroz sust rivojlangan. Bu esa xonlikning Rossiyadan anchagina uzoqligi va Toshkent bekligi bilan ajralib turishi bilan bog'liq. Rossiya bilan Qo'qon xonligi o'rtasidagi siyosiy-savdo munosabatlari XIX asrning ikkinchi o'n yilliklaridan boshlab o'rnatila boshlaydi. Qo'qon xonligining chet davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari masalasi rus elchilari va sayyohlari hisobotlarida, hamda maxsus asarlarda ham o'z aksini topgan. Xususan 1813 yili Sibir korpusi tarjimoni Filipp Nazarov maxsus topshiriq bilan, Qo'qonga, ya'ni Petropavlovskda Peterburgdan kelayotgan Qo'qon xoni elchisining o'ldirilishi natijasida kelib chiqqan mojaroni hal qilish maqsadida keladi. F.Nazarovning 1813-1814 yillarda Qo'qon xonligiga qilgan sayohati natijasida, 1821 yilda "Zapiski o nekotoryx narodax i zemlyax sredney chasti Azii" kitobi nashrdan chig'adi. Asar tarixiy-etnografik xarakterga ega. Kitobda qo'qonliklarning Koshg'ar, Xitoy, Xiva, Buxoro va Sharqiy Eron bilan savdo aloqalari haqida xabar berilgan. U Qo'qon xonining elchilarini qabul qilish marosimida ishtirok etib, qabul marosimi chog'ida Xitoy, Xiva, Buxoro va boshqa o'lkalar elchilarini ko'rgan [13]. F.Nazarov O'ratepa shahri haqida yozib, u yerda aholi loy (paxsa – A.B.) uylarda yashab, xonadonlarida pux ro'mollar to'qiydi, deb e'tirof etadi. Asarda O'ratepa aholisi turkmanlar, eroniylar, Buxoroga qarashli bo'lgan joylardagi ko'chmanchi arablar bilan savdo qilishadi, deb ta'kidlanadi.

1826 yili "Aziatskiy Vestnik" jurnalida e'lon qilingan maqolada Qo'qon aholisi paxta va ipak yetishtirish bilan shug'ullanishi, qo'qonliklar Xitoy, Xiva va Eron bilan savdo qilishi haqida ma'lumot berilgan [6:229-230-b].

Qo'qonning asosiy savdo sheriklaridan biri Toshkent (beklik davrida) hisoblangan. O'rta Osiyoning sharq davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarida Toshkent shahri azaldan alohida mavqega ega bo'lgan. Toshkent 2000 yildan ortiq tarixga ega bo'lib, dastlabki ma'lumotlar qadimgi sharq manbalarida miloddan avvalgi II asrdan tilga olinib boshlaydi. Rus manbalarida Toshkent shahri XVI asrda Tashkura nomi bilan "Kniga Bol'shogo Cherteja"ga ham kiritilgan. XVI asrning ikkinchi yarmida Toshkent Buxoro xonligiga qo'shib olingan. O'rta asrlarda Toshkent o'z tovarlari bilan mashhur bo'lgan. Mahmud ibn Vali Toshkentdan olib ketiladigan tovarlar haqida yozib, qalmaq asirlari, dorivor o'simliklar, jumladan, qon ketishini to'xtatishda qo'llaniladigan o'simliklar haqida, eslaydi[5:57-b]. Bu dorilar Xitoyga ham eksport qilingan. Mahmud ibn Vali o'z asarida

darmana deb ataluvchi ko'p yillik yarim buta haqida ma'lumot berib, uning barglarida va gul to' dasida terpenoid santonin bo'lib, uning gijjani yo'qotadigan xususiyatga ega ekanligini bayon qiladi. Darmana Toshkentdan ko'plab Yevropa mamlakatlariga olib borilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XVIII asrning 30-yillarida savdogarlar Toshkentda o'sadigan darmana urug'ini Eron va Turkiyaga, Turkiyadan esa nemis davlatlariga olib borishgan [3:96-97-b].

XVII-XVIII asrlardan boshlab Toshkentning Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlana boshlaydi. Toshkent savdogarlari tez-tez Sibir shaharlariga borib turishgan. 1739 yilda Orenburgdan Toshkentga birinchi rus savdo karvoni keladi. XVIII asrning 2 yarmiga kelib mustaqil Toshkent bekligi tashkil topadi. XIX asrda Toshkent o'z mustaqilligini yo'qotib Qo'qon xonligiga bo'ysindirilgan. XVIII asrning 2-yarmida O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya va Qozog'iston bilan savdo aloqalari rivojlangan sari Toshkent shahri savdo aloqalari markaziga aylanib qola boshlaydi. Shu davrda Tashkent shahri hunarmandchilik sohasiga qarab quyidagi mahallalarga bo'lingan: pichoqchi, misgarlik, sog'bon-itboqar, o'qchi, konchi, degrizon-qozon yasovchilar. Taxtapul, Sebzor, Labzak, Qorasaroy mahallalari aholisi bog'dorchilik, hunarmandchilik va boshqalar bilan shug'illanganlar. Oxunguzar, Parchabof, Jangoh aholisi hunarmandchilik, to'quvchilik va savdo bilan shug'illangan. Toshkentlik to'quvchilar bo'z, beqasam, olacha, bahmal to'qishgan va savdogarlar bu tovarlarni qo'shni mamlakatlarga olib borib sotishgan.

Toshkentda bir necha karvon saroylar bo'lib, unda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar to'xtashgan, jumladan Sayidazim, Nurmuhammad Qushbegi, Namangan va boshqalar [12:307-b]. A.P.Xoroshxin Toshkent shahrida 29 ta karvonsaroy borligini eslatadi. U shahar bozoridagi tovarlar sotiladigan rastalar sonini ham qayd etgan [15:29-b].

Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyodagi shaharlar kabi Toshkent ham Sharq bilan G'arbni bir-biriga bog'lab turuvchi Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan. Karvon yo'li Koshg'ardan O'sh orqali Toshkentga kelgan. Toshkent O'rta Osiyoning muhim shaharlaridan biri hisoblanib, Qo'qonning Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachilik rolini ham o'tagan. Shu bilan birga rus hukumati Toshkent orqali O'rta Osiyo xonliklari bilan va hattoki u orqali Xitoy bilan savdo qilishga harakat qilgan.

Rossiya davlati Toshkent orqali Qo'qon xonligi bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatishdan manfaatdor bo'lgan. Chunki Rossiya Toshkent va Qo'qon orqali Koshg'arga ham chiqishi mumkin edi. Rossiya Sharqiy Turkiston bilan bo'ladigan savdo aloqalarida toshkentlik savdogarlarning vositachilik rolini ko'ra bilgan edi. Ruslar toshkentliklarning Koshg'ar tovarlarini Qo'qon orqali Rossiyaga etkazib berishlaridan kata foyda ko'rgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XVIII asr oxirlarida Semipalatinsk bojxonasi hujjatlarida Rossiyaning Sharqiy Turkiston bilan aloqasida toshkentlik savdogarlar rolining ortib borganligini aks ettiruvchi ma'lumotlar uchraydi.

Fikrimizning tasdig'i sifatida XVIII asr oxirlarida, ya'ni 1791 yil noyabr oyida Yamishevga quyidagi tovarlar olib borilgan: 612 rub 50 kopluk 19 pud 30 funt toshkent oq qog'ozi, 814 rub 70 kopluk 894 arshin guldor va yo'l-yo'l Toshkent matosi, 9735 arshin Toshkent pardasi, 799 dona Toshkent chaponi, chakmon, ko'k zenden. 1792 yil oktabr oyida Yamishevga quyidagi tovarlar keltirilgan: 22 rub 64 kopluk 38 (o'lchov birligi ko'rsatilmagan) tuya juni, 1.479 rub 20 kopluk 1301 bosh qo'y, 3902 rublik 344 bosh ho'kiz, 4 bo'lak toshkent oq bo'zi, 119 bo'lak ko'k bo'z va boshqalar. O'sha yili Toshkent tovarlari bilan birga Xitoy va Sharqiy Turkiston tovarlari ham, jumladan, 17 rublik 17,5 (og'irligi no'malum) dur, 1 rub 80 kopluk 18 funt qora choy, 1 rub 50 kopluk 10 funtlik taxta choy, 5 rublik 15 funt ko'k choy va boshqalar olib kelingan [17:140-b].

Semipalatinskda toshkentliklarning hovlilari bo'lib, unda olib kelingan xitoy, koshg'ar, Toshkent tovarlari rus tovarlariga ayirbosh qilingan. Savdo-sotiq mol ayirboshlash yo'li

bilan amalga oshirilgan va naqd pulga ham sotilgan.

Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Qo‘qon xonligining O‘rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o‘zaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlanadi. O‘z darvida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga jo‘natilganligi ma‘lum.

XIX asr o‘rtalariga taalluqli ma‘lumotlarga ko‘ra, Qo‘qondan va xonlikning boshqa shaharlaridan har yili Toshkentga 16 ming tuya mol kelgan. Shundan 4 ming tuya paxta, 200 tuya yigirilgan ip, 10 ming tuya ip gazlama, yarim ipak va ipak matolar, chapon, ko‘rpa, chalvor (teridan tiqilgan) va boshqalar, qolgan 2 ming tuyada ho‘l mevalar keltirilgan. Har yili chetdan mol kiritish 4580 ming rub. gacha yetgan [12:313-b]. Qo‘qonga va xonlikning boshqa shaharlariga Toshkentdan ko‘proq rus tovarlari keltirilgan. Chunki Rossiya bilan savdo Toshkent orqali amalga oshirilgan. Qo‘qon bilan Toshkent o‘rtasidagi savdo aylanishi bir yilda taxminan 7 mln. rub.ni tashkil qilgan. Toshkent bilan Qo‘qon oraliqidagi masofaning yaqinligi Toshkent savdogarlariga jo‘shqin savdo qilishlariga katta imkoniyat bergan. Yillik tovar aylanishi hisobga olinsa, Toshkent savdogarlarining Qo‘qon bilan aloqalari muhimroq bo‘lgan.

Qo‘qon xonligi azaldan Qozog‘istonning janubiy va janubiy-sharqiy tumanlari bilan an‘anaviy savdo aloqalari o‘rnatgan. Qo‘qon savdogarlari chopon, ko‘rpa va turli xil matolarni qozoq ko‘chmanchilarining chorva, teri, yog‘, jun va mo‘ynalariga ayirbosh qilgan [7:186-b].

XIX asrning 20-30 yillarida Qo‘qon hukmdorlari Janubiy Qozog‘istonda bir qator qal‘alar, jumladan, Yangi-Qo‘rg‘on, Julek, Din-Qo‘rg‘on, Oq-Machit, Qamish-Qo‘rg‘on, Avliyo-Ota va boshqalar qurgan edi. Ularning har birida harbiy qismlar, machitlar, ombor va temirchilik ustaxonalari, savdogarlar uchun uylar, do‘konlar va bozorlar bunyod qilgan.

Qo‘qon savdogarlarining qozok cho‘llariga keltiradigan tovarlarining aksariyatini ip gazlama va quritilgan mevalar tashkil qilgan. Meva qo‘qilari cho‘l xududlariga har yili 15 mingga tuya, ip gazlama esa 3 mingga tuya keltirilgan [12:40-b]. G. Kolmogorovning ma‘lumotlariga ko‘ra, har bir qozoq oilasi tayyor kiyim boshni Buxoro, Qo‘qon va Xitoydan sotib olgan [4:159-b]

Ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘rta Osiyo savdogarlari o‘z tovarlarini mayda va yirik qoramollariga ayirbosh qilgan. Masalan: har yili Toshkentga 200 ming bosh, Qo‘qonga 100 ming atrofida va Buxoroga 100 ming bosh qo‘y haydab borilgan. Mol ayirboshlashda qo‘y muomala vositasi (pul o‘rnida) hisoblangan. Qo‘y narxi 1 rub 50 kopdan 20 rub kumush pulgacha baholangan.

1852 yil fevral-may oylarida Rostovlik savdogar S.Y.Klyucharev Toshkentda bo‘lib, o‘zi shohidi bo‘lgan voqealarni kundaligiga yozib borgan. V.V.Vel‘yaminov-Zernov kundalikdan foydalanib, uni izohlar va qo‘shimchalar bilan boyitib “Istoricheskiya izvestiya o Kokandskom xanstve, ot Muhammeda-Ali do Xudayar-Xana” asarini yozgan [2:363-b]. Kundalikda keltirilgan dalillar ko‘proq xonliklar o‘rtasidagi siyosiy aloqalar va savdo munosabatlarini yoritishga yordam beradi. Jumladan: 3 va 29 aprelda Buxorodan Toshkentga savdo karvonlari kelgan. 3 aprelda kelgan karvondagi tovarlarning aksariyati opium bo‘lgan. Kundalikda «savdogarlar, G‘ulja, Chuguchak, Koshg‘ar va Xitoyning barcha chegara shaharlarida bu tovardan foyda ko‘pligini bilganliklari uchun hamma opiumni o‘sha zahotiy oq naqd pulga sotib olishdi”, - deb yozilgan edi [2:364-b].

O‘sha kezlarda Toshkentda qo‘qonlik savdogarlar ham bo‘lishgan. Toshkentga qozoqlar cho‘ldan chorva mollari haydab kela boshlashgan va bir kunda 20.000 qo‘y sotilgan. 8 aprelda Toshkentdan Troitsk va G‘uljaga karvon jo‘nagan. G‘uljaga ketgan karvonda oltin (quyma va pul hoida) va opiumdan boshqa tovar bo‘lmagan ekan. 13

aprelda Toshkentdan Troitsk, Petropavlovsk, Buxoroga, 15 aprelda esa Petropavlovsk va Semipalatinskga karvon jo'nagan.

V.V.Vel'yaminov-Zernov asaridan shu narsa aniqlandiki, Toshkent O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi, qolaversa, Rossiya bilan Qo'qon o'rtasidagi, Qo'qon xonligining Xitoy bilan savdo aloqalaridagi markaziy vositachi shahar hisoblangan. Ammo Toshkentdagi notinchlik oqibatida Toshkentga kelayotgan karvonlar kam tovar keltirib, va aksincha ko'proq tovarlar olib ketishgan.

A.P.Teterevnikovning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning 60 yillarida savdogarlar Toshkentdagi umumiy savdo mablag'ini 10.000.000 rub bo'lishi mumkin deb taxmin qilganligini xabar bergan [11-56-b].

Qo'qon xonligining Qashg'ar bilan savdo munosabatlari xuddi Buxoro amirligi kabi bo'lib, Koshg'ardan Qo'qonga afyun, chinni idishlar, kumush, xitoy ipak matolari, tola va gilamlar olib kelingan. Qozoq juzlarining Rossiyaga tobe etilishi hukmdor tabaqalar o'rtasidagi o'zaro urushlarning to'xtashiga sabab bo'ldi va bu holat O'rta Osiyoning, jumladan, Qo'qon xonligining Sibir, Ural, Volga bo'yi bilan savdo aloqlariga keng yo'l ochdi.

Xonlik Hindiston bilan ham muntazam savdo aloqlarini olib borib. Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Hindistondan yiliga Qo'qon, Toshkent, Buxoro va Qashg'arga Kobul orqali 10.000 dan 15.000 tuyagacha mahsulot yuborilgan. Ular orasida ip gazlamalar, ipak, echki juni, otlar va boshqalar chiqarilgan. Otlar savdoning katta foyda keltiradigan manbalaridan biri bo'lgan. Hind savdogarlari xonlikdagi shaharlarda yashab tijorat va hatto, sudxo'rlik bilan shug'ullanganliklari haqida ham ma'lumotlar bor. Xonlikning savdogarlari Buxoro va amirlik chegaralaridagi shaharlar bilan muntazam savdo aloqalari olib borganlar. Har ikkala davlatning savdogarlari savdo ishlarida faol ishtirok etib, qo'qonlik savdogarlar Buxoro amirlikiga xo'jalik hayotda zarur bo'lgan rus temiri, po'lat va cho'yandan yasalgan buyumlar, tamaki, ro'mol, guruch va ba'zi xitoy yoki mahalliy ipak gazlamalari, choy, chinni idishlar olib borishgan bo'lsa, buxorolik savdogarlar esa Qo'qonga hind choyi, surp mato, harir, buyoq, afyun (taryok), zardo'zlik mahsulotlari, ip va gazlama olib kelishgan.

Rus chiti Buxoroning Qo'qon xonligi bilan savdosida alohida o'rin egallagan. Bu mato Orenburg yoki Petropavlovskdan Kazalinskka, undan Buxoro, Samarqand va Xo'jand orqali Qo'qonga olib kelingan. Shuningdek xonlikda Mashhaddan olib kelinadigan ingliz gazlamalari, oz miqdorda bo'lsa ham Kobulning to'n va sallalari, hind attorlik mollari ham keltirishgan.

Savdo aloqalarining doimiy, bir meyorda davom etishi va rivojlanishi transport va karvon yo'llarining ahvoriga bog'liq bo'lgan. Bu o'rinda Qo'qon bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aloqalari alohida mavqega ega bo'lgan. Ular o'rtasidagi karvon yo'li tekis bo'lib, tovarlarni tashishda aravalardan foydalanilgan. N.V.Xanikovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, ikkita asosiy Qo'qon karvonining birinchisi Buxoroga yozning boshida va ikkinchisi kuzning oxirida kelgan, kichik karvonlar esa yil davomida qatnab turgan. Qo'qonliklar Buxoroga mahalliy hunarmandchilik buyumlaridan tashqari, xitoy tovarlari - choy, kumush yombi, chinni buyumlar va marjon hamda boshka rus tovarlarini olib kelgan [14:175-b]. Qo'qondan Buxoroga eksport qilinadigan asosiy tovarlar ipak va ipak gazlamalar bo'lib, har yili 8 ming pudgacha keltirilgan. Eng sifatli ipak «chilla» deb atalib, u Qo'qonda ishlab chikarilgan.

Qo'qon bilan Buxoro o'rtasida yaxshi savdo aloqalari o'rnatilgan. Qo'qon tovarlari na faqat Buxoro bozorlarida, hattoki Buxorodan Kobulga olib borib sotilgan. Qo'qon ipagi sifati jihatidan Buxoro ipagidan ustun turgan. Shuning uchun uning narxi bir pudi 16 tillo, Xo'jand ipagi esa 15 tillo turgan [10;414-b].

Buxoro bozorlarida choy, chinni idishlar, qisman xitoy va qo'qon ipak gazlamalari va

ko‘plab rus temir, cho‘yan va po‘lat buyumlari sotilgan. Toshkentning Sibir chegaralariga yaqinligi, toshkentlik savdogarlarga qisqa muddatda tovarlarni Buxoro bozorlariga yetkazib berishga imkoniyat bergan. Bu temir, cho‘yan va po‘lat buyumlarning kattagina qismi Xisor, Badaxshon, Xulm, Maymand va boshqa joylarga toshkentlik va xivalik savdogarlar tomonidan olib borib sotilgan [14:175-b].

Qo‘qondan Hindistonga va Afg‘onistonga «chilla» deb ataluvchi ipak gazlamasi olib ketilgan. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, xuddi Buxoroda bo‘lganidek Qo‘qonda ham hindlar va afg‘onlar yashagan bo‘lib, ular Qo‘qon-Buxoro aloqalarida muhim rol o‘ynagan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, ular Buxoroda 70 ga yaqin bo‘lishgan.

Qo‘qon Buxoro orqali Hindiston bilan savdo qilgan. Jumladan, Peshavordan Buxoro orqali Qo‘qonga ingliz-hind tovarlari keltirilgan. Peshavordan Kobul, Qarshi, Samarqand va Qo‘qon yo‘li orqali O‘rta Osiyoga har yili 10-15 ming tuyada tovarlar keltirilgan. Keltirilgan tovarlar asosan oq mal-mal, gul tikilgan ko‘ylaklik matolar, shakar, indigo, qalin surp va chitlardan iborat edi. Peshavordan O‘rta Osiyoga keltirilgan 10-15 ming tuya tovarlardan 1000 tuyasi bombey choylari bo‘lgan.

Hindistonda Qo‘qon ipagiga talab katta bo‘lgan. Har yili Qo‘qondan, Buxoro va Hindistonga 1000 tuyada ipak jo‘natilgan.

XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklaridagi savdoni qo‘lga kiritish maqsadida inglizlar tovarlarini Buxoro va Qo‘qon xonliklariga tarqatish yo‘llaridan biri sifatida [11:53-b] Shimoliy Hindistondagi Peshavor yaqinida yashaydigin hindistonlik musulmonlar yordamidan foydalangan. Ular parachlar deb atalgan Ingliz savdogarlari o‘z tovarlarini uch yil muddat bilan parachlarga qarzga bergan, o‘z navbatida parachlar mollarini Buxoro va Qo‘qonda qarzga (nasiyaga) sotishgan. Parachlarning ba‘zilari Buxoro va Qo‘qonda joylashib olganlar va shu yo‘l bilan ingliz tovarlarini kengroq yoyishga harakat qilganlar. Ingliz tovarlari O‘rta Osiyoga ikki yo‘l, ya‘ni Kobul va Mashhad orqali kirib kelgan. Toshkentga esa u yer bilan doimiy muomalada bo‘lib turgan hindlar olib kelganlar. Hindlar ingliz tovarlari bilan birga mahalliy hind tovarlarini ham keltirishgan. Muallifning aytishicha, ularning asosiy ishi sudxo‘rlik bo‘lgan. A.N.Teterevnikov, keyingi vaqtda Toshkentga ingliz tovarlari kam keltirilayotganligi, ular faqat ilgari olib kelingan tovarlardan qolganlarinigina sotilayotganligini ko‘rganligini yozadi.

Demak, hindlar nafaqat Buxoro yoki Samarqandda, balki Toshkentda ham sudxo‘rlik bilan shug‘ullangan bo‘lishi mumkin. Muallif 1865 yili Toshkentning Rossiya tomonidan ishg‘ol qilinganidan so‘ng ingliz tovarlarini keltirilganligini ko‘rmagan bo‘lishi mumkin.

Teterevnikov Angliyadan ingliz tovarlarining keltirilish yo‘llari haqida ma‘lumot berib, bir tomondan, tovarlarning suv yo‘llari orqali juda qulay olib kelinishini ta‘kidlasa, va aksincha, Peshavordan Buxoro va Qo‘qonga juda qiyinchilik bilan kirib kelishini ma‘lum qiladi. Muallif mayda hokimlar tomonidan xududidan o‘tganligi uchun olinadigan soliqlar oqibatida savdogarlar ko‘p mablag‘larini yo‘qotishlarini haqli ravishda e‘tirof qilgan. Peshavordan Kobulgacha bitta tuya tovarni olib kelishi tillo (8r.20 k.) ga, Kobuldan Buxorogacha 16 tillo (60r.80 k.) ga tushgan[11:53-b]. A.Teterevnikov savdo karvonining yo‘nalishini quyidagicha belgilagan: Peshavor-Jalolobod-Kobul-Sarichashma-Xulm-Bamian-Balx-Kerki. Kerkida savdo karvonlari ikkiga bo‘linadi; ya‘ni Qo‘qon va Toshkentga boradigan karvonlar Samarqandga, qolganlari esa Buxoroga yo‘l oladi. Zakot ikki barobar oshirilgani uchun bu yo‘l noqulaylik tug‘diradi. Shu yo‘l bilan O‘rta Osiyoga har yili 10 - 15 ming tuyaga yaqin tovarlar olib kelinadi. Bu tovarlar ko‘proq: salla uchun ishlatiladigan oq doka, gulli ko‘ylaklik mato, shakar, indigo – nil bo‘yog‘i, kolenkor (oqartirilgan dag‘al surp) va chitlar bo‘lgan.

Teterevnikov savdogarlarning ma‘lumotiga tayanib, Peshavordan keltirilgan tovarlarning yarmi Xo‘jand orqali Qo‘qon xonligiga qarashli shaharlarga, 2000

tuyadan oshmagan tovarlar esa Toshkentga keltiriladi, deb yozadi. Demak, agar O'rta Osiyoga jo'natilgan 10-15 ming tuya molning yarmi 5-7 ming tuya bo'lsa, shundan 2 mingga Toshkentga jo'natilsa, u holda Qo'qon xonligi shaharlariga 3-5 ming tuya mol keltirilgan bo'ladi. Keltirilgan 10-15 ming tuya tovarning 1 mingga Bombay choylari hisoblangan. Bu choy Toshkentga ham keltirilgan bo'lib, aholi choyning tami haqida yaxshi baho berishmagan. Choy ko'rinishi jihatidan G'ulja va Chuguchak choylaridan farq qilmagan, lekin tami unga nisbatan pastroq, ya'ni bemaza bo'lgan. Shuning uchun uning narxi boshqa choylarga qaraganda uch barobar past yurgan. Teterevnikovning fikricha, O'rta Osiyoga keladigan ikki savdo yo'lidan faqat Kobul yo'li orqali tovarlar Qo'qonga keltirilgan bo'lsa, Mashhad yo'li orqali esa Buxoroga keltirilgan.

O'rta Osiyo va Buxorodan Hindistonga ipak, echki tiviti, nasha va tillo, hamda otlar haydab ketilgan. "Avvallari Qo'qon va Buxorodan Hindistonga 1000 tuyagacha ipak olib ketilgan, lekin endilikda deb yozadi Teterevnikov, - ipak narxi tushib ketganligi sababli umuman kam olib ketilmoqda»[11:55-b]. Muallif Toshkentdan jo'natilgan rus tovarlarining Kobulga yetib bormayotganligidan tashvishlanadi, chunki bu tovarlar ularning talabiga javob bermagan. Albatta Kobulda va boshqa joylarda juda tez sotilgan turonliklarning "latta" deb ataladigan ipak matolari va tillo parchasi bundan istisno. Rus misi Kobulda yaxshi xarid qilingan. Lekin Buxoro amiri afg'onlar bilan janjallashib qolgani sababli mis va otlarni afg'onlarga o'tkazmay qo'ygan. Ipakdan keyingi o'rinda Kobulga jo'natiladigan tovar afyun bo'lib, bir yilda O'rta Osiyodan 200 tuyagacha afyun ortilgan karvonlar jo'nagan. Afyun Hindistonga kontrabanda yo'li bilan keltirilgan va asosan nasha savdosi bilan Qo'qon xonligi shug'ullangan. O'z navbatida Qo'qon xonligi afyunni Koshg'ar va Yorkenddan olgan. Qo'qondan Hindistonga 100 tuyagacha echki tiviti jo'natilgan. Hindiston bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo balansi quyidagicha bo'lgan. Har yili Hindistonga 12 lak tillo (lak-100000 zolotix) jo'natilgan. Ipak og'irligi-400 chervon, echki tiviti - 25 chervon, bir pud nasha narxi - 50 r.gacha turgan[11:56-b].

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, A.Teterevnikov e'tiborini O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, Qo'qon xonligining ichki va tashqi aloqalarini yoritishga qaratgan. U ko'proq ingliz tovarlarining O'rta Osiyo bozorlariga turli yo'llar bilan kirib kelayotganligidan, va aksincha, rus tovarlarining Afg'onistonga etib bormayotganligidan tashvishlangan. Teterevnikov O'rta Osiyo bozorlaridagi ingliz va rus tovarlari o'rtasidagi raqobatni ruslar foydasiga hal qilish yo'llarini qidirgan.

Tadqiqotchi olim A.SH.Shomansurovaning yozishicha, har yili Buxoro, Qo'qon, Toshkentdan Kobul orqali 10-15 ming tuyada yuklar 160-200 ming pud turli xil tovarlarni ortib Hindistonga olib ketilgan. Bu savdoda asosan afg'onlarning loxaniy qabilasidan bo'lgan povinda muhim rol o'ynagan. Povinda bu savdodan katta foyda ko'rgan[16:12-b]

Qo'qon savdogarlari savdo karvonlari bilan Turkiya va arab mamlakatlariga ham yetib borgan. A.Vamberi ziyoratga borgan ziyoratchilar o'zlari bilan «40 dyujina (12 dona) ipak, buxoro ro'mollari, 2000 atrofida pichoq, 30 bo'lak namangan ipak matosi, ko'plab Qo'qon do'ppilari"ni olib borganligini ko'rganligini yozadi [1:374-b].

Qo'qonlikning tashqi aloqalarida Qo'qon-Rossiya savdo munosabatlari ham alohida o'rin tutgan. Manbalarga ko'ra, 1861 yildan keyin rus sanoatining jadal rivojlana boshlaganligi xom ashyo bazasi va tashqi bozorga bo'lgan ehtiyojning yanada kuchayganligi Rossiyaning Qo'qon bozorini faol egallab, undan cheksiz foydalanishning asosiy sabablaridan biri bo'lgan. Rossiyadan Qo'qonga temir, mis, po'lat, cho'yan va temir buyumlar, chit va sifatsiz gazlamalar, oz miqdorda baxmal, shakar, oynalar, charm, Rossiyaga tobe bo'lgan qozoq cho'llaridan qo'ylar va uning terisi, charm va charm mahsulotlari, kigiz olib kelingan. Xonlikdan esa Rossiyaga asosan paxta olib chiqilgan.

## Xulosa

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlamoq lozimki, Qoʻqon xonligi Oʻrta Osiyo xonliklari, Xitoy, jumladan Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eron, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari oʻrnatgan. Qoʻqon xonligi ayniqsa, Xitoy, jumladan, Koshgʻar bilan yaqin savdo munosabatlariga kirishgan. Qoʻqon Koshgʻar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri savdo qilishdan tashqari Xitoyning Oʻrta Osiyo xonliklari, Hindiston, Eron va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachi rolini ham bajargan. Qoʻqon karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Koshgʻar, Buxoro amirligi, Afgʻoniston, Rossiyadan olib kelingan mollar toʻplangan. Mazkur savdo aloqalarida Toshkent alohida mavqega ega boʻlganligi ham alohida taʼkidlanishi lozim.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. М., 1974. с.372.
2. Вельяминов-Зернов В.В. Исторические известия о Кокандском ханстве, от Мухаммеда-Али до Худаяр-Хана". СПб., 1856. 364
3. История Узбекистана в источниках. Т.1988. с.96-97.
4. Колмогоров Г.О. О промышленности и торговле в Киргизских степях Сибирского ведомства // Вестник ИРГО. Т. XIII. 1855. с. 159.
5. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. Т., 1977. С. 57.
6. О нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии // Азиатский Вестник. Т. 1. СПб., 1826. с. 229-230.
7. Обзорение Кокандского ханства // ЗИРГО, Кн 3. СПб., 1849. с. 186.
8. Потанин В. Показание сибирского казака Максимова о Кокандском владении. // ИРГО. 1860. С.28.
9. Разводовский В.К. Кустарное производство бумаги в Узбекистане / / Советская этнография. Т.3. М-Л. 1940. с.147
10. Сведения о произведениях и торговле Бухарии. Выр. из журнала «Мануфактура и торговли». 1840. Хмыр. Кол. Средняя Азия. Т. 1. с. 414.
11. Тетеревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. СПб., 1867. с.56.
12. Туркестанский сборник. Т.5. с 307.
13. Филипп Назаров. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. М.: Наука. 1968.
14. Ханьков Н. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. с. 175.
15. Хорошхин А.П. Очерки Ташкента. В кн.: Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876., С.77-142.С.29.
16. Шамансурова А.Ш. К вопросу о среднеазиатско-афганских отношений в первой половине XIX в. // Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран Востока в XVIII-начале XX в. Т. 1963. с. 12.
17. Юнусходжаева М.Ю. Роль Ташкента в торговле России и Восточного Туркестана во второй половине XVIII в. // Позднефеодальный город Средней Азии. Т. "Фан".1990. с.140.



## SOVET DAVRIDA O'ZBEK KINO SAN'ATINING XALQARO MADANIY ALOQALARDA TUTGAN O'RNI

*Ernazarov Fayzullo Narzullaevich,  
tarix fanlari doktori (DSc), Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Jahon tarixi" kafedrasida professori*

*Annotatsiya: Madaniyat tushunchasida kino san'ati adabiyot, teatr, tasviriy san'at va musiqa bilan bevosita bog'liq holda uyg'unlashib ketadi. Asl qiymatga ega bo'lgan kino asari o'z tarkibida ma'lum bir madaniyat ma'lumotlarini birlashtirib, boshqa san'at turlariga qaraganda tomoshabinlarga qisqa muddatda keng miqyosda ta'sir qila oladi. Sovet davri o'zbek kinosida ham ana shunday ijobiy xususiyatlarni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Sovet davrida o'zbek kino san'atining xalqaro madaniy aloqalar rivojidadagi o'rni yuqori darajada bo'lishiga ushbu sohaning iste'dodli va jonkuyar ijodkorlarining zaxmatli mehnati yotadi. Mazkur maqolada bu to'g'risida batafsil tahliliy axborotlar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: kino, kino san'ati, madaniy aloqalar, Kinematografiya Davlat qo'mitasi, Xalqaro kinofestivallar, "O'zbekfilm".*

## РОЛЬ УЗБЕКСКОГО КИНОИСКУСТВА В МЕЖДУНАРОДНЫХ КУЛЬТУРНЫХ СВЯЗЯХ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

*Ernazarov Fayzullo Narzullaevich,  
Доктор исторических наук, профессор кафедры «Всемирной истории»  
Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами*

*Аннотация: В понятии культуры киноискусство напрямую связано с литературой, театром, изобразительным искусством и музыкой. Фильм, обладающий оригинальной ценностью, способен объединить в своей структуре информацию определенной культуры и воздействовать на зрителя в большем масштабе за короткий период времени, чем другие виды искусства. Подобные положительные черты мы отчетливо видим в узбекском кино советской эпохи. В советское время место узбекского киноискусства в развитии международных культурных связей находилось на высоком уровне благодаря упорному труду талантливых и увлеченных творцов этой области. В данной статье представлена подробная аналитическая информация по этому поводу.*

*Ключевые слова: кино, киноискусство, культурные связи, Государственный комитет кинематографии, Международные кинофестивали, «Узбекфильм».*

## THE ROLE OF UZBEKISTAN CINEMA IN INTERNATIONAL CULTURAL RELATIONS IN THE SOVIET PERIOD

*Ernazarov Fayzullo Narzullaevich,  
Doctor of Historical Sciences (DSc), Professor of the Department of "World History" of the Nizami Tashkent State Pedagogical University*

*Annotation: In the concept of culture, cinema is directly related to literature, theater, fine arts and music. A film work of original value, combining in its composition the information of a certain culture, can have a wider impact on the audience in a short time than other types of art. We can clearly see such positive features in the Uzbek cinema of the Soviet period. The high level of the role of Uzbek cinema in the development of international cultural relations in the Soviet period is due to the hard work of talented and enthusiastic creators of this field. This article provides detailed analytical information*

on this.

*Keywords: cinema, cinematography, cultural relations, State Committee of Cinematography, International film festivals, «Uzbekfilm».*

Ma'lumki, o'zbek kino san'ati XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan. Dastlabki kinofilmlar 1908 yildan Toshkent, Samarqand, Qo'qon va boshqa shaharlarda namoyish etilgan. Kinooperator X.Devonov tomonidan suratga olingan hujjatli film bilan boshlangan ushbu san'at turi 1931 yilda N.G'anievning "Qasam" badiiy ovozi filmi orqali o'zbek milliy kino san'atiga asos soldi. 30-yillarning boshida Respublikada badiiy filmlarni ishlab chiqarish bosqichi boshlanib, 1932 yilda Toshkent kinostudiyasida kinoxronika sektori tashkil etildi. 1938 yilda M.Qayumov tashabbusi bilan "Toshkent to'qimachilik kombinati" nomli hujjatli film yaratildi. Ikkinchi jahon urushi davrida yuzaga kelgan siyosiy vaziyat Sovet Ittifoqi hududidan kinostudiyalar O'zbekistonga ko'chirilishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida Toshkent kinostudiyasida "Aleksandr Parxomenka" (1942), "Ikki jangchi" (1943), K.Yormatov tomonidan "Biz g'alaba qilamiz" (1941), "Frontdagi do'stlarga" (1942), "Vatan savdosi" (1943) kabi kinofilmlar yaratildi.

Madaniy aloqalar davlat strategiyasining bir qismini tashkil etadi. Aytish mumkinki, kino san'ati "sovuq urush" yillaridagi madaniy aloqalarda siyosatga ta'sir qiluvchi kuchli vosita vazifasini bajardi. Tarixchilar tomonidan sovet davlati tomonidan kinofilmlar eksport qilingani va ular dunyoda targ'ibot vositasini bajargani keltiriladi. Sovet hokimiyati yillarida kino sohasida madaniy aloqalarni targ'ib etish vazifasini soveteksportfilm, sovet elchixonasi va boshqa tashkilotlar bajargan.

O'zbekistonda kino san'ati sohasidagi madaniy aloqalar xalqaro kinofestivallar, kinoasarlal almashinuvi va kinoaktyorlar hamkorligi kabi yo'nalishlarida olib borildi.

O'zbekiston SSRda 1950 yilda birinchi marotaba "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining 25 yilligiga bag'ishlangan" yubiley festivali tashkil etilib, unda 12 ta sovet filmi hamda Toshkent badiiy filmlar studiyasining "Alisher Navoiy", "Tohir va Zuhra", "Farg'ona qizi", "Azamat", "Farhod chiroqlari", "To'rt darvozali shahar" kabi badiiy va hujjatli filmlari namoyish qilindi.

Aynan XX asrning 50-yillari nafaqat siyosatda o'zgarishlar, balki kinematografiyada ham ahamiyatli natijalarni vujudga keltirdi. Kommunistik mafkuraviy yo'nalishdagi o'zgarishlar natijasida Sovet filmlari orqali Sovet davlati xorijda boy madaniyatga ega bo'lgan mamlakat sifatida xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'ldi. Jumladan, 1960 yil yanvarida "Soveteksportfilm" Dehli shahrida birinchi sovet filmlari festivalini o'tkazdi. Unda "Insonning taqdiri", "Nepallik bola", "Nyu Yorkdagi sovet ko'rgazmasi" kabi filmlar namoyish etildi. 1961 yilda mazkur tashkilot 16-20 oktyabrda Haydarobod, 3-9 noyabrda Vizagapatam, 10-16 noyabrda Gantur, 17-23 noyabrda Nilor, Kalkutta, Bombay shaharlarida kinofestivallar tashkil etdi. Mazkur festivallarda "Layli va Majnun", "Mamlyuk", "Jo'natilmagan xat", "Yulduzlarga birinchi qadam", "Turnalar uchmoqda", "Mamlakatda 1 may marshlari", "Ali bobo va qirq qaroqchi", "Qadimiy ramzlar" va "Qizlar bahori" filmlari namoyish etildi. 1956-1959 yillarda Soveteksportfilm tomonidan 10 ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan, 20-25 ta qisqa metrajli filmlarni yil davomida sotishga muvaffaq bo'lindi.

Mazkur jaryonda O'zbekiston kino san'ati ham faol ishtirok etib, 1961 yilda Moskvada o'tkazilgan II xalqaro kinofestivalda O'zbekiston va Vetnam kinoijodkorlari tomonidan yaratilgan "Vetnam-mening vatanim" filmi tomoshabinlar hukmiga havola etildi. Shuningdek, Vetnamda o'zbek kinematograflarining "Qirq yil va bir kun", "Lyuba, Roza, Abdulla", "Mening dugonalarim" kabi hujjatli filmlar ham namoyish qilindi.

Sovet hokimiyati yillarida kino san'ati xalqni, o'sib kelayotgan yosh avlodni

kommunistik ruhda tarbiyalashda partiyaning jangovar, ta'sirchan ommaviy mafkuraviy ta'sir quroli bo'lgan. Shu sababli 60-yillarda o'zbek kinoustalarining Osiyo mamlakatlari kinoijodkorlari bilan hamkorlikda suratga olingan filmlarida ham ana shu ruh ustuvor bo'lgan. Ammo shunday filmlar ham borki, ularda umuminsoniy g'oyalar, xalqning ma'naviy ildizlariga murojaat ko'zga tashlanadi. Jumladan, Sh.Rashidov va V.Vitkovich ssenariysiga asosan (Mirzo Bedilning "Komde va Mudan" poemasi asosida) 1961 yilda yaratilgan "Ikki dil dostoni" filmi Hindiston va O'zbekistonda suratga olindi. Film rejissyori K.Yormatov bu asarni "Hindiston bilan mushtarak taqdirimiz haqidagi asar", – deya e'tirof etgan edi. Shuningdek, o'zbek kinoustalari tomonidan yaratilgan "Inson taqdiri", "Tiriklar va o'liklar", "Gamlet", "Pomir bolalari", "Zumrad" kabi filmlar chet ellik muxlislarning e'tiborini qozongan. Xalqaro kino bozorlari va jamoatchilik ko'riklarida o'zbek kinoijodkorlari yaratgan eng yaxshi filmlar ham muvaffaqiyat qozongan. Sh.Abbosovning "Sen yetim emassan", K.Yormatovning "Osiyo ustida bo'ron", L.Fayzievning "Ulug'bek yulduzi", Y.A'zamovning "Oydin sahifa" va "Farg'onalik besh og'ayni", R.Botirovning "Dorbozlar", A.Hamroevning "Yor-yor", Z.Sobitovning "Fidoi", E.Eshmuhamedovning "Nafosat" badiiy filmlari Osiyo kinoekranlarida namoyish etildi.

SSSRda madaniyat masalalarini o'rganuvchi aksariyat tadqiqotchilar madaniyat sohasi alohida emas, balki KPSS faoliyatining g'oyaviy-tarkibiy qismi bo'lganligini qayd etishadi. Mazkur sohada davlat va partiyaning yagona siyosati mavjud edi. Bu jarayonda ularni ajratib ko'rsatishgina emas, balki Kompartiya Markaziy qo'mitasi tomonidan qabul qilingan s'ezd qarorlarida aynan madaniyat tilga olinmasa-da xorijiy aloqalar va g'oyaviy kurashda qabul qilingan qarorlar madaniy jarayonlarni boshqarishga o'z ta'sirini ko'rsatar edi.

Shu ma'noda, 60-yillarning oxiri – 80-yillarning boshida SSSR Ministrlar soveti va partiya Markaziy qo'mitasi tomonidan targ'ibot yo'nalishida ma'lum bir sana va yubileylarga bag'ishlangan tadbirlar yuzasidan bir qator qarorlar qabul qilingan. Bu sohada olib borilgan tadbirlar natijasi sifatida 1963 yili Osiyodagi 6 ta mamlakat 35 sovet filmini sotib olgan bo'lsa, 1965 yilda 9 mamlakat 73 ta sovet filmini o'z ekranlarida namoyish qilgan. 1965-1968 yillar davomida Osiyo mamlakatlari teleekranlarida namoyish qilingan sovet filmlarining soni 200 dan ko'proqni tashkil etgan. Shu davrda, ayniqsa, televideniya orqali sovet filmlarini namoyish etish muhim ahamiyat kasb etgan edi. Yaponiya, Livan, Suriya, Eron, Iroq, Iordaniya, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Gonkong, Filippin, Singapur, Tailand, Kambodja, Hindiston, Pokiston, Malayziya, Turkiya kabi mamlakatlar xalqlari teleekranlarida sovet filmlarini tez-tez ko'rish mumkin edi.

Shuningdek, mamlakat ichida madaniyat sohasi vakillari tomonidan kino san'ati yo'nalishida aniq ishlab chiqilgan tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, 1966 yilda SSSR kinematografiya qo'mitasi tomonidan kinoijara yo'nalishida kamchiliklar qayd etilib, Moskvada Amerikada suratga olingan "Ba'zilar sur'atni afzal ko'rishadi" (Некоторые предпочитают в темпе) komediyasi bilan birga "Lenin Polshada" sovet tarixiy filmi ko'rsatilgani tanqid etildi. KPSS markaziy qo'mitasi raisi A.Romanovning qayd etishicha, mazkur filmlarning bir vaqtdagi namoyishi tomoshabinlarning sovet filmlariga bo'lgan qiziqishini so'ndirdi. Bu bilan ular mafkuraviy yo'nalishda olib borilayotgan tadbirlarimizga katta zarar keltirishdi".

XX asrning 60-70 yillarida sovuq urush sharoitida dunyo xalqlarining birdamligi va tinchligini ta'minlashda xalqaro kinofestivallarning roli tobora oshib bordi. Kino san'atining jahon xalqlari hayotida tutgan o'rnini hisobga olib, Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlarning xalqaro kinofestivalini tashkil etishga qaror qilindi. Boshqa tomondan, bunday ko'rinishdagi tadbirlardan "sovet madaniyati"ni targ'ib etish,

kinobozori uchun o‘z o‘rniga ega bo‘lish maqsadlari ham nazarda tutilgan edi.

Davomli tashkil etilgan kinofestivallarining tashkilotchisi sifatida O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti Kinematografiya Davlat qo‘mitasi, SSSR va O‘zbekiston Kinematografchilar soyuzi tashabbus ko‘rsatdi. 1968 yildan boshlab 1988 yilgacha jami 10 marta Toshkent shahrida uch qit’a – Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining xalqaro kinofestivali o‘tkazildi. Kino san’ati sohasidagi bunday aloqalar madaniy jarayonda o‘ziga xos katta burilish bo‘ldi. Bu festival Osiyo va Afrika mamlakatlari kino san’atining eng yaxshi asarlarini namoyish qilish va rag‘batlantirish, turli mamlakatlar kino ijodkorlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish hamda xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qilish vazifasini bajara oldi.

Mazkur kino anjuman 1-marta 1968 yil 21-31 oktyabr kunlari Toshkentda “Tinchlik, ijtimoiy ravnaq, xalqlar ozodligi va mustaqilligi uchun” shiori ostida bo‘lib o‘tgan. Ushbu kinoanjumanning bosh mavzusi Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan kurashini tasvirlovchi filmlarni namoyish qilishdan iborat bo‘lgan.

Birinchi xalqaro kinofestivalda Afrika qit’asidan 26 nafar, Lotin Amerikasi mamlakatlaridan jami 113 nafar, Osiyo mintaqasiga kiruvchi 21 ta davlatdan 87 nafar kinoijodkorlar qatnashgan. Ishtirokchilarning aksariyatini yapon kinoustalari (33 nafar) tashkil etib, shuningdek, hindistonliklar (16 nafar), Shri Lankalik (6 nafar), Iroqlik (6 nafar), mug‘ulistonlik (4 nafar), Indoneziya, Kambodja va Malayziyadan (3 nafar), Vetnamdan (2 nafar), Iordaniya, Eron, Yaman Arab Respublikasi, KXDR, Quvayt, Pokiston, Suriya, Turkiya, Filippin yarim orolidan (3 nafar) san’atkorlar ishtirok etishgan. 1968 yil bo‘yicha mavjud ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, kino san’ati sohasidagi madaniy aloqalar tizimida Yaponiya va Hindiston kinoijodkorlari bilan hamkorlik jadal sur’atlar bilan amalga oshirilgan.

Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan o‘tkazilgan kinofestivalda O‘zbekiston va boshqa ittifoqdosh respublikalar kinosiga “sovet kinosi” deb nisbat berilishiga qaramay, o‘zbek filmlarining jahon miqyosida taqdim etilgani tarixiy ahamiyatli hodisadir. Xalqaro kinofestivallarda namoyish etilgan o‘zbek kinoijodkorlarining hujjatli kino asarlari xorijiy mamlakatlar va O‘zbekiston xalqini yaqinlashtirishda oltin ko‘prik vazifasini o‘tadi.

Bu jarayonda “Do‘stlik va madaniy aloqalar O‘zbekiston jamiyati” faol ishtirok etib, uning butun faoliyati “O‘zbekistonda sodir bo‘lgan buyuk ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar”ni, “lenincha tashqi siyosatning muvaffa-qiyatlarini targ‘ib qilish”ga qaratilgan edi. Respublika Do‘stlik jamiyatining Osiyo mamlakatlari bilan olib borilgan targ‘ibot-tashviqot ishi “boshqa sotsialistik mamlakatlar bilan birgalikda sotsializm va kommunizm qurish uchun qulay xalqaro vaziyatni ta’minlashdan iborat bo‘lib, sovet davlatining maqsadlariga erishishiga ko‘maklashgan”. Kommunistik partiyaning madaniy aloqalardan ko‘zlangan ana shu siyosiy maqsadi kino san’ati vositasida ustalik bilan amalga oshirildi.

1972 yilda Toshkent shahrida Osiyo va Afrika mamlakatlari kinematograflarining II Xalqaro kinofestivali tashkil etildi. Unda 60 dan ortiq mamlakat (307 nafar ishtirokchi) ishtirok etib, ulardan 24 ta Osiyo mamlakatlari delegatsiyasi (117 nafar ishtirokchi) tashkil etgan. Osiyo va Afrikadagi mamlakatlar xalqaro II Toshkent kinofestivali faqat milliy madaniyatlarini yaqinlashuvi va boyib borishiga, Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni rivoj topishigagina emas, balki barcha kino san’ati arboblari dunyoda tinchlik va taraqqiyot uchun birgalikda olib borayotgan kurashlariga katta hissa bo‘lib qo‘shilganligi matbuotda yoritib borilgan.

O‘zbek kinematograflari xorijda tashkil etilgan kinofestivallarda ham faol ishtirok

etishgan. Jumladan, 1973 yilning noyabr oyida KXDRda sovet kinofilmlari festivali bo'lib o'tdi. Kinematografiyada kinoijodkorlar hamkorligi bu yillarda o'zining samarasini bera boshladi. Masalan, o'zbek kinorejissyorlari N.G'aniev, K.Yormatov, L.Fayziev, Z.Sobitov Hindiston kino arboblari orasida mashhur bo'lib, Robindranad Tagorning "Emirilish" asari asosida "Gang qizi" deb atalgan film o'zbek rejissyori Hoji Ahmar tomonidan suratga olindi. Rejissyor M.Og'amirzaev va E.Karimov tomonidan R.Tagorning "Yorug'lik va zulmat" asari asosida ikkinchi film ishlandi.

70-yillarda O'zbekiston madaniy aloqalaridagi rivojlanish "O'zbekfilm" kinostudiyasi ishlab chiqargan bir nechta kinofilmlarning Lotin Amerikasi, Arab Sharqi, Birma, Indoneziya, Hindiston, Yaponiya, Iroq, Eron kabi jahonning 40 dan ortiq mamlakatlarida namoyish qilinishiga sabab bo'ldi.

1976 yilda O'zbekiston kinematograflari Toshkent IV xalqaro kinofestivalida "Olovli sohil" badiiy filmi va "O'zbekiston-75", "Go'ri Amir", "Osmonni kaftingda tut", "Toshkent jasorati", "Insonlarga quvonch bag'ishla" hujjatli filmlarini taqdim etishgan. Ushbu festivalda o'zining reallik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi Yaponiya kinosi alohida e'tibor qozondi. Arxiv materiallaridan ma'lum bo'ldiki, festivalning mazmuniy mundariyasi insonparvarlik g'oyalarini amalga oshirishda, tinchlik va ozodlik, sotsial taraqqiyot kuchlarining reaksiya g'oyalar va kuchlar ustidan uzil-kesil g'alabasida kinoning ustuvor rolini ko'rsatib berishdan iborat bo'lgan.

1978 yilning 23 may – 1 iyun kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan navbatdagi V xalqaro kinofestivalda 64 ta davlatdan 400 nafardan ortiq kinomatograflar ishtirok etdi. Bu kinofestival ham uch qit'a kino san'ati namoyandalarining do'stligi va birodarligi tobora mustahkamlab, ijodiy hamkorligi va hamjihatligi yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi kino san'atining ulkan, sermazmun bayramiga aylangan.

1980 yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan VI xalqaro kinofestivalda O'zbekistonning Turkiya kinosan'ati bilan madaniy aloqalari sezilarli ravishda o'sdi. Bunda xalqaro kino bozorida 71 ta kinoijara firmalaridan 5 tasi Turkiya hissasiga to'g'ri keldi. Festival davomida xorijiy davlatlar bilan 40 dan ortiq shartnoma tuzildi va 100 ga yaqin Sovet filmlari sotildi. Bular orasida "O'zbekfilm" kinostudiyasining "Muhabbat va nafrat" filmi ham bor edi.

Toshkentda 1982 yil 24 may – 3 iyun kunlari o'tkazilgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining VII xalqaro kinofestivali unda qatnashgan mamlakatlar kino san'ati tarixida katta voqea bo'ldi. Bu an'anaviy festivalda ishtirok etayotgan mamlakatlar soni yildan-yilga ortib borgan. "Tinchlik, sotsial taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun!" degan g'oya ostida o'tkazilgani bu festivalning obro'-e'tibori, nufuzi va ahamiyati va mohiyatini ko'rsatuvchi aniq faktidir. Ezgulik yo'lida xizmat qilayotgan, uning tantanalari uchun kurashayotgan ilg'or fikrli kishilarning, xususan, kinematograflarning eng dolzarb, original, kelgusida o'zining betakror samaralarini beradigan izlanishlari to'g'risidagi fikr-mulohazalar Toshkentda muhokama qilindi. Jahonning turli burchaklaridan Toshkentga kelayotgan san'atkorlarning maqsadi kino san'atini tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun kurash ishiga yanada faolroq jalb qilishdan iborat bo'lgan.

Ta'kidlash lozimki, har bir xalqaro kinofestival mohiyatan sovet hukumati talablaridan chetga chiqmagan holda o'tkazilgan. Xorijiy mamlakatlar kinematograflari ayni vaqtda tinchlikka tahdid solayotgan, ijtimoiy taraqqiyotga g'ov bo'layotgan, xalqlar qaramligini fosh qilishga ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatdi.

Toshkentda o'tkazilgan Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqaro kinofestivalida taniqli kinorejissyor K.Yormatov aytganidek, mazkur festival ijodiy aloqalarni yanada mustahkamlash, turli mamlakatlar kinematograflari o'rtasida professional tajriba almashish, ular o'rtasidagi hamkorlikni ravnaq toptirish, gumanizm g'oyalarini barqaror

etishga ko‘maklashdi.

Umuman, Toshkent kinofestivali turli xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirishda, tinchlik va ozodlik uchun kurash g‘oyasini tarannum etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Hindistonlik kinorejissyor Mrinal SEN ta’kidlaganidek: “Biz O‘zbekistonda o‘zimizni xuddi o‘z uyimizdagidek his etamiz. Bu yerda hamma teng, hammaga bab-baravar imtiyozlar beriladi, muloqat va aloqalar yengil va oson yo‘lga qo‘yiladi”.

O‘zbek kinofilmlari “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” g‘oyalarga bo‘ysundirilganiga qaramay, bu davrda kino san’atining eng noyob iqtidorlari kashf etildi; siyosiy va mafkuraviy cheklovlarga qaramay, Osiyo mintaqasi xalqlariga o‘zbek kinematografiyasining o‘ziga xos xususiyatlari namoyish etildi. Mazkur davr ziddiyatli, chigal va muammoli bo‘lishiga qaramay O‘zbekiston kinematografiyasi sinovli davrni bosib o‘tdi va nisbatan tajribaga ham ega bo‘ldi. O‘zbek san’atkorlarining fidoiyligi tufayli hind, vietnam, shri-lanka, birmalik kinoijodkorlar bilan hamkorlikda san’at namunalari yaratildi. Bunday aloqalar millatlararo do‘stlik, qardoshlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashda muhim rol uynaganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dyakonov S. Soviet cultural diplomacy in India, 1955-1963. Unpublished Master of Arts (History) thesis at Concordia University Montreal, Quebec, Canada. April 2015.
2. Тинчлик ва дўстлик фестивали // Ўзбекистон маданияти. 1961, 29 август.
3. Комил Ёрматов в кино // Комсомольская правда. 1961, 25 декабря.
4. Исломов Н. Совет фильмлари Осиё экранларида // Ўзбекистон маданияти. 1968, 23 август.
5. Ражабов Қ., Қандов Б. Жаҳон тарихидаги сулола ва давлатлар. 30. 3-китоб.
6. Қаюмов А.П. Тошкент халқаро анжумани // Ўзбекистон маданияти. 1968, 14 ноябрь.
7. ЎЗМДА Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 826-йиғмажилд, 16-варақ.
8. ХКФ котибияти маълумотномаси. 1968 йил 10 июль // ЎЗМДА Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 822-йиғмажилд, 7-варақ.
9. Шукурова Х. Порлоқ саҳифалар // Ўзбекистон маданияти. 1973, 31 август.
10. ЎЗМДА, Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 1687-йиғмажилд, 1-варақ.
11. Никитина А. Киноходимлар ҳамкорлиги // Ўзбекистон маданияти. 1973, 12 ноябрь.
13. Хўжаев С. Давр талаби // Тошкент ҳақиқати. 1976, 28 май.
14. Факт ва рақамлар // Ўзбекистон маданияти. 1980, 20 май.
15. Тошкент ҳақиқати. 1984 йил 23 май.

## “TUHFAT AL-XONIY” MANG‘ITLAR DAVRI IJTIMOY HAYOTIGA OID MUHIM MANBA

Mamadjanov A'zamjon Akmaljon o'g'li  
Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti  
UO'K: 398(09):902.5(584.4). ORCID ID 0009-0007-5257-0733

*Annotasiya: Mazkur maqola Muhammad Vafo Karminagiyning “Tuhfat al-xoniy” asarida kelgan ijtimoiy hayotiga oid ma'lumotlar tahlilidan iborat bo'lib, unda 18-yuzyillik Buxoro xonligida kechgan ijtimoiy munosabatlar, kundalik hayot, aholi tarkibi va qatlami, ijtimoiy himoya masalalari tadqiqotga tortilgan.*

*Kalit so'zlar: Tuhfat al-xoniy, Muhammad Rahimxon, Turkiston, Buxoro, mang'itlar, aholi.*

## «ТУХФАТ АЛ-ХАНИ» ЯВЛЯЕТСЯ ВАЖНЫМ ИСТОЧНИКОМ ПО ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ ПЕРИОДА МАНГИТ

*Аннотация: Данная статья представляет собой анализ сведений о общественной жизни Мухаммада Вафы Карминаги в «Тухфат ал-Хани», в котором изучаются общественные отношения, повседневная жизнь, структура и слои населения, вопросы социальной защиты в Бухарском ханстве XVIII века.*

*Ключевые слова: Тухфат аль-Хани, Мухаммад Рахимхан, Туркестан, Бухара, мангиты, население.*

## “TUHFAT AL-KHANI” IS AN IMPORTANT SOURCE ABOUT THE SOCIAL LIFE OF THE MANGIT PERIOD

*Abstract: In this article, the information on social life in the work «Tuhfat al-khani» by Muhammad Vafa Karminagi is analyzed, in which the social relations, daily life, population structure and stratum, social protection issues in the Bukhara Khanate in the 18th century were studied.*

*Key words: Tuhfat al-Khani, Muhammad Rahim, Turkistan, Bukhara, mangits, population.*

Kirish. “Tuhfat al-xoniy” asari muallifi bo'lmish Muhammad Vafo Karminagi Buxoro xonligida hokimiyatni ashtarxoniylerden mang'itlarga o'tishi bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tub sifat o'zgarish davrida yashagan ilk tarixchilardan hisoblanadi. Shu boisdan Muhammad Vafo Karminagi qalamiga mansub “Tuhfat al-xoniy” 18-yuzyillik Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'zida aks ettirgan qimmatli manbalar orasida muhim o'rin tutadi. Buni asarda kelgan quyidagi ma'lumotlar bilan ham izohlash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil hamda tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: “Tuhfat al-xoniy” gako'ra 18-yuzyillik birinchi yarmida Turkistonda kechgan ijtimoiy munosabatlarning eng harakterli xususiyati – bu chingiziyelarga moyil dunyoqarash, vorislik tamoyilining yemirilishi bo'lgan. Xususan, bu jarayon 18-yuzyillik boshlarida Qo'qon xonligini tashkil topishi bilan bog'liq vaziyatda boshlangan bo'lsa, yuzyillikning o'rtalariga kelib mang'itlar amiri Muhammad Rahimxon boshchiligida amalga oshirilgan ishlar ushbu jarayonni tugatdi deyish mumkin.

Yuqorida keltirilgan jumlada o'sha davrning elita qatlami va oddiy aholi ijtimoiy ongidagi kuzatilgan eng katta o'zgarish haqida gap ketsa, boshqa ijtimoiy munosabatlar,

xususan o'troq va ko'chmanchilik sharoitida yashab kelayotgan jamoalarning ijtimoiy muhitida ham muhim o'zgarishlar bo'layotgan edi. Bu o'zgarishlar 16-yuzyillikdan boshlab hududga ko'chib kelgan va muqim bir joyda yashab kelmagan urug'larning o'troqlashishga o'tish davrining boshlanayotganligida edi[14:406]. Xususan, P.Ravshanov xonlik aholisining o'troqlikka ko'chish jarayoni 17-yuzyillikning oxiri 18-yuzyillikda ommaviy tus olganini ta'kidlab, buni xonlik yerlarining katta qismi hali na dehqonchilik, na shahar hayoti bilan tanish bo'lgan ko'chmanchi o'zbek urug'lari – chorvadorlarga yurt qilib berilganligi bilan izohlaydi[8:753].

Tarixiy adabiyotlardan ma'lumki Buxoro xonligida uch turkum aholi yashagan. Bular – muqim yashab dehqonchilik bilan shug'ullanuvchilar – “dehnishin”, yarim o'troqlikda hayot kechiruvchilar “qishloqnishin” va ko'chmanchilar “sahronishin” deb nomlanganlar[14:412]. “Tuhfat al-xoniy”da Muhammad Vafo Karminagiy ham xonlik aholisini tilga olar ekan, o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan toifani yuqoridagidek “dehnishin” va “sahronishin” nomi bilan qayd etadi[6:295]. Bundan ko'rinadi 16-yuzyillikdan boshlab Turkiston hududiga kirib kelgan aholi o'troqlashish jarayonini boshdan kechirayotgan bo'lsa-da, asarda kelgan “sahronishin” jumlasiga ko'ra keyingi davrlar, xususan, mang'itlar davrida ham ko'chmanchilik an'analari yaxshi davom etgan. Shu boisdan ham Andreas Vilda ushbu urug'larning o'troqlashish jarayoni 19-yuzyillikning birinchi yarmida ham amalda bo'lganini qayd etib o'tadi[2:88-94].

Ushbu urug'lar o'troqlashish jarayonining o'zoq muddat davom etganini “Tuhfat al-xoniy”ga ko'ra ham bir necha sabablar bilan izohlash mumkin. Avvalo ashtarxoniyalar davrida aholi migratsiyasiga sabab bo'lgan Dashti Qipchoq va Eron bosqinlari xonlik aholisining yashab turgan joylarini o'zgartirishlariga sabab bo'lgan edi[6:33-127]. Bundan tashqari Muhammad Rahimxonning 1747 – 1758 yillarda hokimiyatni markazlashtirish uchun olib borgan harbiy yurishlarida bo'ysunmas, isyonchi urug'larga nisbatan ko'chirish siyosatini amalga oshirishi ham o'z navbatida ushbu jarayonga o'z ta'sirini o'tkazgan. Misol uchun Muhammad Rahimxon 1748 yil hokimiyatga kelgan ilk davrlardayoq Xatirchi va Panjshanbadagi Yettiurug'larning bir qismini poytaxt Buxoroga, 1756 yilda taxtni egallab Hisorni to'liq bo'ysundirganidan so'ng esa u yerdagi 20 ming aholini Buxoro, Samarqand, Miyonqol, Qarshi, Shahrisabz atroflariga ko'chirgan edi[6:139].

Shu boisdan ham qarib butun 18-yuzyillikni o'z ichiga qamragan “Tuhfat al-xoniy”da mazkur davr aholisining asosiy qismi o'troq, qolgan qismi esa yarim-ko'chmanchilik turmush tarzi bilan hayot kechirgani to'g'risidagi ma'lumotlar tilga olinadi. Asarda kelgan ma'lumotlar ko'ra ko'chmanchi aholining katta qismi sifatida 16-yuzyillikdan boshlab kirib kelgan urug' va qabilalarni ko'rsatish mumkin.

Buxoro xonligida mavjud bo'lgan aholining ijtimoiy qatlamlari haqida gap ketganda, uning oldingi davrlardagi tuzilishga ega bo'lganligini qayd etib o'tish lozim. Yuqori tabaqaga mansub ijtimoiy qatlamning eng yuqori pog'onasini hukmron doiralar, boshqaruv tizimining turli lavozimlarini egallagan amaldorlar hamda din peshvolaridan iborat siyosiy elita tashkil etib, ular ijtimoiy jihatdan eng katta huquq va imtiyozlarga ega bo'lgan. Mazkur davr Buxoro amirligi aholisining ijtimoiy tabaqalanish tizimi tadqiqotlarda “sipohiy”, “umaro”, “ulamo”, “raiyyat” kabi qatlamlardan iborat bo'lganligi keltiriladi[7:70-103]. “Tuhfat al-xoniy” asaridagi “Qadimgi turoniy podshohlar qoidasi va martabalari bo'yicha sultonlikdagi vazifa va martabalarni taqsimlash bayoni” bobida ham davlat mansablariga tayinlangan toifa sipohiy(سپاہی)[15:376], umaro(امرا)[15:370] va ulamo(علماء)[15:367] qatlamlaridan bo'lgani, davlat mansablariga aloqasi bo'lmagan dehqon, hunarmand, savdogar va shu kabi boshqa toifalar esa raiyyat(تایعات)



[15:376] yoki fuqarolardan iborat bo'lganligini ko'rish mumkin[6:245]. Unga ko'ra 1756 yil Muhammad Rahimxon taxtga o'tirganidan so'ng eng avvalo ham hukmdor, ham mamlakatning eng birinchi tayanchi sifatida sipohiy va umarolar qatlami ekanligi urg'ulanadi. Bunda, parvonachi, otaliq, devonbegi, qo'shbegi, miriasad, jiybachi, dodhoh, to'qsabo, miroxur, qorovul, shig'ovul, kabi harbiy-ma'muriy mansab va lavozimlar ushbu toifaga kiritiladi[6:246-250]. Agar boshqaruvdagi amaldorlarning ko'pchiligi bir vaqtning o'zida ham ma'muriy, ham harbiy maqomga ega bo'lganligini e'tiborga olsak, ularni tarixiy nuqtai nazardan "sipohiy" yoki "umaro" deb qo'llash o'rinlidir. Buni Mirza Badi Devonning Buxoro amirligidagi unvon va amallar to'g'risida eng mufassal ma'lumotlar beruvchi "Majma al-arqom" asari asosida tasdiqlasa bo'ladi. "Majma al-arqom"da tilga olib o'tilgan amallar bir tomondan, diniy ulamolarga tegishli amallar va boshqa tomondan hukumat lavozimlari (mansabi hukkam)dan iborat amallar sifatida guruhlashtirilgan. Asarda keltirilishicha, eng yuqori bo'g'inda "umda-i umaro"(amirlar tayanchi) turgan va bular amir huzurida mustahkam o'ringa ega bo'lgan. Unga ko'ra umarolarning mansablari quyidagicha: birinchisi – otaliq, ikkinchisi – devonbegi kalon, uchinchisi parvonachi hamda to'rtinchisi dodxoh bo'lgan[4:95-97]. Umarolar tarkibiga kirgan ushbu toifa o'zida sipohiy maqomini ham mujassamlashtirganini esa 19-yuzyillik o'rtalarida amirlikda bo'lgan A. Vamberi ma'lumotlari bilan asoslash mumkin. Xususan, A. Vamberi boshqaruvda amirdan keyin turuvchi amaldorlarni yuqoridagi kabi turkumga bo'lib, ular orasida Mirza Badi Devon keltirgan otaliq, devonbegi, parvonachini "katta sipohiy" sifatida qayd etadi[11:185].

Shuningdek, "Tuhfat al-xoniy"ga ko'ra mamlakat hayotida nufuzi va ahamiyatligi jihatidan ma'muriy-harbiy amaldorlar bilan birga din peshvolaridan iborat ulamolarning qatlamining o'rni ham yuqori bo'lgan. Ular orasida ayniqsa sayyid va xojalarga mansub nasabli tabaqaning mavqei alohida ajralib turgan. Shu boisdan ushbu qatlam ham ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ta'siridan kelib chiqib, boshqaruv pog'onasining yuqori qismdan o'rin olgan. Misol uchun asarda Muhammad Rahimxon tomonidan amirlikning oliy-diniy lavozimlariga, xususan, "نیشن هاش نوزوا" singari oliy diniy lavozimga Maxdumi A'zam avlodidan bo'lgan Is'hoqxoja, Buxoro shayxulislomligiga Xoja Islom Jo'ybori avlodidan Nasrulloxoja, Samarqand shahri va viloyatining shayxulislomlik lavozimiga Xoja Ahror avlodidan bo'lgan Shahobiddinxoja, Qozi Kalon lavozimiga mirakon urug'idan Nizomiddin Husayniy va naqiblik lavozimiga esa Sayyid Ota avlodidan Muhammad Aminxoja kabi o'z davrining taniqli nasliy tabaqa vakillari tayinlanganini ko'rish mumkin[15:370-371].

Yuqori tabaqa doirasiga, shuningdek, davlat boshqaruvida tanilgan urug'-qabila vakillari ham kirgan bo'lib, bu namoyandalardan masalan, Doniyolbiy mang'it, Xo'jamiyorbiiy o'tarchi, G'aybullohbiy bahrin, Jahongirbiy saroy kabilar 1756 yilda Muhammad Rahimxonni rasman taxtga o'tqazish marosimida, oq kigizni to'rt tomondan ko'tarib turishgan[15:371]. Urug'-qabila sardorlariga nisbatan qo'llangan "biy", "bek" jumalari ularning jamiyatdagi mavqeyini ham ko'rsatardi. Odatda bunday unvon egasining viloyat hokimi yoki boshqa yuqori mansab darajalariga ega bo'lishi nufuzli urug'-qabila sardorlarining markaziy va hududiy boshqaruvga faol tortilganligini tasdiqlaydi.

"Tuhfat al-xoniy" asarida mamlakatdagi uchinchi ijtimoiy qatlam sifatida raiyat (ba'zi adabiyotlarda soliq to'lovchilar sifatida beriladi) ko'rsatiladi. Asarda o'troq aholi "Rao yo"[6:51,66,102,111,227,280]vako'chmanchi aholi "baroyo"[6:54,68,109,214,239,294] deb tilga olinganini kuzatish mumkin. Raiyat tarkibiga dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, ko'chmanchi chorvadorlar va boshqa guruhlar kirgan. Aholining bu qismi soliq to'lovlarni to'lovchi asosiy tabaqa bo'lish barobarida, turli davlat majburiyatlarini bajarish ham lozim bo'lgan. Bular jumlasidan turli xil jamoat ishlari – begor, mardikorlik

kabilar o‘rin olgan[6:178,198].

Ijtimoiy hayotning yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri, ijtimoiy himoya masalasi hisoblanadi. Bunda eng avvalo aholining qiynalgan, himoyaga muhtoj qatlami, umrini toat-ibodatga bag‘ishlagan so‘fiyu-darveshlarni moddiy ta‘minoti biz o‘rganayotgan “Tuhfat al-xoniy” asarida ham keltirilgan. Shunday toifalardan biri So‘fi Jonmuhammad bo‘lib, uning obro‘si hukmdor va aholi orasida baland edi. 1752 yilda u va uning muridlariga Nasaf viloyatining Qarotakon qishlog‘ini yashash va moddiy ta‘minoti uchun suyurg‘ol qilib berganligi orqali mazkur toifani ham davlatning ijtimoiy muhofazasida bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin[6:183].

Shuningdek, Muhammad Rahimxon xalq roziligini qozonish uchun xazinadan oddiy fuqaro va din olimlarga ham tortiqlar bergani Mirza Salimbek ma‘lumotlaridan ma‘lum[5:287]. Buni tarixchi Jumaquli Humuliy asarida kelgan quyidagi jumlar bilan ham asoslash mumkin: “Movarounnahrni obod qildi va aholisining ko‘nglini quvonchga to‘ldirdi”[16:8]. Shu boisdan ham Muhammad Vafo Karminagiy asarda “Saodatli amir [Muhammad Rahimxon] xarobaga aylangan mamlakatning xalqi va lashkariga yuksak lutflar va qimmat marhamatlar qilib, davlat va qudrat ahlini o‘zlariga mos va xos martabalarga ko‘tardi. Fuqarolarga sanoat va hunarlar ahlidan, dehqonlardan o‘z kasblariga mos ravishda sardorlar tayinladi. [Natijada] Vayronaga aylangan ushbu mamlakatbo‘stonining boshlanishi uning iltifoti va sa‘y-harakatlari iforidan tarovat tomon yuzlandi”[6:127] deb qayd etgan edi. Muhammad Rahimxon, ayniqsa, davlat va jamiyat orasida yuqori obro‘ga ega bo‘lgan sayyidlar va shayxlarga turli martabalar berib, davlat boshqaruv ishlarida urug‘biylari va qo‘shin boshliqlari qatorida ularni ham, shayxulislom, naqib, qozi al-quzzot, qozi askar, muhtasib, o‘roq, fayzi kabi mansablariga tayinlaydi. Muhammad Vafo Karminagiy sayyidlar va xojalarni turli mansablarga tayinlash azaldan xonlardan qolgan urf ekanini ta‘kidlab, Samarqand va Buxoroning bir nechta atoqli miraklari, jo‘yboriy, ahroriy, Maxdumi A‘zamiy xojalar va Sayyid Atoyi avlodlariga lavozimlar berilishi to‘g‘risida ma‘lumotlarni keltirgan[6:248-250]. Tilga olingan ushbu mansablarga tayinlashda sayyid va xojalarning ustunlikka egaliklari borasida Mirza Badi Devon batafsil to‘xtalib, uning tartibini tushuntirib o‘tgan bo‘lsa[4:152-153], N. Xanikov davlat boshqaruvida shunday nasabli tabaqaga mansub xojalarni ikki ko‘zga ko‘ringan xonadon – Xoja Sayyid Ota va Xoja Islom Jo‘yboriy larga bo‘ladi[12:182].

Asar mang‘it amirlariga bag‘ishlaganligi sababli aholining ijtimoiy himoyasi bilan bog‘liq jarayonlarda muallif tabiiyki ushbu sulola vakillarini qo‘ygan holda bayon etgan. Misol uchun 1753 yilda Muhammad Rahimxon tomonidan Shahrisabz to‘liq egallanganidan so‘ng, u yerdagi xarobaga aylangan eski shaharni tiklash bilan bog‘liq jarayonlarda juda ko‘plab ham ijtimoiy, ham iqtisodiy ishlar amalga oshiriladi. Amir Temur davridan keyin xonlar va beklar tomonidan xarobaga aylantirilgan Shahrisabzda deyarli hech kim yashamas, kimsasiz edi. Muhammad Rahimxon birinchi navbatda mamlakatning turli burchaklaridan unumdor yerga muhtoj bo‘lgan dehqonlar, xususan, Kitob, Qo‘shchi aholisini bu yerga ko‘chirishni amalga oshiradi. Shuningdek, Muhammad Rahimxon Shahrisabz qal‘asini tartibga keltirish uchun oliy farmon ham chiqaradi. Farmonga ko‘ra muallif ta‘kidlaganidek “sohibqironning nomini qayta tiriltirish uchun” Oqsaroyga tutash ark qurish kerakligi buyurilgan. Juda tez fursatda qal‘a va uning ichida ko‘plab ijtimoiy inshootlar qurib bitkiziladi[6:209]. O‘sha davrda aholi zich yashaydigan Sangfurush qal‘asidagilar uchun boshqa bir qal‘a qurib berildi[6:196].

Muhammad Rahimxonni obodonlashtirish yo‘lida qilgan ishlaridan yana biri sifatida 1753 yilda Ko‘hak(Zarafshon) daryosining yuqori qismi Ravotxo‘ja mavzesida katta to‘g‘on qurdirgani ko‘rsatish mumkin[6:207]. Bu orqali Samarqand shahri suv bilan ta‘minlanadi. Bu xususida Abu Tohirxo‘ja o‘zining “Samariya” asarida Muhammad Rahimxon Darg‘om kanalining Raboti Xojabandiyini tuzattirib, shaharga suv olib

kelganini tilga oladi[1:13]. Bular o'z navbatida qiyinchilik sabab Samarqand va Buxoro shaharlaridan Hisor tog'lariga chiqib ketishga majbur bo'lgan 20 000 kishini o'z maskanlariga qaytishlariga olib kelgan[6:265]. Buning natijasida Zarafshon vohasidagi markaziy shahar va tumanlar turmushi jonlanishni boshlaydi. Bular Muhammad Rahimxonning shaharchilik va aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmushini ko'tarish siyosatini yuritganini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, Muhammad Rahimxonning yurtboshilik maqsadlari katta bo'lgan. Buni yana uning poytaxtda olib borgan qurilishlarida ham ko'rish mumkin. Samarqand kabi Buxoro shahri ham 18-yuzyillik boshida yuz bergan turli bosqinlar natijasida ko'p talafot ko'rgan edi. Xususan, Muhammad Vafo Karminagiyning ta'kidlashicha shayboniy Ubaydullaxon davrida qurilgan Buxoro shahri atrofini o'rab turuvchi devor so'z yuritilayotgan davrga kelib xokreziga qadar nurab ayanchli ahvolga kelgan edi. Bu xususida "Tuhfat al-xoniy"da alohida bob ajratgan Muhammad Vafo Karminagiyn ushbu devorni Muhammad Rahimxon farmoniga ko'ra qayta tiklanganligini keltiradi[6:197]. Shu boisdan ham 1752 – 1753 yillari Buxoro shahri atrofini o'rab turuvchi, balandligi 2 metrli yangi devor qurilgan[9:211]. Buni mang'it vakillaridan bo'lgan Sayid Muhammad Nosir ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Ushbu devor butun mang'itlar boshqaruvi davrida xizmat qilib, ayrim qismlari kunimizgacha saqlanib qolgan[10:25]. Shuningdek, rus elchisining guvohlik berishicha, Muhammad Rahimxon shaharning bir necha darvozalarini ham qayta yasattirgan[13:37]. Bundan tashqari manbalarda uning arkda hozirgacha saqlanib qolgan katta mehmonxonasi va Childuxtaron masjidini qurdirgani ham aytiladi[3:21].

Xulosa va takliflar: Yuqoridagilar xulosa qilib aytish mumkinki, Muhammad Vafo Karminagiyning "Tuhfat al-xoniy" asari Buxoro xonligi ijtimoiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar beruvchi manbalar qatorida muhim o'rin egallaydi. Unda kelgan Buxoro xonligi aholisining ijtimoiy holati, kundalik turmush-tarzi, ijtimoiy tarkibi va aholi qatlamlari hamda ijtimoiy himoya tizmi borasidagi xilma-xil ma'lumotlarning o'ziyoq uning qimmatli manba ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

- 1.Абу Тохирхожа Самарқандий. Самария. Нашрга тайёрловчилар. Б. Ахмедов., А. Жувонмардиев. Тошкент. 1991. 13-бет.
- 2.Andreas Wilde. What is beyond the river? Power, Authority, and Social Order in Transoxania 18th-19th Centuries. Verlag der Osterreichischen akademie der Wissenschaften. 2016. P. 88-94.
- 3.Григоревым В.В. О некоторых событиях в Бухаре, Кокаиде и Кашгаре. Записки мирзы Шемса Бухари, изданные в тексте, с переводом и примечаниями В.В. Григоревым. Казан, 1861. С. 21.
- 4.Мирза Бадиъ Диван. Маджма ал-аркам. Факсимле рукописи введение, перевод, примечания и приложения А.Б. Вилдоновой. Москва. 1981. С. 95-97.
- 5.Мирза Салимбек. Кашўли Салимий таворихи мутақаддимин ва мутаахирин. Бухоро. 2003. 287-бет.
- 6.Муҳаммадвафои Карминагий. Тўхфат ул-хонӣ. Муқаддима, таҳияи матн, нухабадал, таълиқот ва фехристҳои Жамшед Чўразода ва Нурулло Ғиёсов. Хўчанд. 2017. Баргаи 295.
- 7.Нормуродова Г. Б. Бухоро амирлиги ижтимоий қатламлари ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги роли (1868-1920). Тарих фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2020. 16-бет.
- 8.Равшанов П. Қашқадарё тарихи. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1995. 753-бет.
- 9.Pajabov Q, Omonova F, Qandov B. O'zbekiston tarixi. –Toshkent: "Ochun", 2024. 211-бет.

10. Саййид Муҳаммад Носир ибн Музаффар. “Таҳқиқоти арки Бухоро”. Тошкент. 2009. 25-бет.
11. Вамбери А. Очерки Средней Азии. Издание А.И. Мамонтова. Москва. 1868. С. 185.
12. Ханьков Н. Описание Бухарского Ханства. Типография Императорской Академии Наук. Санкт-Петербург. 1843. С. 182.
13. Зарипов О. Муҳаммад Раҳимхон (1756 – 1758) ёрлиғи // “O‘zbekiston tarixi” jurnali. 2024. № 2. 37-бет.
14. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шакилланиш жараёни. –Тошкент: “Шарқ”, 2001. 406-бет.
15. لگ تفص روص نم. ین احم ی خر خیرت ای ین اجل افحت. ی گن یم رک افو ی ضاق دم حم. ۳۷۶ ص. نارہت ہاگش ناد
16. یلوم خ خیرات. یتوگروال ا یرادوشلا یدن ق رمسلا دم حم ی فوص نب یلق ہ عم ج الم. ۸ ص. ۲۰۱۳. دنکش ات-دن ق رمس

## MUSTAQILLIK YILLARIDA QO'QON SHAHAR MASJIDLAR TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI

*Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o'g'li,  
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo'qon shahri hududida joylashgan masjidlar haqidagi ma'lumotlar Farg'ona viloyat davlat arxivi, Qo'qon shahar davlat arxivi hujjatlari asosida tahlil qilingan. Unda masjidlarning foydalanishga qabul qilinishi, nomlanishi va yer maydonlariga oid ma'lumotlar rasmiy hujjatlar asosida faktlar bilan izohlangan.*

*Kalit so'zlar: diniy tashkilot, masjid, Qo'qon shahar, Avg'onbog', Aziz tepa, A.P.Xoroshxin, Changatlik, Madrasayi Mir.*

## ILLUMINATION OF THE HISTORY OF MOSQUES IN THE CITY OF KOKAND IN THE YEARS OF INDEPENDENCE IN ARCHIVAL DOCUMENTS

*Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o'g'li,  
doctoral student of Fergana State University*

*Abstract: In this article, information about mosques located in the territory of the city of Kokand was analyzed based on the documents of the state archive of the Fergana region and the state archive of the city of Kokand. In it, information about the adoption of mosques, naming and land areas is explained with facts based on official documents.*

*Key words: religious organization, mosque, Kokand city, Avgonbog, Aziz Tepa, A.P. Khoroskhin, Changatlik, Madrasayi Mir.*

## ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИИ МЕЧЕТЕЙ ГОРОДА КОКАНДА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ В АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТАХ

*Қодиров Муҳсинжон Муҳторжон ўғли,  
докторантом Ферганского государственного университета*

*Аннотация: В данной статье на основе документов государственного архива Ферганской области и государственного архива города Коканда проанализированы сведения о мечетях, расположенных на территории города Коканд. В нем информация о принятии мечетей, наименовании и земельных участках поясняется фактами, основанными на официальных документах.*

*Ключевые слова: религиозная организация, мечеть, город Коканд, Авгонбог, Aziz Tepa, A.П. Хорошхин, Чангатлик, Медресаи Мир.*

Yurtimiz hududiga Islom kirib kelishi bilan u arhitektura va kishilarning moddiy va ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsata boshlagan. Islom arxitekturasi eng nodir na'munalari masjidlar qurilishida ham o'z aksini topgan. Qo'qon shahrida ham azaldan masjidlar qurilishiga va ularning ahamiyatiga katta e'tibor berilib, bir qancha vaqf mulklari ajratib berilgan. Rus sayyohi A.P.Xoroshxinning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrda shaharda 80 ming kishi yashagan va poytaxtda o'z masjidiga ega 540 ta mahalla va 600 ta masjid mavjud bo'lgan [1; 19,20]. Bu ma'lumotni tahlil qilsak, demak shahar hududida mahallalar sonidan ko'proq masjidlar bo'lgan. Sovet Ittifoqi davrida butun ittifoq bo'ylab Islom diniga nisbatan salbiy fikrlar bildirilgan va ularni moddiy tomondan ta'minlab turgan vaqf mulklari sekin astalik bilan tortib olingan. Bu esa masjidlarning moddiy-texnik bazasining yo'q bo'lishiga binolarning abgor holga kelishiga sabab

bo'ladi.

Ammo mustaqilligimizning ilk yillaridayoq diniy tashkilotlar va masjidlarga bo'lgan e'tibor kuchayadi. Masalan, 1991-yilda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bu borada bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni belgilab bergan [2]. Natijada ko'plab masjidlar qayta ta'mirdan chiqarilgan hamda yangilari barpo etilgan. Shu jumladan Qo'qon shahrida ham bunday o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

Qo'qon shahar hokimining 1993-yil 10-martdagi qaroriga ko'ra, 34-mahalla hududida joylashgan Changatlik masjidi qayta foydalanishga qabul qilingan. Changatlik masjidi binosi 1917-yilda masjid binosi sifatida qurilgan va foydalanishda qabul qilingan. Ushbu masjidni qayta foydalanishga qabul qilish maqsadida Qo'qon shahar hokimiga 34-mahallada istiqomat qiluvchi aholi tomonidan 1993-yil 26-yanvar kuni talabnoma, hamda mahalla rayosatining 1993-yil 23-fevraldagi 3-sonli qarori bilan murojaat yo'llangan. Shahar hokimining 88-sonli qaroriga binoan ushbu murojaatlar qanoatlantirilib, Xiva ko'chasi 29-manzilgohda joylashgan binosi 347,38 kv.metr, yer maydoni 735,65 kv.metr bo'lgan Changatlik masjidi rasman foydalanishga qayta qabul qilingan [3; 89-90].

Shahar hududida joylashgan masjidlar bo'yicha Qo'qon shahar hokimi tomonidan chiqarilgan navbatdagi qaror 1799-yilda qurilgan Norbo'tabiy yoki Madrasayi-Mir jome' masjidiga tegishli bo'lgan. Ushbu qaror 1993-yil 17-may kuni qabul qilingan bo'lib, unda quyidagilar bayon qilingan: "mazkur binoni masjid sifatida foydalanishga ruxsat berilganligi haqida tegishli hujjatlar shahar arxivida saqlanib qolmaganligi sababli, va 40-yillardan beri masjid faoliyat qilmoqdaligini nazarda tutib, masjid sifatida foydalanishni davom ettirishga ruxsat berilsin". Shahar hokimining 106-f sonli farmoyishiga binoan Abdulla Nabiye'v ko'chasi 69-sonli Jome' masjidning foydalanish maydoni – 3054 kv.m va jami yer maydoni esa 7217,05 kv.m deb hisoblanib, me'yoriy huquqiy hujjatlar tayyorlanishi va ro'yyhatdan o'tkazish uchun viloyat Adliya boshqarmasiga yuborilishi ham qayd etilgan [4; 23].

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuniga asosan va 4-mahalla hay'atining talabnomasi va aholining istaklarini inobatga olgan holda Qo'qon shahar hokimining 1997-yil 25-iyundagi 140-sonli qaroriga muvofiq Xo'jand ko'chasi 243-hovlida joylashgan, umumiy yer maydoni 1662 kv.m bo'lgan qurilma, inshoot va moddiy boyliklar G'ishtli jome' masjidi mulki deb e'tirof etildi. Shuningdek, ushbu qarorga binoan masjid binosini ta'mirlash, saqlash va hududni obodonlashtirish masalalari masjid imom-xatibi P.Mamatqulov zimmasiga yuklatildi [5; 284].

Shahar hududida faoliyat olib borayotgan barcha masjidlarning nomi shahar toponimik komissiyasi qarori asosida tasdiqlanadi va rasmiylashtiriladi. Qo'qon shahar hokimi X.Mavlonqulovning 1998-yil 24-iyuldagi 165-sonli qaroriga muvofiq, Shahar toponimik komissiyasining 1998-yil 16-iyundagi xulosasi tasdiqlanib, Viloyat Adliya boshqarmasidan ro'yhatdan o'tgan quyidagi diniy tashkilotlarning nomlari tasdiqlangan [6; 146,147].

2-jadval.

Viloyat Adliya boshqarmasidan ro'yhatdan o'tgan diniy tashkilotlarning tasdiqlangan nomlari [7; 57].

№	Diniy tashkilotning ro'yhatga olingan nomi	Manzili	Hokim qarori bilan ma'qullangan nomi
1	“Saodat” Jome’ masjidi	A.Kubro, 1	“Saodat” Jome’ masjidi
2	“Zinbardor” Jome’ masjidi	A.Umarxon	“Zinbardor” Jome’ masjidi
3	“Abdulloh ibn Mas’ud” Jome’ masjidi	A.Navoiy, 43	“Abdulloh ibn Mas’ud” Jome’ masjidi
4	“Said Abdulaziz Al Bag‘dodiy” Jome’ masjidi	Ozodlik, 117	“Said Abdulaziz Al Bag‘dodiy” Jome’ masjidi
5	Molitvenniy dom Evangel'skiy Xristian baptistov	B.Naqshbandiy, 43	Molitvenniy dom Evangel'skiy Xristian baptistov

Yuqoridagi jadvalga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu paytda Adliya boshqarmasi tomonidan 6 ta diniy tashkilotning nomlari shahar toponimik komissiyasi tomonidan tasdiqlangach ro'yhatga olinganligini ko'rishimiz mumkin.

Yoki Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yhatidan o'tkazish tartibi to'g'risida”gi 1998-yil 20-iyundagi 263-sonli qaroriga, Qo‘qon shahar toponimik komissiyaning 1998-yil 6-avgustdagi xulosasiga asosan Qo‘qon shahar hokimining 180-sonli Viloyat Adliya boshqarmasidan ro'yhatdan o'tgan diniy tashkilotlarning tasdiqlangan nomlari haqidagi qarori 1998-yil 13-avgustda qabul qilingan [7; 56,57].

2-jadval.

Viloyat Adliya boshqarmasidan ro'yhatdan o'tgan diniy tashkilotlarning tasdiqlangan nomlari [7; 57].

№	Diniy tashkilotning ro'yhatga olingan nomi	Manzili	Hokim qarori bilan ma'qullangan nomi
1	“Saodat” Jome’ masjidi	A.Kubro, 1	“Saodat” Jome’ masjidi
2	“Zinbardor” Jome’ masjidi	A.Umarxon	“Zinbardor” Jome’ masjidi
3	“Abdulloh ibn Mas’ud” Jome’ masjidi	A.Navoiy, 43	“Abdulloh ibn Mas’ud” Jome’ masjidi
4	“Said Abdulaziz Al Bag‘dodiy” Jome’ masjidi	Ozodlik, 117	“Said Abdulaziz Al Bag‘dodiy” Jome’ masjidi
5	Molitvenniy dom Evangel'skiy Xristian baptistov	B.Naqshbandiy, 43	Molitvenniy dom Evangel'skiy Xristian baptistov

Qo‘qon shahar hududida joylashgan masjidlardan yana biri bu – “Avg‘onbog‘” Jome’ masjidi hisoblanadi. “Avg‘onbog‘” Jome’ masjidiga Paxtaqaynar kolxozi pravleniyasini

1990-yil 11-oktabrdagi 9/4-sonli va xalq deputatlari Lenin qishloq Kengashi ijroiya qo‘mitasining 1990-yil 12-oktabrdagi 10/57-sonli qarorlariga asosan “Avg‘onbog‘” qishlog‘i ikkinchi brigada aholisi uchun masjid qurilishiga 0,17 gektar yer maydoni ajratilgan bo‘lib, lekin yer maydoni qayta o‘lchanganda uning yer maydoni 0,19 gektarni tashkil etgan. Farg‘ona viloyati hokimligining 1999-yil 28-dekabrdagi 1909/10-sonli xatini inobatga olgan holda, ortiqcha 0,2 gektar joyni “Avg‘onbog‘” masjidiga birlashtirib berish haqida Qo‘qon shahar hokimining 11-sonli qarori 2000-yil 14-yanvar kuni qabul qilingan va ijroga yo‘naltirilgan [8; 70]. Shahar hokimining 2000-yil 10-fevraldagi 53-sonli qaroriga muvofiq, “Avg‘onbog‘” masjidining 1050 kv.metri xonalari va 176,98 kv.metrlil yordamchi xonalari foydalanish uchun qabul qilingan, hamda Kadastr bo‘limi, Statistika va Soliq bo‘limlariga bu haqida tegishli ma‘lumotlar yuborilgan [9; 114].

“Aziz tepa” masjidi Aziz tepa, 14-uyda joylashgan bo‘lib, masjidga “Aziz tepa” nomi shahar toponimik komissiyasining 2001-yil 18-iyunda bo‘lgan yig‘ilishida komissiyaning yakuniy xulosa bayonnomasiga ko‘ra tasdiqlangan bo‘lib, bu haqida Qo‘qon shahar hokimining 2001-yil 2-agustdagi 338-sonli qarorida qayd etib o‘tilgan [10; 13,14]. “Aziz tepa” masjidiga shahar hokimining 17-sentabr 2001-yildagi qaroriga muvofiq foydalanish uchun jami 942,0 kv.m joy ajratilgan, shu kuni qabul qilingan 400-sonli hokim qarori asosida masjidga birlashtirib berilgan [11; 85].

Shuningdek, shaharimizning Bog‘i-Rahmat ko‘chasida joylashgan 42-MFYning mahalla masjidiga shahar hokimining 2004-yil 22-oktabrdagi 306-sonli qaroriga muvofiq, shahar doimiy harakatdagi yer hay‘atining 2004-yil 15-oktabridagi dalolatnomasiga ko‘ra mahalla masjidi foydalanayotgan jami 0,30 gektar yer maydoni masjid hisobiga qonuniy ravishda birlashtirib berildi. Rasmiy hujjatlarga e‘tibor qaratsak, MFY hududida Xalq deputatlari Qo‘qon shahar soveti ijroiya komitetining 1990-yil 30-may kungi №167 b/10-son qaroriga asosan 42-mahalla qo‘mitasiga 0,08 yer maydoni mahalla masjidi va sport maydoni qurilishi uchun ajratib berilgan edi [12; 66,67]. Shu bilan birgalikda, Qo‘qon shahar hokimining 2005-yil 19-yanvardagi 147-f/4 sonli farmoyishiga binoan 42-“At-Termiziy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan bu masjidga “Hazrati Abbas” nomi berilgan [13; 18]. Ushbu masjidning e‘tiborli tomoni shundaki, masjid binosi sahoatpesha fuqarolar, homiyar tomonidan hashar yo‘li bilan qurib bitkazilgandir.

“Shayxul Islom” masjidi tomonidan umumiy foydalanilayotgan yer maydoni bugungi kunda jami 1286,0 kv.metrlni tashkil qiladi, shundan 765,34 kv.m qismi qurilish egallagan maydon hisoblanadi. Masjidga umumiy yer maydoni Qo‘qon shahar hokimining 2016-yil 17-iyundagi 316-sonli qaroriga muvofiq birlashtirib berilgan. “Shayxul Islom” masjidi Yangihayot ko‘chasi 49-uyda joylashgan bo‘lib, tashkilot nizomi Farg‘ona viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan 1998-yil 15-oktabrda 76-sonli guvohnoma bilan ro‘yhatga olingan [14].

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon shahrida aholi foydalanishiga qabul qilingan va rasman Adliya boshqarmasi tomonidan ro‘yhatdan o‘tkazilgan bir qancha masjidlar bo‘lib, ularning yer maydonlari masjidlarning o‘ziga birlashtirib berilgan. Ularning moddiy-texnik bazasi, ta‘mirlanishi va faoliyat olib borishi Qo‘qon shahar hokimi qaror va farmoyishlari asosida amalga oshiriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Mamadaliyev X. Farg‘ona vodiysi shaharlari tarixi (19 asr oxiri – 20 asr boshlari) monografiya. Toshkent. Fan ziyosi. 2022. 192-bet.
2. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.06.1991 yildagi 289-XII-son. <https://lex.uz/docs/-65044>.
3. Farg‘ona viloyati davlat arxivi, 1230-fond, 1-ro‘yhat, 27-yig‘ma jild.



4. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 38-yig'ma jild.
5. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 116-yig'ma jild.
6. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 135-yig'ma jild.
7. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 136-yig'ma jild.
8. FVDA, 1230-fond, 2-ro'yhat, 20-yig'ma jild.
9. FVDA, 1230-fond, 2-ro'yhat, 21-yig'ma jild.
10. FVDA, 1230-fond, 2-ro'yhat, 46-yig'ma jild.
11. FVDA, 1230-fond, 2-ro'yhat, 47-yig'ma jild.
12. FVDA, 1230-fond, 4-ro'yhat, 35-yig'ma jild.
13. FVDA, 1230-fond, 4-ro'yhat, 51-yig'ma jild.
14. Qo'qon shahar davlat arxivi, 1228-fond, 1-ro'yhat, 12-kitob. Qo'qon shahar hokimining 17.06.2016 kungi №316-qarori.

**DONO ZIYOYEVANING ILMIY TADQIQOTLARIDA  
TURKISTONDAGI 1916-YILGI OZODLIK HARAKATLARI**

*Qudratov Shuxrat Yodgorovich  
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida dotsenti, t.f.f.d. (PhD)*

*Sayfiddinov Doston Rustam o'g'li  
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida 2-bosqich magistranti*

**НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ДОНО ЗИЁЕВОЙ О ДВИЖЕНИЯХ  
ЗА СВОБОДУ В ТУРКЕСТАНЕ В 1916 ГОДУ**

*Кудратов Шухрат Ёдгорович  
Доцент кафедры археологии и истории Бухары, к.и.н. (PhD)*

*Сайфиддинов Достон Рустамович  
Магистрант 2 курса, кафедра археологии и истории Бухары*

**THE 1916 NATIONAL LIBERATION MOVEMENTS IN TURKESTAN  
IN DONO ZIYOYEVA'S SCIENTIFIC RESEARCH**

*Shuxrat Yodgorovich Qudratov  
Associate professor, Department of Archaeology and History of Bukhara, PhD*

*Doston Rustamovich Sayfiddinov  
2nd-Year Master's Student, Department of Archaeology and History of Bukhara*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston milliy ozodlik harakatlari mavzusida tarix fanlari doktori Dono Ziyoyevaning ilmiy asarlari, 1916-yilgi qo'zg'olon tafsilotlari, Turkistonda rus ma'murlari tomonidan bo'lgan adolatsizliklar natijasida milliy ozodlik harakatlarining kelib chiqish sabablari va mardikorlikka safarbarlik yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: Turkiston, milliy ozodlik harakati, podsho hukumati, дума, yopiq majlis, mardikorlik, adolatsizlik, norozilik, mustamlakachilar, majburiy to'lov, qo'zg'olon.*

*Аннотация: В данной статье рассматриваются научные труды доктора исторических наук Доно Зиёевой, посвященные национально-освободительным движениям в Туркестане. Описываются подробности восстания 1916 года, несправедливость, проявленная российскими властями в Туркестане, причины возникновения национально-освободительных движений и мобилизация на принудительные работы.*

*Ключевые слова: Туркестан, национально-освободительное движение, царское правительство, дума, закрытое заседание, принудительные работы, несправедливость, протест, колонизаторы, обязательный налог, восстание.*

*Abstract: This article analyzes the scientific works of Dr. Dono Ziyoyeva, a Doctor of Historical Sciences, on the topic of Turkestan's national liberation movements. It discusses the details of the 1916 uprising, the injustices inflicted by Russian administrators in Turkestan, the causes of the emergence of national liberation movements, and the mobilization for labor conscription.*

*Keywords: Turkestan, national liberation movement, Tsarist government, Duma, closed session, labor conscription, injustice, protest, colonizers, forced tax, uprising.*

Kirish. Tarix fanlari doktori, professor Dono Ziyoyeva tarix sohasida olib borgan uzoq yillik faoliyati davomida turli mavzularda asarlar yozib tadqiqot olib borgan, O'zbekistonda eng qadimdan to hozirga qadar bo'lgan tarixiy chegarada "O'zbekistonda harbiy ish tarixi", shuningdek "O'zbekistonda tadbirkorlikning shakllanish va rivojlanish tarixi", O'zbekistondagi shaharlar tarixi, Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari mavzusidagi bir qancha asarlar kabi amaliy tadqiqotlar shular jumlasidandir [1].

Olib borgan tadqiqotlarida Turkistonda Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi tarixiga oid asarlar, tadqiqotlarni salmog'li qismni egallashi ilmiy qiziqishi asosan shu mavzuda ekanligidan darak beradi [2]. Bunda asosan Turkiston milliy ozodlik harakatlari mavzusida tarixiy haqiqatni tiklash uchun samarali tadqiqotlar olib borilgan desak xato bo'lmaydi, chunki sovet hokimiyati davrida bu xalq ozodlik harakatlari mustamlaka manfaatlariga moslashtirilib sinfiy kurash deb talqin etilgan edi [3].

Olimaning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ham aynan Turkiston milliy ozodlik harakatlari mavzusida bo'lgan. Tarixshunos va manbashunos olim Boris Lunin ilmiy rahbarligida 1990 yili "XIX – XX asr boshlarida Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari mustamlaka va sovet davri adabiyotlarida" mavzusida nomzodlik, 1999-yil taniqli olim, professor Dilorom Alimova rahbarligi ostida "1916 – 1924-yillarda Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari XX asr tarixshunosligida" mavzusida esa doktorlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilingan. Keyinchalik ham Olima tomonidan bu mavzuga oid tadqiqotlar olib borilgan holda bir qancha kitoblar nashrdan chiqqan, ilmiy jurnallarda, yurtimizdagi va xalqaro konferensiyalar uchun ko'pgina maqolalar taqdim etilgan.

Jumladan, 2000-yil nashrdan chiqqan "Turkiston milliy ozodlik harakati" va "Bosmachilik: haqiqat va uydirma" kitoblari, "1916 yil qo'zg'oloni tarixshunosligi va manbalari", "1916 yil qo'zg'oloni va Rossiya dumasi", "Soxta va chin haqiqatlar", "Milliy ozodlik uchun kurash voqealari F.Xo'jayev talqinida", "Jadids and uprising of 1916 in Turkestan", "Восстание 1916 года в Туркестане" va shunga o'xshagan yana bir qancha ilmiy maqolalarida ham Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari tadqiq etilgan [4]. Dono Ziyoyevani Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari mavzusida olib borgan bu tadqiqotlari natijasida tarixshunoslik fani bu davrga mansub bir qancha yangi bilimlar bilan boyidi, ko'pgina yangiliklarni taqdim etdi.

Adabiyotlar tahlili.

Dono Ziyoyeva. Turkiston milliy ozodlik harakati. Toshkent: 2000, Ziyonur taratib. Toshkent: Fan, 2021, D.Ziyoyeva. Soxta va chin haqiqatlar. // Tafakkur - 1998. №3, Hamid Ziyoyev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash, Toshkent- 1998, D.X.Ziyoyeva. Milliy ozodlik uchun kurash voqealari Fayzulla Xo'jayev talqinida. // Fayzulla Xo'jayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar. Toshkent: Fan, 1997, E.R.Xoliqovna. Turkiston o'lkasidagi milliy ozodlik harakatlari tarixidan. // O'tmishga nazar – 2020. №3 jurnal va adabiyotlarida Turkistonda bo'lib o'tgan 1916-yilgi ozodlik harakatlari haqida ma'lumot berilgan.

Muhokama va natija.

Uzoq yillar davomida 1916-yilgi qo'zg'olonni sabab asoratlari va undagi voqealarni o'rganish dolzarb bo'lib keldi. Dono Ziyoyevaning bu mavzudagi asarlarini tadqiq etadigan bo'lsak qo'zg'olon va undagi voqea-oqibatlargina emas uni vujudga kelishi uchun sabablar ham e'tiborni tortmay qo'ymaydi, zero Nikolay II ning 1916-yil 25-iyundagi "Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholining harakatdagi armiya rayonida harbiy inshootlar va shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday og'ir ishlarga jalb qilish haqida" [5] gi farmoni qo'zg'olon boshlanishiga turtki bo'ldi xolos, qo'zg'olonning asl sabablari esa boshqa edi.

Bu to'g'risida Dono Ziyoyeva "Milliy ozodlik uchun kurash voqealari Fayzulla

Xo'jayev talqinida" [6] maqolasida qo'zg'olonni bevosita guvohi Fayzulla Xo'jayevni 1936-yilning 1-avgustida Toshkentda 1916-yilgi qo'zg'olonning 20 yilligini nishonlash munosabati bilan o'tkazilgan xalq mitingida hukumat rahbari sifatida aytib o'tgan fikrlarini keltirib o'tadi: "Podsho hukumatining Turkiston aholisini front orti ishlariga safarbar etish haqidagi farmoni qo'zg'olonning asosiy sababi sifatida ko'rsatish noto'g'ridir. Qo'zg'olon juda ko'p omillarning natijasi bo'lib, ularning eng muhimi – xalqning siyosiy huquqsizligi, aholining rus va mahalliy burjuaziya tomonidan zo'r berib ezilishida edi... Urush tufayli yanada kuchaygan iqtisodiy, siyosiy zulm, keskinlashib ketgan sinfiy va milliy ziddiyatlar qo'zg'olonga sabab bo'ldi, podsho farmoni shu olovga yog' bo'lib quyildi.

Turkiston aholisi o'z yurtida begonadek yashadi, ularning haq-huquqlarining buzilishi qonuniy hol edi, mustamlakachilar esa alohida imkoniyatga ega edilar... O'rta Osiyo dehqon va chorvadorlari yarim feodal davlatning huquqsiz qullari ahvoliga solib qo'yilgan edi... O'rta Osiyoda 530 ta rus posyolkalari mavjud bo'lib, ular uchun 4 000 000 ga eng yaxshi, unumli, sug'orilgan yerlar mahalliy aholidan to'lovsiz tortib olib berilgan. Bu yerda yashovchi mahalliy vakillar esa yer va yaylovlardan mahrum bo'lib, tog'-u toshlarda ochlik va qashshoqlikda yashaganlar... Rossiya imperializmi paxta yetishtirgan dehqonni shilib, so'rib oldi, urush boshlangach esa narx-navo oshib turgan bir paytda paxta narxi nihoyatda pasaytirildi, natijada dehqonlar ochlikka giriftor bo'ldilar..." [7].

Qo'zg'olon avj olishini sabablari sifatida yana bir qancha adolatsizliklar bo'lganligini aytishimiz mumkin. Bu adolatsizliklardan shikoyat qilish maqsadida Turkiston ziyolilaridan taniqli vakillar Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev va Mustaf Cho'qayevlar Peterburgga tashrif buyuradilar va Davlat Dumasiga bo'layotgan adolatsizliklar haqida arz qilib Turkistonga bunday holatga chek qo'yish uchun komissiya yuborishni talab etadilar. Buning natijasida Rossiya Davlat Dumasi tomonidan Turkistonga holat bilan tanishish maqsadida mehnatkashlar fraksiyasi vakili A.Kerenskiy va musulmonlar fraksiyasi vakili Qutlug' Muhammad Botirgareev-Tevkelevlar yuboriladi. Deputatlar avgust oyida Toshkentga tashrif buyurib 10 kun davomidan Qo'qon Andijon, Samarqand, Jizzax kabi shaharlarda bo'lib mahalliy aholi bilan mirshab va ma'murlar ishtirokisiz suhbatlashadilar, bunda tarjimon vazifasini Mustaf Cho'qayev bajaradi. Komissiya vakillari to'plagan ma'lumotlari natijasida 13 va 15 dekabrda Rossiya Davlat Dumasida tor doirada yopiq majlis bo'lib o'tadi. Olima Dono Ziyoyeva Rossiya Davlat Dumasida bo'lib o'tgan tor doirada yopiq majlis va undagi voqealar bayoni haqida o'zining "Turkiston milliy ozodlik harakati" asarida quyidagilarni keltirib o'tgan: Dumada Turkistonda bo'lib qaytgan deputat Kerenskiy va musulmonlar fraksiyasi vakili Mansurovlar Turkistondagi ahvol haqida axborot beradilar. Deputat Kerenskiy farmon e'lon qilinguniga qadar mahalliy aholidan urushga qatnashmasligi evaziga urush uchun juda ko'p miqdorda soliqlar yig'ib olingani haqida quyidagilarni aytib o'tadi:

«Urush davomida mahalliy aholidan uzluksiz sur'atda majburiy to'lovlar olib turilgan. Ot, ulov, asbob-uskuna, xayr-ehson juda katta miqdorda olingan va bu mablag'lar olinayotganda har safar «ko'proq bering, sizda urush uchun boshqa majburiyat yoq va bo'lmaydi», deb ishontirilgan. Mahalliy aholi bu to'lovlardan tashqari erkaklari urushga olib ketilgan rus oilalariga ham yordamlashgan. Meni qo'limda erkaklari urushga ketgan rus oilalari uchun mahalliy aholidan 100.000 rubl hisobida pul yig'ilgani haqida mahalliy ma'murlar tayyorlagan hisobot ham bor.

Turkistonda oilaviy ro'yxat yo'qligi, harbiy majburiyat yo'lga qo'yilmagani tufayli kishilar yoshi haqida aniq ma'lumot yo'q. Buni uning tashqi ko'rinishidan aniqlash lozim bo'lgan. Ana endi ma'murlarning kimning yoshi qancha ekanligini qanday

aniqlashini tasavvur eta olasizmi? Ular odamlarning yoshini cho'ntaklariga solingan pulga qarab aniqlashgan. Men o'z ko'zim bilan ko'rgan 60 yoshli qariya ro'yxatga 30 yosh deb yozilgan, chunki 300 so'm pora berishga qurbi yetmagan. 25-30 yoshli yigitcha esa boyvachchaligi tufayli 50 yosh deb qayd etilgan. Erlari tortib olinib, ocharchilik, yo'qchilikka giriftor etilgan ayollar ahvolini tasavvur etib ko'ring. G'alayonni dastlab anashu ayollar boshlagan...

Ular faqatgina bular bilangina cheklanmasdan mahalliy aholidan pul undirishni yana boshqa yo'llarini ham o'ylab topganlar. Mahalliy aholidan begunoh kishilarni yoshi va jinsiga qaramasdan hibsga olib, hokimiyatga qarshilik ko'rsatishga ayblab o'lim jazosi berilishi bilan qo'rqitib yana pul talab etishgan, buni hatto rus oilalari ham tasdiqlagan. Namangan, Qo'qon va boshqa mayda shaharlarda yuzlab, ba'zan minglab begunoh kishilar yoshi va jinsidan qat'iy nazar tutib keltirilgan, qo'llari bog'langan holda saqlangan va faqat pul to'laganlarga ozod etilgan...

O'sha paytda Turkistonda qishloq xo'jalik mavsumi avjida bo'lib, 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar dalada bog'larda mehnatda edi. Musulmon ayollari ostona hatlab ko'chaga chiqmas, ro'zg'or erkaklar bo'ynida edi. Shunday sharoitda ularni noma'lum muddatga olib ketilishi hosilni yig'ish, bozorga chiqarish, paxta topshirish ishlarini to'xtatib, aholini boquvchilardan mahrum etardi." [8]

Turkistonda bo'lib qaytgan yana bir deputat Jafarov esa adolatsizliklar to'g'risida quyidagilarni aytib o'tgan:

"Pul evaziga o'z o'rniga odam yollash ahvolni yana battar chalkashtirgan... Hatto beva ayollar ham arzimas uy-joyini sotib, mardikorlik majburiyatini to'lashga majbur etilgan... Mardikorlikka hatto falaj bo'lib qolgan bemorlarni ham yozib olishgan, ular pul to'labgina ro'yxatdan o'chishi mumkin bo'lgan.

Mahalliy aholiga ma'muriyat ruxsatisiz temir yo'ldan foydalanishi taqiqlangan. Bu ham kamlik qilib rus ma'murlari va ofitserlariga mahalliy aholi ta'zim qilishi lozim va majburiyligi haqida maxsus farmon qabul qilingan... bu bilan rus hokimiyatining obro'yini ko'tarmoqchi bo'lganlar. Bu borada juda ko'p zo'ravonliklar qilingan. Bu majburiyatni ado etmaganlar yo pul to'lagan, yo kaltaklangan. Hatto, shunday manzaralar bo'lganki, otda ketayotgan hurmatli bir mo'ysafid eng oddiy, quyi rus ma'murini ko'rganda tezda otdan tushib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, unga ta'zim qilishiga to'g'ri kelgan. Bunday xo'rlikka chidolmagan ko'pchilik mahalliy ziyolilar esa ko'chaga chiqolmay, uyga tiqilib o'tirishga majbur bo'lganlar. Agart sart ko'chani narigi betidagi yoki orqasida kelayotgan ma'murni ko'rmas qolib, ta'zim qilmasa yoki sotuvchi savdo bilan band bo'lib, peshtaxta ortidan darhol yugurib chiqmasa, otliq kishi darhol otdan tushib ta'zim etmasa, ayamay savalangan." [9] Bunday holatlar mahalliy aholini keskin noroziligiga sabab bo'lmay qolmas edi. Turkistonning turli hudularida qo'zg'olonlar bo'lishiga qaramay ular shavqatsizlik bilan bostirilgan. 15-sentabrdan esa farmon ijro etilishi boshlangan. [10]

Rossiyaga jo'natiladigan mardikorlarning umumiy soni 220000 kishidan iborat bo'lishi kerak edi, ammo ayrim paxtakor tumanlarda aholining bandligini hisobga olinib, mardikorlarning umumiy soni 200 470 kishi qilinib belgilandi. Bu miqdor Turkiston o'lkasi viloyatlari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan:

Sirdaryo viloyati-60000

Samarqand viloyati-32407

Farg'ona viloyati-51233

Yettisuv viloyati-43000

Kaspiyorti viloyati-13830 nafar. [11]

Ammo amalda 1917-yil yanvar - fevral oylarida hammasi bo'lib Rossiyaga atigi 19 eshlon mardikor jo'natildi. Vaholanki, mustamlaka ma'murlarining rejasiga bo'yicha

shu davrda 77 eshelon mardikor yuborilishi lozim edi [12]. Ko'rib turganimizdek, rus hukumati ko'zlagan maqsadiga yeta olmagan. Bu shubhasiz, o'sha vaqtda Turkistonda ko'tarilgan milliy ozodli harakatlarining samarasi edi. Qo'zg'olon shavqatsizlarcha bostirilishiga qaramay, u o'z samarasini bermay qolmagan, afsuski bu juda ko'p qurbonlar, begunoh insonlarni qoni to'kilishi evaziga sodir bo'lgan edi.

Xulosa.

Xullas, istiqloлга erishganimizdan so'ng rus hukumatiga qarshi bo'lib o'tgan milliy ozodlik harakatlarini o'rganish va ularni yoritish boshlandi. Bu mavzuda eng yirik tadqiqotlarni olib borgan tarixshunoslardan biri Dono Ziyoyevaning ilmiy asarlari natijasida Turkiston aholisini rus hukumatiga qarshi olib borgan qo'zg'oloni haqida yangi ma'lumotlar e'lon qilindi. Bu ma'lumotlar bilan tanishib ajdodlarimizni o'z erklari, g'ururlari uchun jonlarini ham ayamaganliklarni ko'rib o'tdik. Shubhasiz, bu harakat va qurbonliklar samarasiz ketmadi. Keyinchalik hokimiyat tepasiga kelgan sovetlarni bu qo'zg'olonni mustamlaka manfaatlariga moslashtirib ozodlik harakatlari emas balki, sinfiy urush sifatida talqin etishi ham bu qo'zg'olon yana takrorlanishidan qattiq qo'rqqani va uzoq vaqt rus hukumati yodidan o'chmaganligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. <https://academy.uz/uz/news/ustozni-xotirlab-professor-dono-ziyoyeva>.
2. Dono Ziyoyeva nomidagi O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr oxiri). Toshkent: Fan, 2022. – B. 7.
3. Dono Ziyoyeva. Turkiston milliy ozodlik harakati. Toshkent: 2000. - B. 46.
4. Ziyonurin taratib. Toshkent: Fan, 2021. – B.188-206.
5. Hamid Ziyoyev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash, Toshkent- 1998. – B. 387.
6. D.X.Ziyoyeva. Milliy ozodlik uchun kurash voqealari Fayzulla Xo'jayev talqinida. // Fayzulla Xo'jayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar. Toshkent: Fan, 1997. – B. 57.
7. Xo'jayev F. 1916 yil qo'zg'olonning tarixiy ahamiyati. // Правда Востока, 1936 yil 5 avgust.
8. Dono Ziyoyeva. Turkiston milliy ozodlik harakati. Toshkent 2000. B. 12-14.
9. Dono Ziyoyeva. Turkiston milliy ozodlik harakati. Toshkent 2000. B. 13-14.
10. Dono Ziyoyeva. 1916 yil qozg'oloni va Rossiya dumasi. // Guliston. -1997. №1. B. 31.
11. E.R.Xoliqovna. Turkiston o'lkasidagi milliy ozodlik harakatlari tarixidan. // O'tmishga nazar – 2020. №3. B. 25.
12. Choriyev Z.U. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida mustamlakachilik siyosati va milliy zulmning kuchayishi hamda uning oqibatlarini (Mardikorlika safarbarlik misolida). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1999. B – 144.

## AQLLI BOSHQARUV (SMART GOVERNANCE) DAVLAT BOSHQARUVI NAZARIYASI VA AMALIYOTIDA YANGICHA KONSEPT

Raximova Muqaddas  
Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Tarix” kafedrası v.b. dotsenti mukaddasibragimovna1972@gmail.com

*Annotatsiya: Maqolada muallif tomonidan davlat boshqaruvining konstruktiv optimal usullari, yangi tendensiya mexanizmlari tahliliy asoslangan. Aqlli boshqaruv (smart governance) ko‘p qirrali va murakkab tushuncha bo‘lib, uni yanada rivojlantirish kerak. Mamlakat istiqbolida ushbu konsepsiya moslashuvchan va yuqori darajada samarali komplekslar shaklida tashkil etilgan zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va usullarning yaxlit tasavvurini aks ettiradi.*

*Shuningdek, yaqin kelajakda samarali natijalarga erishish omillari ilgari surilgan.*

*Kalit so‘zlar: “yangi davlat boshqaruvi” “smart boshqaruv”, neoliberal yondashuv, jahon banki, boshqaruvning zamonaviy konsepsiyasi, raqamli texnologiya, faoliyat natijadorligi.*

## УМНОЕ УПРАВЛЕНИЕ (SMART GOVERNANCE) КАК НОВАЯ КОНЦЕПЦИЯ В ТЕОРИИ И ПРАКТИКЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Рахимова Мукаддас,  
Ташкентский университет прикладных наук, и.о. доцента кафедры  
«История»

*Аннотация. В статье автором аналитически обоснованы конструктивные оптимальные методы государственного управления и механизмы новых тенденций. Умное управление (smart governance) — это многогранное и сложное понятие, которое требует дальнейшего развития. В перспективе страны данная концепция представляет собой целостное видение современных подходов и методов управления, организованных в виде гибких и высокоэффективных комплексов. Кроме того, выдвинуты факторы, способствующие достижению эффективных результатов в ближайшем будущем.*

*Ключевые слова: «новое государственное управление», «умное управление», неолиберальный подход, Всемирный банк, современная концепция управления, цифровые технологии, эффективность деятельности.*

## SMART GOVERNANCE AS A NEW CONCEPT IN THE THEORY AND PRACTICE OF PUBLIC ADMINISTRATION

Rakhimova Muqaddas,  
Tashkent University of Applied Sciences, Acting Associate Professor of the  
Department of «History»

*Abstract. The article analytically substantiates constructive optimal methods of public administration and mechanisms of new trends. Smart governance is a multifaceted and complex concept that requires further development. In the country's future, this concept reflects a holistic vision of modern management approaches and methods, organized in the form of flexible and highly effective complexes.*

*Additionally, factors for achieving effective results in the near future are proposed.*

*Keywords: «new public management,» «smart governance,» neoliberal approach, World Bank, modern management concept, digital technology, activity efficiency.*

Bugungi kunda davlat hokimiyati boshqaruvini optimallashtirishda mamlakat farovonligi va iqtisodiyot barqarorligi uchun har bir shaxsning davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, bunda davlat boshqaruvida "aqli" boshqaruvning o'rni muhim. Boshqaruvda aqli boshqaruvni qo'llash imkoniyati va tarixiga nazar soladigan bo'lsak, unda boshqaruvga munosabatning o'zgarishi lozimligi birinchi marta Jahon banki hisobotida asoslandi. Ya'ni, uning 1997 yilgi hisobotida "kuchli" hukumatni ham "zaif" hukumatning ham pozitsiyasi amalda samarasiz deb baholandi va samarali hukumat yaratish zarurligi ta'kidlandi. Demak, munosabat va yondashuv nafaqat boshqaruvda, balki har qanday vazifa, faoliyat yoki faoliyat jarayonini to'g'ri tashkil etilishining samarasi bilan yakunlanadi. Shu bois yangi yondashuvning mohiyati me'yoriy qonunlarni ko'paytirish yoki aksincha emas, balki ularning sifatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni anglatadi.

Tarixiy jihatdan, davlat boshqaruvi 1970-1980 yillarda, neoliberal yondashuvning kengayishi va uning davlat boshqaruvida hukumat harakati va boshqaruviga e'tibor bermasligi bilan ajralib turadigan davrda vujudga keldi. Bunday yondashuv xususiy sektordagi eng yaxshi boshqaruv amaliyotini davlat sektoridan ustun qo'yadi. Shuning uchun ham davlat boshqaruvida xususiy sektor amaliyotini qabul qilish ehtiyoji X.Reynining fikricha, kuchli edi va ko'pchilik buni davlat boshqaruvi oldida turgan muammolardan xolis bo'lishda "ajoyib eliksir" sifatida ko'radi. Shunday idrok davlat boshqaruvini ham, an'anaviy Veber byurokrtiyasini ham qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Demak, mualliflar fikri, davlat boshqaruvi mumtoz nazariyasining zamonaviy davlat boshqaruvi, ya'ni "smart" boshqaruvi konsepsiyasi bilan integratsiyalashuvi kuzatiladi.

G.T. Ellisonning izohlashicha, «Evropa integratsiyasi va hokimiyatni nomarkazlashtirish sharoitida davlat sektorining o'rni, uning xususiy sektor bilan hamkorligi haqidagi qarashlar o'zgardi. U xususiy sektor va davlat tushunchasi o'rtasidagi munosabatlarga urg'u beradi va ularning boshqaruv usullarining qarama-qarshiligini qayd etadi. Demak, yondashuv davlat boshqaruvining xususiy sektorga bo'lgan kompromissini ifodalaydi.

"Smart" boshqaruvining mohiyati ikki jihati bilan – bu davlatning faoliyati va o'zaro ta'sirida ifodalanadi. Ya'ni "davlat boshqaruvi"ning xususiyatli jihatlari uning samaradorligi, shaffofligi va maqsadlarga erishishdagi muvaffaqiyatlari hisoblanadi. Olimlarning fikricha, bunday davlat boshqaruvi davlat sektoridagi davlat ta'sirini albatta cheklaydi. Shunday bo'lsa-da, davlat boshqaruvi aksincha mansabdor shaxslarning tafakkurini o'zgartiradi va ularni "byurokratik tartib-qoidalaridan ko'ra ko'proq natija qiziqtiradi va ular uchun iste'molchi vazifasini bajaruvchi fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga majbur qiladi, jarayon va ularga erishishni tartibga soladi". Shu xususida, G.Kupryashin fikri quyidagicha, "smart boshqaruvi" faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

- tegishli idoralar va vazirliklar o'rtasida dasturlar va maqsadlarning maqbulligi bo'yicha muhokamalarni qo'llab-quvvatlash;
- jarayonda mehnat unumdorligini oshirishning yangi o'lchov mexanizmlarini joriy etish, jumladan, ish natijalariga qarab ish haqi belgilash;
- faoliyat harakatlari va dasturlarining ratsionalligini monitoring qilish va baholash uchun axborotni taqdim etish;
- aniq belgilangan byudjet mablag'lari hamda kutilayotgan (samaradorlikni byudjetlashtirish) faoliyat natijalari asosida xarajatlar va foydalarni o'rganish;
- o'xshash boshqaruvning samaradorligini yoki shunga o'hshash harakatlarni solishtirish va yaxshilash mumkin bo'lgan faoliyatni aniqlash. Demak, davlat hokimiyati



va boshqaruvi organlari faoliyatida “aqlli” boshqaruv yoki aqlli tartibga solish g‘oyasini ijobiy ma’qullasa bo‘ladi. Chunki, davlat boshqaruvi demokratik rivojlangan aksariyat davlatlar asta-sekin shunday yangi davlat boshqaruviga o‘tibgina qolmay, balki, “smart” boshqaruvini amalga oshirish atrof-muhitni tartibga solish sifatida ko‘riladi. Bunda ifloslanish ma’nosi turli korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olishni nazarda tutadi va unda “smart” boshqaruvini afzalligini ko‘rishadi. Shuningdek, “smart” boshqaruvini tartibga solishning o‘ziga xosligi bu davlat harajatini kamaytirish, ist’emolchilarning, fuqarolarning huquqlarini himoya qilinishini yaxshilashga asos bo‘ladi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tadqiqotchilar tomonidan “ist’emolchilar ehtiyojlarini qondirish” bo‘yicha davlat funksiyalarini a‘lo bajarilishi tizimi sifatida qaraladigan “Yangi davlat boshqaruvi” va boshqaruvning zamonaviy konsepsiyalari konseptlari tobora chuqur va keng tadbiq etilmoqda. Mazkur konsepsiyalar davlat boshqaruvining yuqori samaradorligi, vakolatlarni ma’muriy ierarxiyaning past bo‘g‘inlariga berilishi, qarorlar qabul qilishda siyosiy plyuralizmga hamohang hokimiyat ma’suliyatni muvozanatli taqsimlashga, fuqarolarning faol ishtirokini oshirishga qaratiladi.

Yangi davlat boshqaruviga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida shunday boshqaruv yondashuvining negizini belgilovchi beshta omillari aniqlangan bo‘lib, bular nomarkazlashtirish, xususiylashtirish, davlat sektoriga nisbatan mexanizm, xususiy sektorni boshqarish amaliyoti va ishtirok etishni joriylashtirish. Shuni ta’kidlash kerakki, bu belgilar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. YaDB belgilarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ular davlat sektorida ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishi, uning yanada samarali bo‘lishi hamda raqobatni rag‘batlantirishi ham mumkin, biroq, yangi muammolarni keltirib chiqarish va foydadan ko‘ra ko‘proq zarar yetkazishi ham mumkin. Yaxshi davlat boshqaruvi g‘oyasiga asoslangan yangi davlat boshqaruvi an’analari qanday saqlash va maqsadlarga erishish uchun qanday innovatsiyalar qilishni bilishi va tushunishini isbotladi. Bunda inqilobiy o‘zgarishlar bo‘lmasligi, balki undagi o‘zgarishlar konteksti eski boshqaruvni o‘zgartiradi xolos.

2007 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Davlat boshqaruvi va taraqqiyot boshqarmasi bo‘limi axloq kontekstida innovatsion g‘oyani to‘g‘ri qo‘llash sifatida belgilab berdi. Buning farqli tomoni boshqaruvning ma’naviy jihatlari, faoliyatga yangi innovatsion g‘oyalarni kiritilishi orqali natijaga erishishda va vazifalarning bajarilishida yondashuvlar va jarayonlarning o‘zgarishi bilan birga davlat boshqaruvining o‘zgarishini anglatadi. Bular davlat boshqaruvi innovatsiyasini jamoatchilik tomonidan hukumat harakatlariga ta’sir etuvchi yangi formulalar va standart operatsion tartib-qoidalarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Shu xususida, E. Troiskaya davlat boshqaruvida yangi tizimlarning bir qator qulay tamoyillari mavjudligini ta’kidlaydi, ularni muhim to‘rtta guruhga birlashtiradi: 1-guruhda, samarali boshqaruv mexanizmlari (faoliyat maqsadlari va natijalarini boshqarish); 2-guruhda, vakolatlarni o‘tkazish mexanizmlari (davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish va davlat funksiyalarini shartnoma bo‘yicha xususiy sektorga o‘tkazish); 3-guruhda, jamoatchilik ishtiroki va xizmatlar ko‘rsatish chegaralarini kengaytirish (mijozga yo‘naltirilgan yondashuv, davlat organlari faoliyati ustidan fuqarolik nazoratini amalga oshirish, davlat va jamiyat o‘rtasida davlat qarorlarini qabul qilishda ular javobgarligini taqsimlash); 4-guruhda, strategik mexanizmlar (byudjetni tejash, davlat sektori ichidagi raqobat, davlat boshqaruvida bozor mexanizmlaridan foydalanish, byudjet va moliya vositalarini optimallashtirish). Bulardan shunday fikr kelib chiqadiki, yangi davlat boshqaruvi deganda, aynan, “aqlli” boshqaruv nazarda tutiladi. U odatdagi professional boshqaruvdan farqli ravishda, tartibga solish jarayonini soddalashtiradi, samaradorligini oshiradi. Bir vaqtning o‘zida shuningdek, parlament

faoliyatini osonlashtiradi.

Davlat boshqaruvini optimallashtirish nuqtai-nazaridan qaraganda ushbu boshqaruv boshqa boshqaruv tendensiyalari bilan raqobatlasha oladi va g'olib chiqadi. Amerikalik jamiyatshunos olimlar X.Sholl va M.Sholllar kabi qator tadqiqotchilarning fikricha, "aqlli" boshqaruv iborasi birinchi marta 1997 yilda Jahon bankining kichik va e'lon qilinmagan hisobotida ("Davlat xizmati islohotini qayta ko'rib chiqish: aqlli hukumat uchun kun tartibi") ishlatilgan (Qashshoqlik va ijtimoiy siyosat bo'yicha ish hujjati)», B.Nunberg). Biroq, keyin ma'lum bo'lishicha, u Xindistonda deyarli bir vaqtning o'zida Andhra-Pradesh shtatida qo'llanilgan. Unda hukumatning komyuterlashtirilganlik darajasi tavsiflanadi. Umuman olganda "aqlli" boshqaruv qachon kirib keldi, deganda, 2008 yil moliyaviy inqiroz yuz berishi bilan bog'lashadi. Biroq uning ildizi 1990 yillarga borib taqaladi va koalitsion hukumatlarda bu boshqaruv joriylashtirilgan deyiladi manbalarda. "Aqlli" so'zi raqamli rivojlanishning keyingi to'liqini uchun jahon miqyosida tan olingan yorliqqa aylandi. Biroq, aksariyat hollarda, u aqlli aslida qamrab oladigan tushunchalarni tushunmasdan, elektron hukumat yoki ochiq hukumat o'rni bosuvchi yangi maxraj, yangi sifat belgisi sifatida ishlatiladi.

"Aqlli" so'zi AQShning sobiq prezidenti Bill Klinton singari "aqlli", "yoqimli" va "buyuk" so'zlarning sinonimi sifatida ishlatiladi, u buni 2011 yilda "Ishga qaytish: Bizga kuchli iqtisodiyot uchun aqlli hukumat kerak" kitobida jamlagan edi. Uning mazmunida "aqlli" boshqaruvni joriy qilinishi avvalo buyruq va nazoratni bekor qiladi hamda an'anaviy professional hokimiyatdagi o'ziga xos boshqaruvni ta'minlaydi va moslashuvchanlikni yaratadi. Shuningdek, faoliyatda davlat organlarining raqobatdoshligini oshirib, monopoliyani cheklaydi.

Tabiiyki, mavzuga oid ilk monografiyalardan birining muallifi X.Vilkning fikricha, "aqlli" tartibga solish (boshqaruv) bu "boshqaruvning shart-sharoitlari va ehtiyojlarini qondira oladigan boshqaruv shaklini tashkil etuvchi tamoyillar, omillar va imkoniyatlarning qisqarishidir". Tahlilni davom ettirar ekan, muallif "aqlli boshqaruvni" "rasmiy demokratik hukumatni qayta qurish" deb tavsiflaydi.

Rossiyalik tadqiqotchi A.Skvorsov "aqlli boshqaruv"ni quyidagi tushunchalarda: samaradorlik, moslashuvchanlik, muvofiqlik, tartibga solish, professionallik, harakatchanlik va ochiqlik tushunchalari sifatida aks etishini ta'kidlaydi. U texnologik jihatdan aqlli boshqaruv axborot va telekommunikatsiya tarmoqlari, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish (BPR), mobil ilovalar, bulutli texnologiyalar (bulut xizmatlari), ochiq ma'lumotlar va katta ma'lumotlar bazasidan (Big Data) iborat ekanligini tushuntiradi. Demak, biz taklif qilayotgan "smart" boshqaruv modeli professional boshqaruvdan farqli ravishda ularning tartibga solish jarayonini soddalashtiradi, samaradorligini oshiradi. Shu bilan boshqaruv faoliyatdagi oqilona tekshiruvlarni ta'minlab beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Davlat boshqaruvi va boshqaruvini rivojlantirish departamenti ekspertlari A.Alberti va J.Keppingning fikriga ko'ra, "aqlli" boshqaruvning muhim masalalari innovatsion, samarali, inklyuziv, hamkorlikka asoslangan bo'lib, qaror qabul qilish va xizmatlar ko'rsatishda davlatning ochiqligiga asoslanadi, ya'ni bu zamonaviy ma'lumotlarga asoslanadigan texnologiyalar». Demak, bu yangi axborot texnologiyalardan unumli va keng foydalangan holda mavjud muammolarni xolis hal qilish imkoniyatidagi innovatsiyalarni yaratish hamdir.

Iqtisodchi milliy olim A.Xolov davlat boshqaruvining boshqaruv jarayonidagi tashkil etish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va rag'batlantirish kabi har bir bosqichida qarorlar qabul qilishda uning asosiy tamoyillariga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Rossiyalik yana bir olim G.Menshikova "aqlli" boshqaruvning barcha tadqiqotchilari

ma'lum bir murakkablik va noaniqlik sifatida majburiy amalga oshirishga ishora qiladi. Bu infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish zaruratini ochib beradi. Infratuzilma rivojlanib borar ekan, aqlli boshqaruv omillari, masalan, mavjud ijtimoiy muammolarga e'tiborini qaratish, vazifalarning ishonchligini kuchaytirish va oshirish, manfaatdor tomonlar ishtirokini doimiy takomillashtirish, muvofiqlashtirish, ochiq hukumat va axborot ma'lumotlar bazalariga jamoatchilikning keng kirishi.

Ma'lumotlarni monitoring qilish, to'plash va raqamli qayta ishlash asosida tartibga solish va nazorat salohiyatini chuqurlashtirish boshqaruv tuzilmalarining jamiyat oldidagi hisobdorligi shakllari va usullarini asoslaydi, ularni kadrlar rotatsiyasiga kiritadi. Umuman olganda, bizning tadqiqotimiz natijalariga asosan "aqlli" boshqaruv konsepsiyasi hali ham shakllanmoqda va hozirgi vaqtda quyidagi tamoyillar shakllantirilgan:

- boshqaruvda elektron yoki raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- faoliyat jarayonini o'zgartirish uchun AKTdan foydalanish va ularni davlat boshqaruvi tizimiga joriy etish;

Shuningdek, yangi davlat boshqaruvning turli jihatlarini qamrab oluvchi va ular aqlli boshqaruvning kaliti ekanligini ta'kidlaydigan oltita belgilovchi unsuri aniqlandi: 1-unsuri, bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan (AKT) foydalanish hisoblanadi. Masalan, Djiffindjer, Fertner, Kramar, Meyers va Pixler-Milanovichlar aqlli boshqaruv deganda fuqarolar uchun "elektron hukumat" yoki "elektron demokratiya" kabi yangi aloqa kanallaridan foydalanishni nazarda tutadi; 2-unsuri hamkorlik va ishtirokchilikdir. Masalan, Batagan aqlli boshqaruvni iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradigan va eng muhim darajadagi operatsiyalar va xizmatlarni chinakam fuqarolarga yo'naltiriladigan bo'limlar va jamoalar o'rtasidagi hamkorlik sifatida belgilaydi; 3-unsuri muvofiqlashtirish. Bunga Vilkning "hamkorlik orqali jamoaviy maqsadlarga erishish uchun muloqotni to'g'ri muvofiqlashtirish faoliyati" sifatidagi boshqaruvning konseptual konsepsiyasi yorqin misol bo'ladi; 4-unsuri, bu qaror qabul qilish jarayonlaridir. Bunda vaziyat tahlil qilinadi va tashxis beriladi, so'ngra strategik rejani ishlab chiqish va nihoyat chora ko'rish bilan boshlanadigan uch bosqichli jarayon taklif etiladi; 5-unsur elektron boshqaruv. N.Odendalning ta'kidlashicha, aqlli boshqaruv deganda davlat organlarining xizmatlarni taqdim etishi va oldindan belgilangan vakolatlarni bajarishda jamoatchilik bilan onlayn muloqot qilishdagi qobiliyati tushuniladi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha "smart boshqaruv", bu demokratik moslashuv, tekshirish va nazoratni ta'minlaydi. Bunday boshqaruvni demokratiyaning yangi ko'rinishi deyishimiz ham to'g'ri bo'ladi. Bu bir tomondan bugungi boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda qo'l qelsa, ikkinchi tomondan inson resursiga xizmat qilib, vaqtni tejash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda innovatsion g'oyalarga asoslanishda bir qator afzalliklarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Красильников Д.Г., Свинцева О.В., Троицкая Е.А. Современные западные управленческие модели: синтез New Public Management и Good Governance. ARSADMINISTRANDI. 2014. №2. С. 45–62. Электрон манба: <http://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-zapadnye-upravlencheskie-modeli-sintez-new-publicmanagement>.

2. Петров Д.А. Понятие и виды государственного регулирующего воздействия на общественно экономические отношения. Вестник Санкт-Петербургского университета. Право. Серия №14. 2013. С. 18-26. Электрон манба: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-vidy-gosudarstvennogo-reguliruyuschegovozdeystviya-na-obschestvenno-ekonomicheskie-otnosheniya>.

3. Rainey H.G. "Public Management: Recent Developments and Current Prospects" in N.B.Lynn and A.Wildavsky, Public Administration: The State of the Discipline,

Chatham, Chatham House Publishers. pp.157-184.

4. Allison G.T. Public and Private Management: are they fundamentally alike in all unimportant respects. Shafritz J.M., Hyde A.C. (eds.) Classics of Public Administration (4th edn.). Belmont. CA: Wadsworth. 1997. – P. 457-475.

5. Купряшин Г.Л. Государственный менеджмент: возможности и ограничения. Государственное управление Электронный вестник. 2003. № 1. С. 3–6.

6. Троицкая Е.А, кандидат политических наук Административная реформа в современной России в контексте концепции нового государственного менеджмента тема и автореферат диссертации РФ.

7. Scholl C.J., Scholl M.C. Smart Governance: a roadmap for research and practice. Eds M.Kindling, E.Greifeneder. Berlin, Illinois digital Environment for Access to Learning and Scholarship (IDEALS), 2014. –P. 163-176. [https://www.ideals.illinois.edu/bitstream/handle/2142.47408.060\\_ready.Pdf/sequence.2](https://www.ideals.illinois.edu/bitstream/handle/2142.47408.060_ready.Pdf/sequence.2) (accessed: 13.08.2018).

8. В.Clinton. Back to Work: Why We Need Smart Government for a Strong Economy. –New York City. Knopf Doubleday Publishing Group. 2011.

9. Андрей Скворцов. Город с интеллектом. Журнал «Деловой квадрат». 2015. –№3 (113). март. Электрон манба: <http://old-d-kvadrat.ru/dk/info/17424.html>.

10. Capacity Development Workshop on “ICT and E-Government in SIDS: Responding to the SAMOA Pathway” 11-12 February 2015 Seoul, Republic of Korea. Электрон манба: [http://www.sustainableids.org/wp-content/uploads/2018.06.1\\_Overview-for-SIDSTraining-Workshop.pdf](http://www.sustainableids.org/wp-content/uploads/2018.06.1_Overview-for-SIDSTraining-Workshop.pdf).

---

## **БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИДА МАДАНИЙ ВА МАЪРИФИЙ СОҲАДАГИ ИСЛОҲОТЛАР ҲАМДА ЎЗГАРИШЛАР ЖАРАЁНИ (1920-1924 ЙИЛЛАР)**

*Жунаев Зухриддин Болтаевич ЖУНАЕВ*

*Навоий давлат университети “Тарих” кафедраси доценти в.б.,  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори*

---

*Аннотация. Ушбу мақолада 1920 йил сентябрда Бухорода амир ҳокимиятининг аздариллиши натижасида ташкил топган Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР) даги маънавий-маданий соҳада амалга оширилган ислоҳотлар, хусусан маданий муассасаларининг аҳволи, маориф тизимидаги ишларнинг ҳолати каби масалалар ёритилган.*

*Калит сўзлар: театр санъати, кутубхона, маориф тизими, Қоидалар, музей, Маориф халқ нозирлиги, етимхоналар, мактаблар, “Тарихи анжуман”, Шаишмақом, Шарқ муסיқа мактаби, Бухкино.*

## **ПРОЦЕСС РЕФОРМ И ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В КУЛЬТУРНОЙ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СФЕРАХ БУХАРСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКИ (1920-1924 гг.)**

*Джунаев Зухриддин Болтаевич ДЖУНАЕВ*

*Навоий давлат университети  
“Тарих” кафедраси доценти в.б., тарих фанлари бўйича фалсафа доктори*

---

*Аннотация/ В данной статье описываются реформы в духовно-культурной сфере Бухарской Народной Советской Республики (БНСР), образованной в сентябре 1920 года в результате свержения власти эмира, состояние культурных учреждений и состояние системы образования.*

*Ключевые слова: театральное искусство, библиотека, система образования, правила, музей, Народное Министерство просвещения, приюты, школы, «Тарихи Анджуман», шаишмақом, Школа восточной музыки, Бухкино.*

## **THE PROCESS OF REFORMS AND TRANSFORMATIONS IN THE CULTURAL AND EDUCATIONAL SPHERE OF THE BUKHARAN PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC (1920-1924)**

*JUNAEV Zukhriddin Boltaevich*

*Associate Professor Department of History, Navoi State University,  
Doctor of Philosophy in History*

---

*Abstract. This article describes the reforms in the spiritual and cultural sphere of the Bukhara People's Soviet Republic (BPSR), which was formed in September 1920 as a result of the overthrow of the emir's power in Bukhara, the state of cultural institutions, and the state of the educational system.*

*Key words: theater art, library, educational system, Rules, museum, People's Ministry of Education, orphanages, schools, “Tarihi Anjuman”, Shashmaqom, Eastern Music School, Bukhkinō.*

**КИРИШ (Introduction).** Тарихий жараёнларнинг янги парадигмаларини ўзлаштириш, ҳақиқатни англаш омилини шакллантириш ва унинг амал қилишига шароит яратиш имкони мамлакатимиз истиклоли туфайли пайдо бўлди. Ўзбекистон

тарихини ўрганишнинг янги, илмий холисликка ва тарихий объективликка асосланган принциплари ишлаб чиқилди. Пировардида мамлакатимиз тарихчилари ва бошқа гуманитар фанлар вакиллари томонидан Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига бағишланган юзлаб илмий ишлар янги концептуал ёндашувлар асосида тайёрланди. Қуйида сўз юритадиган тадқиқот ишимиз ҳам биз илгари сураётган ушбу фикр-мулоҳазаларимизнинг яққол ифодасидир.

Ўзбек давлатчилиги тарихида гарчи қисқа давр яшаган бўлсада, Бухоро Халқ Совет Республикаси (1920-1924 йиллар) муҳим босқич сифатида из қолдирган. БХСРда Файзулла Хўжаев бошчилигидаги миллий ҳукуматнинг шаклланиши билан миллий тараққиёт сари амалий қадамлар ташланди. Ёш бухороликлар ўзларининг ислохотчилик ғоялари ва давлатчилик қарашларини ўзлари бошқараётган янги ҳукуматда амалга оширишга киришдилар. Республика йилларида Бухоро аҳолиси хонликдан мерос қолган асоратларни тугатиб, дастлабки демократик ўзгаришларни ҳаётга жорий этиш учун интилдилар. БХСР раҳбарларининг тинимсиз фаолияти натижасида янги республикада қисқа муддат давомида катта ишлар қилинди, хусусан, маънавий-маърифий соҳада ҳам кенг кўламли ислохотлар амалга оширилди. Аммо совет ҳокимиятини зўравонлик билан қарор топиши ҳамда минтақани социалистик тараққиётга тортиш орқали бу ерда советлаштириш ва руслаштириш сиёсатини олиб бориши каби муаммоларни ўрганиш, холисона ёритиш каби масалалар бугунги кунда тарихни тадқиқ этишда муҳим аҳамият касб этади.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (Literature review). Мазкур мавзуда ёзилган тарихий адабиётларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, уларни методологик ёндашув ва илмий хусусиятга кўра учта асосий гуруҳ: биринчи гуруҳ – совет даврида яратилган тадқиқотлар бўлиб, буларга О.Эшонов[1], А.Уралов[2], С.Зиманов[3], А.Бобохўжаев[4], М.Ваҳобов[5] каби муаллифларнинг асарларини айтиб ўтиш жоиз. Аммо ушбу гуруҳга хос адабиётларнинг умумий хусусияти шундан иборатки, уларда холислик тамойиллари бузилган, синфий ёндашув устунлик қилган, тарих коммунистик мафкуранинг аввалдан белгиланган ва қотиб қолган маълум бир қолипи асосида ёзилган ҳамда бирламчи манбалар ушбу ғаразли мақсадга хизмат қилдирилган. Шу боисдан БХСР тарихи мавзусида совет даврида яратилган тадқиқотларнинг умумий таҳлили шуни кўрсатадики, бу ишлар бугунги кун талабларига жавоб бера олмайди. Иккинчи гуруҳ – Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришганидан Р.Раджапова[6], Ф.Қосимов[7], М.Жўраев[8], У.Рашидов[9] ва бошқаларнинг илмий муҳаррирлигида нашр этилган китоблар, Қ.Ражабов[10], Х.Жўраев[11], Ш.Ҳайитов [12], О.Рашидов[13]ларнинг тарихий тадқиқотларини таъкидлаш ўринлидир. Мустақил совет тузумининг емирилиши, миллий маънавиятнинг тикланиши натижасида Ўзбекистон тарихининг ажралмас қисми бўлган Хоразм Халқ Совет Республикаси тарихини ёритишда синфий ва партиявий ёндашувлар инкор қилиниб, муаммони фақат илмий асосда чуқур ўрганишга киришилди. Биз эътироф этаётган мазкур гуруҳдаги тадқиқотлар ҳамда уларнинг муаллифлари масаланинг айрим жиҳатларини ёритишда шу нуқтаи назардан ёндашган. Учинчи гуруҳ – хорижий тадқиқотлар ҳисобланиб, улар сирасига Аҳмад Заки Валидий[14], Боймирза Ҳайит[15], Адиб Ҳолид[16], Темур Хўжа ўғли[17] асарларини келтириш мумкин. Ушбу муҳожирликдаги туркистонликлар ва хорижий тадқиқотчилар ўз асарларида XX аср бошларида Туркистон минтақасида, хусусан, Бухородаги сиёсий ва ижтимоий муаммолар имкон қадар холис ва илмий таҳлил қилиниб, муҳим далиллар келтирилади. Бирок бу тадқиқотларда Бухоро Халқ Совет Республикасининг маънавий-маданий ҳаёти

жиддий тадқиқ этилмаган. Муаммонинг бу жиҳатлари ушбу мавзунинг алоҳида тадқиқот объекти сифатида танлаб олиншига имкон яратди.

**ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ (Research Methodology).** Мақола тарихийлик, қиёсий-мантикий таҳлил, кетма-кетлик, ҳаққонийлик ва холислик каби метод ва тамойиллари асосида ёритилиб, унда Бухоро Халқ Совет Республикаси ташкил топганидан сўнг, янги ва ёш республикадаги ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар, хусусан, советлар тузумига ўтиш, янги жамият қуришга қаратилган кенг қўламли ишлар амалга оширилганлиги, бу жараёнда БХСРдаги маънавий-маданий соҳада амалга оширилган ислоҳотлар, хусусан маданий муассасаларининг аҳволи, маориф тизимидаги ишларнинг ҳолати каби масалалар бирламчи манбалар асосида таҳлил қилинган.

**ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР (Analysis and results).** БХСР ҳукумати маданият ва маориф соҳаларини ҳам ислоҳ қилишга катта эътибор қаратди. Бу борада БХСР ҳукумати таркибида ташкил қилинган Маориф халқ нозирлиги катта роль ўйнади. БХСР маориф нозирлари сифатида 1920-1924 йилларда Бухородаги жадиждчилик ҳаракати ва Ёш бухороликларнинг етакчилари бўлган Қори Йўлдош Пўлатов (1890–1965), Абдулвоҳид Бурҳонов (1875–1934), Абдурауф Фитрат (1886–1938), Мусажон Саиджонов (1893–1937) фаолият кўрсатишди. Хусусан, Фитрат БХСРда маорифни ривожлантиришда катта хизмат қилди[18].

Бутунбухоро инқилобий қўмитасининг 1920 йил 20 октябрдаги қарорида республика ҳудудидаги барча эски мактаблар ва мадрасаларни ислоҳ қилиш ва уларда дунёвий билимларни кенгроқ ўқитишни жорий қилиш кўзда тутилди. Шу билан бир қаторда янги типдаги мактаблар ташкил қилиш, аҳоли ўртасида саводсизликни тугатиш ишлари ҳам бошлаб юборилди. 1923 йилга келиб БХСРда янги типдаги мактаблар сони 40 та бўлган бўлса, 1924 йилда 69 та умумтаълим, 4 та муסיқий, 3 та ҳунар мактаблари, 13 та интернат фаолият кўрсатди. Уларда жами 5 604 нафар ўқувчи таълим олди. Бироқ бу рақам мактаб ёшидаги болаларнинг фақат 3,1 фоизини ташкил қилар эди, холос[19].

Маориф ва мактаб тизимини йўлга қўйишда энг асосий меъёрий ҳужжат БХСРнинг дастлабки маориф ноziри Қори Йўлдош Пўлатов раҳбарлигида ишлаб чиқилган “Мактаблар ҳақида умумий қоидалар” (“Қоидалар”) бўлиб, унинг матни 1920 йил 29 ноябрда “Бухоро ахбори” газетаси саҳифаларида тўла ҳолича эълон қилинди[20]. Мазкур қоидаларда БХСРда маорифни йўлга қўйишнинг умумий вазифалари, мактаб маъмуриятида бошқарув, педагог ходимларга маош тўлаш тартиби, мактабда фанларнинг ҳамда таълим-тарбиянинг асосий йўналишлари кайд этилади[21].

БХСРда 1920 йил охири ва 1921 йил бошларида маориф тизимини йўлга қўйиш мақсадида турли шаклдаги таълим муассасалари очилган. “Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталаридаги маълумотларга таяниб, республикада фаолият бошлаган мазкур муассасаларни бир неча тармоқларга ажратиш мумкин: пойтахт Бухоро шаҳри ва вилоятларда ибтидоий (бошланғич) ва умумий таълим берадиган мактаблар, намуна мактаблари, хотин-қизлар мактаблари, ҳунар мактаблари, муסיқа, духовой оркестр мактаблари, устахона мактаблари, сиёсий мактаблар, рус тили мактаблари, дорулмуаллимин (ўқитувчилар билим юрти), хотин-қизлардан муаллимлар етиштириш учун 6 ойлик таълим-тарбия курслари, диний таълим берадиган эски усул мактаблари, шу соҳада олий таълим берувчи муллаваччалар тайёрлайдиган дорулим, саводсизликни тугатиш мактаблари, кечки курслар ва бошқалар.

Бухоро вилояти маориф шўъбаси томонидан 1921 йилнинг январидан Эски Бухорода 5 та мактаб, бутун вилоят бўйича 15 та мактаб, битта хотин-қизлар

мактаби, битта хунар мактаби мавжудлиги хабар қилинади. 1922 йилда шу каби мактабларни 80 тагача етказиш режаси қайд қилинган. Айни шу даврда 5 жойда кечки курслар ҳам фаолият олиб бориб, улардан биттасида форс, турк, рус, немис тилларида таълим берилиб, 120 киши таълим олган экан[22].

1921-1922 ўқув йилидан бошлаб Бухоро шаҳрида биринчи дорулмуаллимин очилган. Дорулмуаллиминда ўқиш муддати 2 йиллик бўлиб, ахзори – сиртқи бўлим ҳам мавжуд эди. Дорулмуаллимин тайёрлов бўлимига қабул қилинадиган ўқувчи-талабалар ёши 15 дан кам, 22 ёшдан катта бўлмаслиги шарт қилиб қўйилган. “Дорулмуаллиминнинг очилиши илм ва маориф йўлида биринчи одимдир. Бухоронинг истиқболи ва саодати учун дорулмуаллиминнинг яшамоғи лозимдир. Бунга ҳукумат аҳамият бериб, бунинг яшамоғини таъмин этиш керакдир” [23], деб ёзилади “Бухоро ахбори” газетасида. Унда таҳсил олиш учун БХСРнинг 10 та вилоятидан ёшлар тўпланган.

1921–1922 ўқув йилида Янги Чоржўй шаҳрида иккинчи дорулмуаллимин ҳам иш бошлади. “Янги Чоржўйда собиқ амир ҳукумати тарафидан солинган Николай гимназияси (Россия подшоси Николай номи билан аталган) ўқув юрти биносида ўтган сана (1921) дорулмуаллимин иш бошлагон эди. Бунга маориф назорати томонидан Файзулло Хўжа исми берилиб, очилиш маросимида ҳукумат бошқлиқлари қатнашди” [24], - дейилади газета хабарларида.

Ўқув даргоҳига қўшни туркий республикалардан (Татаристон АССР, Бошқирдистон АССР, Туркистон АССР) педагог муаллимлар ишлаш учун таклиф қилинган. Бироқ БХСР маориф тизимида фаолият кўрсатган ушбу вакиллар турли сабаблар туфайли орадан кўп ўтмасдан ўз ватанларига қайтиб кетишган.

БХСР ташкил топган дастлабки йилларданок маданият муассасаларидан театр, кутубхона, қироатхона, музей, клуб, чойхона, болалар боғчаси ташкил этиш билан боғлиқ амалий вазифалар бажарилган. 1921 йилда республиканинг маркази Эски Бухорода ва Карки шаҳрида театр биноси қурилди. 1922 йилдан бошлаб Қоракўл, Шеробод, Кармана, Чоржўй, Шаҳрисабз, Янги Бухорода ҳам театр томошалари ташкил этилган” [25]. Гарчи малакали мутахассис ва артистлар етарли бўлмасада, ҳаваскор труппалар томонидан “Қизил қўшин” (Шерободда), “Қозикалон” (Қоракўлда), “Жувонбоз кўрбоши” (Карманада) каби пьесалар намоиш этилди [26]. Албатта, бу пьесаларда синфий кураш ғояси ва коммунистик мафкура устунлик қилган.

Бухорода театр труппалари ташкил этиш ва уларга тегишли бинолар қуриш масаласида раҳбарларининг бевосита иштироки, шахсан Файзулла Хўжаев ташаббуси билан Чоржўйдаги “Лири” номли театр 1922–1923 йилларда 800 томошабин сифадиган бино сифатида қурилганлиги қайд қилинади. Файзулла Хўжаев ушбу санъат иншоотининг очилиш маросимида шахсан иштирок этиб, нутқ сўзлаган. Архив ҳужжатларидан бирининг маълумотича, мазкур театр биносида спектакль томошалари билан бирга цирк, расм ва картина намоишларини ўтказиш имконияти ҳам мавжуд бўлган [27].

Бу даврда Бухорода театр санъатини ривожлантириш учун режиссёр ва актёрлар, мусиқа ва декорация соҳасидаги етук мутахассисларга катта эҳтиёж туғилган. Туркистон АССРдан Бухорога Азимжон театри фаолиятини йўлга қўйиш учун таниқли режиссёр Абдуманнон Уйғур (1897–1955) таклиф этилади. Тарихий ҳужжатлар 1921 йил 21 ноябрда БХСР давлат театрининг тузилганлиги ва раҳбарлик қилиш учун Тошкентдан машҳур режиссёр Маннон Уйғур келганлигини хабар беради [28].

“Бухоро ахбори” газетасида эса ёзилишича, “Уйғур ўртоқ 1922 йил баҳоридан



ўз ёнига бир миқдор ёшларни йиғиб, эскиларини ҳам олиб труппа ясади. Уйғур ўртоқни бир мунча асарларни муваффақиятли суратда ўйнаб ўтказиши халқимизни яна саҳнага (театр томошасига) тортди. Кечаларимиз яна ҳам жон олди”[29].

БХСР ва БХСРда халқ маорифини йўлга қўйиш, дастлабки мактаблар ва театрлар очишда жадидчилик ҳаракатининг йирик намояндаси, таниқли ўзбек шоири Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий (1889–1929) муайян ишларни амалга оширди[30]. Бу пайтда Ҳамза бир неча марта Бухорода бўлиб, театр томошалари саҳналаштирган ва халққа намойиш этган.

Хуллас, Маннон Уйғур ҳамда Ҳамза Бухорода театр режиссёри сифатида иш юритган қисқа даврда халқимизнинг саҳна асарлари ва театр томошасига бўлган қизиқиши анча кўпайган.

БХСР ҳукумати 1920 йил охириданок маориф назорати қармоғида турли тиллардаги адабиётлар мавжуд бўлган давлат кутубхонасини ташкил қилиш чораларини кўрган. 1921 йил ёзига келиб Бухородаги энг катта кутубхона Минораи Калон атрофида Абу Али ибн Сино номи билан очилди. Бу марказий кутубхона бўлиб, 1924 йилга келиб унда ўзбек, форс, тожик, турк ва араб тилларида 43 000 жилд, рус тилида 20 000 жилд, яҳудий тилида 1 800 жилд китоб мавжуд бўлган[31]. 1923–1924 йилларда Эски Чоржўй, Карки, Термиз, Қарши, Ғузор, Китоб, Шаҳрисабз, Карманада кутубхоналар бўлган.

1922 йилнинг 8 ноябрида Бухоро яқинидаги Ситораи Мохи Хоса (Бухоро амирларининг ёзги саройи)да музей очилди. Бухорода фаолият бошлаган биринчи музейнинг очилишида ҳукумат раҳбарлари ҳам иштирок қилиб, ўша пайтда БХСР Нозирлар Шўроси райси вазифасини бажарувчи Отаулла Хўжаев унда нутқ сўзлаган. Бухоро музейининг очилиши ва у билан боғлиқ маросим ва тантаналар ҳамда музейда тўпланган экспонатлар ҳақида “Бухоро ахбори” газетасида йирик мақола босилади[32].

БХСРда аҳолини маданий ҳаётга кенгрок тортиш учун 1923–1924 йилларда 5 та клуб ва 10 та қизил чойхона очилган. Қизил чойхона ва клублар турли вилоят ва туманларда ҳам ташкил қилинган[33].

Бухородаги тарихий ва маданий ёдгорликларни ўрганиш ва уларни муҳофаза қилиш мақсадида 1920 йил охирида БХСР Маориф нозирлиги ҳузурида тарихий ёдгорликларни муҳофаза қилиш учун махсус шўъба ташкил қилинди. Ушбу шўъба ишида, айниқса, Абдурахим Юсуфзода фаоллик кўрсатди. Унинг ташаббуси билан 1924 йил 1 августда Москвада Бухородаги мавжуд тарих ва маданий обидаларни таъмирлаш бўйича шартнома тузилди. Шунингдек, Бухоро ҳукумати мамлакатда маданий оқартув муассасалари ташкил қилиш ва улар фаолиятини яхшилашга ҳам эътибор қаратди. 1924 йилга келиб БХСРда 14 та кутубхона, драма театри, музей ва кўплаб клублар аҳолига хизмат кўрсатди. Ўзбек ва рус тиларида янги газета ва журналлар ҳамда бошқа адабиётлар чоп этиш ҳам йўлга қўйилди[34].

БХСР Маориф халқ нозирлиги томонидан 1922–1924 йилларда маориф соҳасининг турли жиҳатларини қамраб олган кўплаб буйруқлар мунтазам равишда қабул қилинган. Маориф қурултойларини уюштириш ва ўтказиш билан боғлиқ тадбирлар, маорифни моддий жиҳатдан таъминлашга ажратилган маблағлар, маориф икки ҳафталиклари, Бутунбухоро муаллимларининг семинар кенгашлари, уларда кўрилган масалалар, мактаб ислохотидаги ўзгаришлар “Бухоро ахбори” газетасида батафсил ёритиб борилган[35].

БХСР ҳудудида ўқув йили 1 октябрдан бошланиб, кейинги йил июнь ойи бошларига қадар давом этган. Газеталарда ёзилишича, “Бухоронинг ўзида 1921 йил ёзида 17 та ибтидоий (бошланғич) мактаблар, 2 та қизлар мактаби, 3 та етимхона, 1 та ҳунар мактаби, 1 та устахона, 1 та мусиқа мактаби, 1 та сиёсий мактаб мавжуд

бўлган” [36].

БХСР ҳудудида бошланғич ва умумтаълим мактаблари сони 1921–1922 ўқув йилида қуйидагича бўлган: “Чоржўйда 6 та ибтидоий мактаб, бутун вилоятда мактаблар сони 9 та; Қаршида вилоят бўйича 12 та; 7 таси Қарши шаҳрининг ўзида; Карки вилоятида 3 та мактаб; Вобкентда 10 та мактаб; Ғиждувонда 8 та мактаб; Кармана вилоятида 15 та мактаб; Янги Чоржўйда 3 ойлик таълим-тарбия курслари; Чоржўй, Кармана, Хатирчи шаҳарларида етимхоналар бор”[37].

Мактаблар олдида кечки савод курслари очилиб, шу йўл билан саводсизликка қарши кураш бошланган. “Саводсизликни битириш учун кураш” ҳаракати БХСРда, хусусан, 1922–1923 ўқув йили даврида авж олган. Бу ҳақда “Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталарининг ўнлаб сонларида “Саводсизлик билан кураш” рукни остида хабарлар эълон қилинган. Бу пайтда Бухоро Республикасининг ҳар бир вилоятида саводсизликни битириш курслари очилган. Катта ёшли кишиларга 3 ой давомида ўқиш ва ёзишни ўргатиш вазифалари долзарб қилиб қўйилган. Саводсизликни битириш курсларида она тили фани ҳафтасига 6 соат, ҳисоб 6 соат, жуғрофия, тарих, табиат, рус тили, сиёсий савод фанлари 1 соатдан ўқитилган[38].

Тарихчи олим К.Раҳмоновнинг ёзишича, 1923–1924 ўқув йилида бутун республикада 70 000 нафар ўқувчи таҳсил олган, 20 та хат-савод ўргатиш курслари янгидан очилган. Хат-савод курсларининг сони республика охириги йилига келиб 51 тага етган, бироқ улардан фақат 34 та мактабда 1626 нафар ўқувчи сони аниқланган, қолганлари эса маълум бўлмаган. Бундан ташқари саводсизликни битириш курслари ўз олдида қўйган вазифани атиги 26 фоизга бажарган[39].

1924 йилда ҳам БХСРда саводсизлик билан кураш масаласи кўндаланг бўлиб турган. А.Бойматов ўзининг “Озод Бухоро” газетасида чоп этган “Хат-саводсизлик билан кураш жабҳасида” номли салмоқли мақоласида бу ҳақда шундай ёзади: “Ҳар бир мактаб ҳузурида курс бўлмоққа тегишли топилди. Бу курсларда 2 нафар муаллим, 1 нафар мудир, 50 нафар талаба бўлиши лозимлиги белгиланган. Вобкент, Ғиждувон, Қорақўл туманларида, Когон, Чоржўй, Кармана, Қарши, Шеробод, Ғузур, Карки каби шаҳарларда биттадан хат-савод мактаби борлиги айтилди. Ҳар ой Бухорода 840 сўм, вилоятларда 120 сўм харажат қилинаётган экан. Ҳар мактаб 10 сўм 40 тийин олиб, 13 сўм 20 тийинга тушодур. Барча смета 71 639 сўмдур (Шарқий Бухоро киргизилмаган). Ғарбий Бухорода эркаклар 560 000 нафар; хотунлар ҳам 560 000 нафар саводсиз ҳисобга олинган. Муаллимни 3 нафар қилиб, талабалар сонини 75 нафар қилиш керак. Бу мактабларга ибтидоий мактаб ўқувчиларини жалб қилиб, 25 % зиёд (60 сўм) ойлик бериш керак. Ўқитгонлари учун соатлаб 80 тийин беришга қарорлар бериш керак” [40].

БХСР Маориф халқ нозирлиги тарафидан қабул қилинган “Мактаблар ҳақида умумий қоидалар”[41] номли ҳужжатга кўра, “Мактаб мудирлари мактабни идора қилганлари учун 25 фоиз ортиқ олурлар, ҳафтасида 12 соат дарс берурлар” деб ёзилган. Қоидаларнинг “Мактаб ходимлари учун категориялар” бўлимида ўқитувчи мураббийларга маош тўлашда уларнинг малакаси ва иш тажрибаси эътиборга олинган. “Мактаб ходимларига 3 категория ва 5 даража орасинда мойна берилур, яъни 8 000 сўмдан 6 000 сўмга қадар”[42].

Аввал ҳам таъкидлаб ўтилганидек, Фитрат Бухоро Халқ Совет Республикасида маорифни ривожлантиришга катта ҳисса қўшди. Ёш бухоролик тараққийпарварларнинг етакчиларидан бири бўлган таниқли давлат ва жамоат арбоби Абдурауф Абдурахим ўғли Фитрат (1886–1938) 1920 йил сентябрь воқеалари даврида Тошкентда бўлган. У БХСР ҳукумати раиси Файзулла Хўжаевнинг қатъий талаби билан 1921 йил 9 мартда Тошкентдан Бухорога чақириб олинди. Баъзи маълумотларга қараганда, Фитрат 1921 йил БХСР Маориф халқ нозирини, 1922

йилда Хорижия (Ташқи ишлар) халқ нозирини, кейинчалик Бухоро Халқ Хўжалиги Марказий Кенгаши раиси ва ўринбосари, БХСР Халқ Нозирлар Шўроси раисининг муовини, Бутунбухоро Марказий Ижроия Кўмитаси раиси ўринбосари[43], БХСР Меҳнат ва мудофаа кенгаши Президиуми аъзоси ҳамда бошқа масъул лавозимларда 1923 йил июль ойигача фаолият кўрсатди[44].

Фитрат бу пайтда БХСР билан Туркистон АССР ўртасида ўқув юртлари ва мактаблар учун дарсликлар тузиш борасидаги ишларга ҳам раҳбарлик қилди. У Бухорода халқ хўжалигининг равнақи йўлида турли хил иқтисодий ислохотлар ўтказиш ишига бошчилик қилиш билан бир қаторда мамлакат жуғрофий ҳудудларини белгилаш, Амударё флотилиясининг вазифаларини жумҳурият мақсадларига йўналтириш, вақф ерларини ҳисобга олиш ва улардан фойдаланиш, Бухородаги тарихий обидаларни ҳамда шаҳардаги сув иншоотларини тиклаш ва таъмирлаш, Бухорода илм-фан ва маорифни ривожлантириш ишларига шўнғиб кетди[45].

Абдурауф Фитрат маориф нозирини сифатида Бухорода Шарқ дорилфунунини очиш зарурати асосларини тайёрлаб, 1922 йил 14 сентябрда Бутунбухоро Марказий Ижроия Кўмитасининг Бухоро дорилфунуни ташкил этиш ҳақида қарор қабул қилинишига эришди.

Фитрат Бухоро шаҳрига келганда жиддий киришган ишлардан бири Бухоро илмий жамияти (“Тарихи анжуман” жамияти)ни тузиш бўлди. У маҳаллий тарихчилар ва уламолар билан биргаликда турли фанлар соҳасига оид қўлёзма асарларни тўплашга киришди. Айни пайтда бу қўлёзма асарлар Тошкент шаҳридаги Ўзбекистон ФА Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланади.

БХСРда ташкил қилинган “Тарихи анжуман” жамияти таркиби етти кишидан иборат бўлиб, улар олдида вазифа Бухоро Аркидаги бинолар ва ундан ташқаридаги тарихий ёдгорликларни тарихий-этнографик, типографик жиҳатдан ўрганиш ва шу асосда тарихий рисола ёзиш вазифаси кўйилди[46].

“Тарихи анжуман” жамияти таркибига Абдурауф Фитрат, Муҳаммад Сиддик (Ҳашмат)\*, Саййид Муҳаммад Носируддин Тўра, Шарифжон Махдум (Садр Зиё), Мирза Салимбек, Ҳожи Мулло Саид Махмуд Муфти, Қози Аламиён каби бухоролик маърифатпарвар зотлар киритилган. Жамият 1925 йил бошларигача фаолият кўрсатган.

Саййид Муҳаммад Носируддин Тўра\*\* Бухоро ҳукмдорларининг қароргоҳи бўлган Арки Олий тарихига доир “Таҳқиқоти Арки Бухоро” (“Бухоро Арки ҳақида тадқиқот”) асарини 1921–1922 йилларда форс тилида ёзган. Бу китобда Турон минтақасидаги энг қадимий тарихий ёдгорлик ва меъморий обида бўлган Бухородаги Арки Олийнинг илк бор бунёд этилишидан тортиб, турли асрларда рўй берган сиёсий воқеалар ва ташқи душманларнинг ҳужуми натижасида бир неча марта вайрон қилиниши, сўнгра қайта тикланиши баён қилинган.

Файзулла Хўжаев ва Фитрат ташаббуси билан Бухорода 1921 йил 11 март куни БХСР Халқ Нозирлар Шўроси туркий (ўзбек) тилини мамлакат ҳудудида давлат тили деб эълон қилди[47].

Фитрат ва А.Бурҳонов ташаббуси билан Бухородан Германия, Туркия, Озарбайжон ва бошқа давлатларга 200 га яқин талабалар юборилган. Кейинчалик совет давлатининг талаби билан Бухоро талабалари фақат Москва, Тошкент ва бошқа шаҳарларга ўқишга юбориладиган бўлди.

Бухорода 1921 йили Фитрат ташаббуси билан бир йиллик мусиқа мактаби очилди. Мазкур Шарқ мусиқа мактабига 50 нафар ўқувчи олиниб, уларга 15 тилла сўм миқдорида стипендия, бепул озиқ-овқат ва кийим-кечак билан таъминланди.

Муסיқа мактаби Фитратнинг Бухородаги ҳовлисида очилган. Унда бухоролик мақомшунослар ва хонандалардан ташқари Москва, Петроград ва Тошкентдан чақирилган европалик композиторлар ҳам ўқувчиларга дарс берган.

Бухородаги Шарқ муסיқа мактабига Фитрат томонидан мумтоз муסיқа билимдонлари (созанда ва хонандалар) билан бирга В.Успенский сингари муסיқашунослар ҳам таклиф этилди. У шу вақтдан бошлаб Бухоро Шашмақоми куйларини тўплаш ва нотага ёзиб олиш ишларига раҳбарлик қилди. Фитрат ташаббуси билан Ота Жалол ва Ота Ғиёсдан Бухоро Шашмақоми В.Успенский томонидан илк бор нотага солиниб, Бухоро ва Москвада чоп қилинди.

Фитрат ўзининг “Шашмақом”, “Ўзбек муסיқаси тўғрисида” мақолалари ва “Ўзбек классик муסיқаси ҳам унинг тарихи” (1927) рисоласи билан XX аср замонавий ўзбек муסיқашунослик фанига пойдевор қўйди[48].

1922 йил ёзида Шарқ муסיқа мактаби ўқувчилари бир йиллик таҳсилдан сўнг Етимхона театри биносида ўзларининг ҳисобот концертлари ва театр томошаларини намойиш қилишган. Томошада Фитратнинг “Ўғузхон” пьесаси намойиш этилди. Бош ролни (Ўғузхон – Бобой ролини) адибнинг ўзи зўр маҳорат билан ўйнайди. Чўлпоннинг ёзишича, Фитратда актёрлик қобилияти ва таланти ҳам кучли бўлган[49].

БХСР ҳукумати томонидан 1923 йил 1 майда Москвада Бухоро Маориф уйи ташкил қилинади. Ўша йилнинг ўзига Бухородан 290 нафар ёшлар, улар орасида 35 нафар қизлар ҳам бўлган, Москвага жўнатилади. Улар Москвада йирик савдогар ва фабрикант миллионер Рябушинскийнинг саройида ташкил қилинган Бухоро Маориф уйида яшаб таълим олишади[50]. Бухоро ёшларининг бир қисми Москва, Иваново-Вознесенск ва бошқа шаҳарлардаги завод ва фабрикаларда ишлаб, турли хунарларни ўрганишади. Хусусан, бухоролик қизлар тўқимачилик фабрикаларида ишлаб, ҳам таълим олишган, ҳам турли касбларни ўзлаштирганлар.

Бухоро Маориф уйида ҳамда театр–студияда таҳсил олган ўзбек йигит-қизлари орасидан кейинчалик жуда кўплаб санъаткорлар ва маданият арбоблари етишиб чиқди. Ана шундай санъаткорлардан бири бухоролик Ўзбекистон халқ артисти Марям Ёқубова (1909–1987) ҳисобланади. У ўзининг кейинчалик ёзган “Даврим ва даврам” номли хотиралар китобида Москвадаги таҳсил даврини қуйидагича эслаган эди:

“Мени университетнинг\*\*\* биринчи курсига қабул қилишди. Партия раҳбар ходимлари тайёрланадиган бу олий ўқув юртида машғулотлар рус тилида олиб борилар эди. У ерда бўлажак партия ва совет раҳбарлари, шунингдек, келажакда ўз мамлакатларида коммунизм қуриш учун курашишлари лозим бўлган хорижий талабалар ҳам ўқирди. Дастур анчайин мураккаб эди, айниқса, эндигина саводи чиққан мендек қизга...” [51].

М.Ёқубова шунинг учун орадан кўп ўтмай Ўзбек ишчилар факультетига ўқишга ўтказилади. Бу ерда у Самарқанд, Бухоро, Тошкент, Хоразмдан келган юртдошлари билан биргаликда таълим олган.

Кейинчалик Ўзбек маориф институти номини олган ишчилар факультетида театр–студия фаолият юритган. Бу ерда Маннон Уйғур, Етим Бобожонов, Ҳикмат Латипов, Саъди Табибуллаев, Абдор Ҳидоят, Сора Эшонтўраева, Замира Ҳидоят, Турсун Сайдазимова сингари иқтидорли ёшлар таълим олган. Марям Ёқубованинг хотирлашича, “Драма тўғрагида мен билан бирга яна Амир Олимхоннинг ўғли, бир пайтлар саройда “шаҳзода” деб ном чиқарган йигитча – Шоҳмурод ва укаси Хуршид катнардир”[52].

XULOSA VA TAKLIFLAR (Conclition/Recommendations). Хулоса қилиб

айтганда, 1920–1924-йилларда Бухоро Халқ Совет Республикасида маориф соҳаси ва маданиятда катта ўзгаришлар амалга оширилди. БХСР раҳбарлари мамлакатда замонавий таълим асосларини ишлаб чиқиб, бугунги илм-фан ва таълим соҳасидаги пойдеворни яратдилар. Улар бухоролик ёшларни ривожланган хорижий давлатларга, аввало Германияга таълим олиш ва ҳунар ўрганиш учун жўнатдилар. Бухорода кўплаб ўқув юртлари ташкил қилинди, дастлабки дорилфунун очиш тўғрисида қарор қабул қилинди.

Бу даврда турли маданият муассасалари (театр, кутубхона, музей, киностудия, клуб ва б.) ҳам ташкил қилинди. Хусусан, театрлар очишга, уларни замонавий бинолар ва жиҳозлар билан таъминлашга алоҳида эътибор қаратилди. Пойтахт Бухородан ташқари Чоржўй, Карки, Термиз ва бошқа шаҳарларда ҳам театрлар очилганлиги, ўзбек халқи ва бутун Туркистон тарихида илк киностудия – “Бухкино” ташкил қилинганлиги ўша даврда вазият оғир бўлишига қарамасдан санъат ва маданиятга қанчалик жиддий эътибор берилганлиги ойдинлашади.

Изоҳлар.

\* Муҳаммад Сиддиқ (1862–1927) – Амир Музаффарнинг тўртинчи ўғли. Унинг тахаллуси Ҳашмат бўлган.

\*\* Носируддин Тўра Амир Музаффарнинг олтинчи ўғли бўлган. У 1860 йилда туғилган. У 1921–1923 йилларда Бухородаги жамиятда фаолият кўрсатган. Тарихчи олим Қ.Ражабовнинг ёзишича, у Бухоронинг собиқ амири Саид Олимхоннинг талаби билан унинг оила аъзолари ва яқин қариндошлари қаторида (жами 51 киши) 1923 йил июлда Афғонистонга юборилган. У тахминан 1930 йилда Кобулда вафот этган.

\*\*\* Бу ўринда Москвадаги КУТВ (Коммунистический университет трудящихся Востока) кўзда тутилмоқда.

#### ADABIYOTLAR/ ЛИТЕРАТУРА/ LITERATURE

1.Ишанов А.И. Создание Бухарской Народной Советской Республики (1920–1920 гг.). –Ташкент: «Изд. АН УзССР», 1955; Уша муаллиф: Победа Народной Советской Революции в Бухаре. –Ташкент: «Изд. АН УзССР», 1957; Уша муаллиф. Бухарская Народная Советская Республика. –Ташкент: «Узбекистан», 1969.

2.Уралов А. Из истории развития народного образования в БНСР (1920–1924 гг.) // Общественные науки в Узбекистане, 1961. №3. –С.45-51.

3.Зиманов С. От освободительных идей к советской государственности в Бухаре и Хиве. –Алма-Ата: «Наука», 1976.

4.Бобоходжаев А. Совет давлатини де-факто ва де-юре таниш даврида Ўрта Осиё ва Ўрта Шарқда инглиз антисовет сиёсатининг барбод бўлиши (1919–1924 йй.). –Тошкент: “ЎзССР ФА нашриёти”, 1959.

5.Ваҳобов М. Ўзбек социалистик миллати. –Тошкент: Ўзбекистон, 1960.

6.Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор: Р.Я Раджапова. –Т.: “Шарқ”, 2000; Р.Я Раджапова. ва б. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йй.). –Т.: “Ўқитувчи”, 1994.

7.Касымов Ф. Драма революции и правда истории. –Бухара, 1996; Ўша муаллиф: Бухоро республикаси тарихшунослиги. –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1996.

8.Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. – Т.: Шарқ, 2000.

9.Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси (1920–1924 йй.). –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2003.

10.Ражабов Қ. Бухоро ва Хоразм Халқ Республикалари: давлатчилиқнинг демократик шакли // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Масъул

мухаррирлар: Д.А. Алимова, Э. В. Ртвеладзе. –Т.: “Шарк”, 2001. –Б. 186-187;  
 БХСР собиқ раҳбарларининг 1937 йилда қатағон қилиниши // Ўзбекистонда совет давлатининг қатағон сиёсати: келиб чиқиши сабаблари ва фожиали оқибатлари (Илмий мақолалар тўплами). –Тошкент, 2012. –Б.64-75.

11. Жўраев Х. Бухоро Халқ Совет Республикасидаги маданий ҳаёт ва ундаги ўзгаришлар (1920-1924 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. –Бухоро, 2021.

12. Хаитов Ш., Бадриддинов С., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодий, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт (1920–1924 йй.). – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2005.

13. Рашидов О. Ўзбекистонда совет бошқаруви структурасидаги маҳаллийлаштириш сиёсати (1917–1933 йй.). –Тошкент: “Наврўз”, 2020.

14. A. Zeki Velidi Togan. Bugunku Turkili (Turkistan) va Yakın tarihi. –Istanbul, 1942–1947.

15. Baymirza Hayit. Milli Türkistan hürriyet davası. –Ankara: Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı yayınları, 2004.

16. Khalid, Adeeb. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. –London: Cornell University Press Ithaca and London, 2015.

17. Turkistanda Yenilik Hareketleri ve Ihtilaller: 1900–1924. Osman Noca Anisina incelemeler. Hazirlayan: Temur Kocaoglu. –Haarlem, 2001.

18. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917–1939 йиллар. Масъул мухаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. –Т.: “Ўзбекистон”, 2019. –Б.160-161.

19. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий мухаррир М.Жўраев. – Т.: Шарк, 2000. –Б. 246-247.

20. “Бухоро ахбори”, 1920 йил 29 ноябрь.

21. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920–1924 йй.). –Тошкент: “Abu matbuot-konsalt”, 2012. –Б. 93.

22. Ҳасан М. Вилоят маориф шуъбасининг ҳозиргача ишлаган ишлари // “Бухоро ахбори”, 1921 йил 1 февраль.

23. “Бухоро ахбори”, 1921 йил 3 ноябрь.

24. “Файзулло Хўжа” Дорулмуаллимини // “Бухоро ахбори”, 1922 йил 30 октябрь; Чоржўйда “Файзулло Хўжа” Дорулмуаллимининг расмий очилиши // “Бухоро ахбори”, 1922 йил 10 декабрь.

25. “Бухоро ахбори”, 1921 йил 13 январь; “Озод Бухоро”, 1923 йил 17 ноябрь.

26. “Бухоро ахбори”, 1921 йил 4 май.

27. Ўзбекистон миллий архиви, 59-фонд, 1-рўйхат, 107-йиғма жилд, 2-варақ.

28. “Бюллетень БухТА”, №25, 21 ноябрь 1921 г.; Ўзбекистон миллий архиви, 48-фонд, 1-рўйхат, 22-йиғма жилд, 210-варақ.

29. “Бухоро ахбори”, 1923 йил 6 июнь.

30. Мамадаминова Б. Хоразм Халқ Совет Республикасидаги ижтимоий ва иқтисодий муносабатлар (1920–1924 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020. –Б.22.

31. “Озод Бухоро”, 1924 йил 18 май.

32. “Мусофир”. Бухорода биринчи музахонанинг очилиш маросими // “Бухоро ахбори”, 1922 йил 23 ноябрь.

33. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. (1920–1924 йй.). –Тошкент: “Abu matbuot-konsalt”, 2012. –Б.104.

34. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги

даврида... –Б.247-248.

35. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920–1924 й.). –Тошкент: “Abu matbuot-konsalt”, 2012. –Б.94.

36. Бухорода илм жойлари // “Бухоро ахбори”, 1921 йил 30 июнь.

37. Вилюятларда маориф ишлари // “Бухоро ахбори”, 1921 йил 30 июнь.

38. “Озод Бухоро”, 1923 йил 10 ноябрь.

39. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. – Б.96.

40. Бойматов А. Хат-саводсизлик билан кураш жабҳасида. // “Озод Бухоро”, 1924 йил 22 май.

41. Мактаблар ҳақида умумий қоидалар. // “Бухоро ахбори”, 1920 йил 29 ноябрь.

42. Ҳайитов Ш., Бадриддинов С., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт (1920–1924 й.). –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2005. –Б.73.

43. Ўзбекистон миллий архиви, 47-фонд, 1-рўйхат, 186-йиғма жилд, 4-варақ; 187-йиғма жилд, 6-варақ; 198-йиғма жилд, 14 варақ; 287-йиғма жилд, 1-варақ.

44. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидачилик. –Тошкент: “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси” нашриёти, 2007. –Б.65.

45. Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. –Тошкент: “Маънавият”, 2000. –Б.21.

46. Болтаев А. XX асрнинг 20–80-йиллари Бухорода тарихий ўлкашуносликнинг шаклланиши ва ривожланиши. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2021. 14-бет; “Известия” (Ташкент), 17 марта 1921 г.

47. Саййид Муҳаммад Носир ибн Музаффар. Таҳқиқоти Арки Бухоро. Бухоро Арки ҳақида тадқиқот. Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳ ва кўрсатмалар муаллифи: Ғ.Каримов. –Тошкент: “Tafakkur”, 2009. –Б.108.

48. Каримов Н. Фитрат // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том 9. –Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2005. –Б.262-265.

49. Ўзбекистон миллий архиви, 47-фонд, 1-рўйхат, 13-йиғма жилд, 1–14-варақлар.

50. Қаландар [Чўлпон]. Театр – томоша // “Бухоро ахбори”, 1923 йил 11 декабрь.

51. Иноятов С.И., Алауов А.А. Бухарский дом просвещения в Москве. –Навои, 1996. –С.20.

52. Ёқубова М. Даврим ва даврам (Хотиралар). Тузувчи: Тамара Ёқубова. Рус тилидан Назокат Азим таржимаси. –Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”, 2019. –Б.80.

## **O‘ZBEKISTONDA NOSHIRLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHI TARIXI** **Mirzoraximov Abbosjon**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rektori*

*Annotatsiya: Maqolada toshbosma kitoblarning tayyorlanish texnikasi, ishlatilgan bezaklar tarixi haqida ma’lumotlar berilgan.*

*Kalit so‘zlar: toshbosma, qo‘lyozma, “latta qog‘oz”, xattotlik, shirach, qog‘ozrez, xromolitografiya*

## **HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF PUBLISHING ACTIVITIES IN UZBEKISTAN**

*Mirzoraximov Abbosjon*

*Rector of the National Institute of Art and Design named after Kamoliddin Behzod*

*Annotation: The article provides information on the techniques of making lithographic books, the history of the decorations used.*

*Keywords: lithography, manuscript, «rag paper», calligraphy, shirach, paper cutting, chromolithography*

## **ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ИЗДАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

*Мирзорахимова Аббасжона*

*Ректор Национального института искусства и дизайна имени Камолиддина Бехзода*

*Аннотация: В статье представлены сведения о технике изготовления литографических книг, истории используемых орнаментов.*

*Ключевые слова: литография, рукопись, «тряпичная бумага», каллиграфия, ширах, вырезка из бумаги, хромолитография.*

O‘rta Osiyoda toshbosmaxonalar vujudga kelishi kitoblarning tarqalishi va ommalashuvida muhim ahamiyat kasb etgan. Kitoblarning tarqalishida bosmaxona nozirlari bilan bir qatorda, kitob savdogarlari va noshirlarning faoliyati katta bo‘lgan. Noshir atamasi qo‘lyozma davrida ishlatilmagan bo‘lib, unda xattotlar asosiy o‘rin egallagan, kitob bosishning vujudga kelishi mazkur sohaning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

O‘rta Osiyoda noshirchilik sohasining vujudga kelishi va noshirlar faoliyati tadqiqoti ularni ikki asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqlini ko‘rsatdi. Birinchi guruhga, noshirlikni asosiy kasb qilib olmagan, lekin mashhur mutafakkirlar asarlarini va o‘z ijodi namunalarni nashrga tayyorlagan shoirlar, olimlar, tarjimonlar kiritilgan bo‘lsa, ikkinchi guruhga noshirlik bilan doimiy shug‘ullangan kitob savdogarlari faoliyati yoritiladi.

Birinchi guruh noshirlar O‘rta Osiyoda noshirlik faoliyatini aynan ular boshlab berishganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Noshirchilik faoliyati Xivada vujudga kelgan bo‘lib, Xiva matbaasi noshirlari to‘g‘risida to‘xtalganda, ularning o‘ziga xos jihatlari e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Eng avvalo, bu yerdagi barcha noshirlar birinchi guruhga tegishli bo‘lib, boshqa joylardagidan farqli ravishda faqat Xiva matbaasida faoliyat yurgizishgan. Buning asosiy sababi, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II o‘sha davrdagi ma’rifatparvar, ilg‘or ziyoli kishilarni, shoirlar, ulamolar,



olimlarni saroy qoshida to'plab ularning ijod qilishi uchun imkoniyat yaratib berganligida edi. Ularning asosiy vazifasi ilmu-fanni rivojlantirish, aholining ilm darajasini oshirish va nodir asarlarni kelajak avlodga yetkazishdan iborat bo'lgan. Shu sababli u tashkil etgan matbaada ko'plab kitoblar bosilgan bo'lib, asarlarni nashrga tayyorlagan noshirlarning barchasi shoir, olim, tarjimonlar bo'lishgan. Mazkur noshirlar o'z ishlarni daromad nuqtai nazaridan emas, ma'naviy jihatidan e'tibor berishgan. Xiva toshbosmasining O'rta Osiyodagi boshqa toshbosmalardan farqi shunda ediki, bosmaxona saroy qoshida ochilgan bo'lib, savdo tijorat uchun emas, balki ming yillik tarixga ega bo'lgan xalqimizning noyob qo'lyozma asarlarini ko'paytirish bilan shug'ullangan. Shu sababli, bu yerda noshirlar doimiy faoliyat olib borishmagan, matbaa Xonga qarashli bo'lganligi bois, kitoblarga noshirlik qilish xonning amri bilan amalga oshgan.

O'rta Osiyodagi ilk noshir xususida so'z yuritganda, Xivada dastlab nashr etilgan kitobning noshiri xususida ma'lumot saqlanmaganligini hisobga olish lozim. Shu nuqtai nazardan Xivada matbaasining ikkinchi nashri hisoblanadigan Abu Nasr Farrohiyning "Nasab ul Sibyon" asariga noshirlik qilgan Ibrohim Sulton O'rta Osiyoda toshbosmada ilk kitobat chiqargan noshir hisoblanadi. Noshir vazifasini mohiyatini e'tiborga olsak, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ni yirik noshirlardan biri sifatida ko'rsatib o'tish xato bo'lmaydi.

Muhammad Rahimxon II tomonidan nashr etilgan kitoblar Xiva toshbosma kitoblarining asosini tashkil etadi.

Muhammad Rahimxon II ning noshirlik ishlariga to'xtalganda yuqoridagi fikrlar yanada o'z asosini topadi. Jumladan, uning noshirligidagi 1879 yilda «Devoni Feruz», Muhammad Yusuf Mahdumning «Devoni Rojiiy», «Devoni Munis», Alisher Navoiyning «Xamsa» si, 1880 yili «Devoni Bayoniy», «Chor kitob», «Muntahab ul lug'at Rizoiiy», «Devoni Komil» 1881 yilda «Chahor devon», «G'aroyib us sig'ar» «Navodir ash Shabob», «Badoe' al valat», 1882 yilda «Devoni Fuzuliy», 1883 yilda «Devoni Bedil», 1891 yilda «Fiqhi Kaydoniy ma' sharh», 1905 yil «Devoni Ogahiy», 1906 «Majmaut ash shuaroii Feruzshohiy», 1909 yilda «Devoni Tabibi forsiya», 1910 yilda Ahmad Tabibiy «Devoni Tabibiy va boshqa asarlar nashr etilgan. Muhammad Rahimxon II noshirligidagi shoirlarning asarlaridan namunalar berilgan «Devonlar majmuasi» to'rt bora nashr etilgan. Ko'rinib turibdiki «Devonlar majmuasi» 1906-1909 yilgacha har yili bir marotabadan nashr etilgan va bu nashrlarning barchasiga Muhammad Rahimxon II noshirlik qilgani alohida ahamiyatga molikdir. Muhammad Rahimxon II nafaqat o'zbek tilidagi kitoblarga noshirlik qilgan balki u fors, arab va ozarbayjon tilidagi kitoblarga ham noshirlik ishlarini amalga oshirgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Muhammad Rahimxon II nafaqat davlat arbobi, shoir balki ko'plab kitoblarga noshirlik qilgan ma'rifatparvar noshirlardan biri bo'lgan.

Shuningdek, Xiva matbaasida Kamolxon bin Maqsudxo'ja, Fuzuliy Muttarjimi Mirzo. Komil Xorazmiy, Bayoniy va boshqa ko'plab noshirlar ham faoliyat yurgizgan bo'lib ular tomonidan nashr ettirilgan kitoblar jamiyat rivojiga ulkan hissa qo'shishgan.

Muhammad Rahimxon II tomonidan tashkil etilgan bosmaxona esa eng qadimgi davrdan boshlab Muhammad Rahimxon II ning o'zining davrigacha bo'lgan va undan keyingi asarlarni aholi o'rtasida tarqalishida sabab bo'ldi.

Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlardagi matbaalarda ham mazkur guruhga oid noshirlar faoliyat yurgizishgan. Noshirlar faoliyatida e'tibordan chettda qoldirib bo'lmaydigan bir jarayon borki, bu faqat noshirlar nashretgan kitoblar mundarijasi orqali aniqlash mumkin, ya'ni bu yerda qo'lyozmalar davrida amalga oshirilgan ishning davomiyligini ko'rish mumkin, masalan, qo'lyozma kitoblarni tayyorlashda xattotlarning eng zo'rlari saviyasi yuqori diniy, fiqhiy kitoblarni ko'chirishgan. Toshbosma davrida

ham manaviy jihatdan kamolga yetgan noshirlar bu boradagi yirik diniy, fiqhiy, ijtimoiy va tarixiy asarlarni nashr ettirishgan. Mirzo Ahmad ana shunday noshirlar toifasidan bo'lib, u barcha sohalarga oid kitoblarni nashr ettirgan bo'lsada, ularning ichida diniy mazmundagi kitoblar yetakchi o'rinda turgan. Jumladan, 1904-1905 yillarda «Zufnun» («Ilin»), «Sharhi Fiqihi Kaydoniy» (Toshkent), 1908 yilda «Mavlud an-nabi» («Ilin»), 1909 yilda «Devonai Mashrab» (Toshkent), «Sabot ul-ujizin» (Toshkent), 1910 yilda «Imom Hasayn va Imom Husayn qissasi» («G'ulomiya»), «Majmuai risola va majmuai nurnoma» («Yakovlev»), «Folnomai, Qaytarnoma va Radnoma» («Ilin»), 1911 yilda «Majmuai risola va majmai nurnoma» («G'ulomiya»), 1912 yilda «Qissai Hazrat Ibrohim va Ismoil alayhissalom» (Toshkent), 1913 yilda «Bibi Mushkul kushod» (Toshkent), 1914 yilda So'fi Olloyorning «Sabot ul-ujizin» (1914 yil Toshkent) asarlari, 1915 yilda «Devoni hikmat», «Haftiyaki Sharif», kabi asarlarga noshirlik qilgan.

Ko'zga ko'ringan noshirlardan biri Bositxon Zohidxon o'g'lidir. Bositxon Zohidxonning noshirlik faoliyatiga asos bo'lgan narsa uning tarjimonligi bo'lgan. U asarlarni arab va fors tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilib, so'ngra nashr ettirgan. Demak, u bir vaqtning o'zida tarjimonlik va noshirlik bilan shug'ullangan. Bositxon Zohidxon noshirlik faoliyatini 1907 yildan boshlagan. Uning noshirligida bir qator kitoblar nashr etilgan. Jumladan, Bositxon Zohirxon 1907 yilda «Do'zd va Qozi» V.M. Ilin matbaasida, «Risola al shamsiya al Favoid al-mantiq» (Toshkent), «Daqoyiq ul-axbor» «G'ulomiya» matbaasida nashr etilgan. 1910 yilda Bositxon Imom Muhammad bin Abubakr Lohuriyning «Masbahul-anvar» asarini «G'ulomiya» matbaasida, 1911 yilda «Daqoiq ul-axbor» tarjimasini (Toshkent), 1913 yilda «Favoid ul-muslimin» («G'ulomiya») asarlarini nashr ettirgan. Bositxon Zohidxon nashr ettirgan kitoblarning barchasini o'zi tarjima qilgan, garchi u ko'plab kitoblar nashr etmagan bo'lsada, u tomonidan tarjima qilinib nashr etilgan kitoblarning o'ziyoq uning yetuk ma'rifatparvar olim bo'lganligidan dalolat beradi. U kitoblarining asosiy qismini diniy kitoblar tashkil etishi va ayniqsa bu kitoblarning arab fors tillaridan tarjima etilib nashr etganligining o'ziyoq yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Toshkentlik yirik noshirlardan biri Ya'kubxo'ja eshon Podsho Xo'ja o'g'lidir. Ya'kubxo'ja eshon to'g'risida ma'lumotlar saqlanmagan. Uning asl kasbi, tug'ilgan yili va vafoti to'g'risida ma'lumotlar yo'q. Mazkur noshir xususida u nashrga tayyorlagan kitoblar orqaligina fikr yuritish mumkin. Toshkent kutubxonalarida saqlanayotgan toshbosma kitoblar orasida Ya'kubxo'ja eshon noshirligida nashr etilgan kitoblarning 40 yaqin nashri saqlanishining o'ziyoq uning yirik noshirlardan bo'lganligidan dalolat beradi. Mazkur kitoblarni tahlil qilgandan Ya'kubxo'ja eshon noshirlik faoliyatini 1896 yilda boshlab 1923 yilgacha kitoblar nashr ettirgani ma'lum bo'ladi. Ya'kubxo'ja eshon noshirlik faoliyatini asosan Toshkent matbaalarida amalga oshiradi. Ya'kubxo'ja eshon tomonidan nashr etilgan kitoblarning qariyb yarimini diniy mavzudagi kitoblar, qolganlarini boshqa sohaga oid kitoblar tashkil etadi. Uningi noshirligida 1896-1897 yillarda «Maslak ul-muttaqiyn» (Toshkent) ikki marta, 1898 yilda «Ravzat ush shuhadoi turkiy tarjima» («Breydenbarx»), 1900 yilda «Favzulnojoyot» («Ilin»), 1904 yilda «Zarbulmasal» (Toshkent), 1905 yilda «Mabdai Nur Mashrab» (Toshkent), 1906 yilda «Chor darvesh» (Toshkent), 1908 yilda «Devoni Bedil» (Toshkent), 1910 yilda «Me'rojnoma» («G'ulomiya»), «1911 yilda «Said Battol g'ozii» forschadan tarjima («G'ulomiya»), «Meroj an-nabiy» («G'ulomiya»), 1923 yilda «Bibi Mushkul kushod» va boshqa ko'plab kitoblar nashr etilgan.

Abdurauf Shahidiy Namanganda noshirlik faoliyatini olib borgan, u 1909 yilda Ibratning «Manzumai Ibrat» («Is'hoqiya») asari va 1912 yilda o'zining «Mahramlar(3-pardali drama)» («Is'hoqiya») nomli kitoblarga noshirlik qilgan.

Abdurahmon Abdulqodiriy Xo'jandiy o'zining «Mufrodot» asarini Toshkent, Samarqand va Buxoro matbaalarida bir necha bor nashr ettirgan noshirlardan biri hisoblanadi. Jumladan, mazkur asar 1893, 1899, 1905 va 1913 yillarda Toshkentda, 1895, 1907 yillarda Buxoroda, 1910 yilda Samarqandda nashr etilgan.

Abdullo hoji ibn Asadulla hoji o'g'li 1897 yilda «Kofiya ma' al-mutun» (Toshkent), «G'aroyib us-sig'ar» (Toshkent), «G'aroyib us-sig'ar» (“Bredenbarx”), «Risola al shamsiya al Favoid al-mantiq» (Toshkent), 1898 yilda «Terma Devon» (“Breydnbax”), «Mabdai Nur Mashrab» («Ilin»), 1899 yilda «Devoni Xofiz» (Toshkent), 1900 yilda «G'aroyib us-sig'ar» (Toshkent), 1905 yilda «Qissai Ibrohim Adham» («Ilin»), «Devoni Fuzuliy» («Ilin»), 1909 yilda «Abu Muslim» («Ilin»), 1911 yilda «Qur'oni karim» (Toshkent), 1912 yilda «Kofiya» (Toshkent), 1913 yilda «Qissai Ibrohim Adham» (Toshkent), «Qur'oni karim» kabi kitoblariga noshirlik qilgan.

Abdulvose' oqsoqol Buxoro va Samarqand matbaalarida noshirlik faoliyatini olib borgan. Jumladan, 1904 yilda Buxoroda «Tarkibband hofiz Ro'ziboy va Hikoyat g'ornoma» («Gaynskiy») asarini, Samarqandda «Haftiyaki Sharif»ni («Demurov»), 1905 yilda «Sad yak band Mullo Mushfiqiy» (Buxoro) kabi asarlarni nashr ettirgan.

Hoji Mu'in Shukrullo o'g'li noshirlikida “Mazluma xotin” (1914, 1915, 1916, Samarqand), “Munozara” (1912, «Ilin»), “Guldastai adabiyot”, “To'y” (1914), “Yangi adabiyot” (1915), “Eski maktab, yangi maktab” (1916), “Ko'knori” (1916) singari asarlar nashr etilgan.

Ikkinchi guruh noshirlar: Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlardagi noshirlarning asosiy qismi odatda kitob savdogari bo'lishgan, shuningdek, matbaachilikning yuzaga kelishida ham alohida ahamiyat kasb etishgan, jumladan, kitob savdosi bilan shug'ullanadigan kishilar, chet ellardan kitob keltirish mobaynida, matbaachilik jarayoni bilan tanisha borishgan va O'rta Osiyoda kitob bosishning vujudga kelishida ma'lum ma'noda o'z hissalarini qo'shishgan. Albatta kitob savdogari ilmiy ziyoli va o'z davrining ma'rifatparvar kishisi bo'lgan. Buning birinchi sababi kitob savdosi bilan shug'ullanganda kitobning mazmun-mohiyati, saviyasini bilish muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun ham kitob savdosi bilan hamma ham shug'ullana olmagan, faqatgina turli tillarni mukammal biladigan, turli fanlar haqida ko'plab malumotlarga ega bo'lgan, aholining ijtimoiy talabini to'liq tushuna oladigan kishilarga bu sohada muvofaqqiyat qozonishgan. Yuqorida keltirgan sabablarning o'ziyoq kitob savdogarlarining bilim darajasini bilib olish imkonini tug'diradi. Kitob savdogarlari keyinchalik noshirlik qila boshlashgan, yani o'zlari sotadigan kitoblarni nashrga tayyorlab, nashr ettirishgan va tarqatishgan. Bu jarayonda ketadigan xarajatlarini ko'tarishgan. Kitob savdosidan tushadigan daromad orqali foyda ko'rishgan. Kitob savdogarlari va noshirlar o'z faoliyatlarini nafaqat O'rta Osiyoda balki butun Sharq mamlakatlarida davom ettirishgan va mashhur allomalarimiz asarlarini targ'ib qilishgan.

Noshir kitobga bo'lgan talabni hisobga olgan holda matbaalarda bosiladigan kitoblarning mundarijasini belgilashda asosiy rol o'ynagan. Binobarin, u yoki bu kitobning nashr etilishi dastavval asarga bo'lgan talabga bog'liq. Noshir biron asarni chiqarmoqchi bo'lsa, u avval matbaa egasi bilan kelishishi, so'ngra senzura ruxsat olishi lozim bo'lgan. Buning uchun u mazkur kitobdan bir necha nusxasini chiqartirib, Peterburg (senzura)ga jo'natgan. Agar senzura ruxsat beradigan bo'lsa, kitobning bir nusxasini qaytargan, so'ng bu kitob ko'plab nusxada chiqarilgan.

Furqat Toshkentda bo'lgan vaqtida S. I. Laxtin bosmaxonasini borib tomosha qiladi va matbaa haqida u shunday ma'lumot beradi: “Bosmaxonada musulmon va o'rus ahlidan ko'p kishi ishlaydilar. Qaysi bir kitobni hohlagan savdogar ruxsat olib ul tab'exona (Bosmaxona –M.A) mutassadisi birla baholashib, necha ming kitob lozim bo'lsa, harajat qilsa bostiradur. Masalan, bir kishi “Devoni Fuzuliy” va “Layli va

Majnun” chop qiladurki, bir ming kitob ming so‘m birla tayyor bo‘ldi, har donasi bir so‘m qirq tiyindan sotilib, bir ming adad furushida ikki yuz so‘m foyda zohirdur”.

Toshkentda ilk bor noshirlik faoliyati bilan shug‘ullanganlardan biri Abdurauf Xoji hisoblanadi. Abdurauf hojining hayoti xususida ma‘lumotlar mavjud emas. Faqatgina u nashr ettirgan kitoblar orqaligina mazkur noshirning faoliyati xususida ma‘lumot olish mumkin. Abdurauf hojining 1882-1917 yillar davomida noshirlik faoliyatini olib borgan. Shu o‘rinda uning ko‘plab kitoblar nashr etishi kitob savdosi bilan shug‘ullanganligi ehtimolini keltirib chiqaradi. Chunki, matbaalarda eng ko‘p kitob nashr ettirgan noshirlarning asosiy qismi kitob savdosi bilan shug‘ullanishgan. Abdurauf hoji 50ga yaqin kitoblarga noshirlik qilgan. U barcha sohaga oid kitoblarga noshirlik qilgan bo‘lsada, kitoblarning asosiy qismini diniy, fiqh kitoblar tashkil etgan.

Matbaachilikda faol ishtirok etgan noshirlardan biri Muhammad Nosih bin Ali Muhammad (1868-1918)dir. U dastlab muqovachilik qilib, keyinroq kitob savdosi bilan shug‘ullangan. Muhammad Noseh 1896 yildan 1915 yilgacha noshirlik faoliyati bilan shug‘ullangan. Uning noshirlik faoliyatida kitob savdosi asosiy o‘rin egallagan, ya‘ni u kitoblarni sotish uchun nashrga tayyorlagan. Muhammad Noseh noshirligida nashr etilgan 12 nomdagi 13 kitob Toshkent kutubxonalarida saqlanmoqda. Mazkur kitoblardan 9 nomdagisi adabiyotga oid bo‘lib, 3 nomdagisi diniy asarlardir. Boshqa kitoblari bir martadan nashr etilgan. Muhammad Noseh faqatgina “Devoni Fuzuliy” kitobini ikki bora 1914-1915 yillarda nashr ettirgan. Muhammad Nosehning yirik kitob savdogari va noshir bo‘lganligi u tomondan chiqarilgan kitoblar orqali bilish mumkin. Jumladan, noshir tomonidan chiqargan kitoblarning barchasi yirik hajmli bo‘lib, bunday asarlarni nashr ettirish barcha noshirlarning qo‘lidan kelavermagan. Muhammad Noseh faoliyatini o‘rganish orqali axolining kitobga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash imkoni tug‘iladi. Muhammad Noseh noshirligida dastlab chop etilgan kitob 1896 yil Toshkentda nashr etilgan Navoiyning «G‘aroyib us-sig‘ar» asaridir. Mazkur yilda Muhammad Noseh «Badoe’ al-valat» asarini ham nashrga tayyorlagan va nashr ettirgan.

Kutubxona fondlarida Muhammad Nosehning 1897-1907 yillarda noshirlik qilgan kitoblari saqlanmagan. Bu holat noshirning bu yillarda kitoblarga noshirlik qilmaganini belgilab bera olmaydi, chunki, ko‘plab toshbosma kitoblarning noshirlari ko‘rsatilmagan.

1914 yilga kelib Muhammad Nosehning noshirlik faoliyati o‘zining yuqori cho‘qqisiga ko‘tariladi, bu yilda u, So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ujizin” («G‘ulomiya»), «Devoni Bedil» (Toshkent), «Devoni Fuzuliy» (Toshkent), «Chor kitob» (Toshkent) va boshqa kitoblarni nashrga tayyorlagan.

1915 yil Muhammad Noseh «Devoni Xofiz» (Toshkent) «Devoni Fuzuliy» (Toshkent), 1916 yilda «Malikai Dilorom» (Toshkent), “Zayn ul-arab” (Toshkent) kabi kitoblar uning noshirligida nashr etilgan.

Muhammad Noseh asosan Toshkent matbaalarida noshirlik faoliyatini olib borgan, O‘rta Osiyoning boshqa shaharlaridagi matbaalarda kitoblar nashr ettirmagan.

Muhammad Noseh faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri O‘rta Osiyoda nashr etilgan kitoblarni Ozarbayjonga olib borib sotganligidir. Shu sababli ham “Devoni Fuzuliy” u tomondan ikki bora nashr ettirilgan. Shuningdek, Ozarbayjondan ham kitob va jurnallar keltirib sotganligi haqida ma‘lumotlar mavjud.

Bu kishi haqida M. Yunusov shunday deb yozadi: “... O‘z davrining ma‘rifatparvar ziyolilaridan bo‘lgan Muhammad Noseh Ali Muhammad o‘g‘li (1868-1918) saxxof bozorida do‘kon ochib, kitob savdosi bilan shug‘ullangan va Ozarbayjondan turli kitob va jurnallar qatorida “Mulla Nasriddin”ni olib o‘zbek o‘quvchilariga tarqatib turgan”. Shuni ham aytish kerakki, saxxoflik rastalari o‘z davrining fozillari, bilimdonlari uchrashib, ilm, adabiyot haqida suhbatlashadigan joyi, fikr almashuv o‘rni hisoblangan.

Toshbosmalarda nashr etilgan ko‘plab kitoblarga noshirlik qilgan, bir vaqtning o‘zida

noshir, xattot va kitob savdogari bo'lgan Mirza Ahmad ibn Mirza Karimning faoliyati toshbosma madaniyatida muhim rol o'ynagan. Mirzo Ahmad noshirlik faoliyatini 1904 yilda boshlab 1917 yilgacha kitoblar nashr etish va ularning savdosi bilan shug'ullangan. Mirzo Ahmadning noshirchilik faoliyati asosan Toshkent matbaalari bilan bog'liq. U 13 yil davomida har bir necha ming nusxalab turli kitoblar nashr ettirib kitob bozoriga chiqargan. Toshbosmaxonalarda Mirzo Ahmad darajasida kitob nashr ettirgan boshqa noshir bo'lmagan. O'rta Osiyoda toshbosma kitoblarning keng tarqalishida Mirzo Ahmadning faoliyati beqiyosdir. Shunisi e'tiborga molikki, Mirzo Ahmad bin Mirzo Karim noshirlikida "Zufunun" (1904, 1907, 1910, 1914), "Malikai donishmand" (1905, 1908, 1913), "Mavlud al-nabi" (1908, 1911), "Qissai Ibrohim Adham" (1912, 1916), "Shahzoda Farhod va Shirin" (1908, 1912), "Xurliqo" (1908, 1913), "Sabot ul-ojizin" (1906, 1909), "Favz un-najot", "Majmuai risola va majmuai nurnoma" (1910, 1911, 1913) va boshqa asarlar bir necha bor qayta nashr etilgan. Yuqoridagi 30 dan ortiq asarning 50 ga yaqin nashri bo'lib, shulardan 29 nashri G'. H. Orifjonov, 9 nashri O.A. Porsev, 4 nashri V.M. Ilin, 4 nashri Yakovlev matbaasida chiqarilgan. Mirzo Ahmad noshirlik qilgan asarlarda "Tojiri kitob Mirzo Ahmad ibn Mirzo Karim" deb yozilishi uning kitob savdosi bilan shug'ullanganidan dalolat beradi.

Noshirlar nafaqat O'rta Osiyo shaharlarida kitob chiqarishgan balki ular dunyoning bir qator davlatlarida ham kitob nashr etish ishlari bilan shug'ullanishgan. Bu jarayon kitob bosishning vujudga kelishi va ularning tarqalishida ko'zga yaqqol tashlanadi. Garchi, kitobat sohasidagi madaniy aloqalar qadimdan rivojlangan bo'lsada, toshbosma davriga kelib o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. Bu davrda, O'rta Osiyo xalqlari Eron, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Rossiya va boshqa ko'plab xalqlar bilan o'zaro kitob almashinuvi va matbaachilik ishi yuzasidan hamkorlik olib borishgan. Bunday hamkorlikka noshirlardan, buxorolik Muhammad Siddiq Hasanxon, marg'ilonlik Abduhakim, xo'jandlik Muhammad Siddiqxo'ja, Sayid Sulaymon va boshqa noshirlarning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Ularning harakatlari natijasida o'zbek madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'atiga doir asarlar Peterburg, Qozon, Bog'chasaroy, Istanbul, Bombay, Parij, Dehli va boshqa shaharlarda nashr etilib, O'rta Osiyoda matbaachilik paydo bo'lgunga qadar va undan keyin ham bu yerga keltirib turilgan. Shu bilan bir qatorda noshirlar boshqa xalqlarning noyob asarlarini O'rta Osiyoga kirib kelishiga sabab bo'lganlar.

Matbaachilik ishini rivojlantirishda Hindiston, Turkiya matbaachilari bilan samarali hamkorlik ishlarini olib borishda xo'jandlik Muhammad Siddiqxo'janing roli kattadir. Siddiqxo'ja o'zining noshirlik faoliyati bilan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoning Hindiston va Turkiya bilan madaniy aloqasini rivojlantirishda faol ishtirok etgan. U o'z zamonasining yetuk olimi bo'lib Toshkent, Samarqand va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida kitoblar chop ettirgan hamda ularni Hindiston, Turkiyaga olib borib sotgan. Muhammad Siddiqxo'ja yangi-yangi matbaalarni ochgan, u olib borgan kitob savdosida unga ukasi Temirxo'ja yaqindan turib yordam bergan. U Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi shoirlarning asarlarini Istanbul, Bombayda chop ettirib, ularni faqat Turkistonda emas, balki chet ellarda ham keng targ'ib etgan.

Muhammad Siddiqxo'ja matbaachilikni to'la va mukammal egallash maqsadida 1890 yillardan boshlab bir necha marta Hindistonga sayohat qilgan. U Hindistonda bir necha yillar (Lohur-1896-1897 yillar, Bombayda-1897-1899-1910-1911-1916 yillarda; Laknauda-1901-1902-1904-1910-1911 yillarda va Dehlida) bo'lib, Bombayda "Fathulkarim", "Ali Bahoi Alavi", Dehlida "Ansari", "Foruqi"; Lohurda "Hidoyat", "Islomiyya"; Laknauda "Jinaroin", "Gulobsing" kabi nashriyot va matbuot egalari bilan tanishgan. O'rta Osiyo xalqlari uchun kerak bo'lgan bir qancha kitoblarni nashr ettirgan, bir qancha yil O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi kitob savdosida faol ishtirok etgan. Nihoyat, 1910 yili "Fathulkarim" matbaasining yordami bilan Bombayda o'zining

matbaasini tashkil etgan.

Muhammad Siddiqxo‘ja va boshqa kitob bilan savdo qiluvchilar Toshkentdagi (“Irshod”, “Maktab”, “Turkiston”, “Ravnaq” nomli kitob do‘konlarida), Qo‘qondagi (“Ma’rifat” nomli kitob do‘konida), Samarqanddagi (“Behbudiy”, “Zarafshon” nomli kitob do‘konida), Namangandagi (“Ijtihod” nomli kitob do‘konida) chet eldan keltirilgan kitoblar savdosi bilan shug‘ullanishgan. O‘sha davrda chet ellardan kitob keltirib sotishda Toshkent va Samarqand markaz hisoblangan.

Xulosa qilib aytganda noshirlar faoliyatining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari ko‘zga tashlanadi:

1. Kitoblarni nashr etishda unga bo‘lgan talabni hisobga olish;
2. Bir vaqtning o‘zida matbaa egasi, kitob savdosi bilan shug‘ullanadigan noshirlarning mavjudligi;
3. Noshirlikni asl kasb qilib olgan kishilar;
4. Ma’lum bir kitoblargagina noshirlik qilish;
5. Noshirlarning tarjimonlik va ijodiy salohiyatga ega bo‘lishi;
6. Davlatlararo kitob almashinuvida asosiy vazifani bajarganligi.

Noshirlar faoliyatining mazkur o‘ziga xos xususiyatlar ular nashr ettirgan kitoblarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Xiva matbaasi noshirlari tomonidan nashr etilgan kitoblarning yirik hajmli bo‘lsa, Toshkent matbaalarida esa kam sahifali kitoblar nashr etilishiga sabab bo‘lgan. Bir so‘z bilan ta’kidlaganda noshirlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixi, madaniyatini nafaqat mintaqada, balki butun dunyoga tarqatishgan, fanning turli sohalariga oid kitoblar ni nashr ettirishda alohida rol o‘ynashgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. А. Носиров, И. Низомиддинов. Ўрта Осиё ва Хиндистон ўртасида маданий алоқалар тарихидан бир шингил// Ўзбекистон маданияти, 1960. – 3 феврал. – № 9.;
2. И. Низомиддинов. Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари. – Т.: Ўздавнашр, 1961.
3. Туркистон вилоятининг газети, 1891, 19-сон.
4. Муҳаммад Юсуф Маҳдум. Девони Рожий. – ЎЗР ФА ШИ. Инв. №10297, 65,66 (ўзбек тилида). – 1879. – 164 Б;
5. Девони Мунис. – ЎЗР ФА ШИ. Инв. № 62, 63, 64, 9177, 10936, 10937 (ўзбек тилида). – 1879. – 668 Б; Девони Комил. – ЎЗР ФА ШИ. Инв. №10609, 9881,6970 (ўзбек тилида). – 1880. – 181 Б;
6. Чаҳор девон. – ЎЗР ФА ШИ. Инв. №10293 (ўзбек тилида). – 1881. – 1685 Б;
7. Ғаройиб ус сиғар. – ЎЗР ФА ШИ. Инв. № 10512 (ўзбек тилида). – 1881. – 456 Б;
8. Наводир аш Шабоб. – ЎЗР ФА ШИ. Инв. № 9096, 10293 (ўзбек тилида). – 1881. – 407 Б;
9. Бадоеъ ал валат. – ЎЗР ФА ШИ. Инв. №10509, 10510 (ўзбек тилида). – 1882. – 399 Б;
10. Девони Фузулий. – ЎЗР ФА ШИ. Инв. №10591.(озарбайжон тилида) – 1882. – 184 Б;
11. Девони Бедил (Умар Хаём рубойилари билан бирга). – ЎЗР ФА ШИ. Инв. № 10368, 10367, 10366, 8724. (ўзбек тилида). – 1883. – 338 Б;
12. Фикҳи Кайдоний маъ шарҳ. – ЎЗР ФА ШИ. Инв. №10600.(ўзбек тилида) – 1891. – 236 Б;
13. Девони Табиби форсия(миръот ул ушшоқ). – ЎЗР ФА ШИ. Инв. №57, 58, 8728, 14422.. – 1909. – 741 Б. Девони Табиби форсия. – ЎЗР ФА ШИ. Инв. №

10285, 10286. – 1909. – 770 Б;

14. Б. Аҳмад Табибий. Девони Табибий (Мунис ул ушшоқ). – ЎзР ФА ШИ. Инв. № 8731, 10282, 10283. (ўзбек тилида). – 1910. – 378 Б.

15. Девонлар мажмуаси. – ЎзР ФА ШИ. Инв. №8725, 8728, 10281, 10374, 3940, 8950, 14424. (ўзбек тилида). – 1906. – 5985 Б;

16. Девони Комил ва таворих шохон Хоразм. – ЎзР ФА ШИ. Инв. № 237, 240, 13814, 14472. (ўзбек тилида). – 1909. – 112 Б.

17. Девони Мирзо(ичида ҳафт жом бор). – ЎзР ФА ШИ. Инв. № Инв 31, 41, 51. (ўзбек тилида). – 1909. – 210 Б.

18. Зуфнун. – ЎзР ФА ШИ. Инв. №392,9063 4634 (ўзбекча). – 128 Б; Шарҳи Фикиҳи Кайдоний. – ЎзР ФА ШИ. Инв. № 13520 (ўзбекча-арабча). – 48 Б;

19. Мавлуд ал-наби. – ЎзР ФА ШИ. Инв. № 4147;

20. Девон аи Машраб. – ЎзР ФА ШИ. Инв. № 13798 (ўзбекча). – 135 Б;

21. Сабот ул-ојизин. – ЎзР ФА ШИ. Инв. № 4199 (ўзбекча). – 120 Б;

22. Имом Ҳасайн ва Имом Ҳусайн қиссаси. – ЎзР ФА ШИ. Инв. № 414 (ўзбекча). – 79 Б;

23. Мажмуаи рисола ва мажмуаи нурнома. – ЎзР ФА ШИ. Инв. № 761;

24. Фолномаи, Қайтарнома ва Раднома. – ЎзР ФА ШИ. Инв. № 628 3891 6049 (ўзбекча). – 12 Б;

25. Қиссаи Ҳазрат Иброҳим ва Исмоил алайҳиссалом. – ЎзР ФА ШИ. Инв. № 4001 (ўзбекча). – 24 Б;

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

### O‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘RGANISHGA MUNOSABAT VA MOTIVATSIYANING O‘RNINI BAHOLASH

*Aslanov Akmal Subxanovich*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Abstrakt. Ushbu maqola Toshkentdagi Tibbiyot Akademiyasi talabalari o‘rtasida o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishga motivatsiya va munosabatning ta‘sirini o‘rganadi. Mintaqadagi kasbiy va ijtimoiy integratsiya uchun o‘zbek tilining ahamiyatini inobatga olgan holda, ushbu tadqiqot turli darajadagi ichki va tashqi motivatsiya, shuningdek, o‘quvchilar munosabati ularning tilni o‘zlashtirish va malakasiga qanday ta‘sir qilishini baholaydi. Miqdoriy so‘rov ma‘lumotlarini sifatli intervyu ma‘lumotlari bilan birlashtirgan aralash usullar yondashuvidan foydalangan holda, natijalar ijobiy munosabat va yuqori darajadagi motivatsiya tilni o‘rganish natijalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatadi. Maqolaning yakunida motivatsion va munosabat omillarini targ‘ib qiluvchi, o‘quvchilar faolligini va o‘zbek tilini o‘rganishdagi muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiluvchi o‘quv dasturini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

*Kalit so‘zlar: motivatsiya, munosabat, ikkinchi tilni o‘zlashtirish, o‘zbek tili, tibbiyot talabalari, til o‘rganish, pedagogik psixologiya.*

### ОЦЕНКА РОЛИ МОТИВАЦИИ И ОТНОШЕНИЯ К ИЗУЧЕНИЮ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО

*Асланов Акмал Субханович*

*Ташкентская медицинская академия*

*Кандидат филологических наук*

*Аннотация. В данной статье рассматривается влияние мотивации и отношения на изучение узбекского языка как второго языка среди студентов Медицинской академии в Ташкенте. Учитывая важность узбекского языка для профессиональной и социальной интеграции в регионе, в данном исследовании оценивается, как различные уровни внутренней и внешней мотивации, а также отношения студентов влияют на их усвоение языка и владение им. Используя подход смешанных методов, который сочетает количественные данные опроса с качественными данными интервью, результаты показывают, что как позитивное отношение, так и высокий уровень мотивации значительно улучшают результаты изучения языка. Статья завершается рекомендациями по разработке учебной программы, которая способствует мотивационным и отношенческим факторам, потенциально улучшая вовлеченность студентов и успехи в освоении узбекского языка.*

*Ключевые слова: мотивация, отношение, овладение вторым языком, узбекский язык, студенты-медики, изучение языка, педагогическая психология.*

### ASSESSING THE ROLE OF MOTIVATION AND ATTITUDE IN LEARNING UZBEK AS A SECOND LANGUAGE

*Aslanov Akmal Subxanovich*

*Tashkent Medical Academy Candidate of philological sciences, associate professor*

*Abstract. This article examines the influence of motivation and attitude on learning*



*Uzbek as a second language among students at the Medical Academy in Tashkent. Given the importance of Uzbek for professional and social integration in the region, this study evaluates how varying levels of intrinsic and extrinsic motivation, along with students' attitudes, impact their language acquisition and proficiency. Using a mixed-methods approach that combines quantitative survey data with qualitative interview insights, the findings reveal that both positive attitudes and high levels of motivation significantly enhance language learning outcomes. The article concludes with recommendations for curriculum development that foster motivational and attitudinal factors, potentially improving student engagement and success in mastering Uzbek.*

*Key words: motivation, attitude, second language acquisition, Uzbek Language, medical students, language learning, educational psychology.*

**INTRODUCTION.** The Uzbek language holds a prominent place in Uzbekistan, serving as the national language and a key medium for social and professional communication. For students at the Medical Academy in Tashkent, proficiency in Uzbek is not only necessary for interacting with patients but also vital for integrating into the local medical and social communities. However, for many students, especially non-native Uzbek speakers, acquiring a new language within an academic setting presents unique challenges and opportunities. This study focuses on the role of motivation and attitude—two pivotal elements influencing second language acquisition—in learning Uzbek among medical students.

**Importance of the study.** Motivation and attitude are extensively studied in the field of language acquisition. Research consistently demonstrates that motivation, whether integrative (learning a language to connect with its speakers) or instrumental (learning for practical benefits), plays a substantial role in how effectively individuals learn a second language. Attitude, which encompasses an individual's perception of the language, its cultural associations, and the learning process, further influences language acquisition outcomes. In the context of learning Uzbek, these factors are especially pertinent, given the varying degrees of cultural connection that students at the Medical Academy might have with the language.

**Problem statement.** A critical challenge lies in fostering a learning environment that not only imparts linguistic knowledge but also supports students' motivation and cultivates a positive attitude toward learning Uzbek. This is particularly relevant for medical students, whose demanding schedules and professional focus may limit their engagement with language studies. Thus, understanding the motivational and attitudinal factors influencing these students can provide valuable insights for developing effective language teaching strategies.

**Objectives of the study.** The primary objective of this study is to assess the motivational and attitudinal drivers that impact students' efforts to learn Uzbek as a second language. Specifically, it aims to:

1. Measure the levels of integrative and instrumental motivation among medical students learning Uzbek.
2. Evaluate students' attitudes toward the Uzbek language, considering both personal and professional contexts.
3. Identify correlations between motivation, attitude, and language proficiency in order to suggest improvements to language teaching methodologies.

**Significance of the study.** By identifying the key motivational and attitudinal factors at play, this study seeks to inform curriculum developers, educators, and policy makers at the Medical Academy in Tashkent. Insights from this research could lead to more tailored teaching methods that resonate with students' motivational drives and foster

a more engaging, positive attitude toward learning Uzbek. Additionally, by addressing these factors, the Academy can facilitate better language acquisition, preparing students for effective communication in their future professional roles.

#### LITERATURE REVIEW

Motivation in second language acquisition (SLA). Motivation has been widely recognized as a critical factor in second language acquisition. Gardner's (1985) socio-educational model divides motivation into two primary types: integrative and instrumental. Integrative motivation refers to a learner's desire to connect with the language and culture of its speakers, while instrumental motivation is rooted in practical benefits, such as career advancement or educational requirements. Research in SLA indicates that students with high integrative motivation tend to achieve greater language proficiency (Dörnyei, 2005). In the context of Uzbek language learning, students who understand the cultural and social importance of the language in Uzbekistan may demonstrate higher integrative motivation, thereby enhancing their language acquisition experience.

Attitude in language learning. Attitude, defined as learners' perceptions and emotional responses toward a language, plays a crucial role in their success. Studies by Baker (1992) and Dörnyei and Csizér (2002) show that positive attitudes toward a language and its speakers can significantly enhance learning outcomes. For medical students at the Medical Academy in Tashkent, attitude might include their views on Uzbek as a critical skill for patient interactions and professional integration. Negative or neutral attitudes, on the other hand, may inhibit students' willingness to engage deeply with the language, impacting their overall proficiency (Gardner, 2006).

The Role of context in language acquisition. Contextual factors, such as the need for Uzbek in professional settings, influence learners' motivation and attitude. Research by Norton (2000) suggests that language learners in environments where the target language is spoken daily, as in Tashkent, often develop a stronger motivation to learn. This contextual motivation is highly relevant for medical students who will likely use Uzbek in their daily interactions with patients, which may lead to a more positive attitude and heightened engagement in the learning process.

In the last need, Smeagol, I should put on the Precious; and the Precious mastered you long ago. If I, wearing it, were to command you, you would obey, even if it were to leap from a precipice or cast yourself into the fire [19, 640-bet].

Tadqiqot qilinayotgan kontseptual belgi antonimlarning semantik tarkibi orqali aks etadi: to command (to be in a position to tell somebody to do something) (buyurish – kimnidir nimadir qilishga buyurish vakolatiga ega bo'lish) (Hornby, 2005) va to obey (to do what you are told, expected to do) (bo'ysunish – sizga aytilgan yoki kutilgan narsani qilish). [15]

Precious leksemasi avvalo Muqaddas Kitob bilan bog'liq bo'lib, ob'yektning katta moddiy yoki ma'naviy qiymatini anglatadi, shu bilan birga, xristian an'anasida bu so'z o'z-o'zini aldash, aldov, yanglish tushuncha sifatida talqin qilinadi. [6] Uzukkga egalik

qiluvchi inson muqarrar ravishda Hukmronlikka qaram bo‘lib qoladi, uzukning qulligiga duchor bo‘ladi va hayotini usiz tasavvur qilishni ma’nosiz deb biladi.

...he could not strike this thing lying in the dust, forlorn ruinous, utterly wretched... and dimly he guessed the agony of Gollum’s shriveled mind and body, enslaved to that Ring, unable to find peace or relief ever in life again [9, 944-bet]. / U bu bilan jang qilish imkoniyatiga ega emas edi, changda yotgan, tashlab ketilgan, talon-toroj qilingan, butunlay baxtsiz holda, va xuddi shu Uzuk qaramligiga tushgan, hayotda tinchlik yoki yengillik topa olmaydigan Gollumning tanasi va aqlining azobini noaniq tarzda his qilar edi.

Keltirilgan parchada aytilganlar bog‘lovchisiz epitetlarning (forlorn — tashlab ketilgan, ruinous — talon-toroj qilingan, wretched — baxtsiz) uyushmasida ochiq-oydin ifodalanadi, ular o‘zaro o‘shish sifatida tuzilgan, shuningdek, Gollumning shikastlangan aql va tanasining azobini tasvirlovchi metaforalar (the agony of Gollum’s shriveled mind and body, enslaved to that Ring) va kontekstual sinonimlar (peace — tinchlik, relief — yengillik) orqali ham ifodalanadi.

O‘ylaymizki, tahlil qilinayotgan makrokontseptsianing ijobiy baholanishi eng to‘liq tarzda mikrokontsept ELF (elf) orqali ifodalanadi. Elf leksemasi anglosakson tilidagi ælf so‘ziga borib taqaladi (An Anglo-Saxon Dictionary, 1973, p. 14) [20]. Ushbu birlikning derivatsion aloqalari lingvokul’turologik xususiyatlar, masalan, go‘zallik (misol uchun, ælf noþ — elf jasorati) kabi muhim elementlarni namoyon qiladi (An Anglo-Saxon Dictionary, 1973). [20]

...they were not made as weapons of war or conquest: that is not the POWER. Those who made them did not desire strength or domination or hoarded wealth, but understanding making and healing to preserve all things unstained [19, 266-bet]

Uzuklarni yaratganlarning yaxshi niyatlari metaforalar orqali tasdiqlanadi, masalan, «they were not made as weapons of war or conquest» (ular urush yoki zabt etish quroli sifatida yaratilmagan), bu yerda «war» (urush) va «conquest» (zabt etish) kontekstual sinonimlar bo‘lib, «making» (yaratish) va «healing» (davolash) tushunchalariga qarama-qarshi qo‘yilgan. Inson tabiiy dunyoga faol ta’sir ko‘rsatishga intilsa, elflar uchun esa tabiatning o‘zi mutlaq va shartli qiymatga ega.

...I hear the stones lament them: deep they delved us, fair they wrought us, high they builded us, but they are gone. They are gone [19, 283-bet]. / Eshitayapsizmi? Eshitayapsizmi toshlarning shikoyatlarini? Ular bizni cheklashdi, bizni abadiy saqlashdi, bizga hayotni nafas berdilar va abadiy yo‘qoldilar.

Bu tasvir Tolkinning o‘ziga xos, chuqur mifologik va falsafiy ifodalaridan biridir. Toshlarning «shikoyati» va «hayotni nafas berishi» simvolik ma’ nolarga ega bo‘lib, ular dunyo va uning tarkibidagi mavjudotlar o‘rtasidagi munosabatlarni, vaqt va abadiyat tushunchalarini o‘rganish uchun chuqur metaforalardir.

#### MUHOKAMA

Aytilganlar, peronifikatsiya qilingan fe’llar wrought, builded, inversiya, paralelizm va asindeton orqali jismoniy ta’sirni tasvirlovchi fe’llarni ishlatish orqali tasdiqlanadi.

Arxaik shakllar builded, are gone, yuqori stilistik ro‘yxatdan bo‘lgan lament, wrought leksemalari, yerdan tashqaridagi mavjudotlarining yo‘qolishi bilan bog‘liq uqubatni ta’kidlaydi. Toshlarning shikoyatlari, ingliz tilidagi anglo-sakson she’ri «The Ruin»ga allyuziya sifatida qabul qilinadi — bu she’rda Rim imperiyasi tomonidan zabt etilgan va keyinchalik buzilgan Britaniyadagi ulug‘vor arxitektura yodgorligi tasvirlanadi [17, 31-bet]. O‘rta Yerga (Middle-earth) elflarning ketishi bilan bog‘liq qayg‘u va afsuslanish roman davomida seziladi, chunki ular bilan birga go‘zal narsalar ham yo‘qoladi.

...the Days of the Rings were passed, and an end was come of the story and song

of those times [19, 285- bet]. / Uzuqlarning kunlari o'tdi va o'sha davrlarning hikoyasi ham, qo'shig'i ham oxiriga yetdi.

Bu yerda, ko'rib turganingizdek, parallelizm va polisindetona, shuningdek, «an end of the story and song of those times» (o'sha davrlarning hikoyasi va qo'shig'ining oxiri) metaforasi, arxaik perfekt shakli «was come» bilan birgalikda, afsus va qayg'u muhitini yaratadi.

...none saw them pass... or here and there some wanderer in the dark who saw a swift shimmer under the trees, or a light and shadow flowing through the grass as the Moon went westward [19, 287-bet]. / Hech kim ularning qanday o'tganini ko'rmagan; oy g'arbga qarab harakat qilayotganida, bu yerda va u yerda qorong'ulikda sayohat qilayotgan kishi daraxtlar ostida tezkor yaltirashni yoki o'tlar orasidan oqayotgan yorug'lik va soyani ko'rgan.

Konseptual xususiyat mikrokontsept ELF (efemeralik va vaqtinchaliklik) mikrokontsept WRAITH bilan bog'liq bo'lib, u inson tabiatining buzilishidan va hokimiyatdan kelib chiqadigan salbiy baholashning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi.

Ruhlar mustahkam jismoniy shaklga ega bo'lmaganligi sababli, wraith (ruh) leksemasi ehtimol wreath (gulchambar, uzuk, o'ram) leksemasining ildiziga ega bo'lishi mumkin. Bu so'z, inglizcha writhan (burash, bog'lash, kishanlash) fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'zning ma'nosi salbiy konnotatsiyani o'z ichiga oladi [18, 726; 17, 1275].

Lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinayotgan mikrokontsept WRAITH quyidagi nominatlar bilan ifodalanadi: Ring Wraith (Arvoh uzuk), Black Riders (Qora chavandozlar), The Nine Lords (To'qqizta Hukmron), The Dead (O'liklar), The Shadow Men (Sharpalar), Ghost (Sharpa).

Black Riders (Qora Chavandozlar) atamasi o'limni anglatadi (masalan, Apokalipsning Chavandozlari bilan taqqoslash mumkin). Black (qora rang) sifati o'lim va yomonlikni ramziy ravishda ifodalaydi (Makovskiy, 1999, s. 176), xuddi shunday The Dead (O'liklar) sifatida qo'llanilgan, bu ham salbiy baho va o'limni anglatadi. Shuningdek, ghost (sharpa) leksemasi o'xshash ma'noga ega bo'lib, anglosaksoncha ghis so'zidan kelib chiqadi, bu «qo'rquvni uyg'otish» ma'nosini bildiradi [18, 238-bet].

Over the hills of slain a hideous shape appeared: a horseman, tall, hooded, cloaked in black... He halted and held... great fear fell on all, defender and foe alike [19, 829-bet]. / Taqdim etilgan parcha quyidagi tarzda tarjima qilinadi:

«Halokat tepaliklarining orqasida xunuk soyalar ko'rindi: bir otliq, baland bo'yli, boshida kapyushon, qora kiyimga o'ralgan. U to'xtadi... va barcha yuraklarni dahshat qamrab oldi, himoyachi va dushman birlashgan bir shaklda.»

Bu jumlada tasvirlar, xususan «qora kiyim» va «halokat» kabi atamalar, o'liklar va yomonlikning ramzi sifatida ishlatilgan. «Himoyachi va dushman birlashgan» iborasi esa, muhim ma'nolarni o'zida jamlagan syujetni ifodalaydi, chunki bu obraz kontrastli va noaniq ahvolda ko'rsatilgan.

Keltirilgan matn parchasida sharpaning atrofdagilarga qo'rquvni yuzaga keltirishi, «defender and foe alike» (himoyachi va dushman bir xil) ajratilgan antitezasi, «tall, hooded, cloaked in black» (baland, kapyushonli, qora kiyimda) ta'riflari bilan ifodalanadi. Ushbu ta'riflar bog'lanmagan tarzda berilgan va struktura jihatidan o'sish (kuchayish) sifatida tashkil etilgan.

Shadow (soya) leksemasi romanda ramziy ma'noga ega bo'lib, u Yer bilan bog'liq, Qora Hukmron bilan taqqoslanadi va the Land of the Shadow (Soyalar mamlakati) sifatida tushuniladi [20, 821-bet].

WIZARD (sehrgar) va DWARF (pakana) mikrokonseptlari doirasida tahlil qilinayotgan makrokonsept RING of POWER (Hukmronlik uzugi) insoniyat tabiatining ikki tomonlilikini ifodalaydi va kundalik hayotdagi jihatlarni ko'rsatadi. Shunday

qilib, WIZARD mikrokonseptning nominatorlari bo'lgan wizard va the Wise (dono) leksemalari ijobiy baholashga ega, conjuror (fokuschi) esa aniq salbiy konnotatsiyaga ega. Wizard leksemasi (anglosaksoncha wischere) fransuzcha guichard (ongli, ayyor), eski islandcha vizkr (aqli, biluvchi, vita – bilish) va etimologik jihatdan inglizcha wise (aqli, dono, bilimli) sifatdoshiga bog'liq bo'lib, anglosaksoncha fellar wis, witan (bilish, tushunish, aqli bo'lish, xabardor bo'lish) va witan (ko'rish, sezish) bilan bog'liq, ularning barchasi hind-yevropa weid (ko'rish, bilish) ildiziga kiradi [18, 718, 720; 20. 1243-1245].

Tahlil qilinayotgan mikrokonseptning konseptual paradigma nomuvofiqligi va qarama-qarshi oppozitsiyasi, ikki qahramon – Saruman va Gandalf – orqali ifodalanadi. Avval Saruman oliyhimmat va donishmand edi. Biroq, u Sehrgarlar Tartibini boshqarish uchun tayinlanganidan so'ng, hokimiyatning jozibasini his qilib, jahon hukmronligi haqida o'ylashni boshladi.

«He is plotting to become a POWER. He has a mind of metal and wheels... it is clear that he is a black traitor»

«U Hukmron bo'lishni rejalashtirmoqda. Uning boshida faqat temir va g'ildiraklar bor... Aniqki, u qora xoin.»

Aytilganlar stilistik vositalarning konvergentsiyasi orqali ifodalanadi: to become a POWER metonimiyasi metafora a mind of metal and wheels va black epiteti. Biroq, Gandalfning konseptosferasining axsiologik potentsiali bir ma'noli emas va shuningdek, ijobiy konnotatsiyani ham o'z ichiga oladi.

He deserves death. Many that live deserve death. And some that die deserve life [19, 59).

Keltirilgan matn parchasida «live deserve death» va «die deserve life» xiazmi, hatto yomon ish qilganlarga nisbatan ham shaxsning marhamat va rahm-shafqat ko'rsatish qobiliyatini aniq ko'rsatadi.

DWARF (pakana) mikrokonsepti lingvokulturaviy matritsasi pakanalarning insoniy fazilatlarida, ya'ni barqarorlik va mehnatsevarlikda namoyon bo'ladi.

...travelling and labouring and trading about the lands... they should use the languages of Men among whom they dwelt[19, 132 –bet]. / O'zbek tiliga tarjimasini:

Sayohat qilib, ishlab, savdo qilib yurishar ekan... ular yashaydigan odamlarning tilidan foydalanishlari kerak.

Shu bilan birga, pakanalarning konseptosferasi ham qarama-qarshidir. Pakanalarning asosiy yomon xulqi — bu ularning boylikka bo'lgan cheksiz intilishi.

...lovers of stone, of gems, of things that take shape under the hands of the craftsman... [19, 1132]. / Toshlar, xazinalar, qo'l mehnati bilan shakl berilishi mumkin bo'lgan narsalar ishqibozlari.

Hozirgi kunda ingliz jamiyatining milliy konseptosferasida hukmronlik, avtoritarizm, zo'rvonlik va majburlash nuqtai nazaridan kuch munosabatlarini tushunish demifologizatsiya jarayonlari, hozirgi geosiyosiy holat va POWER leksemasining konnotativ belgisi o'zgarib, ijobiydan salbiy baholashga o'tishi bilan bog'liqdir.

#### XULOSA

Yuqoridagilarni inobatga olib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1) POWER konsepti ingliz milliy konseptosferasida inson tabiatini tushunishda eng muhim rol o'ynaydi va u mifologik tafakkur nuqtai nazaridan kompleks, modul shaklida tuzilgan kognitiv model sifatida taqdim etiladi. Ushbu modelda makrokonsept RING of POWER (Kuch halqasi) yadrodagi ring (halqa) so'zi bilan mikrokonseptlar WIZARD, WRAITH, ELF, DWARF bilan gipero-giponimiy munosabatlarda joylashgan.

2) Tadqiq qilinayotgan konseptning mifologik paradigmasi dinamik sinxroniya

nuqtai nazaridan barqaror emas, va ingliz etnosining aniq tarixiy davridagi mifologik tafakkurning amalga oshirilishining dolzarbligi bilan bog'liq. Mifologik paradigmada o'zgarishlar mifologizatsiya va demifologizatsiya jarayonlari bilan bog'liq. Shunday qilib, yuqorida tilga olingan makro- va mikrokonseptlarni ifodalovchi leksemalar axsiologik potensialini ikki tomonlama, noaniq, sifatida tavsiflash mumkin, chunki ijobiy konnotatsiyadan salbiy konnotatsiyaga o'zgarish kuzatiladi. Dinamik sinxroniya nuqtai nazaridan RING of POWER makrokonseptining tuzilmasi o'zgarib, unga kiritilgan mikrokonseptlar ham o'zgaradi.

3) Dastlab ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lgan belgi tarixiy paradigma bilan integratsiyalanadi, shu bilan birga salbiy baho bilan tavsiflanadigan belgi muhim bo'lib qoladi. Buning tasdig'i sifatida, hozirgi ingliz jamiyatining milliy madaniy tasvirida POWER konsepti zo'ravonlik va majburiyat vositasi sifatida identifikatsiyalanadi.

#### Adabiyotlar ruuxati;

1. Вежбицкая А. Семантические универсалии и базисные концепты. М.: Языки славянских культур, 2011.
2. Искусство и цивилизованная идентичность / отв. ред. Н. А. Хренов. М.: Наука, 2007.
3. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. М.: ГНОЗИС, 2004.
4. Курышева В. И., Сони́на Д. И. Концепт «Кольцо Власти» (на материале романа Дж. Р. Р. Толкина «The Lord of the Rings») // Проблемы романо-германской филологии, педагогики и методики преподавания иностранных языков: сб. науч. тр. Пермь: Пермский государственный гуманитарно-педагогический университет, 2019.
5. Маковский М. М. Историко-этимологический словарь английского языка. М.: Диалог, 1999.
6. Осипов А. И. Путь разума в поисках истины. 2010. URL: [https://azbyka.ru/otechnik/Aleksej\\_Osipov/putrazuma-v-poiskah-istiny/](https://azbyka.ru/otechnik/Aleksej_Osipov/putrazuma-v-poiskah-istiny/)
7. Питина С. А. Концепты мифологического мышления как составляющая концептосферы национальной картины. Челябинск: Челябинский государственный университет, 2002.
8. Попова З. Д., Стернин И. А. Язык и национальная картина мира. Изд-е 4-е, стер. М. – Берлин: ДиректМедиа, 2015.
9. Приходько Г. В. Репрезентация концептосферы ДРУЖБА в толковых словарях XX-XXI веков // Вестник Новосибирского государственного университета. Серия «История, филология». 2009. Т. 8. Вып. 3. Филология.
10. Сатюкова Е. Г. «Englishness»: взгляд изнутри (Дж. Фаулз «Быть англичанином, а не британцем», Дж. Пристли «Англичане») // Проблемы истории, философии, культуры. 2010. № 2.
11. Степанов Ю. С. Константы: словарь русской культуры. Изд-е 3-е, испр. и доп. М.: Академический Проект, 2004.
12. Сухих С. А. Личность в коммуникативном процессе. Краснодар: Южный институт менеджмента, 2004.
13. Якобсон Р. Язык и бессознательное. М.: Гнозис, 1996.
14. Caldecott Stratford (2005): The Power of the Ring. The Spiritual Vision Behind “The Lord of the Rings”, New York: The Crossroad Publishing Company.
15. Hornby A. S. An Anglo-Saxon Dictionary / based on the manuscript collections of the late Joseph Bosworth. Oxford: Oxford University Press, 1973. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. 7th ed. Oxford: Oxford University Press, 2005.

16. Lakoff G. The Contemporary Theory of Metaphor // Metaphor and Thought / ed. by A. Ortony. Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
17. Shippey T. A. The Road to Middle Earth. L.: Harper Collins Publishers, 1992.
18. Skeat W. W. An Etymological Dictionary of the English Language. Oxford: Oxford University Press, 2006.
19. Tolkien J. R. R. The Lord of the Rings. L.: Harper Collins Publishers, 1992.
20. [https://books.google.co.uz/books?id=oXlii1KgDngC&printsec=frontcover&hl=ru&source=gbs\\_ge\\_summary\\_r&cad=0#v=onepage&q=her&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=oXlii1KgDngC&printsec=frontcover&hl=ru&source=gbs_ge_summary_r&cad=0#v=onepage&q=her&f=false)

## STEFAN SVAYG IJODIDAGI AYOLLAR OBRAZINING ILMIY-BADIIY TAHLILI

*Buriyeva Ezozhon Turgunovna*  
*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti*  
*Nemis tili nazariy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Stefan Svayg u o'zining badiiy asarlari, psixologik tahlillari, va inson tabiatini chuqur tushunish bilan tanilgan. Svayg ijodida ayollar obrazlari muhim o'rin tutadi va ularni ko'p hollarda nozik, murakkab va o'zaro qarama-qarshi his-tuyg'ular orqali tasvirlaydi. Ushbu maqolada Svayg ijodida ayollar obrazining qanday talqin qilinishi va uning tasvirlari haqida fikr yuritamiz.*

*Kalit so'zlar: idializm, realism, feminism, psixologik tahlil, esse, novella.*

## ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ТВОРЧЕСТВЕ СТЕФАНА СВАЙГА НАУЧНЫЙ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ

*Буриева Эзожон Тургуновна.*  
*Узбекский государственный университет мировых языков*  
*Преподаватель кафедры теоретических наук немецкого языка*

*Аннотация. Стефан Цвейг известен своими произведениями искусства, психологическим анализом и глубоким пониманием человеческой природы. Женские образы играют важную роль в творчестве Свайга, и во многих случаях он изображает их через тонкие, сложные и противоречивые эмоции. В этой статье мы рассмотрим, как трактуется образ женщины и его образы в творчестве Свайга.*

*Ключевые слова: идеализм, реализм, феминизм, психологический анализ, эссе, новелла.*

## SCIENTIFIC AND ARTISTIC ANALYSIS OF THE IMAGE OF WOMEN IN THE WORK OF STEFAN SWAG

*Buriyeva Ezozhon Turgunovna*  
*Teacher of the Department of Theoretical Sciences of the German Language, Uzbek*  
*State University of World Languages*

*Annotation. Stefan Zweig is known for his artistic works, psychological analysis, and deep understanding of human nature. Images of women play an important role in Zweig's work, and he often portrays them through delicate, complex, and contradictory emotions. In this article, we will reflect on how the image of women is interpreted and depicted in Zweig's work.*

*Key words: idealism, realism, feminism, psychological analysis, essay, short story.*

*Kirish. Stefan Svayg 20-asrning mashhur avstriyalik yozuvchisi va esséistidir. U o'zining badiiy asarlari, psixologik tahlillari, va inson tabiatini chuqur tushunish bilan tanilgan. Svayg ijodida ayollar obrazlari muhim o'rin tutadi va ularni ko'p hollarda nozik, murakkab va o'zaro qarama-qarshi his-tuyg'ular orqali tasvirlaydi. Ushbu maqolada, Svayg ijodida ayollar obrazining qanday talqin qilinishi va uning tasvirlari haqida fikr yuritamiz. Svayg asarlarida ko'pincha insonning psixologik holatiga e'tibor qaratgan va ko'plab asarlari tarixiy shaxslar, madaniyat, siyosat va ijtimoiy omillar bilan bog'liq. U qisqa hikoyalar, romandar, drama va biografiya janrlarida ijod qilgan. Svaygning asarlari o'zining tasviriy kuchi, chuqur psixologik tahlil va zamonaga mos badiiy uslubi bilan ajralib turadi. U o'z davrining ijtimoiy va siyosiy muammolarini juda sezgirlik bilan*

o‘rganib chiqqan.

Stefan Svayg ijodida ayollar obrazlari murakkab, nozik va chuqur tasvirlangan. Uning asarlarida ayollar o‘zlarining ichki dunyosini, orzu va illyuziyalarini, sevgisi va fidoyiligini, shaxsiy iztiroblarini, hamda ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlarni o‘zida mujassam etgan qahramonlardir. Svayg ayollarga yondashishda ularning ruhiy holatlarini, sevgi va muhosasizlikni, o‘zini anglash va o‘zga nuqtai nazarlarga bo‘lgan qarashlarini chuqur va samimiy tarzda tahlil qilgan. Yozuvchining ayollarga bo‘lgan qarashlari faqat ularning tashqi ko‘rinishi yoki jamiyatdagi roli bilan cheklanmaydi; ular Svayg asarlarida ruhiy ziddiyatlar va ichki kurashlar orqali muhim bir kashfiyot va o‘zini anglash jarayoni sifatida aks etadi. Svayg ayollarni ideallashtirishni ham, ularga realistik yondashishni ham muvozanatli tarzda amalga oshirgan, bu esa uning asarlarini yanada boyitib, o‘quvchiga ayollarning nafaqat ijtimoiy rollari, balki insoniy, psixologik jihatlari bilan bog‘liq yangi bir muhokama maydoni yaratdi.

Svaygning merosi bugungi kunda ham davom etmoqda, uning asarlari turli tillarga tarjima qilingan va ko‘plab adabiy jurnallarda nashr etilgan. Stefan Svaygning novellalarida ayol obrazlari haqida ko‘proq misollar va tahlillarni keltiraman, chunki uning ayollarni tasvirlash uslubi juda boy va murakkab edi.

Asosiy qism (metodologiya). 1-Svayg ijodida ayollar obrazining umumiy tahlili: Svayg asarlarida ayollar ko‘pincha zamonaviy jamiyatning psixologik, ijtimoiy va ma‘naviy qiyinchiliklari bilan kurashayotgan, ichki dunyosi murakkab va o‘ziga xos bo‘lgan qahramonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ayollarni faqat tashqi ko‘rinishi yoki jamiyatdagi an‘anaviy rollari orqali emas, balki ularning ichki dunyosi, hayotga bo‘lgan qarashlari va his-tuyg‘ulari orqali tasvirlaydi. Svaygning ayollarni ifodalashdagi yondashuvi ko‘pincha psixologik portretlar va individual boshqaruvlar bilan boyitilgan.

Svayg asarlarida ayollarning qiyin hayotiy holatlari va ichki iztiroblari ko‘p hollarda asarlarning markazida bo‘ladi. U ayollarning kompleks hissiyotlari va ular bilan bog‘liq dardlarni ifodalashga alohida e‘tibor qaratadi. Yozuvchi ayollarni oddiy «qahramonlar» sifatida emas, balki o‘z his-tuyg‘ularini va shaxsiyatini qidirayotgan murakkab mavjudotlar sifatida tasvirlaydi.

2-Svayg asarlarida ayollar: His-tuyg‘ular va murakkablik Svayg asarlarini tahlil qilganda, uning ayollarga bo‘lgan yondashuvi ikki asosiy jihatdan ajralib turadi: noziklik va murakkablik. Yozuvchi ayollarni ko‘pincha ichki qarama-qarshiliklarni boshdan kechirayotgan, o‘zining rolini va o‘zi haqidagi tushunchalarini izlayotgan shaxsiyatlar sifatida tasvirlaydi. Masalan: «Zarba» romanida ayol obrazining murakkabligi va nozikligi aks etadi. Bu asarda asosiy qahramon ayol - o‘zining haqiqiy sevgi va romantik idealini izlashda ko‘plab ichki ziddiyatlarga duch keladi. Svayg ayolni faqat tashqi go‘zalligi bilan emas, balki uning ichki hayoti, his-tuyg‘ulari va hatto orzulari orqali ifodalaydi. «Yuqori jamiyat» asarida ham ayollar ijtimoiy, siyosiy va shaxsiy muammolar bilan kurashayotgan, lekin ayni paytda o‘z shaxsiy iztiroblarini yashirishga intilayotgan shaxslar sifatida ko‘rsatilgan.

3-Ayollar va erkinlik: Svaygning ayol tasvirlaridagi zamonaviylik!

Svayg asarlarida ayollarning erkinlikka intilishi ham alohida o‘rin tutadi. Ayollar ko‘pincha o‘zining ichki dunyosini kashf qilish, jamiyatning qat‘iy normativlariga qarshi kurashish va o‘zini erkin his qilishni istashadi. Svayg bu holatni juda nozik va chuqur tarzda tasvirlaydi, ayollarning bu erkinlikni qidirish jarayoni ularning shaxsiyatining rivojlanishiga va ko‘plab ichki qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Muallifning urush davrida yozgan asarida ayollarning jamiyatdagi erkinligi va ularning erkni qidirishi mavzusi ham o‘z o‘rniga ega. Yozuvchi ayollarning ham o‘z hayotini boshqarish va mustaqil shaxs sifatida yashash huquqini tan olishga bo‘lgan ehtiyojini ko‘rsatadi. Bu



borada Svayg o'z asarlarida erkin va mustaqil ayollarni tasvirlab, ularning jamiyatdagi rolini qayta baholashga intiladi.

4-Svaygning ayollar obrazining psixologik tahlili: Svayg ayollar obrazini tasvirlashda psixologik tahlilga katta e'tibor beradi. U ayollarning his-tuyg'ularini, ichki kurashlarini va o'ziga bo'lgan munosabatlarini chuqur tahlil qiladi. Yozuvchining asarlarida ayollarning ruhiy holatlari va ularga nisbatan tuyg'ular ko'p hollarda dramatik tus oladi, bu esa asarlarning syujeti va qahramonlarining psixologik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Svayg ayollarni tasvirlashda juda ko'p ma'naviy va psixologik jihatlarni o'rganadi. Uning qahramonlari odatda jismoniy va ruhiy jihatdan bir-biriga zid bo'lgan his-tuyg'ularni boshdan kechiradi. Bu jihat Svaygning ayollarni qanday tasvirlashini ko'rsatadi. Ular bir vaqtning o'zida nafrat, sevgi, o'ch olish, afsuslanish kabi qarama-qarshi hissiyotlarni his qiladilar. Bu psixologik jihatlar Svaygning asarlarini o'qishda juda katta ta'sirga ega.

5-Svaygning ayollar obrazida idealizatsiya va realism: Stefan Svayg ayollarni tasvirlashda ko'pincha idealizatsiya va realizm o'rtasida muvozanatni topishga harakat qiladi. Ularning obrazlarini ko'p hollarda muammolar va ziddiyatlar bilan to'ldiradi, lekin shu bilan birga, ba'zi holatlarda ayollarni ideallashtirish orqali yuksak fazilatlarni, mukammallikni yoki sevgi va fidoyilikning eng yuqori shakllarini ko'rsatadi. Ayollarni idealistik va mukammal shaxsiyat sifatida tasvirlash orqali, ularning insoniy zaifliklarini va ichki dunyosidagi qat'iyatlilikni ko'rsatadi. Bu idealizatsiya ular orqali asarlarning estetik va psixologik kuchini kuchaytiradi. Ammo, Svayg asarlarida ayollarning ideallikka erishishi faqat tashqi go'zallikda emas, balki ruhiy va ma'naviy jihatdan ham tasvirlanadi. Yozuvchi ayollarning his-tuyg'ularini, orzu va illyuziyalarini kiritish orqali ularning muammolarini yanada realroq va insoniy qiladi. Svaygning bu yondashuvi, ayollarning inson sifatida to'liq va chuqur tasvirlanishini ta'minlaydi, shu bilan birga, ular haqidagi idealizatsiyani zarur tarzda realistik holatlar bilan ta'minlaydi.

6-Svayg va ayollarning ijtimoiy roliga qarshi kurash: Svayg asarlarida ayollar ko'pincha jamiyatdagi o'rni va rollari bilan muammolarga duch keladilar. Ular o'zining ijtimoiy vazifalari va majburiyatlari bilan kurashishda, ba'zan bu o'rni bilan qoniqmasdan yoki o'zlarining ijtimoiy rolini qabul qilmasdan qolishadi. Svayg, o'zining psixologik portretlari orqali, ayollarning jamiyatning patriarxal strukturalariga va an'anaviy qarashlariga qarshi kurashishini aks ettiradi.

Masalan: "Bir ayolning portreti" romanida asosiy qahramon, ijtimoiy shartlar va jamiyatning tan olinmagan ayollik roli bilan bog'liq bo'lgan ziddiyatlarni boshdan kechiradi. Ayolning o'zini erkin ifodalashga, o'z yo'lini tanlashga intilishi, Svaygning asosiy ijtimoiy tanqidlaridan biriga aylanishi mumkin.

Svaygning ayollar obrazidagi bu kurash, ular o'z o'rni va rolini topish uchun yangicha qarashlar, aforizmlar va hissiyotlarni qo'llab-quvvatlaydi. Yozuvchi ayollarning hayotidagi kuchli ijtimoiy va psixologik ziddiyatlarni ko'rsata turib, ularning o'zgarish imkoniyatlarini ochib beradi.

7-Ayollarning sevgisi va fidoyiligi: Svayg ijodida ayollarning sevgisi va fidoyiligi haqida alohida o'rin berilgan. Ayollar ko'pincha o'z sevgilari uchun barcha narsani qurbon qilishga tayyor, lekin shu bilan birga, o'zlariga nisbatan murosasizlik va ichki iztiroblar bilan kurashadilar. Svayg, ayollarning sevgi va fidoyiligi orqali insonning eng nozik, beparvo, lekin shu bilan birga, kuchli jihatlarni ko'rsatadi.

Misol uchun, Svaygning «Qashshoq sevgisi» asarida ayol qahramon sevgi va azobdan qurbon bo'lgan, biroq uning sevgisi mutlaqo chin va to'liq bo'lgan. Svaygning ayol tasvirlaridagi sevgi, ko'pincha o'zining so'nggi chegarasigacha boradi, bu esa asarlarni yanada dramatik va psixologik jihatdan chuqurroq qiladi.

Svaygning ayollarga bo'lgan yondashuvi, ularning sevgisi va fidoyiligini, ko'pincha

ishonch, hayotning murakkabligi va haqiqiy sevgiga bo'lgan ehtiyoj bilan uyg'unlashtiradi. Uning asarlarida ayollarning sevgi va muhosasizligi, xususan, insonning o'zini anglash va erkinlikka intilish bilan bog'liq tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir.

8-Svaygning Ayollarga doir tematik asarlarning yangi qarashlarga ta'siri: Svaygning ayollar obrazlarini talqin qilishdagi yondashuvi, ko'plab adabiyotshunoslar va tanqidchilarning diqqatini jalb qilgan. Uning ayollarni nafaqat jamiyatdagi roli, balki individual, psixologik va ruhiy jihatdan yoritishi, adabiyotda yangi qarashlarning paydo bo'lishiga yordam bergan. Svayg, ayollarni faqat ular yashayotgan davrning og'ir sharoitlarida emas, balki o'zini anglash va ichki kurashni davom ettirayotgan shaxsiyatlar sifatida tasvirlash orqali o'z ijodida yangi yo'nalishlar yaratdi. Ayollar obrazining Svayg asarlarida aks etishi, ularning nafaqat jamiyatdagi o'rni, balki shaxsiy o'sishlari, sevgi va qurbonliklariga bo'lgan munosabatlarini ifodalashda juda katta ahamiyatga ega. Bu borada Svayg, adabiyotda ayollarning psixologik jihatlarini yanada aniqroq, chuqurroq va insoniyroq tarzda ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

9-Ayollarning zamonaviy adabiyotda o'rni: Stefan Svaygning ayollar obraziga yondashuvi, 20-asr adabiyotida ayollarga bo'lgan qarashlarning o'zgarishini aks ettiradi. Uning asarlari ayollarni nafaqat ijtimoiy kontekstda, balki insoniyatning eng chuqur va nozik ruhiy tajribalari sifatida tasvirlaydi. Svaygning ayollarga bo'lgan yondashuvi, o'z vaqtida mavjud bo'lgan patriarxal normativlarga qarshi kurashishni va ayollarning ichki dunyosini yanada oydinlashtirishni maqsad qilgan. Shu boisdan, Svayg ijodida ayollar obrazi faqat an'anaviy «ayol» obrazlarini ifodalab qolmaydi, balki ularning psixologiyasini, ongini, o'zini anglashini va mavjud ijtimoiy rollarga bo'lgan munosabatlarini chuqur yoritadi.

Svaygning ayollarni idealizatsiya qilish va realistik tarzda tasvirlashdagi balans, uning asarlarini adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholanadi. Ayollarning murakkab xarakterlari, sevgi, fidoyilik, o'zini izlash kabi masalalar, Svaygning eng yaxshi asarlarida markaziy mavzuga aylanadi. Aynan shu jihatlar unga ayollarni nafaqat zamonaviy jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy roli nuqtai nazaridan, balki ularning inson sifatidagi zaifliklari va kuchlarini ko'rsatishda katta muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Xususan, Svayg o'z asarlarida ayollarga doir ijtimoiy g'oyalarning rivojlanishiga hissa qo'shgan. Ayollarni nafaqat qurbon sifatida, balki o'z hayotlarini yaratishga intiluvchi, ichki kurashlarga duchor bo'lgan, ba'zan jamiyat tomonidan noqulay sharoitlarda qoladigan, lekin o'zini izlashda davom etadigan insonlar sifatida tasvirladi. Svayg, o'z asarlarida ayollarning ichki dunyosini nafaqat muhim bir qarash bilan, balki murakkab ruhiy holatlar orqali tahlil qilib, ularning qahramonliklarini ajratib ko'rsatdi.

Svayg asarlarida ayollarning siyosiy va ijtimoiy o'rni o'zgarib borayotgan davrlar, ya'ni 20-asrning boshlarida yuzaga kelgan sotsializm va feminizm g'oyalari doirasida yangi talqinlarga ega. Ayollarning o'zini topishga bo'lgan intilishlari, ularning ijtimoiy pozitsiyalarini o'zgartirish istagi Svayg tomonidan ruhiy, ichki kurashlar bilan birga ko'rsatilgan. Svaygning ba'zi asarlarini o'qiyotganimizda, jamiyatda ayollarga nisbatan bo'lgan nohaqlik va noto'g'ri qarashlarga qarshi uning tanqidiy yondashuvlarini sezish mumkin. Ayollarning sevgi, o'zini anglash, shaxsiy erkinlik va iztiroblarini tasvirlash orqali, Svayg o'sha davrning noqulay sharoitlariga qarshi ovoz chiqaradi.

Xulosa o'nida shuni ta'kidlash joiz-ki Svaygning novellalarida ayollar tasvirlari faqat tashqi go'zallik va ajoyib xususiyatlar bilan chegaralanmaydi. Uning ayol obrazlari - bu ruhiy iztiroblar, hissiy kurashlar va o'zini anglash jarayonida yuzaga keladigan shaxsiyatlardir. Ayollar Svaygning asarlarida doimo ichki dunyosi bilan kurashayotgan, o'z o'rnini topishga intilayotgan, o'zgaruvchan va ko'plab qatlamlarga ega personajlar sifatida ko'rinadi. Ular ko'pincha ijtimoiy konvensiyalar, sevgi, hatto o'lim va yangi imkoniyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarda yashaydi. Bu, albatta, Svaygning

ayollar obrazlarini faqat jismoniy ko'rinishlar bilan emas, balki ularning ruhiy holati, hissiy dunyosi va ijtimoiy o'rni bilan tasvirlashda yuksak mahoratini ko'rsatadi. Stefan Svayg ijodida ayollar obrazlari chuqur psixologik tahlil, hissiyotlar va o'zaro qarama-qarshiliklar orqali talqin qilinadi. Yozuvchi ayollarni nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki dunyosi, ruhiy holatlari va o'ziga bo'lgan munosabatlari orqali tasvirlaydi. Svaygning ayollar obrazlari faqat o'z davrining ijtimoiy muammolarini aks ettiribgina qolmay, balki insonning ichki kurashlarini, erkinlikka intilishini va shaxsiyatini izlashini ko'rsatadi. Uning asarlari orqali ayollarning murakkab va nozik shaxsiyati, o'ziga xos yondashuv bilan ifodalanadi va bu Svaygni 20-asr adabiyotining eng buyuk yozuvchilaridan biriga aylantiradi. Shunday qilib, Svayg ijodidagi ayollar obrazini o'rganish, nafaqat ularning tashqi dunyosini, balki ichki iztiroblarini, orzularini va shaxsiy qarama-qarshiliklarini tushunishga imkon beradi. Svayg ayollarni faqat biror qadriyat yoki tushunchani ifodalaydigan vosita sifatida emas, balki o'z shaxsiyatini, ichki kurashlarini va muammolarini tasvirlaydigan murakkab qahramonlar sifatida yaratgan. Bu esa uning asarlariga haqiqiylik, chuqurlik va insoniylik berib, ularni o'qishda har birimiz uchun yangi, shaxsiy tajribalarni kashf etishga yordam beradi. Svaygning novellalaridagi ayollar obrazi ko'pincha qiyinchiliklar, kurashlar va o'ziga xos kechinmalar bilan bog'liq. Ayol obrazlari ko'pincha erkinlik va o'zgarishlarni orzu qilayotgan, ammo ichki va tashqi muammolar bilan yuzlashayotgan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Svaygning ayollarni tasvirlashdagi yuksak mahorati nafaqat ularning tashqi ko'rinishlarini, balki ularning ichki dunyosini, ruhiy holatini va ijtimoiy roli bilan bog'liq murakkab jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Bu, albatta, Svaygning adabiy yuksakligini va inson tabiatini chuqur tushunishini ko'rsatadi. Shunday qilib, Svayg ijodida ayollar obrazining talqini, nafaqat o'z davrining jamiyatidagi o'zgarishlarni, balki insoniy tabiati, sevgisi va iztiroblarini anglashni o'rgatadi. Uning asarlari ayollarning ijtimoiy roli va shaxsiy kurashlari bilan birga, adabiyotda ayollarni o'rganishga bo'lgan yangi yondashuvlarni shakllantirgan va bu kunimizgacha adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Stefan Zweig Collection at the Daniel A. Reed Library, State University of New York at Fredonia, Fredonia, New York Archived 6 August 2018 at the Wayback Machine.
2. Stefan Zweig Online Bibliography, a wiki hosted by Stefan Zweig Digital, in Salzburg, Austria.
3. Stefan Zweig's suicide letter on the National Library.

## TIBBIY EVFEMIZMLAR VA BADIY MATNLARDA MEVACHILIK NOMLARINING QO‘LLANILISHI

*Hojiyeva Nigina Hayotovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida  
o‘qituvchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada mevalarning shifobaxshligi ularning nomlari orqali turli efimik birliklarda, tibbiy o‘gitlarda ham o‘z ifodasini topganligini badiiy asarlardan olingan misollar orqali tasniflangan. Shuningdek, birgina meva turli xalqlarda mushtarak ramz ma‘nosini ham, ba‘zan alohida ramz mantig‘ini ham ifodalashi haqida fikr yuritimiz*

*Kalit so‘zlar: Muhammad Husayn ibn Muhammad al-Oqiliyning “Maxzan-ul-adviya”, Abu Ali ibn Sinoning asarlari, Z.M. Bobur “Boburnoma” asarida, Xalq og‘zaki ijodida, o‘zbek poetik matnlarida, Anvar Obidjon, uzum va anor va o‘ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yong‘oq.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАЗВАНИЙ ФРУКТОВ В МЕДИЦИНСКИХ ЭВФЕМИЗМАХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

*Аннотация. В данной статье целебная сила фруктов классифицируется по их названиям в различных эфемерных единицах, а целебные травы – на примерах, взятых из произведений искусства. Мы также считаем, что один и тот же плод представляет собой как общее символическое значение, так и иногда отдельную символическую логику у разных народов.*

*Ключевые слова: «Махзан-ул-адвия» Мухаммада Хусейна ибн Мухаммада аль-Акили, произведения Абу Али ибн Сины, З.М. Бабура в «Бабурном», Народные устные произведения, узбекские поэтические тексты, Анвар Обиджан, виноград и гранаты и абрикосы и яблоки и персики. и гранаты, и персики, и сливы, и сандал, и миндаль, и грецкие орехи.*

## USE OF FRUIT NAMES IN MEDICAL EUPHEMISMS AND LITERARY TEXTS

*Abstract. In this article, the healing power of fruits is classified through their names in various ephemeral units and medicinal herbs through examples taken from works of art. We also think that a single fruit represents both a common symbolic meaning and sometimes a separate symbolic logic in different nations.*

*Keywords: «Makhzan-ul-adwiya» by Muhammad Husayn ibn Muhammad al-Aqili, works of Abu Ali ibn Sina, Z.M. Babur in «Baburnoma», Folk oral works, Uzbek poetic texts, Anvar Obidjan, grapes and pomegranates and apricots and apples and peaches and pomegranates and peaches and plums and sandalwood and almonds and walnuts.*

*Kirish. O‘zbekistonning noyob tuproq-iqlim sharoiti, bir yilda o‘rtacha 320 kunning quyoshli bo‘lishi, to‘rt faslning izchil almashinuvi yuqori sifatli meva va sabzavotlar yetishtirish uchun ham qulay tabiiy imkoniyatni tuhfa etadi. Pirovardida qishloq xo‘jaligi mavsumi yangi ko‘katlar tabiiy sharoitda yetiladigan mart oyining dastlabki kunlaridan boshlanib, ta‘bir joiz bo‘lsa, butun yil mobaynida to‘xtamaydi. Ya‘ni bozorlarga uzum, qovun, xurmo va behining kechki navlari yetkazib beriladigan dekabr oyining boshiga*

qadar sarxil mevalar taqdim qilinadi.

Ekspertlarning e'tirof etishicha, bizning sharoitimizda yetishtirilgan mevalar tarkibida tabiiy shakar, amino va organik kislotalar, salomatlik uchun zarur mikroelementlar va oziq-ovqat ratsionida o'rnini almashtirib bo'lmaydigan turli biologik moddalarga boyligi bilan ustun turadi. Zotan, qadimda Ibn Sino turli kasalliklarni davolash uchun, avvalo, meva-sabzavotlar hamda turli giyoh va o'simliklardan foydalangan.

Mevalarning shifobaxshligi ularning nomlari orqali turli efimik birliklarda, tibbiy o'g'itlarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan,

Olma bor yerdan kasallik qochadi, deydi shifokorlar va olmani kasallikni haydovchi meva sifatida tavsiya etishadi. Chunki olma qon tarkibidagi xolesterin miqdorini pasaytirish xususiyatiga ega. Uning po'stlog'i saraton kasalligining oldini olishda foydali hisoblanadi. Olmaning po'stlog'i bilan yeyishga harakat qilish zarur. Bu tarzda iste'mol qilish orqali organizmga kvertsetin va vitamin C kiradi.

Banan sportchilarning mevasi hisoblanadi. Chunki u insonga energiya bag'ishlash xususiyatiga egadir. Sport maydonchasida bir yarim soat tinimsiz shug'ullanish uchun ikkita banan yeyish kifoya qilar ekan. Buni tadqiqotlar ko'rsatmoqda. Uning tarkibida B 6 vitamini mavjud bo'lib, u qondagi glyukoza miqdorini me'yorlashtirib, kayfiyatni yaxshilaydi. Banan kamqonlikda yordam beradi. Kaliy moddasi yurak faoliyatini va organizmdagi suv balansini yaxshilaydi.

Chilonjiyda jumrutdoshlar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 2,5 metrdan 6 metrgacha yetadigan ulkan daraxtdir. Danakli, dumaloq yoki cho'ziqroq shakldagi mevasi sentyabr oyida pishib yetiladi. U qadim zamonlardan xosiyatli ne'mat sifatida qadrlanadi. Tabobatda bundan ikki ming yil oldin bir qator kasalliklar chilonjiyda yordamida davolangani buning dalilidir.

Muhammad Husayn ibn Muhammad al-Oqiliyning "Maxzan-ul-adviya" kitobida yozilishicha, behi bosh og'riqlarini qoldirib, yurakni mustahkamlaydi, jigar va me'da ishini yaxshilab, ishtahani ochadi, og'izdagi noxush hidni yo'qotadi. U lohas bo'lganda, ich ketganida, sariq kasalida ham foyda beradi. Shuningdek, tanaga noxush qon quyilishining oldini oladi. Zero, behi – bog'lar shohidir.

Buyuk tabib Abu Ali ibn Sinoning yozishicha, yong'oq yaprog'i shirasi iliq holda quloqqa tomizilsa, yiringlashning oldi olinadi. Qobig'ining quyultirilgan shirasi tomoq og'rig'ini bosib, yo'talga malham bo'ladi. Qovurilgani kindik ustiga qo'yilsa, ichak og'riqlarini bosib, ich ketishini to'xtatadi... Ibn Sino ta'biricha, yong'oq ming dardga darmon meva sanaladi.

Z.M.Bobur "Boburnoma" asarida shunday yozadi: "Yana bir Marg'ilondur, Andijonning g'arbidadur, Andijondin yetti yig'och yo'ldur. Yaxshi qasaba voqe bo'lubtur, pur ne'mat; anori va o'rugi asru ko'p – xo'p bo'lur. Bir jins anor bo'lur, "dona kalon" derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig'idin andak choshni bor. Samnon anorlarig'a tajreh qilsa bo'lur. Yana bir jins o'ruk bo'lurkim, donasini olib, ichig'a mag'z solib quruturlar, "subhoni" derlar, bisyor lazizdur".

Boburshoh hazratlari va uning avlodlaridan qolgan tarixiy va madaniy meros hanuzgacha jahon xalqlarini hayratga solib kelmoqda. Bobur hazratlari yana yozadilar: "Kobul viloyati to'rtinchi iqlimdindir. Kobul va kentlarida sardseriy mevalardin uzum va anor va o'ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yong'oq qo'ptur. Men olu-bolu niholini keturub ekturubmen, yaxshi olu – bolular bo'ldi va hanuz taraqqiyda edi. Garmseriy mevalar misli norunj va turunj va amluk va nayshakar La o'monottin keltururlar. Kobulning rivochi xo'p bo'lur, bihi bila olusi ham yaxshidir. Bodringgi dag'i yaxshi bo'lur. Bir nav uzum bo'lur, obi angur derlar, xeyli yaxshi uzumdur. Mast chog'irlari bo'lur. Xoja Xovard Said Domani ko'hiyning chog'iri tundluq birla mashhurdir. Agarchi holo taqlid birla andin ta'rif

qiladurlarki: “Lazzati may mast donad hushyoronro chi haz” .

Xalq og‘zaki ijodida, o‘zbek poetik matnlarida meva nomlaridan ramz sifatida foydalanish qadimdan bor. Masalan, olma – muhabbat ramzi, anor – turmushga sadoqat ramzi va h.

Uvaysiyda “Anor” chistoni:

Ul na gumbazdur eshigi tuynugidin yo‘q nishon,  
Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdur makon.  
Sindirub gumbazni alar holidin olsam xabar,  
Yuzlarida parda tortig‘liq tururlar bag‘ri qon.

Uvaysiy ushbu chistoni orqali anorni gumbaz ichidagi yuzlariga parda tortilgan yurak-bag‘ri qon qizlarga qiyoslagan. Bugungi kun o‘zbek bolalar adabiyotida Anvar Obidjon tomonidan yaratilgan “Anor” adabiy topishmog‘i ulardagi biror jihatni takrorlamaganligi bilan ajralib turadi:

Har donacham bir askar,  
Bir qal‘ada ming lashkar.  
Yotar ular panada,  
Oq pardali xonada.  
Xonalar tinch, atrof jim.  
Qal‘achani buzsa kim,  
Boshlanadi to‘polon...  
U yog‘i sizga ayon.

Shoir Anvar Obidjon anor donachalarini askarlarga qiyoslaydi. Kim agar ularning tinchini buzsa, qal‘alariga ziyon yetkazsa, qarab turmasliklarini ifoda qiladilar. Ba‘zi manbalarda anor lotincha “granatum”, “granatus” so‘zidan olinib donli, meva ichidagi ko‘plab urug‘larga ko‘ra, suvli qopqoq bilan o‘ralgan .

Olma – sevgi ramzi. Olma – najot ramzi. Olma – abadiy uyg‘unlik ramzi. Olma – kosmik ramz va h.

Demak, birgina meva turli xalqlarda mushtarak ramz ma‘nosini ham, ba‘zan alohida ramz ma‘ntig‘ini ham ifodalab kela oladi. Jumladan,

Olma – sevgi ramzi, shuningdek, vasvasaning, insonning qulashi va najotning ramzi; Keltlar abadiy yoshlikning oltin olma borligiga ishonishgan, xitoyliklar orasida olma sovg‘asi abadiy uyg‘unlik g‘oyasini o‘z ichiga oladi. Slavlar uchun bu sevgi belgisi bo‘lib xizmat qildi; yigit va qiz bir-birlari bilan olma almashishib, o‘z sevgilarini ochiqchasiga e‘lon qilishdi. Deyarli mukammal dumaloq shakli tufayli olma kosmik ramz sifatida qabul qilinadi, shuning uchun shohlar va shohlar hasa bilan birga butun dunyoni ifodalovchi suveren olmani (kuchni) qo‘llarida ushlab turishadi. (<https://uz.info-4all.ru/> )

Baland shoxda qizil olma pishgan ekan,  
Uzib olib qarasam, qurt tushgan ekan.  
Men olmani irg‘itvorsam, u dod soldi,  
Tashlab ketar ekan meni nega oldi? (M. Yusuf)  
Qurt tushgan qizil olma – sevgida aldangan qiz ramzi.  
San yodima galanda,  
Olma-anorlaring yodima tushdi. (Xorazm qo‘shig‘idan)  
Qo‘shiqdagi olma, anor – ma‘shuqaning chiroyli yuzi ramzi.  
Meva – farzand, muhabbat ramzi.

...ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o‘g‘limiz mulla Otabekka yetib ma‘lum va ravshan bo‘lg‘aykim, alhamdulillah biz duogo‘y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do‘stlaringiz munda haq taoloning hifzi himoyatida

sihat va salomat bo'lib ko'z nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aladdavom rabbulolamindan rajo va tamanno etmakdamiz. (A.Qodiriy. O'tkan kunlar. 35-b.)

Odam mevasi – farzand. (Maqol)

Ona – daraxt, bola – meva. (Maqol)

Muhabbat – dil mevasi. (Maqol)

Mevali daraxt dunyo xalqlarida yaqin o'tmishga qadar hosildorlik ma'budasining ramzi hisoblangan .

Mevali daraxt –farzandli ayol ramzi.

Shukur, ona qizim –mevali daraxt. Etagi to'la bola.

Mevali daraxt – ilmiga amal qiluvchi olim ramzi.

Ilm olinglar. Ilm bilan birga xotirjamlik, viqor va hilmni (muloyimlikni) ham olinglar. Sizga ta'lim berayotgan kishiga tavoze'li bo'linglar. Sizdan ta'lim olayotgan kishilar ham tavoze'li bo'lishsin. Ilmiga amal qiluvchi ilm ahli mevali daraxt kabidir. Jabr qiluvchi olimlardan bo'lmanglar. Ilmingiz johilligingiz ustiga qoyim bo'lmasin. (Ali ibn Abu Tolib)

Mevasiz daraxt –farzandsizlik ramzi.

–Shunaqa... yaxshisiz... Judayam yaxshi insonsiz! Sizdek yaxshi odamni mendek mevasiz daraxt bilan yashashingiz...Axir... axir bormagan joyimiz qolmadi-ku? Hech kim umid berolmadi-ku, bizga. Mening farzand ko'rolmasligimga sizdan boshqa hamma ishonadi.

–Yo'q, dadamlarni gapini esla. Hammasi Oллоhdan, sabrli bo'linglar deyishadi-yu! (Z.Mirzayeva. Sirli sirdosh)

Farzandsiz kishi – mevasiz daraxt. (Maqol)

Mevasiz daraxt –ilmsizlik yoki ilmga amal qilmaslik ramzi. Amalsiz ilm mevasiz daraxt kabidir. (Hadis) Ibn Raslon ash Shofe'iy o'zining “Az-Zabad” nomli nazmiy to'plamining muqaddimasida shunday deydi:

Olim o'z ilmiga amal qilmas gar,

Butparastdan oldin azobga giriftor bo'lar .

Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning shunday gapi bor: “Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotdir. Ilm inson uchun g'oyat oliy muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir” .

Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam ilmni iymonning mevasiga qiyoslab shunday marhamat qilganlar: “Iymon yalang'och bir narsa bo'lsa, uning libosi taqvo, ziynati hayo, mevasi esa ilmdir” .

Ro'zaning barcha qoidalarini tushunmay, unga ko'r-ko'rona amal qilish, go'yo mevasiz daraxt kabi bo'ladi. Islom dini – ilm dini bo'lib, har bir musulmon erkak va ayol o'zi uchun foydali va zararli narsalarni bilib olishi shart. (D.Nurmuhammad. Ramazonga tayyormisiz?)

Umr behuda sarf bo'ldimi, demak, odam yaxshi ishlarni amalga oshira olmabdi. Insonlar uchun, jamiyat uchun foyda bermabdi. Vaqtning isrofi xuddi mevasiz daraxt kabi umr kechirishdir. (T.Malik. Odamiylik mulki)

Mevasiz daraxt – saxovatsizlik yoki behimmatlik ramzi.

Saxovatsiz kishi – yog'insiz abri bahor va royahasiz mushki totor. Mevasiz yig'och hamonu o'tun hamon va yog'insiz bulut hamonu tutun hamon. Saxosiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor. Dursiz sadaf birla o'lub qurug'on ne e'tibor .

Ko'rinadiki, islom dinida va u bilan bog'liq hadislarda, ma'rifiy matnlarda ilmsizlik, ilmga amal qilmaslik yoki saxovatsizlik mevasiz daraxtga o'xshatilgan.

Meva nomlari tilshunoslikning tabiiy fanlar, xususan, flora va fauna olamiga aloqador bilimlar bilan integratsiyasini, jamiyat va tabiat, jamiyat va adabiyot

bog‘liqligini asoslashga xizmat qilishi jihatidan diqqatga sazovor. Jumladan, uning tarkibiga kiruvchi mevalar olamining badiiy adabiyotda obrazlantirilishi orqali alohida mavqe egallagani, an’anaviy poetik obraz, ba’zan turg‘un yoki vaziyat ramzi sifatida keltirilishi, fitopoetonim darajasida kuzatilishi, inson obrazini berishda, shaxs sifatlarini poetik ifodalash va baholashda keng qo‘llanishi bevosita e’tiborga molik jihatlardir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mevalar obrazi, ko‘pincha, badiiy adabiyotda inson xususiyatlarini, shaxs go‘zalligi yoki uning biror jihatini poetik ifodalash uchun ishlatilishi ma’lum. Shunda mevalar nomining til va nutqdagi leksik-semantik belgilari, nominatsion-motivatsion asoslari yorqin ko‘zga tashlanadi. Bu jihatdan ularni o‘rganish esa tilda meva nomlarining o‘rni, leksik tizimi va tarkibi, xalqning yashash hududi, milliy-madaniy hayoti, turmush tarzi bilan bog‘liq holda qo‘llanib boyib kelayotganini anglashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари. – Т., 2007. – 276 б.
2. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – 161 б.
3. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi. – 2018 – 698 b. –10-b.
4. Ишонкулов Ю. Ўзбек тилида мева номларининг тарихи ҳақида. – Тошкент, 1985. – 21 б.
5. Маматов Н. Ўзбек мевачилик терминологияси. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси, 1955. – 107 б.
6. Юлдашева Д., Хожиева Н. Некоторые соображения о фруктовой лексике // Преподавание языка и летиатуре (NSSN 2010-5584). – Ташкент, 2020, № 3. – С. 61-63.
7. Фарохй А. Нисоб-ус-сибён / Тасхеҳи Ҳасан Анварй. – Техрон: Маркази нашри донишгоҳй (toshbosma), 1876. – 85 с.
8. О‘zbek xalq maqollari/ Tuzuvchilar: Mirzayev T. va b. – Toshkent: Sharq, 2005. – 257 b.
9. Ходжиева Н. Х. ЛЕКСИКА ФРУКТА В ЛИРИКЕ АЛИШЕРА НАВАИ // Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 148-150. 4.
10. Hojiyeva N. SOME COMMENTS ON THE POMEGRANATE LEXEMA // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6. 5.
11. Yuldasheva D. N., Khojjeva N. K., Yusupova D. Y. Fruit vocabulary is an integral part of the vocabulary of the folk language // Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – Т. 1. – №.



## I.YUSUPOV ASARLARIDA MAQOLLARNI TRANSFORMATSIYALASHNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

*Esemuratova Nargiza,*

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi  
Qoraqalpog'iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: Maqolada I. Yusupov she'riyatidagi xalq maqollarining transformatsiyalanishi ko'rib chiqiladi. Misollar yordamida shoirning maqollardan foydalanish mahorati, she'rlardagi maqollarning badiiy funktsiyasi tahlil qilinadi.*

*Kalit so'zlar: she'riyat, maqollar, o'zgarish, stilistik xizmat, fikrning keskinligi, antiteza.*

## ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТРАНСФОРМАЦИИ ПОСЛОВИЦ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ И. ЮСУПОВА

*Есемуратова Наргиза,*

*Базовый докторант Каракалпакского научно-исследовательского  
института гуманитарных наук Каракалпакского отделения  
Академии наук Республики Узбекистан*

*Аннотация. В статье рассматривается трансформация народных пословиц в поэзии И.Юсупова. На примерах анализируется мастерство поэта в использовании пословиц, художественная функция пословиц в поэтических стихах.*

*Ключевые слова: поэзия, пословицы, трансформация, стилистическая служба, острота мысли, антитеза.*

## THE INDIVIDUAL PECULIARITY OF I. YUSUPOV'S PROVERB TRANSFORMATION IN POETRY

*Esemuratova Nargiza,*

*Basic doctoral student of the Karakalpak scientific research institute of humanities  
of the Karakalpak branch of the  
Academy of sciences of the Republic of Uzbekistan*

Atoqli olim fikriga ko'ra haqiqiy ijodkor o'z asarini halqqa taqdim etar ekan u xalq ruhiyatiga moslay bilishi kerak – “Ruh kirlansa – bu juda yomon”. Ruhi kir odamning komil odam bo'lishi qiyin. Ruhi kir odamning ko'ngli kir va yolg'onchi bo'ladi. Badiiy adabiyot va san'at ruhiyat bilan shug'ullanadi. Lekin ruhiyatning aniq formulasi yo'q. Inson o'z ruhiyatiga o'zi aniq tashxis qo'ya olmaydi ko'pincha. Shu bois badiiy adabiyotda ham inson ruhiyatini to'la-to'kis ifoda qilib bo'lmaydi. Adabiyot inson ruhiyatining alifbosidir.

Bugungi kungacha ham o'z asarlari bilan xalqimiz ruhiyatiga kira olishi mumkin bo'lgan samimiy ijodkor Alp Jamol ana shunday shaxslardan biri edi. Sobiq sho'rolar

davri tuzmining ta'ziqiga uchragan o'ta halol va samimiy bo'lgani uchun ham judda katta mashaqqatlar evaziga bo'lsa ham o'z so'zi va ovozi bilan xalq qalbidan joy ololgan adiblar sirasiga kira oldi.

Alp Jamolning "Toshteshar", "Arosat", "Quvg'in", "Bevafo yakan", "To'ydagi tutin", "Mexribonlar", "G'izg'izon" kabi sahna asarlari Toshkent shahri va viloyat teatrlarida bir necha marotaba sahnalashtirilgan.

Bugungi kunda ham telenovella shaklida yaratilgan adibning "Mehribonlar" asari juda katta tortishuvlarga va ko'plab tamoshabinlarning e'tirofiga tushgan bo'lib, ushbu asarda hozirgi kunning eng dolzarb muammosi, ya'ni farzand tarbiyasi masalasi aks ettirilgandir.

Shutariqa adibo'zbek adabiyotiga, dramaturgiyasiga, hajvchiligiga, telejurnalistikasiga katta xissa qo'shgan adiblardan sanaladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, hozirgi kungacha adib ijodi u qadar to'liq o'rganilmaganligi, asarlarining badiiy poetikasi, dramaturglik mahorati, asarlarida obraz yaratish mahorati masalalari to'liq tadqiqot obyektiga aylantirilib tahlilga tortilishi kerakligini alohida ta'kidlash zarur. Zeroki, hozirgi kun adabiy jarayonida Alp Jamoldek o'tkir mahorat egalarining asarlari hali hanuz o'rganilmayotganligi, adabiyotshunoslar e'tiboridan chetda qolayotgani juda achinarli holat sanaladi. Kelgusida Alp Jamol haqida ilmiy tadqiqotlar, ko'rsatuvlar, xujjatli filmlar ishlansa xalqimiz xotirasida haqiqiy bir ijodkorning yorqin siymosi yana bir marotaba jonlansa ajab ermas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alp Jamol haqida xotiralar. T. 2000-yil. (To'plab nashr etuvchi A. Asomiddinov)
2. A. Asomiddinov. Otam bilan suhbatlarim. T. "Sharq" nashriyoti 2003.
3. B. Karimov. Ruhiyat alifbosi. T. "G'.G'ulom nashriyoti" 2018 y

## INGLIZABON VA O'ZBEK NASRIDA BADIY KOMPOZITSION POLIFONIZM TUSHUNCHASINING FILOLOGIK MOHIYATI

*Sabirova Dilorom*

*Urganch innovatsion university o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada inglizabon va o'zbek nasrida badiiy kompozitsion polifonizm tushunchasi filologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Polifonizm qahramonlarning mustaqil ovozlari, ichki monologlari va ijtimoiy-madaniy muloqotlarini aks ettiruvchi usul sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada James Joyce, William Faulkner, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor kabi yozuvchilarning asarlari misolida polifonizmning lingvistik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinib, uning badiiy-estetik ahamiyati ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar: Polifonizm, inglizabon nasr, o'zbek nasri, filologiya, ichki monolog, xalqona nutq, estetik tahlil.*

## PHILOLOGICAL ESSENCE OF THE CONCEPT OF ARTISTIC COMPOSITION POLYPHONISM IN ENGLISH AND UZBEKISTAN PROSE

*Sabirova Dilorom*

*Lecturer at Urgench Innovative University*

*Annotation: This article analyzes the concept of artistic compositional polyphony in English and Uzbek prose from a philological perspective. Polyphony is examined as a method that reflects the independent voices of characters, internal monologues, and socio-cultural dialogues. The linguistic and stylistic features of polyphony are studied through the works of writers such as James Joyce, William Faulkner, Abdulla Qodiriy, and Abdulla Qahhor, highlighting its literary and aesthetic significance.*

*Keywords: Polyphony, English prose, Uzbek prose, philology, internal monologue, folk speech, aesthetic analysis.*

## ФИЛОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ПОЛИФОНИЗМ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ КОМПОЗИЦИИ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ

*Сабирова Дилором*

*преподаватель Ургенчского инновационного университета*

*Аннотация: В статье анализируется концепция художественной композиционной полифонии в англоязычной и узбекской прозе с филологической точки зрения. Полифония рассматривается как метод, отражающий независимые голоса персонажей, внутренние монологи и социально-культурные диалоги. Лингвистические и стилистические особенности полифонии изучаются на примере произведений таких писателей, как Джеймс Джойс, Уильям Фолкнер, Абдулла Кадыри и Абдулла Каххар, подчеркивая ее литературно-эстетическое значение.*

*Ключевые слова: Полифония, англоязычная проза, узбекская проза, филология, внутренний монолог, народная речь, эстетический анализ.*

*Kirish. Adabiyotshunoslikda badiiy kompozitsion polifonizm tushunchasi matnda bir nechta ovoz va nuqtai nazarlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali yaratiladigan ko'p qatlamli ma'no tuzilmasini ifodalash uchun qo'llaniladi. Ushbu tushuncha, birinchi*

navbatda, rus adabiyotshunosi Mixail Baxtin tomonidan ishlab chiqilib, asarning qahramonlari va muallif ovozi o'zaro muloqotiga asoslangan tahliliy yondashuv sifatida e'tirof etilgan. Polifonizm nafaqat asar tuzilishini boyitadi, balki o'quvchiga turli xil nuqtai nazar va hissiyotlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Inglizabon va o'zbek adabiyotlarida polifonizm estetik hamda stilistik jihatdan turlicha namoyon bo'ladi. Inglizabon nasrda bu asosan qahramonlar o'rtasidagi dialoglar, ichki monologlar va turli ijtimoiy qatlamlar tasvirida ifodalanadi. O'zbek nasrida esa polifonizm milliy va madaniy an'analarga asoslangan holda, xalqona tildan, ramzlar va obrazlardan foydalanishda o'z ifodasini topadi.

Ushbu maqolada inglizabon va o'zbek nasridagi badiiy kompozitsion polifonizmning lingvistik va filologik xususiyatlari tahlil qilinib, ushbu tushuncha asarlarning stilistik boyligini oshirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, har ikki adabiy an'ana dagi o'ziga xosliklar qiyosiy tahlil qilinib, polifonizmning madaniy-estetik mohiyati yoritiladi.

#### Badiiy kompozitsion polifonizm tushunchasi

Badiiy kompozitsion polifonizm tushunchasi adabiyotshunoslikda asarning strukturasi aniqlash va uni talqin qilishda asosiy nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha dastlab musiqadan kelib chiqqan bo'lib, polifonizm turli ovozlarning bir vaqtning o'zida mustaqil, ammo uyg'un holda jaranglashishini anglatadi. Mixail Baxtin uni adabiyotshunoslikka moslashtirib, asarda bir necha ovoqli tasvir uslubini tavsiflash uchun qo'lladi. Baxtinga ko'ra, polifonik asarda har bir qahramon mustaqil ovozga ega bo'lib, ular mualliflik ovozi bilan mustaqil holda yashaydi va asar voqealariga o'z nuqtai nazaridan yondashadi.

#### Polifonizmning asosiy xususiyatlari

1. Ko'p ovoqlik (dialogizm): Polifonik asar ko'p nuqtai nazarlarni aks ettiradi, bunda har bir qahramon o'z dunyoqarashi va hissiyotlarini ifoda qiladi. Muallif ovozi esa qahramonlarning nuqtai nazariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan muloqotda bo'ladi.

2. Ovozlarning mustaqilligi: Qahramonlarning ovozi muallifning mavqeiga bo'ysunmaydi. Har bir qahramonning fikrlari, hissiyotlari va qarashlari alohida va o'ziga xos bo'lib, asarning umumiy mazmuniga hissa qo'shadi.

3. Dialogiklik: Polifonik matnda qahramonlar o'rtasida nafaqat to'g'ridan-to'g'ri dialoglar, balki yashirin muloqot va ichki monologlar orqali ham turli qarashlarning to'qnashuvi aks ettiriladi.

4. Matnning ko'p qatlamliligi: Polifonik asarlar ko'p qatlamli bo'lib, unda turli xil madaniy, ijtimoiy va falsafiy mavzular kesishadi. Bu o'quvchiga matnni har xil talqin qilish imkoniyatini beradi.

#### Adabiy polifonizmning ahamiyati

Polifonizm asarga ko'p qirralilik olib kirib, uning estetik qiymatini oshiradi. Ushbu tushuncha, birinchidan, matnning ichki strukturasi chuqurroq anglash imkonini beradi. Ikkinchidan, bu tushuncha turli madaniy va ijtimoiy voqeliklarning muloqotda bo'lishini ta'minlab, matnni global anglash imkonini beradi.

#### Misollar

• Inglizabon adabiyot: James Joyce ning «Ulysses» asari, William Faulknerning «The Sound and the Fury» romanlari polifonizmning yorqin namunalari hisoblanadi. Bu asarlarda qahramonlarning ichki monologi va turli nuqtai nazarlarining o'zaro to'qnashuvi ko'zga tashlanadi.

• O'zbek adabiyoti: Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Erkin A'zam asarlarida polifonizm milliy an'analarga asoslanib, qahramonlarning ichki kechinmalari va muallif

ovozining uyg'unlashuvida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» asarida turli ijtimoiy qatlam vakillarining ovozlari o'ziga xos estetik ma'no yuklaydi.

Badiiy kompozitsion polifonizm, xulosa qilib aytganda, asarni chuqurroq talqin qilish imkoniyatini yaratib, uning badiiy qiymatini oshiruvchi muhim tushunchadir.

#### Inglizzabon nasrida polifonizm

Inglizzabon adabiyotda polifonizm turli qahramonlarning nuqtai nazarlarini bir asar ichida uyg'unlashtirish orqali matnning ichki dialogik tuzilishini yaratish usuli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu adabiyotda polifonik tuzilma turli janrlarda va uslublarda qo'llanilib, qahramonlarning ovozlari, ichki monologlar, ijtimoiy mavzular va madaniy to'qnashuvlarni aks ettiradi.

#### Polifonizmning inglizzabon adabiyotdagi xususiyatlari

1. Ko'p qirrali qahramonlar: Inglizzabon nasrda qahramonlarning ovozlari o'ziga xos bo'lib, ular mustaqil fikrlar, hissiyotlar va dunyoqarashlarga ega. Har bir qahramon dunyoni o'z nuqtai nazaridan ko'radi va ifodalaydi.

2. Ichki monolog va oqim usuli: Inglizzabon nasrda polifonizmning yorqin usullaridan biri bu ichki monolog (stream of consciousness) bo'lib, u qahramonlarning ichki kechinmalarini batafsil ochib beradi. James Joyce va Virginia Woolf asarlarida bu usul keng qo'llangan.

3. Ijtimoiy va madaniy tasvir: Inglizzabon adabiyotda polifonizm nafaqat shaxsiy qahramonlarning nuqtai nazarini, balki ijtimoiy qatlamlar, madaniyatlar va tarixiy voqeliklarni ham aks ettiradi.

#### Inglizzabon nasrda polifonizmga misollar

##### 1. James Joyce – «Ulysses»

James Joyce'ning «Ulysses» romani inglizzabon adabiyotdagi polifonizmning yorqin namunasi hisoblanadi. Asarda turli qahramonlarning ichki monologi va dunyoqarashlari bir-biriga uyg'unlashtirilgan holda aks ettiriladi. Har bir bobda qahramonlarning o'ziga xos ovozlari, hissiyotlari va dunyoni talqin qilish usullari o'z aksini topadi. Joyce asaridagi polifonizm qahramonlarning individual fikrlash va his qilish qobiliyatlarini ochib beradi.

##### 2. William Faulkner – «The Sound and the Fury»

Faulknerning «The Sound and the Fury» romani polifonizmning murakkab tuzilishiga ega bo'lib, har bir bobda boshqa qahramonning nuqtai nazari orqali hikoya qilinadi. Qahramonlarning ovozlari o'zaro bog'liq, ammo mustaqil bo'lib, har biri o'z shaxsiy his-tuyg'ularini va dunyoqarashini aks ettiradi. Ushbu usul orqali Faulkner ijtimoiy va psixologik ziddiyatlarni ko'rsatib beradi.

##### 3. Virginia Woolf – «To the Lighthouse»

Virginia Woolfning «To the Lighthouse» romani ichki monolog va sub'ektiv tasvirlar orqali polifonik struktura yaratadi. Asarda qahramonlarning ichki kechinmalari va turli xil qarashlari o'zaro uyg'unlashib, asarning umumiy mazmunini boyitadi. Woolf qahramonlar o'rtasidagi sezilar-sezilmas muloqot orqali insoniy his-tuyg'ularni chuqur tasvirlaydi.

#### Inglizzabon nasrda polifonizmning estetik ahamiyati

Inglizzabon nasrda polifonizm qahramonlarning ovozlarni birlashtirish orqali matnning ko'p qatlamli strukturasi yaratadi. Bu nafaqat matnning estetik boyligini oshiradi, balki o'quvchiga turli nuqtai nazarlarni chuqurroq anglash imkonini ham beradi. James Joyce, William Faulkner, va Virginia Woolf kabi yozuvchilar polifonik uslub yordamida qahramonlar dunyoqarashini va ularning ichki kechinmalarini batafsil tasvirlashga muvaffaq bo'lgan.

Polifonizm orqali inglizzabon nasr universal mavzularni turli qarashlar orqali yoritib,

adabiy asarni o‘quvchilar uchun boy, murakkab va ma’noli qiladi. Bu yondashuv asarlarning vaqt va makon doirasidan tashqariga chiqib, turli madaniy kontekstlarda talqin qilinishiga yordam beradi.

#### O‘zbek nasrida polifonizm

O‘zbek nasrida badiiy kompozitsion polifonizm xalqona obrazlar, madaniy ramzlar va qahramonlarning ichki dunyosini boyitish orqali namoyon bo‘ladi. Polifonizmning o‘zbek adabiyotida shakllanishi milliy an‘ana, xalq og‘zaki ijodi, va ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u asarning ko‘p ovozli va dialogik tuzilishini yaratishga xizmat qiladi. Bu usul orqali yozuvchilar qahramonlarning turli dunyoqarashlarini, ichki kechinmalarini va ijtimoiy qarashlarini ifodalashadi.

#### Polifonizmning o‘zbek nasridagi xususiyatlari

1. Milliy ruh va xalqona til: O‘zbek nasrida polifonizm, asosan, milliy madaniyat va xalqona obrazlar orqali amalga oshiriladi. Qahramonlar nutqi xalq og‘zaki ijodi, maqollar va iboralar bilan boyitilgan bo‘lib, ularning ovozlari tabiiy va estetik uyg‘unlikda aks ettiriladi.

2. Muallif va qahramon ovozining uyg‘unligi: O‘zbek yozuvchilari qahramonlarning ichki monologlari va dialoglari orqali ularning mustaqil ovozlari yaratadilar. Shu bilan birga, muallifning ovozi ham badiiy kompozitsiyada o‘z o‘rnini saqlab qoladi.

3. Ijtimoiy ziddiyatlar va to‘qnashuvlar: O‘zbek nasrida polifonizm ijtimoiy guruhlar, avlodlar va qarashlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni tasvirlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

#### O‘zbek nasrida polifonizmga misollar

##### 1. Abdulla Qodiriy – «O‘tgan kunlar»

Abdulla Qodiriy romanlarida polifonizm an‘anaviy va zamonaviy dunyoqarashlar to‘qnashuvida namoyon bo‘ladi. «O‘tgan kunlar» romanida turli qahramonlarning ovozlari bir vaqtning o‘zida mustaqil va bir-biriga bog‘liq tarzda aks ettiriladi. Otabek, Kumush, Yusufbek hoji kabi qahramonlar orqali asar madaniy va ijtimoiy masalalarga oid turli qarashlarni tasvirlaydi. Qahramonlar nutqi xalqona va real bo‘lib, ularning ichki dunyosini chuqur ochib beradi.

##### 2. Abdulla Qahhor – «Sarob»

Abdulla Qahhorning «Sarob» asarida polifonizm oila va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar orqali ochib beriladi. Asardagi qahramonlar turli dunyoqarashlarga ega bo‘lib, ularning dialoglari va ichki monologlari orqali asarda ko‘p qatlamli tuzilma yaratiladi. Qahhorning tasviriy vositalari va qahramonlar nutqining tabiiyligi polifonizmni yanada boyitadi.

##### 3. Erkin A‘zam – «Chiroqlar o‘chmagan kecha»

Erkin A‘zamning hikoyalari va romanlarida polifonizm qahramonlarning ichki dunyosini ochib beruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, «Chiroqlar o‘chmagan kecha» hikoyasida har bir qahramonning hissiyotlari va qarashlari mustaqil tarzda ifodalanib, ularning ichki kechinmalari bir-birini to‘ldiradi. Muallifning ovozi qahramonlarning ovozi bilan dialogik munosabatda bo‘lib, asarni mazmun jihatdan boyitadi.

#### Polifonizmning lingvistik va stilistik xususiyatlari

1. Xalqona nutq uslubi: O‘zbek nasrida polifonizm ko‘pincha xalq maqollari, iboralari va nutqiy intonatsiyalar orqali ifodalanadi.

2. Ramzlar va obrazlar: Madaniy va tarixiy obrazlarning ishlatilishi asarda turli qahramonlarning dunyoqarashlarini boyitadi.

3. Ijtimoiy kontekst: O‘zbek nasrida polifonizm qahramonlarning ijtimoiy muhit bilan bog‘liq dunyoqarashlarini tasvirlash uchun ishlatiladi.

O'zbek nasrida badiiy kompozitsion polifonizm asarning estetik va mazmuniy boyligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu usul orqali yozuvchilar turli qahramonlarning ovozlari uyg'unlashtirgan holda, matnga ko'p qatlamlilik olib kiradilar. Milliy va xalqona uslub, ijtimoiy ziddiyatlarni ko'rsatish, hamda qahramonlarning ichki dunyosini ochib berish o'zbek nasrida polifonizmni ajralmas adabiy fenomen sifatida shakllantirgan. Shu bois, polifonizm nafaqat lingvistik va stilistik jihatdan, balki madaniy-estetik nuqtai nazardan ham chuqur o'rganishga arziydi.

Lingvistik xususiyatlar va stilistik vositalar

Badiiy kompozitsion polifonizmni ifodalashda lingvistik va stilistik vositalar muhim ahamiyatga ega. Ushbu vositalar asarda qahramonlarning ovozlari mustaqil tarzda yaratish, ularning hissiyot va dunyoqarashlarini ochib berish hamda muallif va qahramonlar o'rtasidagi muloqotni shakllantirishga xizmat qiladi. Inglizabon va o'zbek nasridagi polifonizm o'ziga xos lingvistik va stilistik xususiyatlarga ega bo'lib, ular har bir adabiy an'ananing madaniy xususiyatlari bilan bog'liq.

Lingvistik xususiyatlar

1. Ko'p qatlamli nutq tuzilishi

Polifonik asarlar ko'p qatlamli nutq tuzilishiga ega bo'lib, unda muallif nutqi, qahramonlarning ichki monologlari va dialoglari bir-birini to'ldiradi. Har bir qatlam o'ziga xos til vositalarini qo'llaydi:

oInglizabon nasrda qahramonlarning ovozi o'ziga xos til uslublarida, ko'pincha ijtimoiy mavqe yoki madaniy kontekstga mos ravishda aks ettiriladi.

oO'zbek nasrida xalqona iboralar, maqollar va og'zaki nutq elementlari qahramonlarning ovozlari tabiiy ko'rsatadi.

2. Dialogik lingvistika

Polifonizmda turli ovozlari o'zaro muloqotda bo'ladi. Bu muloqot nafaqat ochiq dialoglar, balki yashirin ichki monologlar yoki qahramonlar o'rtasidagi qarama-qarshilik orqali ham ifodalanadi.

oMasalan, William Faulkner asarlarida murakkab sintaktik tuzilmalar orqali qahramonlarning o'zaro bog'liq, ammo mustaqil nutqi aks ettiriladi.

oO'zbek yozuvchilari, masalan, Abdulla Qodiriy, qahramonlarning dunyoqarashlarini xalqona nutq uslubi orqali jonlantiradi.

3. Til uslublarining xilma-xilligi

Polifonizm lingvistik uslublarning xilma-xilligini talab qiladi. Har bir qahramonning nutqi uning ijtimoiy mavqei, madaniy muhit va individual xususiyatlariga mos bo'lishi kerak:

oInglizabon nasrda bu, ko'pincha, leksik xilma-xillik va so'z tanlash (register) orqali erishiladi.

oO'zbek nasrida tilning boyligi xalqona iboralar, tarixiy leksikalar va badiiy vositalar yordamida namoyon bo'ladi.

Stilistik vositalar

1. Ichki monolog

Polifonik asarlarda ichki monolog asosiy stilistik vosita hisoblanadi.

oInglizabon nasrda, masalan, James Joyce'ning «Ulysses» asarida qahramonlarning ichki monologlari oqim usulida tasvirlanadi, bu usul murakkab sintaktik tuzilmalar va psixologik tasvir orqali amalga oshiriladi.

oO'zbek nasrida esa ichki monolog xalqona va jonli nutq yordamida amalga oshiriladi. Masalan, Erkin A'zam asarlarida qahramonlarning ichki kechinmalari sodda, ammo hissiyotlarga boy usulda tasvirlanadi.

2. Dialog va polilog

Asarda qahramonlar o'rtasidagi ochiq dialoglar va ko'p tomonlama suhbatlar

(poliloglar) orqali polifonik tuzilma yaratish:

oInglizabon nasrda dialoglar turli qahramonlarning ijtimoiy pozitsiyalarini aks ettiruvchi stilistik vosita sifatida xizmat qiladi.

oO‘zbek nasrida dialoglar ijtimoiy mavzularni ochib berish va milliy madaniy xususiyatlarni ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

### 3. Simvolika va ramzlar

Polifonik asarlarda simvol va ramzlardan foydalanish umumiy mazmunni boyitadi:

oInglizabon nasrda metaforalar va ramzlar, masalan, Virginia Woolfning «To the Lighthouse» asarida, qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalaydi.

oO‘zbek nasrida esa ramzlar ko‘pincha milliy qadriyatlar va an‘anaviy obrazlar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos milliy koloritni yaratadi.

### 4. Nutq uslublarning uyg‘unligi

Polifonik tuzilma yaratishda nutq uslublari uyg‘unligiga alohida e‘tibor qaratiladi:

oInglizabon asarlarda rasmiy va norasmiy uslublalar almashib, qahramonlar nutqini boyitadi.

O‘zbek nasrida esa badiiy obrazlar orqali xalqona nutq uslubi jonlantiriladi.

Lingvistik xususiyatlar va stilistik vositalar polifonik asarning ichki tuzilishini tashkil etuvchi asosiy elementlardir. Inglizabon va o‘zbek nasrida bu vositalar o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘lib, adabiyotning estetik va madaniy boyligini oshiradi. Ichki monologlar, dialoglar, xalqona iboralar va ramzlardan foydalanish asar qahramonlarining ovozlari mustaqil va mazmunli qilishga xizmat qiladi. Bu vositalar o‘quvchini matnning ko‘p qatlamli va boy ma‘no dunyosiga jalb etadi.

### Xulosa

Badiiy kompozitsion polifonizm inglizabon va o‘zbek nasrining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega tushuncha bo‘lib, har bir adabiy an‘ananing o‘ziga xos lingvistik va stilistik boyliklarini ochib beradi. Ushbu fenomen, bir tomondan, matnda turli nuqtai nazarlarning mustaqil va uyg‘un tarzda ifodalanishini ta‘minlasa, ikkinchi tomondan, o‘quvchini murakkab va ko‘p qatlamli badiiy olamga olib kiradi.

•Inglizabon nasrda polifonizm qahramonlarning ichki monoglari, murakkab sintaktik tuzilmalar va turli madaniy qatlamlarning tasviri orqali namoyon bo‘ladi. James Joyce, William Faulkner, va Virginia Woolf kabi yozuvchilarning asarlari polifonik struktura orqali o‘z o‘quvchilariga murakkab va boy estetik tajriba taqdim etadi.

•O‘zbek nasrida polifonizm xalqona nutq uslubi, milliy obrazlar va ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy aks ettirilishi orqali ifodalanadi. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, va Erkin A‘zam kabi yozuvchilarning asarlari polifonizmni milliy an‘analarga moslashtirib, o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos madaniy-estetik boyligini ta‘minlaydi.

Lingvistik va stilistik vositalar, jumladan, ichki monolog, dialog, ramzlar, xalqona iboralar va nutq uslublarning uyg‘unligi, polifonik asarlarning estetik jihatdan boy va mazmunli bo‘lishini ta‘minlaydi. Ushbu vositalar yordamida asarda qahramonlarning ovozlari mustaqil tarzda yaratiladi va muallifning o‘z ovozi bilan uyg‘unlashadi.

Polifonizm nafaqat adabiyotshunoslikda muhim nazariy tushuncha, balki madaniy-estetik hodisa sifatida ham katta ahamiyatga ega. U matnni boyitib, o‘quvchiga ko‘p qirrali fikrlash, turli dunyoqarashlarni anglash va talqin qilish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, inglizabon va o‘zbek nasridagi polifonizmni o‘rganish, ularning lingvistik va stilistik xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish nafaqat ilmiy, balki madaniy va pedagogik ahamiyatga ham ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxtin, M. M. (1975). Adabiyot va estetika. Moskva: Iskusstvo.

2. Joyce, James. (1922). Ulysses. London: Shakespeare and Company.

3. Faulkner, William. (1929). The Sound and the Fury. New York: Jonathan Cape & Harrison



Smith.

4.Qodiriy, Abdulla. (1926). O'tgan kunlar. Toshkent: Sharq.

5.Qahhor, Abdulla. (1960). Sarob. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

6.Woolf, Virginia. (1927). To the Lighthouse. London: Hogarth Press.

7.A'zam, Erkin. (1980). Chiroqlar o'chmagan kecha. Toshkent: Sharq.

8.Lotman, Yu. M. (1998). Muloqot va madaniyat. Moskva: Nauka.

## SYNONYMS AND THEIR INTERPRETATION IN MODERN LINGUISTIC SCIENCE

*Safarova Mahfuza Rajabovna*  
*Senior teacher of secondary school №17 of Bukhara*  
*Independent researcher of Bukhara state university*

*Abstract: The concept of synonymy in language comes from lexicology, where this phenomenon has been studied in detail. However, recently this term has been used in phonetics, grammar and syntax. Although the term syntactic synonymy has gained recognition in the linguistic literature, it is not interpreted unambiguously. This article discusses the interpretation of syntactic synonymy by various linguists.*

*Key words: synonyms, lexicology, concept, linguistics, world of concepts, phenomena, polysemy.*

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK FANIDA SINONIMLAR VA ULARNING TALQINI

*Safarova Mahfuza Rajabovna*  
*Buxoro tuman 17-maktab ingliz tili o'qituvchisi*  
*Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*Annotatsiya: Tildagi sinonimlar tushunchasi leksikologiyada o'rganiladi. Biroq, yaqinda bu atama fonetika, grammatika va sintaksisda qo'llanila boshlandi. Sintaktik sinonimiya atamasi lingvistik adabiyotda tan olingan bo'lsa-da, u bir ma'noda talqin qilinmaydi. Ushbu maqolada turli tilshunoslar tomonidan sintaktik sinonimiyaning talqini muhokama qilinib muallif munosabati bildirilgan.*

*Kalit so'zlar: sinonimlar, leksikologiya, tushuncha, tilshunoslik, tushunchalar dunyosi, hodisalar, polisemiya.*

## СИНОНИМЫ И ИХ ТОЛКОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ НАУКЕ

*Сафарова Махфуза Раджабова*  
*Старший преподаватель средней школы №17 г. Бухары*  
*Независимый исследователь*  
*Бухарского государственного университета*

*Аннотация: Понятие синонимии в языке пришло из лексикологии, где это явление было подробно изучено. Однако в последнее время этот термин стал использоваться в фонетике, грамматике и синтаксисе. Хотя термин «синтаксическая синонимия» получил признание в лингвистической литературе, он не трактуется однозначно. В этой статье обсуждается интерпретация синтаксической синонимии различными лингвистами.*

*Ключевые слова: синонимы, лексикология, концепт, лингвистика, мир понятий, феномены, многозначность.*

Each language, as it develops, strives for an increasingly «complete general and particular correspondence of the world of words to the world of concepts.» This observation belongs to the remarkable Russian scientist Nikolai Krushevsky. And now, almost a hundred years later, in the book, the title of which contains the question «what is the development and improvement of language?» the task is formed: «to show how language in the process of its development begins to provide people with more and more

opportunities to convey their thoughts and feelings, to approach the correspondence between the world of words and the world of concepts».

The connection between a word and a concept may be revealed with the greatest completeness and depth in synonymous relations, in synonymous rows. Each epoch brings forward new realities, new phenomena[1;3]. Thus, new concepts arise. But not only the new requires its own understanding and verbal expression in each epoch. Old concepts can be reinterpreted or understood more deeply and broadly. This is the natural interdependence of the world of concepts and the world of words.

The vocabulary of each language is the most sensitive and direct recorder of our social and cultural development. However, lexical fixation cannot be understood as the registration of newly born words only. With the deepening of our understanding of the world around us, our vocabulary increases not only quantitatively, but, above all, expands due to qualitative changes in the meanings of old words.

The polysemy of old words is growing. Along with the increasing complexity of conceptual and verbal relationships, synonymic and antonymic connections of words become more complicated. As well as connections that combine species and generic concepts.

Therefore, the problem of synonyms remains interesting, relevant and difficult for linguists of all times, despite numerous studies.

In the history of the science of language, one can easily trace the steady desire to unravel and determine the purpose of synonymous words – «the same word and, at the same time, the wrong one.» The word of the same name, i.e. synonyms, in the Russian scientific tradition were perceived rather as words similar, but not absolutely identical. N.M. Karamzin's observations are full of deep meaning: «The true richness of language consists not in a multitude of sounds, not in a multitude of words, but in the number of thoughts thereof. A rich language is one in which you will find words not only to denote the main ideas, but also to explain their differences, their shades of greater or lesser strength, simplicity and complexity. Otherwise he is poor: poor with all his millions of words.»

In these discussions, we emphasize the qualitative rather than quantitative assessment of linguistic wealth.

The different approach to synonyms, to their definition, to the assessment of their functional role determines the variety of different interpretations of the phenomenon of synonymy itself. We will try to give an overview of the main positions in the study and definition of synonymy that have developed in our time[4;65].

There are two main directions in the definition of synonyms:

1) for one of them, synonyms are words with similar but different meanings;

The first definition, proclaiming the proximity of synonymous meanings, is also based on the conceptual unity of the synonymous series, i.e. one concept is recognized as the basis of the synonymous series. The second definition, proclaiming the identity of meanings, is based on the principle of «one word – one meaning» or on the «absolute non-discrimination of lexical meanings» of synonymous words.

A peculiar commonality can be found between both directions – the allocation of a certain group of synonyms – «absolute synonyms» (R.A. Budagov), «one hundred percent synonyms» (A.A. Reformatsky), «identical in the main nominative meaning» (A.D. Grigorieva), «exact (equivalent) synonyms» (Yu.D. Apresyan)[1;3].

Synonymy should be based on the proximity of meanings expressing shades of the same concept. This brings to the fore the differentiating role of synonyms, highlights not only the common meaning of synonymous words, but also even more important distinguishing features of each of the synonyms. Shades of meaning also determine

different compatibility, different syngamatics of synonyms. This approach to synonyms allows us to explain not only the different compatibility, different contextual usage, but – and this is the main thing - by defining synonyms, thus we reveal their interaction with the expressed concept.

The synonymic series is a kind of bridge between the world of cognizable concepts and the world of words reflecting a similar process. The synonymic series allows you to describe each concept in all its possible shades. And the more the synonymous series strengthens and develops, the more the possibility of their adequate expression increases. Differentiating shades in the meanings of synonyms help to convey and consolidate our knowledge, express our feelings and ideas.

The definition of synonyms as «identity of meanings», on the one hand, or as «proximity of meanings», on the other, is associated with the opposite interpretation of the very nature of language, the essence of its functions. The thesis «the identity of synonymous words» follows from the idea of language as a kind of code that serves a person, just as it is observed in any semiotic system (road signs, conditional signals of various types, etc.). The thesis «the proximity of the meanings of synonymous words» is the logical result of understanding language as a «practical real consciousness». It is this understanding of language that explains its complexity, stability and simultaneous variability of all its levels and, above all, lexical. The synonymous series once again reveals the multifaceted connection of language with the living conditions of society.

The synonymous series is the source of the necessary verbal material, which makes up a wide range of vibrations from one shade to another, from the dominant of the series to its opposite.

An open synonymic series is also the way of language development, the evolution of language[6;88].

The phenomenon of synonymy is a universal phenomenon that connects linguistic facts in time, in local and social variants. The words outdated and new, dialectal, colloquial and slang find their place in the synonymous series. The synonymous series connects both what is accepted by the general linguistic norm and what was born in individual creativity. The synonymous series embodies the diversity and unity of the literary language.

The synonymous series, which is usually assessed as a synchronous phenomenon, is not closed at the same time. He «binds» the time that has passed with the present, storing links of bygone eras in a synonymous chain (for example, style – manner – style (outdated). This is on the one hand. On the other hand, each synonymic series usually grows, attracting metaphorical, comparative, contextual, situational, occasional, individual synonyms.

The synonymous series acquires new differentiating possibilities of expressing a concept. It can combine individual language searches with common language means of expression. Adequate explanations of terms, loanwords, exotisms, dialectisms, professionalisms, jargonisms draw this, at first glance, non-equivalent vocabulary into synonymous relations. The common and at the same time different meanings of the explained and explanatory word (in each case, its own shade of meaning) create favorable conditions for the formation of a synonymous series.

Synonyms are semantic series of words. And although any semantic classifications, one way or another, are in interaction with thematic groups of words (our ideas about the world around us always affect the language), nevertheless, the former have their own specifics, unlike the latter. If thematic classifications are determined by an extralinguistic plan, the need to nominate the world of things and phenomena, then semasiological

classifications are caused by intra-linguistic reasons, the need to express concepts about the world of things and phenomena. Therefore, semasiology «does not know such categories as the names of days of the week or seasons. But in semasiology, as a linguistic discipline, such categories as monosemy and polysemy, polysemy and homonymy, word and phrase in the function of a word, synonymous and non-synonymous words, words of folk and words of book origin, etc. are well known. Synonymous relations can be traced from unambiguous words (terms, proper names, etc. P.) up to polysemous words up to metaphorical uses. The nature of these relations is determined by the semantics of the synonymous words themselves.

The category of meaning is a central category for both language itself and language science. From these positions, an attempt was made to approach the complex relationship between synonyms, to determine their place and role in the system of the modern Russian language, to consider complex and often contradictory synonymic relations[7;90]. The more a language develops, the more important various figurative synonymic relations — lexical, grammatical, stylistic - become in it. Therefore, the problem of synonymy is an ever—open problem of any language, especially a language with a great cultural tradition.

For the correct interpretation of synonyms, it seems advisable to take into account the interaction of a word and a concept, the ratio of a concept and a synonymic series, the ratio of meaning and use of a word, the role of context in synonymizing words, the peculiarities of stylistic and stylistic differences, the possibility of including word combinations in a synonymic series, the proportion of synonyms in different parts of speech, the role of paradigmatic and syntagmatic relations, the amplitude of oscillation in the meanings of synonyms and dictionary data (from common language to individual usage), the role of figurative and associative connections.

#### REFERENCES:

- 1.Апресян Ю.Д. Синонимия и синонимы. // Вопросы языкознания. 1969 №4, с.75-91. Библиогр. в подстроч. примеч.
- 2.Баранов М.Т., Ладыженская Т.А., Шанский И.М. Программа по русскому языку к учебнику 5-9 класс.
- 3.Haydarov, A. (2020). Methodological features of graphic tools. Middle European Scientific Bulletin, 5.
- 4.Askarovich, H. A. (2022). SOME COMMENTS ON THE STYLISTIC REPETITION. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8 (1), 87–91.
- 5.Haydarov, A. (2019). Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent.-» Kamalak» nashriyoti, 192.
- 6.Saidova, Z. K. (2023). THE FUNDAMENTAL TYPES OF PHRASEOLOGICAL UNITS. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 517-522.
- 7.Saidova, Z. X. Implementation of some techniques in developing reading skills in English classes., Достижения науки и образования № 5 (27) Россия-2018. стр. 59-60.
- 8.Kilichev, B., & Rustamova, M. (2023). METAFORAGA XOS BA'ZI BIR XUSUSIYATLAR (SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATI MISOLIDA). Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 1), 59-64.
- 9.Kilichev, B., & Shabonova, G. (2023). "BOBURNOMA" ASARIDAGI AYRIM TOPONIMLARNING ETIMOLOGIYASI HAQIDA. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/8>.

## ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASI MATNINING SEMIOTIK TAHLILIDA BELGI HARAКATI

Saidova Rayhonoy Abdug‘aniyevna  
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

*Annotatsiya. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida zamonaviy o‘zbek adabiyotini rivojlantirishga, jumladan, adabiyotshunoslikning jahon ilmida taraqqiy etgan metod va usullarini, ayniqsa, jahon adabiyotshunosligida XX asr o‘rtalaridan boshlab kirib kelgan struktural va semiotik tadqiq usullarini ilmiy tadqiqot jarayoniga tatbiq etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, muayyan ijodkorning nasriy yoki lirik asarlarini semiotika usullari asosida tahlil etish, belgi strukturasi tarkibidagi bildiruvchi-bilinuvchi aloqalarini yoritish, badiiy matn mohiyatini semantik va struktur jihatdan ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.*

*Ushbu maqolada badiiy matn tarkibidagi semiologik tizim, matn cheksizligi, belgilarning o‘zaro aloqa-bog‘lanishlari yoritilib, ajratib olingan belgilarning harakati, denotativ hamda konnotativ xususiyatlari, semiotikaning paradigmatic, sintagmatic va binar oppozitsiya munosabatlari orqali tahlil qilingan.*

*Kalit so‘zlar: Dahshat, shamol, yomg‘ir, semiotika, struktura, denotatsiya, konnotatsiya, bildiruvchi, bilinuvchi, badiiy sath, cheksizlik, segment, adresant, matn, shakl, konsept.*

## ЗНАКОВОЕ ДВИЖЕНИЕ В СЕМИОТИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ ТЕКСТА РАССКАЗА АБДУЛЛЫ КАХХОРА «ДАХШАТ»

Saidova Rayxona Abduganiyevna  
Доцент Бухарского государственного педагогического института, к.ф.н.  
(PhD)

*Аннотация. В условиях стремительных реформ, проводимых в нашей стране, большое внимание уделяется развитию современной узбекской литературы, в частности, применению в литературоведении современных методов и подходов, широко используемых в мировой науке. Особое значение придается внедрению структурных и семиотических методов исследований, которые начали активно развиваться в мировой литературоведческой науке с середины XX века. Важно анализировать прозаические или лирические произведения отдельных авторов на основе семиотических методов, раскрывая связи между означающим и означаемым в структуре знаков, а также изучая смысловую и структурную сущность художественного текста.*

*В данной статье рассматриваются семиологическая система, бесконечность текста, взаимодействия и связи знаков в составе художественного текста. Особое внимание уделяется анализу движения выделенных знаков, их денотативных и коннотативных характеристик, а также парадигматических, синтагматических и бинарных оппозиционных отношений в рамках семиотики.*

*Ключевые слова: Дахшат, ветер, дождь, семиотика, структура, денотация, коннотация, означающее, означаемое, художественный уровень, бесконечность, сегмент, адресант, текст, форма, концепт.*

## SIGN MOVEMENT IN THE SEMIOTIC ANALYSIS OF ABDULLA QAHHOR'S SHORT STORY «DAHSHAT»

Saidova Rayhonoy Abduganiyevna

Associate Professor at Bukhara State Pedagogical Institute, PhD

*Abstract. In the context of the rapid reforms being implemented in our country, significant attention is paid to the development of modern Uzbek literature, including the application of advanced methods and approaches widely used in global literary studies. Particular emphasis is placed on the incorporation of structural and semiotic research methods, which have been prevalent in world literary science since the mid-20th century, into the scientific research process. Analyzing prose or lyrical works of specific authors using semiotic methods, uncovering the relationships between the signifier and the signified within the structure of signs, and revealing the semantic and structural essence of the artistic text are of great importance.*

*This article explores the semiological system, the infinity of the text, and the interactions and connections of signs within the artistic text. Special attention is given to the analysis of the movement of identified signs, their denotative and connotative characteristics, and the paradigmatic, syntagmatic, and binary oppositional relations within semiotics.*

*Keywords: Dahshat, wind, rain, semiotics, structure, denotation, connotation, signifier, signified, artistic level, infinity, segment, addresser, text, form, concept.*

**KIRISH.** Badiiy matnning asosiy xususiyatlaridan biri uning cheksizligida ko‘rinadi. Mana shu cheksizlik alomatiga ko‘ra matnni koinotga muqoyasa etish mumkin. Bunday bepoyonlik matnning gorizontaal (yon) va vertikal (tik) ravishda har tarafga qarab muttasil kengayib borishi tufayli yuzaga keladi. Natijada matn o‘zining hajmi, chegaralarini uzluksiz uzaytiradi. “Dahshat”. Dastavval sarlavha sifatida tanlab olingan bu lug‘aviy birlikning birinchi semasiologik tizim (til)dagi ma’nosiga e’tiborni qaratamiz, chunki so‘zning birlamchi (denotativ) ma’nosi tahlil jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Arab tilidan o‘zlashgan bu kalima hayronlik, hayratda qolish ma’nolarini bildiradi

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu birlikning bir-biriga aloqador bo‘lgan uchta ma’nosi berilgan:

1. Nihoyat darajada qo‘rqinch, xavf, vahima.
2. Azob-iztirobga soluvchi mudhish ahvol, voqea-hodisa, manzara .
3. Ortiq darajada qo‘rqan, vahimaga yoki azob-iztirobga tushgan kishining, ko‘rinishi, ruhiy-holati.

### O‘RGANISH METODI

Matn tarkibidagi belgilarni tahlil qilish jarayonida sarlavha (“Dahshat”)ning yuqorida qayd etilgan qaysi kategoriyaga mos kelishini tekshiramiz. Badiiy-poetik tizimning dastlabki leksiya (birliqi) quyidagicha berilgan:

“Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi”.

Ushbu bo‘lakda bitta belgi mavjud bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ham asl (denotatsiya), ham ko‘chma (konnotatsiya) fikrni ifodalamoqda. Aynan shu belgi (shamol) misolida biz Rolan Bart ko‘rsatgan “bildiruvchining ko‘p tarmoqligi” ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Shamol har qanday matndan tashqarida alohida olib qaralganda, faqat denotatsiya tarzida namoyon bo‘lib, tabiat hodisasi (havoning bir tomonga qarab jadal harakati)

ni anglatadi. Biz tahlil etayotgan matnda esa u ikki qatlamning har bir birida alohida xususiyatga ega bo'lgan birlik tarzida qo'llanilgan.

Matnning dastlabki qatlamida shamol lug'aviy birligi so'z sifatida o'zining denotativ xususiyatini saqlab qolgan va u kommunikativ (axborot yetkazish) vazifasini bajarmoqda: adresatga voqea (ikki haftadan buyon shamol esayotgani) haqida xabar bermoqda. Shu bilan birga, u sintaktik segment tarkibida chiyillaydi, g'uvillaydi, vishillaydi, bosh urib uf tortadi sof fe'llari va ravishdosh bilan birikib birlamli konnatatsiyani hosil qilyapti. Matn doirasida shamol shunchaki shiddat bilan esmayapti; qandaydir maxluq-jonzod tarzida namoyon bo'lib badiiy tasvir vositasi (intoq)ni yuzaga keltiryapti. Garchi shamol birligi adresant nutqidagi oddiy axborotdan farqli suratda badiiy-poetik ifodaga aytilgan bo'lsa-da, u dastlabki badiiy sathda kitobxonga shamolning o'ta shiddat bilan atrofga xuruj qilayotganini hususida badiylashtirilgan tasvir asosidagi xabar bilan cheklangan.

Navbatdagi badiiy sathda shamolga bog'liq badiiy bo'lak ramziy xususiyat kasb etadi. U konnatatsiya tarzida ayol erkini paymol etayotgan muhit (dodho xonadoni va istibdodni o'z shaxsi va harakatlarida mujassamlashtirgan yovuz shaxs, keng miqyosda olib qaralganda esa nafaqat ayol, shuningdek. zulmga giriftor etgan ijtimoiy tizim)ni va mana shu muhitni yuzaga keltirgan istibdod vakillarini ifoda etadi.

Mazkur sathdagi tiyiqsiz har tomonga bosh urayotgan shamol konnotativ birlik sifatida izohli lug'atda qayd etilgan birinchi banddagi izohga mos kelyapti (nihoyat darajada qo'rqinch, xavf, vahima) – u hali azob-iztirobga soluvchi mudhish ahvol, voqea-hodisa, manzara yoxud ortiq darajada qo'rqan, vahimaga yoki azob-iztirobga tushgan kishining, ko'rinishi, ruhiy-holatini ifodalamaydi. Bu holni quyidagi chizmada ko'rsatamiz:

Nihoyat darajada qo'rqinch, xavf, vahima  
shamol

shakl+ konsept = belgi

Ma'lum bo'lyaptiki, hikoya matni muqaddimasidagi dastlabki leksiyada ifoda topgan belgi (shamol) hali biror-bir voqea, insonga bog'lanmagan holda tasvirlangan. Biroq badiiy matndagi har qanday tasvir, ifoda o'z-o'zicha poetik tizimga shunchaki kiritilmaydi. U matn strukturasiidagi o'ziga aloqador muayyan bir vazifani bajarishi kerak bo'ladi. Rus yozuvchisi A.P. Chexovning p'esa boshida devorga osilgan miltiq asar tugaguncha bir marta bo'lsa ham otilishi zarur degan fikri bejiz aytilmagan. Shunday ekan, badiiy matn strukturasiida shamol belgisi ham matn davomida o'zining badiiy-poetik yumushini bajarishi ko'zga tutilgani ayon haqiqatdir. Faqat mana shu haqiqatni semiotik tadqiq davomida oydinlashtirish zarur bo'ladi.

Tabiiyki, adresant tomonidan adresatga mo'ljallangan ushbu segment va undagi belgi kitobxonda qiziqish uyg'otadi, chunki chinakam matnda har bir tasvir, ifoda, shuningdek, so'z, hatto so'z tarkibidagi fonemalar va tinish belgilari badiiy strukturani yuzaga keltirish, uning "to'qima"sini mukammallashtirish ishiga xizmat qiladi. Xususan, matnning badiiy-poetik yaxlitligini yuzaga keltirishdagi asosiy vazifani undagi belgilar, ular orasidagi aloqa-bog'lanishlar bajaradi.

Tekshirishlarimiz "Dahshat" hikoyasi tarkibida shamol bilan bog'liq sakkizta matniy bo'laklar mavjudligini ko'rsatdi. Ulardan birinchisi – muqaddimada keltirilgan va biz yuqorida ko'rib chiqqan belgi narrativ vazifani bajarmoqda – u qitobxonni matnga chorlab kelgusi tasvirlarning yanada ta'sirchan, dramatik ruhda bo'lishiga ishora qilayotir. Boshqalarida esa bu belgi sodir bo'lgan voqea yoki qahramon va personajlarga bog'liq holda ko'rsatilgan

2-segment: "Dodxo chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu, yasov tortib



turgan xotinlariga e'tibor qilmay, to'rga o'tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko'zi bilan tashqariga qaradi, Shamol goh och bo'riday uvillar, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar, hech narsa, hech narsa ko'rinmas edi.

Dodxo darchani zichlab yopdi. Joyiga o'tirib tasbeh o'girishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'tkazayotgan bo'lsa ham, qulog'i guvillayotgan shamolda, xayoti go'ristonda edi: "Hozir go'riston qanaqa vahimali bo'lsa ekan..." (41-42-betlar).

Yuqorida keltirilgan ikkita matniy parchadan ko'rinadiki, shamol qanchalik zabtiga olmasin, u ajdar, och bo'ri kabilar singari qo'rqinchli ovoz chiqarmasin, hali biror-ber personaj qalbida dahshat tuyg'usini uyg'otgani yo'q. Faqat matndagi tasvirlardan ma'lum bo'ladiki, taroveh namozidan so'ng uyiga qaytgan dodxoni ko'rgan sakkiz xotini "to'zib, biri uning sallasini oladi, biri chakmoniga qo'l uzatib, boshqasi maxsisini tortgani" chog'lanadi, ularning kenjasi – ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutadi. Bu matnning birlamchi qatlamida zolim va qattiqqo'l erning jazosi yoki tanbehidan hayiqqan bechora ayollarning harakatlari tarzida tushuniladi. Shu bilan birga, bu tasvir tagmatnda islomiy-ma'naviy tarbiya olgan ayol(lar)ning o'z eriga bo'lgan munosabatini ham ko'rsatadi. Bunday tarbiya o'tmishda oilaning asosiy boquvchisi va ustuni sanalgan erkakka ayol (xotin, qiz, kelin...) larning alohida hurmat bilan qarashi, ularga itoatda bo'lishiga sabab bo'lgan. Binobarin, dodxo qanchalik zolim va badfe'l bo'lmasin, xotinlari faqat qamchidan qo'rqanlari sababligina "to'zimaydilar", ular mavjud axloq, tarbiya mezonlari asosida xonadon sohibiga munosabatda bo'ladilar. Hatto dodxoga ko'ngilsizligini kundoshlaridan yashirmagan Unsin ham unga chilim tayyorlab beradi.

Demak, xotinlarning dodxo kelganida to'zib harakatga tushganlari hali dahshat ifodasi emas, faqat kelgusi voqeaga ishora qilyapti, xolos. Shuningdek, matnda ayollarning, shuningdek, dodxoning shamoldan qo'rqanlari ham ko'rsatilmagan. Qutirgan, bebosh shamolning turli maxluqlardek ovoz chiqarishi dahshatning o'zi bo'lmay, uning muqaddimasi hamda badiiy ifodasidir.

Badiiy matnda shamol belgi sifatida voqea halqalarini ulovchi, syujet strukturasi yuzaga keltiruvchi vosita sifatida ko'rinadi. Bu fikr isbotini kuyidagi parchada ham ko'rish mumkin:

"Bunday kechalarda odamzod qo'ymijoz, g'uj bo'lib va nimanidir kutib jimgina o'tirish kutib qoladi" (41-bet).

Bunday fikr inson psixologiyasiga xos muhim xususiyatni ifodalamoqda. Shuningdek, u sakkizta kundoshning katta xotin Nodirmohbegim uyiga yig'ilishlari sababini ham izohlab ko'rsatgan.

Ikkinchi segmentdagi shamol matn tarkibida muhim rol o'ynagan yana bir semiotik birlik – go'riston belgisini badiiy matn tizimiga kirib kelishiga yo'l ochib beryapti.

Aynan shamol odamlarga, xususan, xotinlariga salobatli va tap tortmas inson kabi ko'rinadigan dodxo ruhiyatidagi ojiz bir jixatni – o'limdan, shu hodisa bilan chambarchas bog'liq bo'lgan go'ristondan ko'rqishni adresatga ko'rsatib beradi. Matnda personaj psixologiyadagi bu xususiyat quyidagicha sharhlangan:

"O'zbek go'ristoni o'zi xunuk, buning ustiga, go'riston haqida aytilmagan xunuk gap, to'qilmagan vahimali mish-mish qolgan emas. Haqiqatan, bunday kechalarda go'riston esiga tushgan har qanday odam, ayniqsa, dodxo singari payg'ambar yoshidan oshib, kafanligini sandiqqa solib qo'ygan kishi o'lishdan ham ko'ra go'ristonda yotishni o'ylaganda tiligacha sovuq ter chiqaradi" (42-bet). Dodxo kechinmalar olamidagi psixologik assotsiatsiyalar silsilasini quyidagi chizmada ko'rsatamiz:

Uchinchi segmentda ifoda topgan shamol o‘limga bilvosita aloqador bo‘lgan yana ikkita leksemani yuqorida berilgan zanjirga qo‘shishga imkon beradi:

“Shamol bir xuruj qilganida, nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa darchani tirmalanicha sidirilib pastga tushib ketdi. Hamma o‘tirgan yerida bir qarich cho‘kkanday bo‘ldi va tin olmay bir-biriga qaradi. Dodxo xotinlariga, ulardan ham ko‘ra o‘ziga taskin berish uchun o‘rnidan turib darchaning bir tomonini ochdi. Darchadan kirgan shamol osma chiroqni lipillatdi, tebratdi. Dodxo pastga qaradi va suyunib ketganday:

-Bo‘yra. Bo‘yra ekan! – dedi va darchani yana zich yopib joyiga o‘tirdi” (42-bet). Aytganimizdek, bo‘yra o‘limga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq emas, lekin u personajning tasavvur oqimida o‘limga bevosita aloqador yana bir lisoniy birlikni yuzaga keltiradi:

“Bo‘yra odatda tobutga solinadigan bo‘lganidan, dodxoning ko‘z oldiga odamlarning yelkasida lapanglab ketayotgan tobutni keltirdi. Tobut esa yana go‘ristonni eslatdi, go‘riston haqida bolaligidan qulog‘ida qolib kelgan vahimali gaplarni, hodisalarni jonlantirib yubordi” (42-bet).

Mazkur segmentda personaj ruhiy tasavvuri zanjiri sezilardi darajada kengayganini ushbu chizmada ko‘rsa bo‘ladi:

shamol bo‘yra tobut go‘riston o‘lim

Har insonning tirikligidayok o‘z qiyomati o‘z dahshat (lar)i bo‘ladi. Shamol kechasi dodxoning dahshati (o‘limdan qo‘rqish) va qiyomati (begunoh yosh juvonning bevaqt o‘limiga sabab bo‘ladi va bu gunohi uchun ilohiy jazoga duchor bo‘lishi aniqlashadi) dramatik tasvirlar fonida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida tadqiq etilgan matniy parchalar asosiy qahramon (Unsin) bilan bog‘liq dahshatni aks ettirayotgani yo‘q, lekin shu holning yuz berishiga zamin tayyorlayapti, bu tasvirlar matn kontseptsiyasini yuzaga chiqarishda muhim o‘ringa ega personaj hisoblangan dodxo fojiasi va qalbidagi dahshatni yuzaga chiqargani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

#### MUHOKAMA

Bu o‘rinda Rolan Bartning matnning ko‘pligi bildiruvchilarning ko‘p tarmoqligi sababli paydo bo‘ladi degan fikrini yana bir bora esga olamiz. Badiiy matn strukturasi dahshat kontseptini yuzaga keltirishda nafaqat shamol, shu bilan birga, tun, go‘riston bildiruvchilari xizmat qilishi ko‘rinmoqda. Yuqorida berilgan parchada esa bildiruvchi sifatida go‘riston leksimasi xizmat qilayotir.

Qabristondagi tasvirda Unsinning o‘zbek tilining izohli lug‘atida qayd etilgan dahshatning eng avj nuqtasi – ortiq darajada qo‘rqan, vahimaga yoki azob-iztirobga tushgan kishining, ko‘rinishi, ruhiy-holatiga tushgani o‘z ifodasini topganini ko‘rish mumkin. Shunday qilib, ixchamgina badiiy matn tarkibida dahshat so‘zi ifodalagan uchta sema ham tajassum topgani ayonlashadi.

#### NATIJA

Yaqin va uzoq o‘tmishda qabristonlarga muqaddas va insonni muhofaza qiluvchi joy tarzida qaralar ekan, nega “Dahshat” hikoyasida ifodalangan badiiy zamon va badiiy makonda ulardan nafaqat qo‘rqish, shuningdek, nomini estitgandayoq vahimaga tushish holatlari nega paydo bo‘ldi, degan savol paydo bo‘lishi tabiiy. Chor istilosidan ancha oldin O‘rta Osiyodagi xonliklarda ilm-ma‘rifatdan uzoqlashish, islom ta‘limotining muqaddas ahkomidan uzoqlashib, jaholat va xurofotga berilish, mustahkam axloqiy mezonlarga bir qadar putur yeta boshlashi (mayxo‘rlik, xotinbozlik, bachchabozlikning bir qadar kuchayishi) kuzatilgan edi. Bunday noxush tamoyillar tarixiy va badiiy manbalar,

jumladan, ulug' adib Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlarida o'z badiiy ifodasini topgan. Tafakkur, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi qoloqlik, milliy birlikning mavjud emasligi buyuk Turkistonni mustamlakachik iskanjasi ostida qolishiga imkon yaratib berdi. Chor hukmronligi davrida mustamlakachilar tomonidan qaram mamlakatdagi zulm yanada kuchaydi, ilm olishga to'siqlar qo'yilgani sababli jaholat va bid'at yanada avj oldi. Hikoyada tasvir qilingan dahshat fojiasi ana shunday shart-sharoit va muhitning mahsuli, hosilasi edi.

#### XULOSA

Oldin tahlil etilgan bo'laklarda shamol belgi tarzida oldin dadho, keyin esa Unsin qalbida paydo bo'lgan qurquv tufayli yuzaga kelgan dahshatni ifodalaydi. Lekin dahshat faqat matn tarkibida mavjud obrazlarning o'limdan qo'rqishini ifodalashi bilan kifoyalanmaydi. Badiiy matnda dahshat bir kecha darajada o'zini namoyon qiladi.

Shunday qilib, matnda o'z badiiy ifodasini topgan dahshat "O'zbek tilining izohli lug'ati"da izohlangan shamol belgisining uch kontseptida va yuqorida biz ko'rsatgan uch darajada namoyon bo'ladi va hikoyaning fojaviy pafosi va syujet dramatzimini yuzaga keltiradi.

#### References:

1. Literary theory. Two volumes, Volume 1. - Tashkent: "Fan", 1979.
2. Meliev S. On structural analysis. - Uzbek language and literature. - Tashkent. 2009. №2 P 12.
3. Murodov G '. Artistic codes in the novel «Yulduzli tunlar». - Bukhara scientific information, 2000, issue 3.
4. Ch.Peirce. Collected Papers. Vol. 1. Cambridge -Massachusetts, 1960, p. 284.
5. Алпомиш. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 89.
6. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. Биринчи том. – Тошкент:Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти,1967.
7. Kholbekov M. Rolan Bart and structural literature. Uzbek language and literature. - Tashkent. 2013. №2 P 23.
9. Bart R. Mythology. - Source: Bart R. Selected Works. - Moscow: Progress, 1989. - p. 83.
10. Bart R. Selected works. - Moscow: Progress, 1989 .-- P. 83.

## INGLIZ BADIY DISKURSIDA KOHEZIYA VA KOGERENZIYANING MAZMUNY UYG'UNLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI

*Saidova Muxayyo Umidullayevna,  
Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Sayfiyeva Madina Saydullo qizi,  
lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada O. Henryning qisqa hikoyalari misolida ingliz badiiy diskursida koheziya va kogerenziyaning mazmuniy uyg'unlikni ta'minlashdagi roli o'rganilgan. Maqolada koheziya va kogerenziya tushunchalarining tilshunoslikda qanday ahamiyatga ega ekanligi va badiiy matnlarda qanday ishlatilishi O. Henryning «So'nggi barg» hikoyasi orqali syujet va personajlar o'rtasidagi bog'lanish, dramatik ta'sir va o'quvchining hissiy reaksiyalarini shakllantirishdagi roli bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: diskurs, kogerenziya, koheziya, mazmuniy uyg'unlik, matn tuzilishi, leksik va grammatik bog'lanish, syujet, personaj, dramatik ta'sir.*

## РОЛЬ КОГЕЗИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОДЕРЖАТЕЛЬНОЙ ГАРМОНИИ В АНГЛИЙСКОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ

*Саидова Мухайя Умидуллаевна,  
Доцент кафедры английской лингвистики, доктор философии (PhD) по  
филологическим наукам*

*Сайфиева Мадина Сайдулло кызы,  
Магистрант 1 курса Лингвистики*

*Аннотация. В данной статье на примере рассказов О. Генри исследуется роль когезии и когеренции в обеспечении содержательной гармонии в английском художественном дискурсе. В статье показано, какое значение в лингвистике имеют понятия когезия и когеренция и как они используются в художественных текстах, через рассказы О. Генри «The Last Leaf», связь сюжета и персонажей, описан драматический эффект и его роль в формировании эмоциональных реакций читателя.*

*Ключевые слова: дискурс, когезия, когеренция, смысловая гармония, структура текста, лексико-грамматическая связь, сюжет, персонаж, драматический эффект.*

## THE ROLE OF COHESION IN ENSURING MEANINGFUL HARMONY IN ENGLISH ARTISTIC DISCOURSE

*Saidova Mukhayya Umidullayevna,  
Associate professor of the Department of English linguistics,  
doctor of philosophy in philological science (PhD)*

*Saifieva Madina Saidullo kizi,  
1st stage master of English linguistics*

*Abstract. This article examines the role of cohesion and coherence in providing meaningful harmony in English fiction discourse using O. Henry's stories as an example.*

*The article shows the importance of the concepts of cohesion and coherence in linguistics and how they are used in fiction texts, through O. Henry's story «The Last Leaf», the connection between the plot and characters, and describes the dramatic effect and its role in shaping the reader's emotional reactions.*

Key words: discourse, coherence, cohesion, meaningful harmony, text structure, lexical and grammatical connection, plot, character, dramatic effect.

Kirish. Ingliz adabiyotida badiiy diskurs o'zining aniq tuzilishi, mazmuniy chuqurligi va o'quvchi bilan samarali aloqada bo'lishi bilan ajralib turadi. Badiiy matnlar nafaqat o'quvchiga estetik zavq bag'ishlashi, balki uning fikrini shakllantirish va tuyg'ularini uyg'otishda ham katta rol o'ynaydi. Bu jarayonda matnning izchilligi va yaxlitligi juda muhim ahamiyatga ega. Koheziya va kogerenziya tushunchalari badiiy matnlarda mazmuniy uyg'unlikni ta'minlashda markaziy rol o'ynaydi. Koheziya matnning grammatik va leksik bog'lanishlarini nazarda tutsa, kogerenziya matnning mazmuniy va mantiqiy izchilligini ta'minlaydi. Ushbu maqolada O. Henryning qisqa hikoyalari misolida, bu ikki til vositasining qanday ishlatilgani va ular yordamida hikoyaning mazmuniy uyg'unligi va o'quvchiga ta'sir ko'rsatish qanday ta'minlanganligi o'rganiladi. O. Henryning asarlarida koheziya va kogerenziya vositalari hikoyalarning dramatik kuchini oshirish, syujetni boyitish va o'quvchining fikrini o'zgartirishda samarali ishlatilgan. Bu maqola, ushbu vositalarning badiiy diskursdagi ahamiyatini, ayniqsa O. Henryning asarlari misolida ko'rsatishga qaratilgan. Asosiy qism. Ingliz badiiy diskursida matnning izchilligi va yaxlitligini ta'minlashda koheziya va kogerenziya vositalari juda muhim o'rin tutadi. Bu ikki tushuncha badiiy asarlarda nafaqat matnning struktura jihatidan mukammalligi, balki uning mazmuniy chuqurligi va o'quvchiga qaratilgan ta'siri uchun ham zarur hisoblanadi. Koheziya matnning har bir bo'lak orasida grammatik va leksik bog'lanishni ta'minlash, kogerenziya voqealar, personajlar va temalar o'rtasida mantiqiy va mazmuniy izchillikni yaratadi. Ushbu maqolada, O. Henryning qisqa hikoyalari misolida, koheziya va kogerenziyaning matnning yaxlitligini saqlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Koheziya matndagi bo'laklar orasidagi grammatik va leksik bog'lanishlarni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, koheziya matnning strukturaviy jihatdan izchilligini ta'minlaydi. Masalan, olmoshlar, bog'lovchilar va sinonimlar yordamida matndagi bo'laklar o'zaro bog'lanadi, va o'quvchi voqealar o'rtasida aniq aloqalarni sezadi [1;32]. Koheziya matndagi bo'laklar orasidagi grammatik va leksik bog'lanishlarni ta'minlab, matnning izchilligini yaratadi. Olmoshlar, bog'lovchilar va sinonimlar yordamida, bo'laklar o'zaro bog'lanib, o'quvchi voqealar o'rtasidagi aniq aloqalarni ko'radi. Olmoshlar takrorlanishni oldini oladi, bog'lovchilar esa fikrlar o'rtasida mantiqiy bog'lanishlarni tashkil etadi. Sinonimlar esa matnni yengil va qiziqarli qiladi, takrorlanishni kamaytiradi. Shu tarzda, koheziya matnni yaxlit va tushunarli qiladi.

Kogerenziya esa matnning mazmuniy izchilligini ifodalaydi. Bu tushuncha matnning voqealar, personajlar, va ularga tegishli vaziyatlar o'rtasida mantiqiy bog'lanishlar mavjudligini anglatadi. Kogerenziya nafaqat grammatik jihatdan bog'langan jumlar orasidagi aloqalarni ta'minlaydi, balki matnning umumiy mazmuni, temasi va asosiy g'oyasining izchilligini saqlaydi. Badiiy matnning mazmuniy uyg'unligi o'quvchining tushunishini yengillashtiradi va uni voqealar rivojiga jalb qiladi [2;34]. Kogerenziya matnning mazmuniy izchilligini ta'minlaydi, ya'ni voqealar, personajlar va vaziyatlar o'rtasida mantiqiy bog'lanishlarni yaratadi. Bu tushuncha grammatik bog'lanishlardan tashqari, matnning umumiy g'oyasini va asosiy temalarini izchil saqlashga yordam beradi. Kogerenziya o'quvchiga matnni yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi va uni voqealar rivojiga chuqurroq jalb qiladi. Shu tarzda, matnning mazmuniy uyg'unligi o'quvchi uchun yanada aniq va jozibador bo'ladi. O. Henryning qisqa hikoyalari o'zining

kutilmagan yakunlari, mavzulari va hikoyaning struktura jihatdan mukammalligi bilan mashhur. U o'zining asarlarida kohezziya va kogerenziya vositalarini samarali tarzda ishlatib, har bir hikoyada izchillikni, chuqur mazmunni va dramatik ta'sirni yaratadi. Hikoyalarining qisqa va aniq bo'lishi, o'quvchiga tezda ta'sir ko'rsatish imkonini beradi, shu bilan birga, matnning o'zaro bog'lanishini va to'liqligini ta'minlaydi. O. Henryning «The Last Leaf» hikoyasida kohezziya va kogerenziya matnning ruhini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Hikoya kasal bo'lgan Jonsi ismli yosh ayol va uning do'sti Sue o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlaydi. Jonsi hayotini saqlab qolish uchun o'zining ruhiy kuchiga tayanadi, va u o'zining kasalligi haqida qaror chiqarishga ta'sir ko'rsatadi [3;45].

Hikoyada «barg» so'zi doimiy ravishda takrorlanadi. Bu takrorlash orqali yozuvchi o'quvchiga Jonsi va Sue ning o'zaro bog'langan hayotini, hamda Jonsi uchun hayot va o'lim o'rtasidagi kurashni etkazadi. Bu leksik takrorlanish matnning izchilligini saqlaydi va voqealar rivojini boshqaradi. Yana bir ko'rsatkich, grammatik kohezziyaning ishlatilishi. Masalan, olmoshlar va bog'lovchilar, jumladan, «u», «bu» va «yoki», hikoyada mantiqiy bog'lanishlarni ta'minlaydi. Hikoyaning yakunida, Berman ismli rassomning Jonsi uchun oxirgi «barg»ni chizishi kutilmagan va dramatik ta'sirga ega. O'quvchi boshlanishida hikoyaning mazmuniy rivojlanishini anglab, yakunida esa bu kutilmagan hodisa orqali o'zgarishlarni sezadi. Kogerenziya yordamida, hikoyadagi barcha voqealar va qahramonlar o'rtasidagi aloqalar mantiqiy va mazmunli izchillikka ega bo'ladi. O. Henry hikoyalarida kohezziya va kogerenziya vositalari o'quvchining hikoyaning strukturasi, mavzusini va asosiy g'oyasini to'liq tushunishga yordam beradi. Kohezziya yordamida yozuvchi matnni izchil tarzda quradi, lekin bu faqat strukturaviy jihatdan emas, balki mazmuniy izchillikni ham ta'minlaydi. Kogerenziya esa voqealar rivojini, qahramonlar orasidagi aloqalarni va ularning ichki dunyosidagi o'zgarishlarni mantiqiy ravishda bog'laydi. Bu ikki vosita orqali O. Henry o'zining qisqa hikoyalarida katta hissiy ta'sirni yaratadi, o'quvchini voqealar rivojiga jalb qiladi va kutilmagan yakunlar orqali qiziqishni oshiradi. Kohezziya va kogerenziya matnning ta'sirchanligini oshiradi, uni o'quvchiga yaxlit, mazmunli va samarali tarzda yetkazadi [1;98]. Ingliz badiiy diskursida, ayniqsa O. Henry hikoyalarida, kohezziya va kogerenziya vositalarining ahamiyati juda katta. Ular matnning izchilligini saqlash, o'quvchining hikoyani to'g'ri anglashiga yordam beradi va voqealar rivojini mantiqiy va hissiy jihatdan ta'sirli qiladi. O. Henryning asarlaridagi bu vositalar, qisqa hikoyalar shaklida, chuqur mazmun va kutilmagan yakunlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, badiiy diskursda ushbu vositalar o'quvchiga matnni yaxlit va izchil tarzda qabul qilish imkonini beradi, bu esa uning estetik va intellektual qiymatini oshiradi.

Xulosa. Ingliz badiiy diskursida matnning izchilligi, mazmuniy uyg'unligi va o'quvchiga ta'sir etishi kabi muhim jihatlar badiiy asarlarning samarali tushunilishini ta'minlaydi. Bu jarayonda kohezziya va kogerenziya vositalarining ahamiyati alohida e'tiborga molikdir. Kohezziya va kogerenziya o'zaro bog'liq bo'lib, birgalikda matnning o'quvchiga qulay va aniq tarzda yetkazilishiga xizmat qiladi. Kohezziya grammatik va leksik bog'lanishlarni tashkil etib, matnning tuzilishini izchil qiladi, kogerenziya esa voqealar va personajlar o'rtasidagi mantiqiy va mazmuniy izchillikni ta'minlaydi.

O. Henryning qisqa hikoyalari, ayniqsa, bu ikki vositaning qanday mukammal ishlatilishining jonli namunalaridir. Uning asarlarida kohezziya va kogerenziya yordamida nafaqat matnning izchilligi saqlanadi, balki o'quvchining hissiy ta'siri ham kuchayadi. Hikoyalardagi so'zlar va iboralar, ularning mantiqiy va estetik bog'lanishlari orqali, o'quvchi voqealar rivojini oson tushunadi, va matnning umumiy g'oyasini anglaydi. O. Henryning «The Last Leaf» hikoyasidagi kutilmagan yakunlar, bu vositalar yordamida izchillik va dramatik ta'sirga ega bo'lib, o'quvchini hayratda qoldiradi. Har bir hikoyaning

tuzilishidagi izchillik va mantiqiy bog'lanish, nafaqat hikoya syujetining rivojlanishida, balki personajlarning ruhiy o'zgarishlarida ham o'zini namoyon qiladi. Koheziya va kogerenziyaning o'zaro uyg'un ishlatilishi O. Henry asarlarining qisqa, lekin chuqur ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi. Bu ikki vosita yordamida o'quvchi nafaqat syujetning qanday rivojlanishini, balki personajlarning ichki dunyosiga ham chuqurroq kirib boradi. Har bir hikoya, o'zining qisqa shaklida, o'quvchiga katta fikr va hissiy yuksalish keltiradi. O. Henryning asarlarida matnning izchilligi va mazmuniy uyg'unligi, hikoyaning har bir bo'lagi o'rtasidagi kuchli bog'lanishlar orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy diskursda koheziya va kogerenziya vositalari o'quvchiga nafaqat matnning tuzilishini va ma'nosini tushunishga yordam beradi, balki uning hissiy va intellektual tajribasini ham boyitadi. O. Henryning hikoyalari, bu vositalarning badiiy adabiyotda qanday samarali ishlatilishini, matnni yuksak badiiy darajaga olib chiqishda qanday muhim rol o'ynashini namoyish etadi. Bu ikki vosita, birgalikda, adabiyotdagi har bir asar uchun uning izchilligi, chuqurligi va hissiy ta'sirini ta'minlovchi kuchga ega ekanligini ko'rsatadi. O. Henry asarlari orqali bu vositalarning badiiy asarlarning mohiyatini tushunishda qanday ahamiyatga ega ekanligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi, va ularning badiiy diskursdagi o'rni nozik va zaruriy ekanligi ta'kidlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). "Cohesion in English". London: Longman.
2. Brown, G., & Yule, G. (1983). "Discourse Analysis". Cambridge: Cambridge University Press.
3. Cook, G. (1994). "Discourse and Literature: The Interplay of Form and Mind". Oxford: Oxford University Press.
4. Tanskanen, S. K. (2006). "Collaborative Dialogue in Literary Discourse". Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
5. Castro, C. D. (2004). "Cohesive devices in second language writing".
6. Palmer, B. C. (1999). "Developing cultural literacy through the writing process".
7. O. Henry. (1906). "The Best Short Stories of O. Henry". Doubleday.
8. O. Henry. (2000). "The Complete Works of O. Henry". Project Gutenberg.
9. Gee, J.P. (2014). "An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method". Routledge.

## SHOIRA MUAZZAMXON IJODIDA TASAVVUF

*Saydalieva Nasiba Farhodovna*

*filologiya fanlari nomzodi Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi*

*Annotatsiya. Maqolada XIX asrda yashab ijod etgan shoira Muazzamxon ijodida tasavvufiy ruhdagi gʻazallari haqida gap boradi. Shoiraning ayrim gʻazallari badiiy tahlil qilingan. Muazzamxon yaratgan lirik qahramon kechinmalari, qarashlari bugungi davr nuqtai nazaridan oʻrganilgan.*

*Kalit soʻzlar: tasavvuf, gʻazal, ilohiylik, muridlik, murshidlik, pand-nasihati*

## СУФИЗМ В ТВОРЧЕСТВЕ ПОЭТЕССЫ МУАZZAMXON

*Сайдалиева Насиба Фарходовна,*

*Кандидат филологических наук*

*Академический лицей Самаркандского института экономики и сервиса*

*АННОТАЦИЯ. В статье говорится о газелях поэтессы Муаззам Хан, жившей и творившей в XIX веке, в мистическом духе. Некоторые газели поэта подверглись художественному анализу. Переживания и взгляды лирического героя, созданные Муаззам-ханом, изучаются с точки зрения сегодняшней эпохи.*

*Ключевые слова: мистика, газель, божественность, мюридизм, мушидизм, совет.*

## SUFIQAH IN THE WORK OF THE POET MUAZZAMKHAN

*Saydalieva Nasiba Farhodovna,*

*Candidate of Philological Sciences*

*Academic Lyceum of Samarkand Institute of Economics and Service*

*ANNOTATION. The article discusses the mystical spirit of the ghazals of the poet Muazzamkhan, who lived and worked in the 19th century. Some of the poet's ghazals are artistically analyzed. The experiences and views of the lyrical hero created by Muazzamkhan are studied from the perspective of today.*

*Keywords: Sufism, ghazal, divinity, discipleship, mentorship, advice*

Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyoti tarixida shoirlar badiiy merosi alohida o'rin egallaydi. Jumladan, o'zbek shoirlari ham taraqqiyotimizning turli davrlarida adabiyotimiz rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelganlar. Manbalarda Robia Balxiy (X asr), Oysha Samarqandiy (XI asr), Munisa Mahastiy va Rayhona (XII asr), Mutriba Qoshg'ariy (XIII asr), xorazmlik Podsho Xotun (XIV asr), Mehriy, Nihoniy, Iffatiy, Jamila, Gavharbegim, Dilshod Xotun (XV asr), Nurjahon, Jahonoro, Salima (XVII asr) kabi shoirlar yashab ijod etganligi qayd etiladi.

XVIII – XIX asr hamda XX asr boshlarida ham o'zbek adabiyoti ko'plab iqtidorli shoirlar yaratgan asarlar hisobiga boyidi. Bu davrda Samarbonu, Jahon otin Uvaysiy, Mohlaroyim Nodira, Mahzuna, Dilshodi Barno, Anbar otin, Muazzamxon kabi iste'dodli shoirlar ijod qildilar.

«O'zbek shoirlarining ijodiyoti haqida so'z borar ekan, - deb yozadi shu mavzuning yirik tadqiqotchilaridan biri M.Qodirova, - latif bir she'riyat ko'z oldimizga keladi. Lekin ularda, o'z navbatida, jur'at ham barq urib turadi. Ular insonning, jumladan, xotin-qizlarning baxtli taqdiri orzusida ba'zan dard va nola bilan, ba'zan esa, ochiqdan-ochiq isyonkorona ovoz bilan maydonga chiqadilar. Ayollarni tahqirlovchi qonun-qoidalar, urf-odatlar satiraga olinadi. Shoirlar mo'tabar ona - ayolni e'zozlay olmagan zamonadan zorlandilar. Ular baxtli hayot tuyg'ularini, yaxshi kunlar orzusini rang-barang badiiy obrazlar vositasida kuyladilar, yaxshi kunlar kelishiga umid bog'ladilar». Shunday ijod sohibalaridan biri XIX asrning ikkinchi



yarmi XX asrning boshlarida yashab ijod etgan shoira Muazzamxondir.

Shoira Muazzamxon o'sgan muhit, u olgan tarbiya tizimi uning ongida tasavvufiy qarashlarga moyillik uyg'otgan edi. Shu sababli uning she'riyatida ham bunday ruhning ustuvorligi seziladi. Muazzamxon ijodi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyati sho'ro mafkurasi ta'sirida bo'lgan. Binobarin, bu tadqiqotlarda Muazzamxonning islomiy qarashlaridan, tasavvufiy fikrlaridan muayyan darajada ko'z yumilgan yoki real hayotga moslashtirilib, talqin etilgan. Istiqol mafkurasi adabiy merosimizga xolisona nazar solish imkonini berdiki, bu Muazzamxon ijodiga yangicha yondashishni taqozo etadi.

Diniy-tasavvufiy qarashlar kishilarni axloqiy-ruhiy jihatdan komil qilib tarbiyalashga xizmat etishi ma'lum. Keyingi yillarda Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor singari tasavvufiy adabiyotning taniqli vakillari ijodini o'rganishga bo'lgan e'tibor oshganligi, ularning asarlari qayta-qayta nashr etilayotganligi tasavvuf adabiyoti vakillariga munosabat ijobiy tomonga o'zgarayotganligidan nishonadir.

Muazzamxonning bu ruhdagi g'azallari hamd xarakterida bo'lib, ular zamirida Olohga ishq-muhabbat, Uni ulug'lash g'oyalari yotadi. Shoira lirik qaxramoni o'z gunohlari uchun Olohdan kechirim so'raydi, Undan to'g'ri yo'lga boshlashini, g'aflatdan uyg'otishini iltijo qiladi:

Saharlar uyg'onibon qumridek qilsam navo, yohu,  
Sani ming bir otingni zikr etib qilsam ado, yohu.  
Mani g'aflatdin uyg'otgil, o'zing o'ng yo'lni ko'rsatgin,  
Kechibon mo-sivo-l-lohdin sani aylay panoh, yohu.

Muazzamxon she'riyatida to'laligicha tasavvufiy g'oyalarni targ'ib etuvchi g'azallar ham mavjud. Ularda Yaratuvchining qudrati, san'ati va mo'jizakorligi tarannum etiladi. Shoira Olohning «hech kim va hech narsaga o'xshamagan husn»ini tavsif va ta'rif etadi:

Mushafi ruxsoring uzra oyati toat o'qib  
Oshiqi sodiqlara tavsirin ifsho aylasam .

Muazzamxonning bu ruhdagi g'azallarida oshiqning ilohiy visoliga intilishi, murshidlik va muridlik munosabatlari, faqru fanolik, oshiqni kamolotga etkazadigan turli vositalar, so'fiyona axloq to'g'risida fikr yuritiladi

Dudi isyondin qaro bo'lgan ko'ngilni sayqali,  
Bir nazar birla musaffo aylagil parvardigor.  
Chehrai jurmimni yopg'il pardai ismat bilan,  
Ro'zi mahshar qilmag'il zolu zalilu sharmsor.

Mazkur baytlar inson o'zini va Olohni tanishi lozimligi ifodalanganligi bilan e'tiborni tortadi. Unda hayotda yashab, gunohga botgan bandaning tazarrusi, o'z xatosini anglab etishi an'anaviy tasvir va obrazlar orqali beriladi. Shayton obrazi va uning insonni Oloh yo'lidan qaytarib, yomonlikka boshlashi Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor kabi adabiyotimiz tarixidagi ko'plab shoirlar ijodida qalamga olingan. Jumladan, Muazzamxon ijodida ham shaytonning makru hiylasini fosh etish etakchi mavzulardan hisoblanadi:

Rohatu kibru havodur barcha shayton lashkari,  
Tig'i istig'for olibon gardani shaytonni chop.

Shoira inson haromga qo'l urishining boisini shaytonning so'ziga kirishidan deb tushunadi. Kimki shaytonning so'ziga kirsa, u qiyomatda shayton bilan birga jazolanishidan ogoh etadi. Shayton yo'lga kirmoq Olohni unutmoqdir. I.Haqqul bir maqolasida shaytoniy hislatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi: nafs, tama', adovat, zebu ziynat va ortiqcha hashamdorlikni sevmak, faqirlikdan qo'rqmoq, shuhratparastlik, yulg'ichlik, xushomad va boshqalar . Muazzamxonning yuqoridagi satrlari ana shunday nafsoniy illatlardan forig' bo'lishga da'vat etadi va o'quvchini chuqur mushohada qilishga undaydi.

Dunyoning bebaqoligi, umrning yugurikligi insonni ezgu amallar bajarib qolishiga imkon

bera olarmikan? Shoira fikricha, inson nafs, kibr dunyosidan o'zini tiya olib oxirat fikrini yodida tutsa, savob ishlarga qo'l ura oladi.

Muazzamxonning ilohiy ishq madh etilgan g'azallarida «nay», «dev», «musulmon», «bemor», «gul», «yor», «jon», «murshid», «sabo», «do'st», «may», «azozil lashkari», «it», «g'uncha», «qalandar» kabi an'anaviy obrazlardan unumli foydalanilgan:

Gar musulmonzoda bo'lsang jurm ishidin qil hazar,  
Fisqu isyoningga shohiddur samodin to samak.

Muazzamxonning g'azallarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, shoira yaratgan lirik qahramon o'z davrining imonli, e'tiqodli, Olloh yo'lida yaxshi xulqi va amali bilan o'zidan iz qoldirishga harakat qiluvchi kishidir. Uning she'rlaridagi g'oya targ'ibot kuchiga ko'ra Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor ijodidagi an'anaviy tasvirlarga yaqin turadi.

Muazzamxonning yangi topilgan g'azallari, bizningcha, umrining so'nggi yillarida yozilgan. Chunki ularning aksariyatida tasavvufiy ruh pand-nasihat ruhi bilan uyg'unlashadi, bu Muazzamxon she'riyatining o'ziga xos bir jihatini ham belgilaydi:

Yoshim saksonga etdi, nafsi sak aslo qarimabdur,  
Qaerda nopok luqma bo'lsa, anga intildi.

Muazzamxonning «Albatta-albatta» radifli g'azali quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

O'qinglar bu nasihatni mudom, albatta-albatta,  
Xudoni yod etinglar subhu shom, albatta-albatta.

Odatda, nasihatimiz asarlar ijodkor ma'lum yoshga etganda yoziladi. Chunki uzoq yillik hayotiy tajribalar, saboqlar, hayotiy sinovlar shunday ruhdagi asarlarning yaratilishi uchun zamin hozirlaydi.

Muazzamxon g'azal davomida nasihat tarzidagi fikrlarini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Imon oldida pok bo'lmoq, toatga mashg'ullik, qanoatli va sabr-toqatli bo'lmoq, Olloh karamidan umidvorlik kabi Sharq she'riyatida takror-takror ishlatilgan, sayqal berilgan xususiyatlar «Albatta-albatta» radifli g'azalda o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Ana shu xususiyatlarga qarama-qarshi qutbda joylashgan «hirsu harosat», «nafsi sarkash», «dunyo ishrati» kabilar shoironing hayotiy va ijodiy tajribalaridan kelib chiqib qoralanadi.

Shohi Oliy bo'lay desang, qiyomat kun sen o'zingga,  
Bu dunyo ishratin qilg'il harom, albatta-albatta.

G'azalning maqt'ai ham yuqoridagi mazmunga mos ravishda poetik yakuniga etadi, ya'ni nasihat «hukm-xulosa»da o'z aksini topadi:

Muazzam o'tdi dunyodin hamisha bexabarliqda,  
Aningdek bo'lmangiz, sizga salom, albatta-albatta.

Muazzamxon o'zining «bexabarlig'»ini hech kimga ravo ko'rmaydi. Bu «bexabarlig'» uning butun hayot yo'lini o'zida mujassamlashtirgan timsol darajasiga ko'tariladi va boshqa g'azallarida yangi-yangi qirralari bilan namoyon bo'laveradi.

Ey ko'ngil, yig'lab xudoga tavba qilg'oning qani,  
Jurm ishdan eb nadomat chashmi giryoning qani? -

Yuqoridagi g'azalda ko'rganimizdek, bunda ham shoironing qalb kechinmalari pand-nasihat ohanglarida bayon etiladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan g'azaldan farqli o'laroq bu asarda endi shoira o'z-o'ziga murojaat qiladi, qalb tuyg'ularini ayovsiz tanqid qiladi.

Dasti xoli kuch qo'yarsan ushbu foni dunyodin,  
Bir amal hosil qilib ilkinga ilg'oning qani?

Shoira fikrini bosh masalaga - inson hayotining mazmun-mohiyatiga qaratadi. Uningcha, umrning mazmuni bu hayotdan ketar chog'da ezgu a'mollar qoldirishdadir.

Bir gunohdin yig'ladilar uch yuz yil Odam Ato,  
Kunda yuz ming jurm etib, qilg'on pushaymoning qani?

Shoira diniy rivoyatlarga ko'ra Odam Atoning bir gunohi uchun jannatdan quvilganligiga va

shu gunohi uchun pushaymon bo'lib uch yuz yil yig'laganligiga ishora qilib, «o'z gunohlarining beadadligi»dan so'z ochadi. Tasavvuf falsafasiga ko'ra, amalga oshirilmagan bo'lsa ham, lekin xayoldan kechgan har qanday yomon o'y, nafs istaklariga moyillik, Yaratganning hukmiga mos kelmaydigan biror bir fikr, uning qudratiga ishtiboh bilan qarash, birovga yomonlik sog'inish kabilar ham gunoh sanaladi. Muazzamxon ana shunday gunohlardan so'z ochadi.

Sen o'zing uyqudadirsan, jon berarda, uyqudin,

Uyg'onursan ko'z ochib, bunda uyg'oning qani?

G'ofillik va bedorlik tushunchalari mumtoz she'riyatda katta o'rinni ishg'ol etadi. G'ofillikning birinchi belgisi turmush ikir-chikirlari bilan andarmon bo'lib, Xudo oldidagi oddiy bandalik burchlarini o'tay olmaslikda ko'rinadi. Mol-dunyo ilinjida, nafs ko'yida «bedor» yurmoq ham g'ofillik sanaladi. Bedorlik ham, g'ofillik ham keng falsafiy mazmunga ega tushunchalardir. Mumtoz she'riyatda insonga ana shu tushunchalar o'lchovida baho beriladi. Shoira bir baytning o'zida hissiy kechinmani kuchaytirish maqsadida «uyqu» kalimasini uch marta takrorlaydi: «uyqudadirsan», «uyqudan uyg'onursan», «uyg'oning qani». Jon chiqar dam («jon berarda»)gacha uyquga g'arq bo'lmoq gumrohlikdan nishonadir. Gumrohlik ham g'ofillikning bir ko'rinishi. Shu bois shoira imoniy butunlikka, ruhiy poklikka da'vat etadi. SHOIRA poetik fikrini bandlar osha tadrijan taraqqiy ettira boradi:

Bandaman dersan xudog'a tilda yolg'on el aro,

Banda bo'lsang, Tangridan qo'rqib uyolg'oning qani?

Bandalik oddiy farzlarni ado etishdangina iborat emas. Bandalik bu - o'zlikni anglash demak. Shoira nazaricha, uyat hissidan mahrumlar o'zlikni anglash saodatidan bebahra.

Jonda yig'ding molu pul joningni qadrin bilmading,

Qilg'oning qoldi bari, o'zingga olg'oning qani?

Andalibdek, ey Muazzam, dodu faryoddin na sud,

Yoz o'tib, vaqti xazon keldi, gulistoning qani?

G'azal boshdan oxir mustahkam silsilani tashkil etadi. Bir misra ikkinchi misraga, bir bayt ikkinchi bir baytga uzviy bog'lanadi va asta-sekin o'quvchini mohiyat sari etaklaydi. Poetik fikr shu tariqa maromiga etadi.

Muazzamxonning aksariyat g'azallari maqta'sida qandaydir o'kinchlar, armonlar, g'ussalar nafasi ufurib turadi. Bularning bari shoira hayot yo'lining chigalliklaridan, mashaqqatlaridan tug'ilgan bo'lsa, ajab emas. Muazzamxonning yuqoridagi g'azali insonni o'z turmushida har qanday gunoh ishlardan tiyilishga da'vat etadi. Dili va tili boshqa bo'lgan kishilar do'zax azobi bilan ogohlantiriladi. Insonning hayotda yashashdan maqsadi yaxshilik qilish ekanligini yodga soladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Valixojayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. Toshkent, Fan, 1974 y.

2. G'anieva S. Alisher Navoiy. Toshkent, Fan. 1962 y, 83 bet.

3. Jalolov T. O'zbek shoiralari. Toshkent, 1959 y.

4. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. Toshkent. Fan, 1983 y, 208 bet.

5. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. Toshkent. YOZUVCHI, 1996 y, 272 bet.

## ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ШАРОФА РАШИДОВА, АНАЛИЗ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПОДХОД

Суярова Айнур Ибодуллаевна,  
преподаватель, Джиззакский государственный педагогический университет,  
кафедра методики дошкольного образования

*Аннотация: В данной работе рассматривается творчество Шарофа Рашидова как важное культурное явление узбекской литературы. Анализируются ключевые аспекты его поэтического наследия, включая любовную лирику и фронтовые стихи, а также публицистическая деятельность, отражающая важнейшие общественные ценности и идеалы. Предоставляются результаты исследования, проведённого среди студентов Джиззакского государственного педагогического университета, с использованием методики Литературное погружение через анализ лирики Шарофа Рашидова. Описаны этапы проведения семинаров, включая аналитическую, творческую и дискуссионную работу. Особое внимание уделено оценке эффективности методики, её положительным эффектам и выявленным недостаткам. Работа предоставляет перспективы для дальнейшего изучения и популяризации культурного наследия Шарофа Рашидова среди молодёжи.*

*Ключевые слова: литература, поэзия, публицистика, творчество, анализ, методика, наследие, студенты, образование, культура*

## THE CREATIVE LEGACY OF SHAROF RASHIDOV: ANALYSIS AND EDUCATIONAL APPROACH

Suyarova Aynur Ibodullayevna,  
lecturer of Jizzakh State Pedagogical University,  
Department of Preschool Education Methodology

*Abstract: This paper examines the work of Sharof Rashidov as an important cultural phenomenon of Uzbek literature. Key aspects of his poetic heritage are analyzed, including love lyrics and war poems, as well as journalistic activities reflecting the most important social values and ideals. The paper presents the results of a study conducted among students of the Jizzakh State Pedagogical University using the method of Literary immersion through the analysis of Sharof Rashidov's lyrics. The stages of the seminars are described, including analytical, creative and discussion work. Particular attention is paid to assessing the effectiveness of the methodology, its positive effects and identified shortcomings. The work provides prospects for further study and popularization of Sharof Rashidov's cultural heritage among young people.*

*Key words: literature, poetry, journalism, creativity, analysis, methodology, heritage, students, education, culture*

## SHAROF RASHIDOVNING IJODIY MEROSI, TAHLIL VA TA'LIMIY YONDASHUV

Suyarova Aynur Ibodullayevna, o'qituvchi.  
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası,

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharof Rashidovning ijodi o'zbek adabiyotining muhim madaniy hodisasi sifatida o'rganiladi. Uning she'riy merosining asosiy jihatlari, jumladan, muhabbat lirikasi va urush mavzusidagi she'rlari hamda jamiyatning eng muhim qadriyatlarini va ideallarini aks ettiruvchi publitsistik faoliyati tahlil qilinadi.*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalari o'rtasida Sharof Rashidovning lirik asarlarini tahlil qilish orqali «Adabiy immersiya» usuli yordamida olib borilgan tadqiqot natijalari taqdim etiladi. Seminarlardagi bosqichlar, jumladan, tahliliy, ijodiy va muhokamaga oid ishlar tasvirlanadi. Metodikaning samaradorligini baholash, uning ijodiy ta'sirlari va aniqlangan kamchiliklariga alohida e'tibor qaratiladi. Ishda Sharof Rashidovning madaniy merosini yoshlar o'rtasida yanada o'rganish va ommalashtirish istiqbollari ham ko'rsatiladi.*

*Kalit so'zlar: adabiyot, she'riyat, publitsistika, ijodkorlik, tahlil, metodika, meros, talabalar, ta'lim, madaniyat.*

Введение: Творчество Шарофа Рашидова занимает особое место в литературной и культурной жизни Узбекистана. Будучи не только государственным деятелем, но и выдающимся писателем, поэтом и публицистом, он внес значительный вклад в развитие узбекской литературы, обогатив её как художественными произведениями, так и глубокими публицистическими трудами. Его поэзия и журналистика раскрывают важнейшие аспекты жизни общества, включая темы любви, патриотизма, труда и духовности. Эти работы продолжают вдохновлять читателей своей многогранностью, искренностью и близостью к народным чаяниям.

Особое внимание в его творчестве уделено теме любви, которая в его произведениях выступает как универсальный символ созидательной силы и вдохновения. Лирика Рашидова пронизана тонкой чувствительностью, отражающей как личные переживания, так и общественные реалии. Его поэтические строки о любви и преданности жене, фронтовые стихи, наполненные тоской и надеждой, иллюстрируют глубокую человечность автора.

Рашидов проявил себя как талантливый публицист, использующий свой дар слова для решения важных общественно-политических вопросов. Его публицистика охватывает широкий спектр тем: от культурного наследия до социального прогресса. Каждая статья Рашидова – это не просто описание событий, а глубокий анализ и призыв к действию, что делает его работы актуальными и сегодня.

В рамках изучения творчества Шарофа Рашидова ключевую роль играют следующие источники, анализ которых позволяет глубже понять литературное и публицистическое наследие автора. Одной из важных основ исследования является сборник стихотворений Севги билан голибман ҳар он! (Ташкент, 2020), изданный в честь 100-летия Хурсандой Рашидовой, супруги Шарофа Рашидова. В этом сборнике представлены стихотворения, написанные в разные периоды жизни автора, включая фронтовые стихи, любовную лирику и произведения, посвящённые родной земле. Интервью Хурсандой Рашидовой, опубликованное в Саодат и газете Ўзбекистон овози (1992), проливает свет на личную жизнь и вдохновляющие отношения Рашидова с супругой, что значимо для анализа его любовной лирики. Этот источник подчёркивает, как близость к супруге оказала влияние на творчество поэта, особенно на темы любви и верности. Особое внимание заслуживает работа Философия любви (Москва, 1990), в которой рассматриваются универсальные аспекты любовной тематики. Этот труд позволяет провести параллели между произведениями Рашидова и другими авторами, акцентируя внимание на общечеловеческих ценностях, таких как любовь, верность и духовность.

Цель данной статьи – подробно рассмотреть ключевые аспекты творчества Шарофа Рашидова, с акцентом на его любовную лирику и публицистическую деятельность, чтобы показать, как его произведения отражают важнейшие

ценности и идеалы, близкие как прошлым, так и современным поколениям.

Методология: Методика Литературное погружение через анализ лирики Шарофа Рашидова

Данная методика направлена на глубокое изучение творчества Шарофа Рашидова, с акцентом на его любовную лирику и публицистические работы. Она предполагает использование комплексного подхода, который включает анализ текстов, творческую деятельность и дискуссии. Методика подходит для студентов филологических направлений, школьников старших классов и всех, интересующихся литературой и культурным наследием Узбекистана.

Основой метода является создание условий, при которых участники могут глубже погрузиться в культурно-исторический контекст произведений Рашидова. Первым шагом является предварительное ознакомление с биографией автора. Это помогает учащимся понять, как личные переживания Рашидова, его деятельность на благо страны и историческая эпоха повлияли на его творчество.

Следующий этап — аналитическая работа с текстами. Участники читают стихи, уделяя внимание образам, языковым средствам и метафорам, используемым автором. Например, в стихах на тему любви исследуется, как чувства автора отражаются через символы природы и мотивы верности. Особое внимание уделяется фронтовой лирике, где через строки выражены переживания о родине, семье и мирной жизни.

Для развития творческих навыков участники создают собственные произведения на основе мотивов из лирики Рашидова. Это может быть написание стихотворений, эссе или литературных зарисовок. Творческая деятельность помогает не только лучше понять художественные приёмы автора, но и развить личное отношение к теме.

На заключительном этапе организуются групповые дискуссии. Учащиеся обсуждают, как тема любви в творчестве Рашидова перекликается с современными ценностями и что делает эти произведения актуальными для сегодняшнего читателя. Также анализируются публицистические статьи автора, в которых отражены его размышления о социальной справедливости, культуре и роли личности в обществе.

Методика Литературное погружение через анализ лирики Шарофа Рашидова способствует развитию критического мышления, обогащению знаний о национальной литературе и культуре, а также формированию уважения к духовному наследию.

Для проведения методики Литературное погружение через анализ лирики Шарофа Рашидова используются различные виды оборудования, которые обеспечивают эффективное погружение в материал и активное участие участников.

Основное оборудование — мультимедийный проектор и экран, которые используются примерно в 30% времени. С их помощью демонстрируются видеоматериалы, презентации с биографическими данными автора и визуальными образами, связанными с его творчеством.

Второй важный инструмент — аудиосистема, которая занимает 20% использования. Она применяется для прослушивания стихов в исполнении профессиональных дикторов или чтения их с музыкальным сопровождением, чтобы создать эмоциональный настрой и лучше передать художественное содержание.

Для проведения аналитических занятий используются компьютеры или ноутбуки (30%). Они необходимы для поиска информации о произведениях Рашидова, написания эссе и других творческих работ, а также для участия в интерактивных заданиях, таких как создание цифровых коллажей или написание

КОЛЛЕКТИВНЫХ СТИХОВ.

Традиционные бумажные материалы — книги, сборники стихов, статьи и печатные раздаточные материалы — занимают 15%. Они позволяют участникам работать с текстами напрямую, делая пометки и выделяя важные моменты.

На завершающем этапе используются интерактивные доски или флипчарты (5%) для визуализации идей, записей результатов дискуссий и представления творческих проектов участников.

Такое распределение оборудования делает занятия динамичными и разнообразными, что помогает удерживать внимание и поддерживать интерес к изучаемой теме.

Результат: Результаты исследования, проведённого в Джизакском государственном педагогическом университете со студентами третьего курса группы 53522, показали значительные достижения в изучении творчества Шарофа Рашидова. В рамках методики Литературное погружение через анализ лирики Шарофа Рашидова студенты смогли углубить свои знания о национальной литературе, развить аналитические способности и проявить творческую активность.

На этапе ознакомления с биографией автора и историческим контекстом его творчества 85% студентов отметили, что они начали лучше понимать влияние личности автора на его произведения. Биографические данные и события времени помогли участникам осознать, как жизненные обстоятельства и общественные реалии отразились в лирике и публицистике Рашидова. Это позволило сформировать у студентов целостное представление о значимости его творчества для узбекской литературы.

В процессе анализа текстов, включая любовную лирику и фронтовые стихи, 78% студентов показали улучшение своих аналитических навыков. Они смогли успешно выявлять символику, анализировать использование автором метафор и образов, а также связывать их с личными переживаниями поэта. Например, в любовной лирике студенты акцентировали внимание на символах природы и мотивах верности, которые передают глубину чувств автора. Во фронтовой лирике были проанализированы такие темы, как тоска по родине, надежда на будущее и любовь к близким, что позволило участникам понять духовную ценность этих произведений.

Значительное внимание было уделено развитию творческих способностей. 65% студентов приняли участие в создании собственных литературных произведений, таких как стихи, эссе и небольшие рассказы, вдохновлённые лирикой Рашидова. Эти работы не только отразили их личное отношение к поднятым темам, но и продемонстрировали умение применять художественные приёмы, характерные для творчества автора.

Заключительный этап, включавший групповые дискуссии, позволил участникам поделиться своими выводами и впечатлениями. 90% студентов отметили актуальность тем, поднимаемых в творчестве Рашидова, для современного читателя. Они подчеркнули, что такие ценности, как патриотизм, любовь, труд и духовность, остаются значимыми для общества и сегодня. Обсуждение также затронуло публицистические работы Рашидова, где студенты увидели глубокий анализ общественных проблем и призыв к сохранению национальных традиций. Многие отметили, что эти тексты вдохновляют на размышления о социальной справедливости и роли личности в обществе. Проведённое исследование подтвердило эффективность методики Литературное погружение через анализ лирики Шарофа Рашидова. Участники не только расширили свои знания о

литературе, но и улучшили навыки анализа текстов, творческого самовыражения и коллективного обсуждения.

В рамках исследования, проведённого в Джизакском государственном педагогическом университете, значительное внимание уделялось организации и проведению семинарских занятий. Эти семинары стали ключевой частью методики Литературное погружение через анализ лирики Шарофа Рашидова и включали несколько этапов, способствующих активному вовлечению студентов и углублению их понимания творчества автора.

Семинары начинались с вводной части, в которой преподаватель представил биографию Шарофа Рашидова, ключевые этапы его жизненного пути и влияние исторического контекста на его творчество. Для визуализации использовались мультимедийные презентации и видеоматериалы. Такой подход помог студентам лучше понять, как личные и общественные события отразились в произведениях автора. Один из студентов отметил: Просмотр видеоматериалов о Рашидове позволил не только познакомиться с его жизнью, но и почувствовать атмосферу времени, когда создавались его стихи.

Далее проводился разбор стихотворений Рашидова, где студенты активно участвовали в обсуждении. Они работали в малых группах, анализируя текст с точки зрения языковых средств, символов и образов. Например, в любовной лирике обсуждались такие темы, как верность, надежда и любовь к родной земле, а во фронтовых стихах – глубокая тоска по дому и размышления о мирной жизни. Один из участников прокомментировал: Работа в группе помогла увидеть произведение с разных сторон. Мы делились своими мыслями, и это было очень полезно.

На этапе творческих заданий студенты попробовали свои силы в написании стихов и эссе, вдохновлённых лирикой Рашидова. Они создавали произведения, в которых переосмыслили темы любви, патриотизма и духовности. Некоторые работы были представлены на семинаре и вызвали бурное обсуждение. Один из студентов написал: Я никогда раньше не пробовал писать стихи, но это оказалось удивительно увлекательным. Я почувствовал, что могу выразить свои мысли так же искренне, как Рашидов.

Заключительная часть семинара включала групповую дискуссию, где участники обменивались своими впечатлениями о творчестве Рашидова и его актуальности для современных читателей. Обсуждения были оживлёнными, а мнения – разнообразными. Многие отметили, что темы, поднимаемые автором, остаются близкими и сегодня. Один из студентов поделился: Меня вдохновили строки о любви к родине и трудолюбию. Это те ценности, которые должны быть важны для каждого из нас.

Преподаватели также проводили анкетирование, чтобы оценить эффективность семинаров. По результатам анкетирования 88% студентов отметили, что занятия помогли им глубже понять узбекскую литературу, 75% признали, что семинары способствовали развитию их аналитических способностей, а 80% подчеркнули, что такие занятия мотивируют их к дальнейшему изучению национального культурного наследия. Семинары не только стали важным этапом исследования, но и способствовали формированию у студентов глубокого интереса к литературе и творческому самовыражению. Отзывы участников подтверждают, что такой формат занятий эффективен и интересен, позволяя сочетать образовательные и творческие элементы.



Таблица 1.

Параметр	Процент участия	Положительные эффекты	Недостатки	Рекомендации для улучшения
Понимание биографии и контекста	85%	Углубление знаний об эпохе, лучшее восприятие творчества автора	Отсутствие у некоторых студентов глубокого интереса	Включить дополнительные интерактивные элементы
Развитие аналитических навыков	78%	Улучшение способности анализировать символику и метафоры	Сложности у части студентов в интерпретации текстов	Организовать дополнительную консультацию
Участие в творческой деятельности	65%	Развитие креативности, освоение новых методов самовыражения	Трудности с началом работы у некоторых студентов	Подготовить примеры и пошаговые задания
Участие в дискуссиях	90%	Формирование навыков коммуникации и критического мышления	Некоторые участники малоактивны в обсуждениях	Поощрять более равномерное участие
Общая оценка методики	88%	Увеличение интереса к литературе, улучшение восприятия ценностей	Требуются дополнительные технические ресурсы	Улучшить техническое оснащение занятий

Заключение: В результате проведённого исследования была подробно изучена многогранная литературная и публицистическая деятельность Шарофа Рашидова, чьё творчество занимает особое место в культурной жизни Узбекистана. Анализ

его поэтических произведений, особенно любовной лирики, позволил раскрыть глубокую эмоциональность автора, его приверженность таким ценностям, как любовь, верность и патриотизм. Особое внимание уделено его фронтовым стихам, которые отражают тоску по родине и стремление к миру.

Не менее важным аспектом работы стало изучение публицистической деятельности Рашидова, в которой нашли отражение ключевые вопросы социальной справедливости, культурного наследия и национальной идентичности. Его статьи остаются актуальными и сегодня, так как затрагивают важные темы, значимые для современного общества.

#### Литература.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Жиззах шаҳрида Шароф Рашидов ҳайкали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Жиззах: 2017 йил

2. Кайсын Кулиев. Раненный камень. Москва, “Советский писатель”, 1968.

3. Рашидов Шароф. Севги билан голибман ҳар он! Тошкент, Шароф Рашидов номидаги халқаро жамоат фонди, “NISO POLIGRAF”, 2020.

4. Рашидов Шароф. Собрание сочинений в пяти томах. Том первый. Москва, Художественная литература, 1979.

5. Рашидов Шароф. Собрание сочинений в пяти томах. Том третий. Москва, Художественная литература, 1980.

6. Рашидова Х. Г нинг Ш.Р.Рашидов таваллудининг 75 йиллиги арафасида “Саодат” журналининг Бизнинг меҳмонимиз рукнида журналист т.Ш.Убайдуллаевга берган интервьюси. “Ўзбекистон овози ” газетаси, 1992 йил 30 октябрь.

7. Ризаев С. Шараф Рашидов. Штрихи к портрету, Ёзувчи — Нур. Ташкент, 1992.

8. Философия любви. Ч.1. Москва, Политиздат, 1990.

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIGA SUN'IY INTELLEKTNING KIRIB KELISH AFZALLIKLARI

Sultanova Nilufar

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

*Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimiga sun'iy intellektning kirib kelishi bilan kuzatilgan islohotlar va yangilanishlar, tub burulishlar haqida, hamda sun'iy intellektning tizimga kirib kelishi bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari ta'lim-tarbiya faoliyatlarida qanday ijobiy tomonlarga erishilgani, ota-onalarga qanday yengilliklari paydo bo'lgani xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tizimi, axborot kommunikatsiya, sun'iy intellekt, xodimlar monitoringi, MTt xisobini yuritish, platforma, mobil ilova, elektron davomat, elektron rasmiylashtirish, elektron qabul, Face ID.*

*Аннотация: В данной статье рассмотрены реформы и обновления, радикальные изменения, наблюдаемые при внедрении искусственного интеллекта в систему дошкольного образования, а также положительные стороны деятельности работников организации дошкольного образования в их образовательной деятельности при внедрении искусственного интеллекта. в систему поступила информация о том, чего удалось достичь и какое облегчение появилось у родителей.*

*Ключевые слова: система дошкольного образования, информационная коммуникация, искусственный интеллект, мониторинг сотрудников, учет МТС, платформа, мобильное приложение, электронная посещаемость, электронная регистрация, электронный пропуск, Face ID.*

*Annotation: In this article, the reforms and updates, radical changes observed with the introduction of artificial intelligence into the system of preschool education, as well as the positive aspects of the employees of the preschool education organization in their educational activities with the introduction of artificial intelligence into the system information about what was achieved and what kind of relief appeared to the parents.*

*Key words: preschool education system, information communication, artificial intelligence, employee monitoring, MTt accounting, platform, mobile application, electronic attendance, electronic registration, electronic admission, Face ID.*

Bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan davrda, qaysi sohaga qaramaylik sun'iy intellektni shiddat bilan kirib kelayotganligini kuzatishimiz mumkin. Tom ma'noda olib qaraganimizda, ijtimoiy soha deysizmi, iqtisodiyotmi yoki huquq sohasi, qishloq xo'jaligi, umuman olganimizda barcha tarmoqlarda sun'iy intellektning qamrab olinayotganligini va bu ham o'z o'rnida mazkur sohalarda qaysidir ma'noda yangiliklar bilan insonlar mushkulini yengil qilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Maktabgacha ta'limni ta'limning birlamchi bo'g'ini va tayanch fundament ekanligi hech birimizga sir emas, demak shunday ekan bu bo'g'in ertamiz egalari bo'lgan bolajonlarni yuksak madaniyatli, aql – farosatli, metin irodali, intellectual, zufunun sifatida maktab ta'limiga tayyorlovchi bosqich xisoblanar ekan, ho'sh ushbu bosqichga ham sun'iy intellekt qay darajada kirib keldi. Afzalliklari va zararli jihatlari nimalarda shu haqida bilib olamiz.

Muhtaram prezidentimiz tomonlaridan 2016 yil 29-dekabr sanasida maktabgacha ta'limga oid eng muhim qarorlardan biri ya'ni "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707 sonli qarori ushbu sohaga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor desam adashmagan bo'laman. Mazkur qarordan

so'ng maktabgacha ta'lim tizimida tub burulish ta'bir joiz bo'lsa aytish mumkinki, yangilanish yangi kun boshlandi deya ayta olamiz. Shu kundan boshlab ushbu sohaning har bir tarmog'ida o'zgarishlar boshlandi. Ta'mirga muhtoj maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'mirlashga kiritildi, rekonstruksiya qilindi. Oziq ovqat yangi tizimga tushdi. Bir necha yillardan buyon oqsab kelayotgan ta'lim sifatiga katta e'tibor qaratildi. Yangi o'quv qo'llanmalar, adabiyotlar, didaktik materiallar bilan ta'minlandi. Shu bilan birga ushbu sohaga yangiliklar ham kirib keldi.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy rivojlantirishni ta'minlash, maktabga tayyorlash darajasini oshirish tobora dolzarflik kasb etmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida 2018-yilda joriy etilgan, maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimi-Open emis dasturi yuqori qulaylik va sifatli faoliyatga yo'l ochadi. Ushbu axborot tizimi ta'lim muassasalari haqida ma'lumot to'plash va ularni taqdim qilishga mo'ljallangan, ta'limga oid ma'lumotlarni boshqaruv tizimidir. Mazkur tizimni ishga tushurish bolalarni maktabgacha ta'limga bolalarni elektron navbat asosida shaffoflik bilan qabul qilishini ta'minladi. Qolaversa, u orqali tarbiyalanuvchilarning yoshi va jinsini hisobga olgan holda, hududlar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari kesimida bolalarning qatnovi va sog'lig'ini onlayn nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Tizimning yana bir afzalligi shundaki, unda onlayn to'lovlat MTT hisobini yuritish, xodimlar monitoringini olib borish mumkin.

Shu bilan birga, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga ko'ra, bolalarning musiqiy rivojlanishlarini rivojlantirish, ularga musiqiy didni singdirish, ijodiy mayl, yodda saqlash qobiliyati, ritm hissini rivojlantirish maqsadida musiqali qo'shiqlar to'plamini yozish loyihasi ishga tushurildi.

Maktabgacha ta'limda ochiqlik va shaffoflikka erishish sohaga yangiliklar olib kelinishi bilan o'zgaradi deya ayta olamiz. So'zlarimizning isbori sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish tizimi yaratildi. Ushbu tizim-maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish, davlat-xususiy sherikchilik doirasi asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishda ko'maklashish, ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab – quvvatlash hamda o'quv tarbiyaviy jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish bo'yicha kompleks axborot tizimidir. Qolaversa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimi-bu maktabgacha ta'lim sohasida davlat va xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari haqida barcha ma'lumotlarni aks ettiruvchi, boshqaruvchi, muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi axborot tizimi xisoblanadi.

Mazkur tizim orqali siz maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini, tarbiyalanuvchilar sonini, umumiy xodimlar sonini va foydalanuvchilar soni kabilar bilan batafsil tanishib chiqaolasiz. Farzandingizni qaysi maktabgacha ta'lim tashkilotida navbatda turganini bilishni xoxlasangiz ham ushbu tizim orqali ma'lumotlarga ega bolaolasiz.

Ushbu tizimning ijobiy jixatlari bormi? Degan savol tug'ulishi tabiiy albatta. Xa albatta ushbu tizimning afzallik tomonlari juda ham ko'p. Masalan;

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish uchun arizalarni platforma orqali elektron qabul qilish;

- sanitariya-epidemiologiya yong'in xavfsizligi talablariga mosligi to'g'risidagi xulosalarni onlayn tarzda berish;

- davlat – xususiy sherikchilik asosida tuzilgan bitimlarning yagona reyestrini yuritish va monitoring qilish;

- maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq ota-onalar bilan

tuzilgan badalini o'z vaqtida to'lash imkoniyati bo'ladi;

-mobil ilova yordamida tarbiyalanuvchilarning davomatini FaceID texnologiyasi yordamida amalga oshirish;

-maktabgacha ta'lim tashkilotining hodimlari bilan mehnat shartnomalarini elektron rasmiylashtirish imkoniyatini beradi.

Elektron davomat qilish maktabgacha ta'lim sohasiga nima uchun kerak. Har bir jabhada islohotlar va tub yangilanishlar sodir etilayotgan ekan, nima uchun maktabgacha ta'limda ham shunday bo'lmazligi kerak. Axir bugun hamma shaffoflik va oshkoralik bilan yashash hamda ishlash haqida tinmay bong urayotgan ekan, bu sohaga ham shaffoflikni olib kirish vaqti kelmadimikan. Shu boisdan ham elektron davomat hozirga maktabgacha ta'lim tizimida dolzarblik kasb etadi. Elektron davomat o'zi nima? Elektron davomat tizimi bu-axborot va sun'iy intellect texnologiyalari asosida yaratilgan mobil ilova dasturi bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarning, shuningdek xodimlarning kunlik qatnovini haqiqatda amalga oshirishni real vaqt rejimida nazorat va monitoring qilishga mo'ljallangan tizimdir.

Ushbu elektron davomat orqali maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyalanuvchilari kunlik davomatlari va xodimlarning ishga o'z vaqtida kelib-ketishlarini nazorat qilar ekan bu albatta xodimning ishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi va ishga sidqi dildan yondoshishini ta'minlaydi. Va eng muhimi bolalar badal to'lovlari hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini ish haqlarida shaffoflik bo'ladi, eng asosiysi esa bugunning eng yomon illati xisoblangan karrupsiyaning oldi olinadi.

Xulosa qilib aytgan, maktabgacha ta'limga sun'iy intelektни kirib kelishi tub burulishlar bo'ladi oldi desak hech adashmagan bo'lamiz. Sun'iy intellect kirib kelishi bilan maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining ish faoliyatlari ham yangiliklar bilan boyidi ularni kunlik faoliyatlari yana ham sifat va samaradorlik jihatidan o'sdi. Bu bilan chegaralanmay tarbiyachi-pedagoglarning bilim, saviyalari ko'tarildi, axborot kommunikatsiya bilan bemalol ishlay oladigan va ta'lim-tarbiya jarayonlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib faoliyatlarini mazmuni oshirdi. Bu albatta ertangi kunimiz nurli va istiqbolli bo'lishiga ishonch hissini yana bir bor oshirdi deya ayta olaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirining 2021-yilning 30-dekabrda 255-son buyrug'i "Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari" to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli Qarori 2020-yil 22-dekabr.

3. "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" o'quv qo'llanma. T-2020

D.Q.Asqarova.

4. Maktabgacha pedagogika – 2019.

F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova.

## OZOD SHARAFIDDINOV IJODIDA DABR VA IJODKOR SHAXS TALQINI

*Tulishova Gulzina Ravshanovna*  
*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o'zbek tili va adabiyoti*  
*kafedrasida o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning eng sara ilmiy tadqiqotlari, asarlari asosida XX asr ikkinchi yarmi davr adabiy jarayoni hamda ijodkor shaxsi masalasi tadqiq etilgan.*

*Kalit so'zlar: Badiiy adabiyot, adabiy tanqid, ijodkor, davr, ma'naviyat, tafakkur, ijod, ma'rifatparvar, millat.*

## INTERPRETATION OF ERA AND CREATIVE PERSONALITY IN THE WORKS OF OZOD SHARAFIDDINOV

*Tulishova Gulzina Ravshanovna*  
*Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature*  
*Jizzakh State Pedagogical University*

*Abstract: This article examines the literary process and creative personality of the second half of the 20th century on the basis of the best scientific researches and works of the Hero of Uzbekistan Azod Sharafiddinov.*

*Key words: Fiction, literary criticism, creator, era, spirituality, thinking, creativity, enlightener, nation.*

## ТРАКТОВКА ЭПОХИ И ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ОЗОДА ШАРАФИДДИНОВА

*Тулишова Гульзина Равшановна*  
*Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы*  
*Джизакского государственного педагогического университета*

*Аннотация: В данной статье рассматривается литературный процесс и творческая личность второй половины XX века на основе лучших научных исследований и трудов Героя Узбекистана Азода Шарафиддинова.*

*Ключевые слова: Художественная литература, литературоведение, творец, эпоха, духовность, мышление, творчество, просветитель, нация.*

XX asr o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixini, kengroq qilib aytsak, xalqimiz ma'naviyati va tafakkuri rivojini Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. "Keyingi 50 yilda faoliyat ko'rsatgan adabiyotshunoslar, publisistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho'qqi yanglig' ko'zga tashlanib turadi. Ozod Sharafiddinov o'zidan o'lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxru g'ururi bo'la oladigan ijoddir." [1-12] O'zbekiston Qahramoni Abdula Oripovning bu samimiy e'tirofi butun adabiy jamoatchilikning va ziyoli xalqimizning ham yakdil bir bahosi deyish mumkin. Bu tarixiy haqiqat birinchi Prezidentimiz I.Karimovning so'zlarida ham teran ifodasini topgan edi: "Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o'zining haqqoniy so'zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor yoshlarimizga ibrat bo'layotgan, tom ma'nodagi ma'rifatparvar insondir". [4-7] Haqiqatan ham, Ozod Sharafiddinov tanqidchi o'z iste'dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy jarayonda va badiiy ijod olamini

rivojlantirishda qanchalar ulkan rol o'ynashi va qudratli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaqqol isbotlab bera oldi.

Ozod Sharafiddinovning nodir iste'dodi, badiiy ijod va estetik tafakkur rivojidadagi va ayniqsa adabiy tanqidchilik sohasidagi beqiyos xizmatlari bu olimning g'oyat serqirra va betakror bir siymo bo'lganini ko'rsatadi. O.Sharafiddinov fenomenining hayratli bir jihati ham shundaki, uning ilk chiqishlaridayoq yorqin namoyon bo'lgan tug'ma tanqidchilik talanti hech qachon xira tortmadi, shoirona qalb ehtirosi va jo'shqin ilhomi umrining so'ngiga qadar susaymadi. Bu haqda O'zbekiston Qahramoni, mashur shoirimiz Erkin Vohidov aytgan samimiy fikrlar millionlab kitobxonlarning ko'nglidagi yakdil fikrlarni ham ifodalagan: "Ozod SHarafiddinov XX asr adabiy muhitida o'z ibratli shaxsiyati, mustahkam e'tiqodu dunyoqarashi bilan ziyolilarimizning butun bir avlodi uchun namuna bo'lib tanilgan alloma. Bunaqa odamlarni xudoyim bizning baxtimizga, jamiyat baxti uchun beradi".

Ozod Sharafiddinovning tanqidchilik iste'dodi va ijodiy salohiyati nechog'lik serqirra va samarali ekanligini tasavvur etish uchun loaqal u kishining badiiy ijod va adabiyotshunoslikning qanday dolzarb va murakkab mavzu va muammolarini teran yoritib berganligini bir qur esga olaylik. Birgina XX asr o'zbek adabiyoti tarixi masalasini o'rganishni olaylik. G'oyat murakkab va ziddiyatli kechgan bu davr adabiyotning o'nlab atoqli vakillari hayoti va ijodini mufassal yorituvchi ko'plab yirik tadqiqotlar, darslik, monografiya va salmoqli to'plamlarining aksariyati bevosita Ozod Sharafiddinov rahnamoligi va mutasaddiligida yuzaga kelgan. Bu haqiqatni va bularning evaziga sho'ro davrida keskin tazyiq va ta'na-dashnomlarga ham duchor bo'lganligini, afsuski, bugungi yoshlarimiz yaxshi bilmasligi mumkin. Zotan, Istiqlol tufayli bugun Cho'lponning nomini qo'rquv yoki hadik bilan emas, balki haqli ravishda faxr bilan tilga olishimizda va uni adabiyotimizning eng porloq siymolaridan biri sifatida ardoqlashimizda O.Sharafiddinovning xizmatlari beqiyosdir.[2-62]

Munaqqidning "Iste'dod jilolari" (1976) kitobi ham uning "Zamon. Qalb. Poeziya" (1962) asari singari adabiy – tanqidiy tafakkur rivojida quvonchli bir voqea bo'lgan. Ushbu asarni varaqlar ekanmiz, dastavval undagi esse – portretlarning nomlari diqqatimizni o'ziga jalb etadi: "Cho'qqi", "Daryodil shoir", "So'z san'atiga fidoyi sadoqat", "Ulkan hayotning ilk sahifalari". Darhaqiqat, mashhur shoir, buyuk qalb egasi bo'lgan G'afur G'ulomga nisbatan "Daryodil shoir" degan iboradan ko'ra ham munosibroq ta'rif bormi? G'afur G'ulom ijodi adabiyotimizning eng yuksak va porloq "cho'qqisi"ga qiyos qilingani-chi? Yoki zabardast adibimiz Oybekning so'z san'atiga bo'lgan sevgi-sadoqatini "fidoyi" deb atamaslik mumkinmi?

To'plamdagi maqolalar hajman katta emas, lekin tanqidchi ana shu ixcham maqolalarda adabiyotimizning eng yirik vakillarining hayot yo'lini yoritishga va ular ijodi va shaxsiyatining asosiy qirralarini mufassal ochib berishga muvaffaq bo'lgan. Haqiqiy tanqidchilarga xos mahorat bilan u yoki bu so'z san'atkorining ijodiy yo'li qanday shakllanganligini, uning o'ziga xos va mushtarak tomonlarini, adabiyotimizga qo'shgan hissasini va shu tariqa o'sha yozuvchining adabiyot tarixida tutgan o'rnini aniqlashni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Masalan, A.Qahorning "Sarob" romani tahliliga to'xtalib o'taylik. Kitobxonlarga ma'lumki, "Sarob" romani tanqidchilikda ko'pgina munozaralarga sabab bo'ldi. Ayrim adabiyotshunoslar asarni to'la va to'g'ri baholay olmadilar. Ular romanning o'ziga xosligini, uning g'oyaviy-badiiy Jihatlarini qandaydir "quyma qolip"lar bilan o'lchab ko'rishdi va oqibatda yozuvchi oldiga noto'g'ri talablar ham qo'yishdi. Munaqqid A.Qahorning satirik iste'dodi va uning evolyutsiyasini tadqiq etar ekan, adib asarlarini baholashda ham jahon adabiy-estetik tafakkur mezonlarini asosiy dasturulamal qilib oladi. "Yozuvchi ijodiga baho berganda

faqat nimani aks ettirayotganini asos qilib olsagu, boshqa tomonlarini hisobga olmasak, noobyektiv, birtomonlama yo'lga kirib ketish oson. Yozuvchi ijodining qiymatini belgilaydigan eng muhim narsa uning aks ettirayotgan hodisalarga munosabatidir", - deydi olim.

"Iste'dod jilolari"ning "Sarob" romaniga nisbatan yana bir jihati bor. "Sarob"-ko'p qirrali roman. U ayni paytda egoistik talant va uning fojiali taqdiri haqidagi asar ham bo'lib, A.Qahorning muhim adabiy-estetik qarashlarini ham o'zida mujassamlashtirgandir. Afsuski, romanning bu jihati adabiyotshunoslar e'tiboridan chetda qolib ketar edi. A.Qahhor Saidiydagi durustgina talantining qurboni bo'lishini realistik lavhalarda aks ettirar ekan, u orqali go'yo "Gap faqat talantda emas balki talantning maqsad yo'nalishidadir. Talant xalqqa bag'ishlanishi, eng yuksak va oliyjanob g'oyalarning tantanasi uchun xizmat qilishi kerak", degan ezgu bir haqiqatdan bizni ogoh qilganday bo'ladi. Bunday hayotiy g'oyalar bugun ham dolzarbligini yo'qotmaydi.

Aslida, adib asarlariga baho berish va ularni tadqiq etishda tarixiy sharoitni e'tiborga olishimiz va sobiq sho'ro davrida yashab, ijod qilgan boshqa san'atkorlar kabi Qodiriy, Cho'lpon va Qahhorlar ham butunlay erkin bo'lmaganini unutib bo'lmaydi. Bu jihatdan Ozod Sharafiddinovning Cho'lpon ijodini o'rganish borasidagi fikrlari asosli: "Muayyan zamon, muayyan jamiyatda yashagan shoir, tabiiyki, bu jamiyatdan tashqariga chiqib keta olgan emas. Cho'lponga ob'yektiv yondoshish, uning shaxsiyatini, ijodini xolisona baholash uni mutlaqo kamsitmaydi, balki bizning yuraklarga yaqinroq qiladi. Cho'lponning badiiy ijodidagi yoxud adabiy-tanqidiy maqolalaridagi hukmron mafkura g'oyalariga yon berilgan o'rinlarni ko'rganda, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshilmaslik kerak. Bil'aks, uni tushunmoqqa harakat qilaylik. Bu mulohazalar faqat Cho'lponga emas, balki Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir kabi ko'p yillar mobaynida adabiyotimizning chinorlari hisoblanib kelgan, keyingi yillarda esa o'rinli-o'rinsiz ta'na-dashnomlarga ro'para kelayotgan ijodkorlarga ham taalluqli." [3-64]

Ozod Sharafiddinov ijodi va shaxsiga baho berishda ham ana shu sharoit va holatlarni nazardan qochirmaslik lozim. U kishi ham partiyani ulug'lovchi fikrlar bildirgan yoxud Mayakovskiy kabi proletariat sinfi va revolyutsiyani madh etuvchi asarlarini yuqori baholaganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Lekin bu o'tkinchi g'oya-qarashlar mash'um sovet tuzumi siyosati va hukmron mafkurasi bilan bog'liq ekanligi endilikda barchaga ayon bo'lmoqda.

Ozod Sharafiddinovning mulohazalarida o'sha yozuvchining o'z iste'dodiga munosib yetuk asarlar bitishiga umid va ishonch bag'ishlovchi ezgu da'vat va adabiyotimiz kelajagi haqida bezovta bir qalbning o'y-tashvishlari va kuyunchakligi ustuvorlik qiladi. Masalan, taniqli adib O'lmas Umarbekovning "Damir Usmonovning ikki bahori" qissasiga bag'ishlangan taqrizi yoxud "She'r ko'p, ammo shoir-chi" maqolalari shunday ruhda yozilgan. Bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Zero, zamondoshlar tomonidan yakdillik bilan e'tirof etilganidek, millat dardi va xalq orzularini o'ziniki deb qabul etgan mutafakkir badiiy ijod, ijodkorning jamiyat rivojida tutgan o'rni haqida jiddiy o'ylashi va bu to'g'rida katta mas'uliyat bilan qalam tebratishi tabiiy holdir. Bu Ozod Sharafiddinovning ulkan insoniy shaxsiyati va yorqin iste'dodi bilan adabiyot va tanqidchilik rivojiga beqiyos hissa qo'shganligining tan olinishi va qadrlanishiga yana bir dalildir.

Birgina XX asr o'zbek adabiyoti tarixi masalasini o'rganishni olib ko'raylik. G'oyat murakkab va ziddiyatli kechgan bu davr adabiyotining o'nlab atoqli vakillari hayoti va ijodini mufassal yorituvchi ko'plab yirik tadqiqotlar, darslik, monografiya va salmoqli to'plamlarning yaratilganligi tanqid va adabiyotshunoslgimizning jiddiy



yutuqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Xalqimiz ma'naviyati va adabiy-yestetik tafakkuri rivojida ham beqiyos ahamiyatga molik bo'lgan mana shu xayrli ishlarning ham aksariyati bevosita Ozod Sharafiddinov rahnamoligi va mutasaddiligida yuzaga kelganligini va bularning evaziga sho'ro davrida keskin tazyiq va ta'na-dashnomlarga ham duchor bo'lganligini, afsuski, bugungi yoshlarimiz yaxshi bilishmaydi.

Chunonchi, istiqlol g'oyalarining yalovbardori bo'lgan jadid adabiyoti va uning Cho'lpon va Fitratdek allomalari yohud Mustafo Cho'qay, Otajon Hoshimov singari talantli namoyandalari hayoti hamda ijodini keng o'rganish va ularni xalqqa qaytarishdek ezgu ishlarda Ozod Sharafiddinov darajasida matonat va fidoyilik ko'rsatgan ijodkorlar butun respublikamizda barmoq bilan sanarli bo'lsa kerak. Zotan, Istiqlol tufayli bugun Cho'lponlarning nomlarini qo'rquv yoki hadik bilan emas, balki faxr bilan tilga olishimizda va ularni adabiyotimizning eng porloq siymolari sifatida ardoqlashimizda Ozod Sharafiddinovning xizmatlari beqiyos ekanligini endilikda har bir diyonatli olim ham, ma'rifatli kitobxonlar ham tan oladi. Ayniqsa, bu tarixiy va ilmiy haqiqat muhtaram Prezidentimiz tashabbusi hamda butun turkiy davlatlarning yakdillik bilan qo'llab-quvvatlashi bilan poytaxtimizda 2023-yil mart va dekabr oylarida Jadid adabiyoti va uning porloq namoyandalariga bag'ishlab o'tkazilgan nufuzli xalqaro ilmiy konferensiyalarda ham o'zining yorqin ifodasini topganligi ulkan tarixiy bir voqea bo'lganligini faxr bilan ta'kidlashimiz kerak. [5-(president.uz)] Bir yilda ikki marta xalqaro miqyosda yuksak mazmun va saviyada o'tkazilgan bu xalqaro ilmiy konferensiyalarning adabiyotimiz, tanqidchilik-adabiyotshunosligimiz, milliy mafkura va ma'naviyatimiz rivoji uchun ham beqiyos ilmiy-adabiy hamda tarixiy ahamiyatga ega bo'lganligini nafaqat yurtimiz adabiy jamoatchiligi, balki ushbu konferensiyalarda faol qatnashgan necha o'nlab mamlakatlarning yetakchi adiblari va olimlari ham havas hamda hayrat bilan e'tirof etdilar. Bu tarixiy anjumanlarning ulkan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-adabiy ahamiyati va samaralaridan biri sifatida 2024-yil 1-yanvardan boshlab muntazam nashr etilayotgan "Jadid" nomli yangi haftalik gazetasining respublikamiz adabiy va ma'naviy hayotida muhim bir voqea bo'lganligi ham shak-shubhasizdir.

Mazkur ro'znomada jadidlar hayoti va fidoiyligini o'rgangan olimlar uchun alohida rukn ochilganligi ham maqsadga muvofiq bo'lganini ko'rsatib o'tish lozim. Binobarin, betakror mazmun va umuminsoniy maqsad yo'lida maydonga kelgan jadid adabiyoti va uning buyuk namoyandalari hayoti hamda faoliyatini qancha tazyiq-taqiqlarga qaramasdan katta ijodiy jasorat bilan birinchilardan bo'lib, umrining oxiriga qadar yuksak ishonch-e'tiqod hamda cheksiz mehr bilan o'rgangan fidoiy olimlardan biri ham Ozod Sharafiddinov edi. Bu sohada ham ibratli ijod namunalarini yaratib ketgan ustoz olimning haqiqat nurlari bilan yo'g'rilgan asarlari yangi Renessans zaminini yaratishda ham beqiyos ilhombaxsh manba va o'ziga xos ijodiy mahorat maktabi bo'lib xizmat qilishi isbot talab etmaydi. Ozod SHarafiddinovning zabardast adabiyotshunos alloma va mohir tarjimon sifatidagi rang-barang ijodiyoti qanchalar e'tiborga loyiq bo'lsa, u kishining muharrirlik va ustoz-murabbiylik faoliyati ham shu qadar e'zoz-ehtiromga munosibdir. Olimning bu faoliyati ham alohida tadqiqotlarga mavzu bo'lishi shubhasizdir.

Adabiyotlar:

1. Ozod Sharafiddinov. Birinchi mo'jiza. T.1979.
2. Ozod Sharafiddinov. Talant xalq mulki. T. 1979.
3. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T. SHarq 2004.
4. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. T.2007.
5. Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga (president.uz) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi. 6-mart, 2023-yil.

**F.KAFKA VA V.HAMDAM ROMANIDAGI BADIY MAKON VA ZAMONNING O'ZIGA XOSLIGI: MAKONNI BO'YLAB SAYOHAT**

*Turumova Nilufar Erkinovna  
Guliston Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**F.КАФКА И В. ХАМДАМА ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ПРОСТРАНСТВО И ИДЕНТИЧНОСТЬ ВРЕМЕНИ В РОМАНЕ: ПУТЕШЕСТВИЕ ПО ПРОСТРАНСТВУ**

*Турумова Нилуфар Эркиновна  
независимый исследователь Гулистанского государственного университета*

**F.KAFKA and V. HAMDAM'S THE UNIQUENESS OF ARTISTIC SPACE AND TIME IN NOVEL: A JOURNEY THROUGH SPACE**

*Turumova Nilufar Erkinovna  
independent researcher of Gulistan State University*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Franz Kafka va Vohid Hamdam romanlarida badiiy makon va zamon tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Kafka asarlarida makon yopiq va noaniq, zamon esa mavhum va iztirobli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Hamdam romanlarida esa makon milliy-madaniy o'zlikni aks ettiruvchi, zamon esa falsafiy va tarixiy tushunchalar bilan uyg'unlashgan holda tasvirlanadi. Ikkala yozuvchining ijodida makon va zamon qahramonlarning ichki izlanishlari va hayotning mazmunini yoritishda muhim vosita sifatida ko'rsatilgan.*

*Kalit so'zlar. Badiiy makon, badiiy zamon, Franz Kafka, Vohid Hamdam, ramziy makon, tarixiy zamon, ma'naviy izlanish.*

*Annotation. This article analyzes the distinctive features of the concepts of artistic space and time in the novels of Franz Kafka and Vohid Hamdam. In Kafka's works, space is portrayed as confined and ambiguous, while time is depicted as an abstract and distressing process. In Hamdam's novels, space reflects national-cultural identity, and time is harmonized with philosophical and historical dimensions. In both authors' works, space and time serve as crucial tools for uncovering the characters' inner quests and the meaning of life.*

*Keywords. Artistic space, artistic time, Franz Kafka, Vohid Hamdam, symbolic space, historical time, spiritual exploration.*

*Аннотация. В данной статье проанализированы особенности художественного пространства и времени в романах Франца Кафки и Вохида Хамдама. В произведениях Кафки пространство изображается как замкнутое и неопределенное, а время — как абстрактный и мучительный процесс. В романах Хамдама пространство отражает национально-культурную идентичность, а время гармонирует с философскими и историческими измерениями. У обоих авторов пространство и время являются важными инструментами для раскрытия внутреннего поиска героев и смысла жизни.*

*Ключевые слова. Художественное пространство, художественное время, Франц Кафка, Вохид Хамдам, символическое пространство, историческое время, духовный поиск.*

**Kirish. Adabiyot insonning ichki dunyosini, tafakkurini va uning hayotdagi o'rini**

ifodalashning o'ziga xos ko'zgusi hisoblanadi. Har bir adibning ijodi uning zamon va makon haqidagi falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Makon va zamon adabiy asar mazmunini shakllantirishda, qahramonlar taqdirini yoritishda va o'quvchi ongiga ta'sir o'tkazishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, F. Kafka va V. Hamdam kabi yozuvchilar ijodida bu tushunchalar yangicha ko'rinishda namoyon bo'lib, chuqur ma'nolarni ifoda etadi.

F. Kafka o'z romanlarida makonni cheklangan, yopiq va mavhum bir fazo sifatida tasvirlaydi, bu esa insonning hayotdagi noaniq vaziyatlarini ochib beradi. Uning zamonga bo'lgan qarashi esa o'ziga xos suyuq va cheksizlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. V. Hamdam esa milliy-madaniy qadriyatlar va falsafiy mushohadalar orqali makon va zamonni o'z asarlarida ramziy ma'nolar bilan boyitadi. Uning asarlaridagi makon nafaqat geografik tushuncha, balki qahramonning ma'naviy olami bilan uyg'unlashgan.

Mazkur maqolada F. Kafka va V. Hamdam romanlaridagi badiiy makon va zamonning o'ziga xosliklari o'rganiladi, ularning inson ma'naviy qidiruvlariga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Makon va zamonning estetik hamda majoziy funksiyalarini ochib berish orqali ushbu adiblarning ijodiy uslubi o'rtasidagi farqlar va umumiyliklar yoritiladi.

#### Badiiy makon va zamon tushunchasining nazariy asosi

Adabiy ijodda makon va zamon tushunchalari asosiy estetik vositalar sifatida xizmat qiladi. Badiiy makon va zamon nafaqat voqealarning joylashuvi va vaqtini belgilaydi, balki ularning o'zaro bog'liqligi orqali asar mazmunini boyitadi, personajlarning ruhiy holatini va asar muhitini ochib beradi. Ushbu tushunchalarning nazariy asosi bir necha fanlar — falsafa, adabiyotshunoslik va estetika kesishmasida shakllangan.

#### Makon tushunchasi

Adabiy makon voqealar sodir bo'ladigan joyni ifodalaydi. U ikki asosiy ko'rinishda tasvirlanadi:

1. Fizik makon — bu asar voqealarining aniq joylashuvi, ya'ni geografik, muhitiy tavsifidir. Masalan, biror shaharning ko'chasi, xona yoki tabiiy manzara.

2. Ramziy yoki ruhiy makon — personajlarning ichki olamini ifodalaydigan, ularning ruhiy kechinmalarini aks ettiruvchi fazo. Bu makon ko'pincha o'quvchida o'ziga xos hissiy kayfiyat hosil qilish uchun ishlatiladi.

Adabiyotshunoslikda makon voqealar rivojining chegarasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, u ramziy yoki simvolik ma'nolar orqali asarning asosiy g'oyasini yoritadi. Masalan, Franz Kafka asarlaridagi yopiq va cheksiz makonlar insonning jamiyatdagi o'z o'rnini topishdagi muammolariga ishora qiladi.

#### Zamon tushunchasi

Adabiy zamon asardagi voqealarning davomiyligini, o'zaro bog'liqligini va ketma-ketligini belgilaydi. U quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

1. Real zamon — asardagi voqealar qandaydir tarixiy davrda yoki muayyan vaqt oraliq'ida sodir bo'ladi.

2. Mavhum zamon — vaqtning belgilangan chegaralari yo'q bo'lib, u insoniy his-tuyg'ular yoki falsafiy tushunchalar orqali ifodalanadi.

#### Zamon asar ichida ikki xil bo'lishi mumkin:

• Xronologik — voqealar muayyan ketma-ketlikda tasvirlanadi.

• Retrospektiv yoki subyektiv — voqealar vaqt tartibini buzgan holda, personajlarning xotiralari yoki his-tuyg'ulari orqali ochiladi.

Falsafiy nuqtai nazardan, zamon va makon bir-biridan ajralmasdir. Bu masalaga A. Bergson va M. Heidegger kabi faylasuflar ham e'tibor qaratib, zamonning inson hayotidagi subyektiv qabul qilish jarayonlariga ta'sirini o'rgangan.

#### Badiiy makon va zamonning funksiyalari

Badiiy asarda makon va zamon quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Kompozitsion — asar voqealarini birlashtirib, ular o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni yaratadi.

- Psixologik — personajlarning ichki olamini ochib beradi va o‘quvchiga ularning hissiy holatini tushunishga yordam beradi.

- Falsafiy — adibning makon va zamonga bo‘lgan qarashlarini, uning dunyoqarashini ifoda etadi.

Franz Kafka va Vohid Hamdam ijodida badiiy makon va zamon ko‘pincha voqealardan tashqaridagi chuqur ma‘nolarni aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Kafka makoni va zamoni inson hayotidagi absurdlik va noaniqlikka ishora qilsa, Hamdam ijodida ular milliy-madaniy va falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashadi. Ushbu tahlil makon va zamonning nazariy asoslarini chuqurroq tushunish va amaliy yondashuvlarini ochib berishga imkon yaratadi.

F. Kafka romanlarida makon va zamonning xususiyatlari

Franz Kafka asarlari o‘zining murakkab va ko‘p qirrali estetik yondashuvi bilan ajralib turadi. Uning romanlarida makon va zamon tushunchalari inson hayotining absurd va noaniq mohiyatini aks ettirish uchun ishlatiladi. Kafka yaratgan makon va zamon nafaqat voqealar sodir bo‘ladigan joy yoki vaqt, balki insonning ichki iztiroblarini va ijtimoiy tizim bilan bo‘lgan murakkab munosabatlarini ifodalaydigan majoziy vositalardir.

Makonning xususiyatlari

Kafka romanlarida makon ko‘pincha yopiq, bosim o‘tkazuvchi va ma‘nosiz tuzilma sifatida tasvirlanadi. Bu makonlar insonning ichki izlanishlari va hayotdagi noaniqliklariga ishora qiladi.

1.Makonning yopiq tabiati

Kafka asarlaridagi makonlar odatda qahramonlar uchun cheklovchi rolni o‘ynaydi. “Jarayon” romanida asosiy qahramon Jozef K doimo cheklangan va og‘ir muhitda harakat qiladi. Sud binolari, qorong‘i xonalar va tor yo‘laklar qahramonning erkinligini cheklab, uni doimiy iztirobga duchor qiladi. Bu makonlar insonning jamiyatdagi biroq o‘z o‘rnini topa olmaydigan vaziyatiga ramziy ishora qiladi.

2.Makonning noaniqligi

Kafka makonlari aniq geografik yoki fizik tavsifga ega emas. “Qal’a” romanida qal’a qayerda joylashgani noma‘lum va unga yetib borish imkonsiz. Makonning bunday noaniqligi insonning o‘zligini anglash yo‘lidagi qiyinchiliklarini aks ettiradi.

3.Simvolik makon

Kafka makonlari ramziy ma‘noga ega. Ularning har biri inson hayotidagi biror muammoni, masalan, rasmiyatchilikning g‘ayritabiyligini yoki inson erkinligining cheklanganligini ifodalaydi. Masalan, \*‘‘Qal’a’’\*dagi qal’a tizimning ilohiy, ammo yetib bo‘lmas ma‘nosini ifodalashi mumkin.

Zamonning xususiyatlari

Kafka romanlarida zamon ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u inson hayotining subyektiv qabul qilinishi va tizim tomonidan cheklanishini aks ettiradi.

1.Zamondagi suyuqlik

Kafka asarlarida zamon ko‘pincha aniqligi yo‘q, mavhum va uzluksiz oqimda tasvirlanadi. “Jarayon” romanida voqealar qachon boshlanib, qachon tugashi aniq belgilanmaydi. Bu vaqtning inson hayotidagi mavhum va boshqarib bo‘lmaydigan mohiyatini ifodalaydi.

2.Tizim va vaqt

Kafka zamoni rasmiyatchilikning cheksiz jarayonlari orqali ko‘rsatadi. Masalan, \*‘‘Jarayon’’\*dagi sud jarayoni cheksiz davom etadi va oxirida hech qanday natijaga

olib kelmaydi. Bu, o'z navbatida, zamonning inson uchun doimiy bosim bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

### 3. Vaqt va iztirob

Kafka zamonni qahramonlar uchun iztirob keltiruvchi vosita sifatida tasvirlaydi. Asarda zamon qahramonlar ustidan hukmron bo'lib, ularning ichki konfliktlarini kuchaytiradi. "Jarayon" romanida Jozef K vaqt o'tishi bilan o'z holatining yanada tushkunlashayotganini his qiladi, bu esa o'quvchida qahramonning vaqt oldidagi ojizligini tushunishga yordam beradi.

#### Makon va zamonning uyg'unligi

Kafka asarlarida makon va zamon bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Makonning yopiq va bosim o'tkazuvchi tabiati vaqtning noaniq va cheksiz davomiyligi bilan birlashib, qahramonlarning ichki iztirobini chuqurroq ochib beradi. Kafka makon va zamonni insonning mavjudlik haqidagi savollari bilan bog'lab, ularga universal va falsafiy ma'no yuklaydi.

F. Kafka romanlarida makon va zamon inson hayotining absurdligi va noaniqliklarini yorituvchi asosiy estetik vositalardir. Kafka makonni yopiq va bosim o'tkazuvchi fazo sifatida yaratib, qahramonlarning ijtimoiy va ruhiy qiyinchiliklarini namoyon qiladi. Zamon esa inson hayotining cheksiz va ma'nosiz jarayon sifatida tasvirlanib, qahramonlarni doimiy iztirobga duchor qiladi. Bu xususiyatlar Kafka asarlariga chuqur falsafiy mazmun va ramziy ahamiyat bag'ishlaydi.

#### V. Hamdam romanlarida makon va zamonning o'ziga xosligi

Vohid Hamdam o'z romanlarida makon va zamonni faqatgina voqealar sodir bo'ladigan joy yoki vaqt doirasi sifatida emas, balki qahramonlarning ma'naviy va falsafiy izlanishlarini yorituvchi muhim badiiy vosita sifatida tasvirlaydi. Uning romanlarida makon milliy-madaniy va tarixiy asosda tasvirlangan bo'lsa, zamon inson hayoti va jamiyat taqdiriga doir chuqur mulohazalar bilan uyg'unlashadi.

#### Makonning xususiyatlari

V. Hamdam romanlarida makon faqat fiziki joy emas, balki ma'naviy va ramziy mazmun kasb etuvchi tasvir sifatida namoyon bo'ladi.

#### 1. Tarixiy va madaniy makon

Vohid Hamdam asarlarida makonning tarixiy va madaniy mazmuni ustuvor ahamiyatga ega. "Boqiy darbadar" romanida tasvirlangan joylar o'tmishdagi voqealar va milliy o'zlik bilan bog'liq. Bu makonlar qahramonlar uchun nafaqat tashqi muhit, balki ularning o'z-o'zini anglash va ruhiy izlanishlari uchun muhim ma'naviy maydon vazifasini bajaradi.

#### 2. Ramziy makon

Hamdamning makon tasvirlari ko'pincha ramziy va falsafiy ma'noga ega. Masalan, cho'l, tog', shahar kabi makonlar qahramonlarning ichki dunyosi va ular duch kelgan murakkab muammolarni yoritadi. Cho'l – yolg'izlik va sinov, tog' – o'zlikni anglashga intilish, shahar esa murakkab ijtimoiy muhitni ifodalashi mumkin.

#### 3. Makonning ma'naviy-tasavvufiy mazmuni

Hamdam romanlarida makon ko'pincha ma'naviy-tasavvufiy izlanishlar uchun ramziy maydon sifatida tasvirlanadi. Qahramonlarning safarlari oddiy geografik harakat emas, balki ular uchun o'z-o'zini anglash va ma'naviy yuksalishning bir qismidir.

#### Zamonning xususiyatlari

V. Hamdam romanlarida zamon milliy o'zlik, tarixiy yodgorlik va inson hayotining ma'nosi haqidagi falsafiy savollarga javob izlashda muhim rol o'ynaydi.

#### 1. Tarixiy zamon

Hamdam romanlarida tarixiy voqealar zamoni muhim o'rin tutadi. Bu voqealar zamirida qahramonlarning shaxsiy taqdiri bilan bog'liq jarayonlar ochib beriladi.

Masalan, o'tmishning tarixiy voqealari va ular bilan qahramonning ichki dunyosi o'rtasidagi bog'liqlikni yoritish orqali yozuvchi milliy o'zlikni qidiradi.

## 2. Falsafiy zamon

Hamdamning zamon tushunchasi inson hayotining o'tkinchiligiga va abadiylik haqidagi mushohadalarga asoslanadi. "Boqiy darbadar" romanida vaqt faqat xronologik tushuncha sifatida emas, balki inson hayotining falsafiy mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Zamonning bunday tasviri qahramonlarni ichki iztiroblar va hayot mazmunini izlashga chorlaydi.

## 3. Zamon va ichki kechinmalar

Hamdam zamonni qahramonlarning ichki kechinmalari bilan bog'liq holda tasvirlaydi. Vaqt qahramonlar uchun shaxsiy rivojlanish jarayoni bo'lib, ularning o'zlikni anglashiga ta'sir qiladi. Bu asarlarida zamonning o'tkinchiligi va uning qahramonlar hayotidagi ahamiyati chuqur psixologik aspektlarda yoritiladi.

## Makon va zamonning uyg'unligi

Hamdam romanlarida makon va zamon bir-biri bilan uyg'unlashib, qahramonlarning ma'naviy qidiruvlari va ichki izlanishlarini aks ettiradi. Makon qahramonlarning ruhiy holatini, zamon esa ularning o'zini anglash jarayonini belgilaydi. Masalan, qahramonlarning bir makondan ikkinchisiga o'tishi ularning ichki o'zgarishlarini ko'rsatadi, tarixiy zamon esa bu o'zgarishlarning kontekstini beradi.

V. Hamdam romanlarida makon va zamon tushunchalari milliy madaniyat va tarixiy o'zlikni anglashga xizmat qiladi. Makon qahramonlarning ichki dunyosini va ruhiy izlanishlarini aks ettiruvchi ramziy maydon sifatida ishlatilsa, zamon inson hayotining falsafiy mazmunini ochib berishda muhim vositadir. Hamdamning makon va zamonga yondashuvi o'ziga xos bo'lib, bu uning romanlariga milliy o'zlik va ma'naviy-falsafiy chuqurlik baxsh etadi.

## Xulosa

Franz Kafka va Vohid Hamdam romanlaridagi badiiy makon va zamon tushunchalari adabiyotda inson ma'naviy izlanishlari va hayotning chuqur falsafiy ma'nosini ochib berish uchun ishlatiladigan asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Har ikkala adib ijodida makon va zamon o'ziga xos badiiy va ramziy yuklama kasb etadi, ammo ular mazmun va shakl jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Franz Kafka makonni cheklangan, yopiq va ma'nosiz fazo sifatida tasvirlaydi, bu insonning jamiyatdagi noaniqlik va rasmiyatchilik bilan bo'lgan murakkab munosabatlarini aks ettiradi. Uning zamon tushunchasi esa mavhum, cheksiz va inson uchun iztirob keltiruvchi jarayon sifatida tasvirlangan. Kafka asarlarida makon va zamon inson hayotining absurdligi va boshqarib bo'lmaydigan tabiati bilan bog'langan.

Vohid Hamdam esa makonni tarixiy, madaniy va ma'naviy izlanish maydoni sifatida tasvirlaydi. U asarlarida milliy qadriyatlar va madaniy o'zlikni namoyon qiluvchi makonlarni yaratadi. Hamdamning zamon tasviri tarixiy va falsafiy o'lchovlarga ega bo'lib, inson hayotining o'tkinchiligi va abadiylik haqidagi savollarni yoritadi. Uning romanlarida makon va zamon qahramonlarning ma'naviy o'sishi va o'zlikni anglash jarayonlarini aks ettiruvchi asosiy unsurlar sifatida xizmat qiladi.

Kafka va Hamdam asarlaridagi makon va zamon tushunchalari adabiy ijodda inson ruhiyati, hayot mazmuni va jamiyat bilan bog'liq muammolarni ifodalashda qanchalik keng imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi. Ushbu adiblarning ijodiy yondashuvlari adabiyotshunoslikda makon va zamonning ma'no va ahamiyatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kafka hayotning absurdligini, Hamdam esa milliy va ma'naviy qadriyatlarini o'z badiiy uslubi orqali o'quvchiga yetkazadi. Bu ikki yozuvchining

asarlari insoniyatning hayot haqidagi chuqur mulohazalari va falsafiy qarashlarini aks ettirishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Kafka, F. Jarayon. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2005.
- 2.Kafka, F. Qal'a. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
- 3.Hamdani, V. Boqiy darbadar. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2015.
- 4.Bergson, H. Time and Free Will: An Essay on the Immediate Data of Consciousness. New York: Dover Publications, 2001.
- 5.Heidegger, M. Being and Time. New York: Harper & Row, 1962.
- 6.Bakhtin, M.M. Forms of Time and Chronotope in the Novel. The Dialogic Imagination: Four Essays. Austin: University of Texas Press, 1981.
- 7.Соловьев, В. Смысл любви. Москва: АСТ, 1999.
- 8.Жирмунский, В.М. Проблемы художественного пространства и времени в литературе. Ленинград: Наука, 1975.

## К ВОПРОСУ ОБ ИСТОИИ ИЗУЧЕНИЯ СОБИРАТЕЛЬНЫХ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

*Тахирова Маъсуда Абдужаббаровна*

*PhD), и.о. доцента кафедры русского языка и методики преподавания  
Ташкентский Государственный Педагогический Университет имени Низами*

*Рахимова Малика*

*магистрант кафедры русского языка и методики преподавания Ташкентский  
Государственный Педагогический Университет имени Низами*

*Annotation. This article analyzes the history of studying collective nouns in the Russian language. Collective nouns express a collection of objects as a single entity, and their morphological, semantic, and pragmatic characteristics have been examined. The classification of collective nouns and their place within the linguistic system are discussed. Modern approaches are explored within the context of cognitive linguistics and functional analysis.*

*Keywords: collective nouns, Russian language, morphology, semantics, cognitive linguistics.*

## RUS TILIDAGI OTNING O'RGANILISH TARIXI MASALASI HAQIDA

*Taxirova Ma'suda Abdujabbarovna,*

*(PhD), Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, Rus tili va o'qitish metodikasi  
kafedrası dotsenti v.b.*

*Raximova Malika,*

*magistrant, Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, Rus tili va o'qitish  
metodikasi kafedrası.*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada rus tilidagi sobirательные otlarning tadqiqot tarixi tahlil qilinadi. Otlar ko'pchilik obyektlarni bitta yaxlitlik sifatida ifodalaydi va ularning morfologik, semantik hamda pragmatik xususiyatlari o'rganilgan. Maqola otlarning tasnifi va ularni lisoniy sistema doirasida tutgan o'rnini aniqlaydi. Zamonaviy yondashuvlar kognitiv lingvistika va funktsional tahlil kontekstida ko'rib chiqilgan.*

*Kalit so'zlar: otlar, rus tili, morfologiya, semantika, kognitiv lingvistika.*

## ON THE ISSUE OF THE HISTORY OF STUDYING COLLECTIVE NOUNS IN THE RUSSIAN LANGUAGE

*Tahirova Masuda Abdujabbarovna,*

*(PhD), Acting Associate Professor of the Department of Russian Language and  
Teaching Methodology, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.*

*Rahimova Malika,*

*Master's student, Department of Russian Language and Teaching Methodology,  
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.*

*Аннотация. В статье анализируется история изучения собирательных имен существительных в русском языке. Собирательные существительные выражают совокупность объектов как единое целое, и их морфологические, семантические и прагматические особенности исследованы. Рассматривается классификация собирательных существительных и их место в лингвистической системе.*



Современные подходы представлены в контексте когнитивной лингвистики и функционального анализа.

**Ключевые слова:** собирательные существительные, русский язык, морфология, семантика, когнитивная лингвистика.

## Введение

Собирательные имена существительные представляют собой особую лексико-семантическую категорию, которая отражает особенности восприятия мира и концептуализации множества объектов как единого целого. Такие слова, как молодежь, студенчество, листва, занимают важное место в системе русского языка, выполняя как номинативные, так и стилистические функции. Их уникальность проявляется в том, что они одновременно обозначают совокупность предметов или явлений и воспринимаются как единое целое, что делает их предметом исследования как семантики, так и грамматики.

История изучения собирательных существительных в русском языке насчитывает более двух столетий и охватывает разные подходы — от традиционного описательного анализа до современных когнитивных и функциональных исследований. Несмотря на значительный интерес к данной теме, в лингвистической науке сохраняются дискуссионные вопросы, связанные с определением статуса собирательных имен существительных, их границ и взаимодействия с другими грамматическими категориями, такими как число, род и одушевленность.

Актуальность изучения собирательных существительных обусловлена их ролью в передаче смысла и формировании языковой картины мира. Кроме того, их употребление в речи связано с важными прагматическими аспектами: экономией языковых средств, выразительностью и спецификой восприятия коллективных понятий. В статье будет рассмотрена история изучения данной категории, проанализированы ключевые направления исследований и обозначены перспективы их дальнейшего изучения.

## Определение

Собирательные существительные — это лексико-семантическая категория слов, обозначающих совокупность однородных предметов, воспринимаемых как единое целое. Например, слова молодежь, листва, студенчество выражают не отдельные элементы множества, а их объединение, которое осознаётся как единичный объект.

Основными признаками собирательных существительных являются:

- Семантическое единство: выражение совокупности через понятие единого целого.
- Отсутствие форм множественного числа: они, как правило, употребляются только в единственном числе (молодежь, учительство).
- Специфическое согласование с глаголами и прилагательными: часто глаголы согласуются с собирательными существительными в форме единственного числа (молодежь собралась, студенчество выступило).

## Классификация собирательных существительных

Собирательные существительные можно классифицировать на основании их семантических и грамматических особенностей.

### 1. Чисто собирательные существительные

Эти слова обозначают совокупность, не поддающуюся количественному определению или разбиению на отдельные части.

Примеры: молодежь, детвора, листва, народ.

## 2. Генерические (родовые) существительные

Используются для обозначения общих понятий или целых групп объектов.

Примеры: человечество, общество, человечина.

## 3. Собирательные существительные с суффиксами и приставками

Слова, которые приобретают собирательное значение благодаря специальным словообразовательным средствам, таким как суффиксы -ство, -ие, -ё.

Примеры: студенчество, учительство, воинство.

## 4. Собирательные существительные конкретного употребления

Эти слова обозначают конкретные группы, выделенные по определённому признаку. Например, бригада, коллектив, экипаж.

## 5. Собирательные существительные в метафорическом значении

Используются для описания совокупности предметов в переносном смысле.

Примеры: пёстрая листва (как описание множества листьев), рыболовная снасть.

Характерные признаки собирательных существительных

- Грамматические особенности: большинство собирательных существительных не имеют форм множественного числа, хотя есть исключения (народы).

- Синтаксические особенности: в предложении собирательные существительные обычно согласуются с глаголами в форме единственного числа, но могут вызывать вариативность в согласовании (большая часть молодежи пришла/пришли).

- Стилистические особенности: часто используются для придания тексту выразительности или экономии языковых средств.

Роль в языке

Классификация собирательных существительных помогает выявить их функциональное значение в языке. Они играют важную роль в создании языковой картины мира, позволяя компактно и точно выражать коллективные понятия. В дальнейшем их исследование может быть углублено через межъязыковое сопоставление и анализ в прагматическом аспекте.

История изучения собирательных имен существительных

Изучение собирательных имен существительных в русском языке имеет глубокие исторические корни и прошло несколько этапов, начиная с первых грамматических описаний и заканчивая современными когнитивными исследованиями.

### 1. Ранние этапы исследования (XVIII–XIX века)

На начальных этапах изучение собирательных существительных было фрагментарным и связано в основном с описанием русского языка в грамматиках. Первыми исследователями, упомянувшими эту категорию, были авторы ранних учебников и грамматик, такие как М. В. Ломоносов.

- М. В. Ломоносов (1755): В своих трудах Ломоносов отметил категорию слов, обозначающих множества, как часть общего описания лексики. Однако его подход носил описательный характер и не содержал глубокой классификации.

- А. А. Востоков (1820): В своих трудах Востоков впервые систематизировал некоторые особенности слов, обозначающих совокупности.

Yuqoridagi misolda "o'ho'" undovi yakka o'zi gap hosil qilgan bo'lsa, navbatdagi misolimizda gap tarkibida kelib yana bir boshqa mazmunni ifodalagan:

Mudarris: O'ho', biz Buxoro ulamosi arab tilini arablarning o'zidan ham yaxshiroq bilamiz. [5:61]

Navbatdagi misolimizda "bale" undovining xursandchilik kayfiyatida aytilayotganini sezamiz:

Farangi: Bale, bale! Azbaroyi halol, binobarin, jadid maktabining lozim ekanligiga shu hadis kifoya qiladi. [5:73]

Keyingi mezon tavsifida muallifning o'ziga xos uslubi, muloqot strategiyasi va til birliklarini pragmatik omillarga mutanosib qo'llanishi bilan bog'liq xususiyatlarni o'rganiladi. Masalan, Fitratning bir qancha she'rlarida til nuqtayi nazaridan mukammal ishlangan mumtoz badiiyat namunalari qatorida tura oluvchi asarlardan bo'lib, umumxalq tili va o'sha davr uchun yangilik bo'yog'i sezilib turgan neologizmlardan foydalanish mahoratining betakror namunasi sanaladi. Tilshunoslikda erkalash-suyish, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, hurmat-e'zozlash kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar sanaladi. Masalan: arslonlar o'lkasi, millatning saodati, baxti ("O'gut"), ma'rifat nuri ("O'qutg'uvchilar yurtiga"), ishqning eng nozli, erka, injiq yog'dusi, ma'shuq ("Shoir"), Erka malak, nozli quyosh, umidimning guli ("Achchig'lanma, degan eding"), munisim, hamdamim, madadkorim ("Go'zalim, bevafo gulistonim"), qip-qizil gulim, yop-yorug' oyim, mungli ko'nglumning podishosi, ko'nglimning buti yo xudosi ("Kim Deyay Seni?"), Qizil gulim, qora ko'zim, tilagim ("Bir oz kul"), Ey arslonlar arsloni, yo'lbars yurakli bolalar, tog' g'aydali o'g'lonlar ("Yurt qayg'usi") kabi. Bu misollar Fitrat she'rlarida uchragan shaxsiy topilmalarimiz hisoblanadi.

Nafrat, g'azab, kinoya, kesatiq, jirkanish, manmanlik, mensimaslik, kibrlilik, masxara kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi so'zlar esa salbiy ma'no qirrasiga ega so'zlar sirasiga kiradi. Fitrat she'rlarida ham bundan leksikalarni uchratamiz. Masalan: maymun, tulki, ilon, shayton, aldovchi mal'un Anglizlar, hamda uning quyrug'ini tutkanlar! ("Qor"), o'ksuzlangan tilak, yo'qsul jon ("Yana yondim"), g'arbli olbosti ("Sharq"). Bular esa shoirning she'rlarida ishtirok etgan salbiy ottenkali so'zlar asosidagi shaxsiy topilmamizdir.

Bu kabi nozik ma'nolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi. "Poetik morfologiyaning tadqiq doirasi ulardan biri o'ziga xos qo'llangan affikslar poetik tadqiqi jarayonida, avvalo, turli leksik-grammatik kategoriyalar jihatidan bo'linishi hisobga olinadi" [4:75-77]

Badiiy asarda qo'llanilgan morfologik parallelizm yoki har qanday tasviriy-ifodaviy vositani qayd etish yoki mavjudligini ta'kidlashning o'zi yetarli bo'lmaydi. Asl maqsad shu tarzda tasviriy vositalar yoki badiiy san'atlar yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni qay darajada ravon, qulay, jozibador yoxud san'atkorona ifodalashiga xizmat qilganini aniqlashga qaratilishi lozim. Aks holda, bu jo'n va zerikarli mashg'ulotga aylanadi. Badiiy tasvir vositalari o'z nomi bilan badiiyatga xizmat qiluvchi vositalardir. Ular biz uchun qidirib topilishi shart bo'lgan narsa yoki asosiy maqsad emas. Uslubiyga misol:

Mudarris: Choy sovudi. Siz juda g'avg'ochi ekansiz. [5:52]

Morfologik birliklarning alohida estetik maqsad bilan she'riy nutqda parallel ravishda qo'llanilishi ko'p kuzatiladi.

Meni behuda tashlading ketding,

Nega o'ldirmading-da, tashlading ketding. [5:4]

Nasriy matnda ham morfologik (sintaktik) parallelizm bor. Quyidagi misolda "yo'q" so'zining takroridan o'ziga xos nutqiy izchilliklik hamda mazkur modal so'z shakli orqali qat'iy inkorlik belgisiga ega bo'lgan barqaror butunlik hosil qilingan:

Farangi: Yo'q, yo'q aslo! Men bunday deb taklif qilsam, magar sizning yurtingizda jo'g'rofiya o'qimaydirmi? [5:47]

Quyidagi gapda esa "yo'q" so'zi takrori orqali o'z-o'ziga murojaat qilib, muallif o'zi bergan savolni o'zi kuchli tarzda inkor qilish orqali biroz o'ziga tasalli bermoqchi:

Farangi: ... Shunday ekan agar hazrati ulamolar agar tekin dars aytsalar, otasining hammoli yo pochchasining shogirdlari bo'lib qoladilarmi? Yo'q, yo'q! Ular o'z haqlarini olganlar, endi iftitoh haqini olmasliklari lozim. [5:56]

"Ha" so'zi takrori asosida ham ekspressiya yuzaga kelganini kuzatamiz. Bunda

mutloq tasdiqlilik belgisi ifodalangan, ya'ni tasdiqlilik belgisini kuchliroq tarzda ta'kidlash orqali so'zlovchi tinglovchini o'z gapiga ishontirmoqchi (ya'ni bu mavzuda boshqa savol berilishini istamayapti) :

Farangi (o'ta ajablangan holda):Mudarris, ochiqroq gapiring, ya'ni bu jadid maktabini sizning Buxorogizda ochgan edilar-u, ulamolar qo'ymadilarmi?

Mudarris: Ha, ha! ... [5:69]

“Qachong‘acha” va “ilm” so‘zlarining takrori orqali ham juda go‘zal ekspressiya hosil bo‘lganini kuzatamiz:

Farangi: ... Janobi mudarris, axir insof qiling, bu ilmsizlik qachong‘acha, bu nodonlik qachong‘acha?! Ilm mulk-mamlakat odobligining sababchisidir. Ilm millat taraqqiysining boisidir. Ildirki, Amriqo vahshiylarining qaynashini ushbu darajadagi takomul va buyuklik martabasiga yetkazgan. Ildirki, Eron zaminida ziyolilarni yo‘q qilmoqchi bo‘lg‘an ikki otni tanazzul va zillat chohiga qulatg‘an. Ildirki, bir siqim ingliz oroli egalarini Hind, Misr, Belujiston va Arabistonning bit qismig‘a farmon e‘lon qilg‘an... [5:62]

Xulosa

Yuqorida fikr va tilshunoslar qarashlari hamda ular asosida berilgan misollar Abdurauf Fitratning davr adabiy tilini shakllantirish va takomillashtirish borasidagi pragmatik qarashlari o‘zbek tilshunosligining XIX asr oxiri XX asr boshlari davriga oid mavjud nazariy fikrlarni boyitishga xizmat qilganini isbotlaydi. Yana adibning o‘zbek tilshunosligida dramatik va lirik uslubga xos bo‘lgan hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash, o‘quvchini bunga ishontirish hamda shu maqsadga muvofiq holda tilning lug‘aviy birliklaridan foydalanish kabi lisoniy me‘yorlarning shakllanishidagi xizmatini ham ko‘rsatib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Темиргазина З.К. Современные теории в отечественной и зарубежной лингвистике.- Павлодар. 2002. – с. 65-96-97. Ахrorov A. Lingvopragmatika. O‘quv qo‘llanma. “Lesson Press” MCHJ nashriyoti, 2023. – 5-10-b.
2. Ўзбек тили лексикологияси. - Тошкент: Фан, 1987. – 160 б.
3. «Шарқ юлдузи» журнали.- Тошкент, 1991.– 6 сон. – 22 б.
4. Рихсиева Г. Нисбат шаклларилинг лингвопоэтик тадқиқига доир.// Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, 2-сон. – Б. 75-77.
5. Фитрат. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. –4-, 47-, 52-, 56-, 57-,60-, 61-,63-, 69-,70-, 73-б.

## ARAB ARTIKLLI SO‘ZLARNING TARKIBGA AJRATILISHI VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI (2-QISM)

Nodirbek Nosirjon o‘g‘li Xabibillayev

*Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan artiklli so‘zlarning ayrimlari izohli lug‘at hamda imlo lug‘atdan foydalangan holda yig‘ib chiqilib alohida-alohida tahlil qilindi. Bizdan oldin ham bunday so‘zlarning tarkibga ajratilishi borasida fikrlar berilgan bo‘lib, so‘zlarning tarkibga ajratilishidagi o‘zbek tamoyiliga mos kelmagani sabab ular qayta tahlil qilindi. Muallif bunday so‘zlar tarkibidagi artiklning ajratilmasligini ma‘qullaydi. Buni aniq dalillar asosida maqola davomida isbotlaydi.*

*Kalit so‘zlar: artikl, morfema, qo‘shimcha, yaxlitlanish, arab artiklli so‘zlar, so‘z tarkibi.*

## РАЗДЕЛЕНИЕ СЛОВ С АРАБСКИМИ АРТИКЛЯМИ НА СОСТАВНЫЕ ЧАСТИ И АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ИЗ НИХ (ЧАСТЬ 2)

Нодирбек Насиржон угли Хабибуллаев

*Исследователь Наманганского государственного педагогического института*

*Аннотация: в данной статье некоторые слова статьи, заимствованные из арабского языка в узбекский язык, были собраны и проанализированы отдельно с использованием толкового словаря и орфографического словаря. До нас высказывались мнения о разделении таких слов на содержание, и они были проанализированы повторно, поскольку не соответствовали узбекскому принципу разделения слов на содержание. Автор утверждает, что статью, содержащую такие слова, не следует выделять. Это доказывается на протяжении всей статьи на основе четких доказательств.*

*Ключевые слова: артикль, морфема, сложение, округление, арабские артикльные слова, структура слова.*

## SEGMENTATION OF ARABIC ARTICLE-CONTAINING WORDS AND ANALYSIS OF SOME OF THEM (PART 2)

Nodirbek Nosirjon o‘g‘li Xhabibullayev

*Researcher at Namangan State Pedagogical Institute*

*Abstract: in this article, some of the article words adopted from Arabic into the Uzbek language were collected and analyzed separately using an explanatory dictionary and a spelling dictionary. Before us, opinions were given about the division of such words into content, and they were reanalyzed because they did not correspond to the Uzbek principle of division of words into content. The author approves that the article containing such words should not be separated. It proves this throughout the article based on clear evidence.*

*Key words: article, morpheme, addition, rounding, Arabic article words, word structure.*

**KIRISH.** Bunday guruh tarkibiga kiruvchi so‘zlar arab tilidan kirgan bo‘lib, tarkibiy qimida al, ul, il (bundan tashqari, artikllar shamsiy harflar oldidan kelganida keyingi undoshga qarab o‘zgarishi ham mumkin. Masalan, assalom, at-Termiziy singari) kabi qismlar bo‘lishi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, bunday morfemalar o‘zbek tilida ham mavjud. Ularni arab artiklli so‘zlardan farqlash lozim. Masalan, -al morfemasini

olaylik. Fundamental, instrumental, gorizontal kabi soʻzlarda bu morfema sifat yasash vazifasini bajarmoqda. Ammo alkimyo, alhol, alhosil, almisoq, alqissa soʻzlarida esa, arab tilidagi aniqlik artikli hisoblanadi. Tarkibga ajratishdagi bugungi kunning asosiy manbalariga aylanib qolgan ayrim kitoblarda bunday soʻzlarning asos va qoʻshimchalarga ajratilishiga guvoh boʻlamiz. Masalan, nafs-il-amr , al/xim/ik, al/ximiya kabilar.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oʻzlashma soʻzlar qaysi tildan kirib kelgan boʻlsa, oʻsha til xususiyatidan kelib chiqib tarkibga ajratiladigan boʻlsa, nafaqat oʻzbek tiliga, balki bu boshqa tillardagi soʻzlarning ham tarkibga ajratilish borasidagi rivojiga jiddiy salbiy taʼsir koʻrsatadi. Oʻylab koʻring: rus tilidan kirib kelgan soʻzlarni rus tili qoidalaridan kelib chiqib, arab tilidan kirib kelgan soʻzlarni arab qoidalaridan kelib chiqib, fors tilidan kirib kelgan soʻzlarni fors tili qoidalaridan kelib chiqib tarkibga ajratilaverilishi jarayonni ancha murakkablashtirib, soʻngida ishning mantiqsizligigacha taqab qoʻyishi mumkin. Shu sabab oʻzlashma soʻzlarning ham tarkibga ajratilayotganida asos va qoʻshimchalarga ajratilish borasidagi oʻzbek tilidagi yagona tamoyilga asoslanilishi vaziyatni ancha yengillatadi. Yaʼni asos deb hisoblanilayotgan qism mustaqil leksik maʼno anglatishi kerak. Qoʻshimcha deb hisoblangan qism esa, yana boshqa soʻzlarga ham qoʻshilib oʻzining xususiy grammatik va leksik maʼno(lar)ini qoʻsha olishi kerak. Shundagina tarkibga ajratish borasida aniq tizim ishlay oladi deyishimiz mumkin. Quyida arab artikli soʻzlarning tahlili berilgan.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Baytulhazan (baytulahzon) soʻzi tarkibidagi bayt soʻzi haqida yuqorida toʻxtalib oʻtdik. Hazan yoki ahzon soʻzi arab tilida gʻam-gʻussa, hasrat kabi maʼnolarni anglatadi. Ul- artikli ushbu soʻzda ham ikki leksemani bir-biriga bogʻlash vazifasini bajarmoqda. Shunday qilib, baytulahzon soʻzi gʻam-gʻussa uyi, gʻamxona, gʻam-hasrat uyi kabi maʼnolarni anglatadi.

Baytutmol soʻzi tarkibidagi bayt soʻzi haqida yuqorida toʻxtalib oʻtdik. Mol soʻzi oʻzbek tilida ham arab tilidagi kabi boylik, mulk maʼnolarini anglatishi mumkin. Ul- artikli ushbu soʻzda ham ikki leksemani bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qilmoqda. Demak, baytutmol soʻzi mol-mulk uyi, xazina joylashgan makon maʼnolarini anglatadi.

Baytumuqaddas soʻzi tarkibidagi bayt soʻzi haqida yuqorida toʻxtalib oʻtdik. Muqaddas soʻzi oʻzbek tilida ham pok, toza, aziz, ilohiy, oliyanob kabi maʼnolarni anglatadi. Ul- artikli ushbu soʻzda ham ikki leksemani bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qilmoqda. Shunday qilib, baytumuqaddas soʻzi pok, toza, aziz uy, ilohiy makon kabi maʼnolarni anglatadi.

Dorulaxloq (dorilaxloq) soʻzi tarkibidagi dor qismi arab tilida uy, makon maʼnolarini anglatadi. Ammo oʻzbek tilida shu maʼnoda mustaqil qoʻllanmaydi. Axloq soʻzi xulq soʻzining koʻplik shakli hisoblanadi. Oʻrtada kelayotgan ul- artikli yana ikki leksemani bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qilmoqda deyish mumkin. Shunday qilib, dorulaxloq soʻzi xulqlarning makoni maʼnosini anglatadi.

Dorulbaqo (dorilbaqo) soʻzi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida toʻxtalib oʻtdik. Baqo soʻzi oʻzbek tilida mustaqil qoʻllana oladi va arab tilidagi kabi abadiylik, mangulik, davomlilik kabi maʼnolarni anglatadi. Ul- artikli ushbu soʻzda ham ikki leksema oʻrtasida kelib ularni bir-biriga bogʻlash vazifasini bajarmoqda. Dorulbaqo soʻzi boqiylik makoni, yaʼni narigi dunyo maʼnosini anglatadi.

Dorulfano (dorilfano) soʻzi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida toʻxtalib oʻtdik. Fano soʻzi oʻzbek tilida oʻlim, yoʻq boʻlish, halokat kabi maʼnolarni anglatadi. Ul- artikli ushbu soʻzda ham ikki leksema oʻrtasida kelib ularni bir-biriga bogʻlash vazifasini bajarmoqda. Dorulfano soʻzi oʻlim makoni, yaʼni bu dunyo maʼnosini anglatadi.

Dorulfazol (dorilfazl) soʻzi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida toʻxtalib oʻtdik. Fazl



so'zi o'zbek tilida qadr-qimmat, obro', sharaf, ijobiy xislat, fazilat, afzallik, ustunlik kabi ma'nolarni anglatadi. Ul- artikli ushbu so'zda ham ikki leksema o'rtasida kelib ularni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Shunday qilib, dorulfazl so'zi qadr-qimmat, Sharaf uyi, ijobiy xislatlar makoni kabi ma'nolarni anglatadi.

Dorulfunun (dorilfunun) so'zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Funun so'zi arab tilida fan so'zining ko'pligi hisoblanadi. Fan so'zi erkin kasb, bilim, tarmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Ul- artikli ushbu so'zda ham ikki leksema o'rtasida kelib ularni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Dorulfunun so'zi fanlar makoni deya so'zma-so'z tarjima qilinadi. Lekin ushbu so'zning bugungi kunda oliy ta'lim muassasalariga nisbatan ishlatilishi odat tusiga kirgan.

Dorulharb (dorilharb) so'zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Harb so'zi arabcha so'z bo'lib, urush, jang kabi ma'nolarni anglatadi. Ul- artikli ushbu so'zda ham ikki leksema o'rtasida kelib ularni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Dorulharb so'zi jang makoni ma'nosida keladi.

Dorulhikma (dorilhikma) so'zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Hikma so'zi arab tilida hikmat, bilimdonlik kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu so'z o'zbek tilida mustaqil holatda qo'llanmaydi. Ul- artikli ushbu so'zda ham ikki leksema o'rtasida kelib ularni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Dorulhikma so'zi hikmat, bilimdonlik uyi ma'nosida keladi.

Dorulislom (dorilislom) so'zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Islom so'zi arab tilida bo'ysunish ma'nosini bildirish bilan birga bu keng tarqalganligi jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi dinning nomi ma'nosida ham ishlatiladi. O'zbek tilida ushbu so'z Allohga sig'inish, itoat ma'nosini bildiribgina qolmay, dinning nomi ma'nosida ham ishlatiladi. Ul- artikli ushbu so'zda ham ikki leksema o'rtasida kelib ularni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Demak, dorulislom so'zi islom (Allohga sig'inish, itoat) uyi ma'nosini anglatadi.

Dorulmuallimin (dorilmuallimin) so'zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Muallimin so'zi arab tilida Muallim so'zining ko'pligi ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida muallimin shaklida mustaqil ishlatilmaydi. Ul- artikli ushbu so'zda ham ikki leksema o'rtasida kelib ularni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Shunday qilib, dorulmuallimin so'zi muallimlar uyi ma'nosida keladi.

Dorulqazo (dorilqazo) so'zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Qazo so'zi o'zbek tilida mustaqil qo'llana oladi va huquqshunoslik, sud ishlari kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'zning o'lim ma'nosi ham bor. Qazo qilmoq so'zi o'lmoq ma'nosida keladi. Ammo dorulqazo so'zidagi qazo so'zi qozi, huquqshunos mazmunida ekani ushbu so'zning umumiy ma'nosidan anglashiladi. Ul- artikli ushbu so'zda ham ikki leksema o'rtasida kelib ularni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Dorulqazo so'zi qozixonona mazmunini aks ettiradi.

Dorululum (dorilulum) so'zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Ulum so'zi arab tilida ilm so'zining ko'pligi mazmunida ishlatiladi. Ulum so'zi o'zbek tilida ham arab tilidagi kabi ilmning ko'pligi mazmunida ishlatilishi mumkin. Ul- artikli ushbu so'zda ham ikki leksema o'rtasida kelib ularni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Dorululum so'zi ilmlarning makoni mazmunida ishlatiladi.

Dorulxalofat (dorilxalofat) so'zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Xalofat so'zi xalifalik ma'nosida keladi. Ushbu so'z o'zbek tilida xalifalik shaklida mustaqil qo'llansa-da, xalofat shaklida mustaqil ishlatilmaydi. Ul- artikli ushbu so'zda ham ikki leksema o'rtasida kelib ularni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. So'zma-so'z tarjima qilinganida ushbu so'z xalifalik eshigi mazmunini anglatadi. Ammo mazkur so'z dorulxalofat holatida poytaxt mazmunida ishlatiladi.

Dorussalom (dorissalom) so'zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to'xtalib

o‘tdik. Bunda kelayotgan leksema salom hisoblanib, ushbu so‘z haqida ham yuqorida batafsil to‘xtalib o‘tdik. Us- qismi arab artikli hisoblanib, bundan keyin kelayotgan salom so‘zining birinchi undoshi shamsiy harf hisoblanganligi uchun ul- artiklidagi “l” tovushi keyingi tovushga moslashashib “s” ko‘rinishini olgan. Ushbu so‘z salomatlik uyi ma’nosida so‘zma-so‘z tarjima qilinadi. Qur’oni Karimda ham bu kalomni uchratish mumkin va u Jannat ma’nosini anglatadi.

Dorussaltanat (dorissaltanat) so‘zi tarkibidagi dor va us- qismlari haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Bu so‘zda leksema vazifasini bajarayotgan qism saltanat hisoblanib, u o‘zbek tilida shu ko‘rinishda mustaqil qo‘llana oladi. Dorussaltanat ko‘rinishida ushbu so‘z saltanat poytaxti, hukmdor qarorgohi ma’nolarida ishlatiladi.

Dorussulh (dorissulh) so‘zi tarkibidagi dor va us- qismlari haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Bu so‘zda leksema vazifasini bajarayotgan qism sulh hisoblanib, u o‘zbek tilida shu ko‘rinishda mustaqil qo‘llana oladi. Bu ibora “sulh diyori” degan ma’noni anglatib, dastlab musulmonlar tomonidan olib borilgan fathlar chog‘ida ma’lum soliq to‘lash evaziga g‘ayridinlarning huquqiy holatini kafolatlash bo‘yicha sulh shartnomasi tuzilgan o‘lkaga nisbatan ishlatilgan. So‘nggi asrlarda “Islom diyori”lari bilan ko‘p tomonlama yoki ikki tomonlama shartnoma tuzgan hudud (boshqa din vakillari yashaydigan diyori) larga nisbatan “dorus sulh”, “doru‘l ahd”, “doru‘l muohada” yoki “doru‘l muvoda’a” kabi iboralar qo‘llanilmoqda. Bu iboralarning istilohiy ma’nolari yaqin bo‘lib, ularning negizida “Islom diyori”lari bilan bilan o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, do‘stona aloqa o‘rnatishlari hamda urush qilmasliklari kabi tamoyillar aks etgan.

Dorushshifo (dorishshifo) so‘zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Bunda kelayotgan leksema shifo hisoblanib, ushbu so‘z o‘zbek tilida mustaqil qo‘llana oladi. Ush- qismi arab artikli hisoblanib, bundan keyin kelayotgan shifo so‘zining birinchi undoshi shamsiy harf hisoblanganligi uchun ul- artiklidagi “l” tovushi keyingi tovushga moslashashib “sh” ko‘rinishini olgan. Dorushshifo ko‘rinishida ushbu so‘z so‘zma-so‘z tarjima qilinganida shifo maskani, shifo kabi ma’nolarni anglatadi. Ushbu so‘z shifoxona mazmunida bugungi kunda ishlatiladi.

Dorulamon so‘zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Bunda kelayotgan leksema amon (omon) hisoblanadi. Bu leksema amon holatida o‘zbek tilida mustaqil qo‘llanmasa-da, omon ko‘rinishida uchraydi. Ul- artikli ushbu so‘zda ham ikki leksema o‘rtasida kelib ularni bir-biriga bog‘lash vazifasini bajarmoqda. Dorulamon so‘zi so‘zma-so‘z tarjima qilinganida osoyishtalik uyi ma’nosida keladi. Bugungi kunda tinchlik, osoyishtalik hukm surgan joyga nisbatan ushbu so‘z ishlatiladi.

Dorulhazb so‘zi tarkibidagi dor qismi haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Ul- artikli ushbu so‘zda ham ikki leksema o‘rtasida kelib ularni bir-biriga bog‘lash vazifasini bajarmoqda. Hazb so‘zi o‘zbek tilida mustaqil qo‘llanmaydi. Dorulhazb so‘zi imlo lug‘atda mavjud, ammo izohli lug‘atda bu so‘z izohlanmagan. Arab tilidan kirib kelgan ushbu so‘zni ahzob, hizb kabi so‘zlar bilan bir asosga ega deyish mumkin. Bu so‘zlar arab tilida yig‘ilish, jamoa ma’nolarida ishlatiladi. So‘zma-so‘z tarjima qilinsa, yig‘ilish joyi, jamoalar birlashadigan makon kabi ma’nolarni anglatishi mumkin. Bu so‘z bugungi kunda siyosiy partiya ma’nosida ishlatiladi.

Malikul-kalom so‘zida ikki leksema kelgan bo‘lib, bular malik va kalom so‘zlaridir. Malik podshoh ma’nosida, kalom so‘z ma’nosida o‘zbek tilida ham mustaqil qo‘llana oladi. Ul- artikli ushbu so‘zda ham ikki leksema o‘rtasida kelib ularni bir-biriga bog‘lash vazifasini bajarmoqda. Malikul-kalom so‘zi so‘z podshohi kabi so‘zma-so‘z tarjima qilinadi. O‘tmishda yuksak qobiliyat, badiiy poetik mahorat egasi, shu sohada yetakchi mavqe va obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan shoir va yozuvchilarga berilgan unvon hisoblanadi.

Malikush-shuaro so‘zida ikki leksema kelgan bo‘lib, bular malik va shuaro so‘zlaridir.

Malik soʻzi haqida yuqorida toʻxtalib oʻtdik. Shuaro soʻzi arab tilida shoir soʻzining koʻplik shakli hisoblanadi va oʻzbek tiliga mana shu holatida kirib kelgan. Ush qismi arab artikli hisoblanib, bundan keyin kelayotgan shuaro soʻzining birinchi undoshi shamsiy harf hisoblanganligi uchun ul artiklidagi “l” tovushi keyingi tovushga moslashashib “sh” koʻrinishini olgan. Malikush-shuaro soʻzi soʻzma-soʻz shoirlarning podshohi maʼnosini anglatadi. Oʻtmishda Sharqda eng mahoratli, oʻtkir shoirlarga berilgan unvon va saroyda shunday shoirga berilgan amal maʼnosida ishlatiladi.

Nafsilamr soʻzida ikki leksema kelgan boʻlib, bular nafs va amr soʻzlaridir. Oʻzbek tilida ikkisi ham mustaqil qoʻllana oladi. Nafsilamr soʻzi haqiqatga mos, toʻgʻri maʼnolarida ishlatiladi.

#### XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, arab artiklli soʻzlarni oʻzbek tilida koʻplab uchratish mumkin. Arab tilida ushbu artikllar bir necha maqsadlarda ishlatilsa-da, oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlar tarkibidagi artikllar deyarli bir xil vazifani bajarish uchun, yaʼni soʻzlarni bogʻlash uchun xizmat qilayotganini yuqoridagi soʻzlar tahlili misolida koʻrib oʻtdik. Ular soʻzning boshida va ikki leksema oʻrtasida kelishi mumkin. Ushbu soʻzlarning qismlarga boʻlib tahlil qilinishi esa shu guruh soʻzlarining maʼnosini yanada aniqroq tushunilishiga yordam beradi.

#### REFERENCES:

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi Oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Tamaddun, 2022.
2. Xojiev A. Hozirgi ўzbek tili da forma yasali shi. – Toshkent: Ўқитувчи, 1979.
3. Mengliyev B., Xoliyorov Oʻ. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. – Toshkent: Fan, 2008.
4. Сапаев Қ. Hozirgi ўzbek tili. – Toshkent: 2009.
5. Тожиєв И. Ўзбек тили морфемикаси. – Toshkent: 1992.
6. Ogli, Nodirbek Khabibillayev Nosirjon. «ANALYSIS OF SOME WORDS IN UZBEK WITH COMPLEX MORPHOLOGICAL COMPOSITION.» Next Scientists Conferences. 2024.
7. Nosirjon Oʻgʻli, Nodirbek Khabibullaev. «ANALYSIS OF SOME WORDS IN UZBEK LANGUAGE THAT ARE DIFFICULT TO SEGMENT.» International Scientific and Current Research Conferences. 2024.
8. Nosirjon oʻgʻli, Xabibullayev Nodirbek. «ANALYSIS OF SOME WORDS WHICH ARE DIFFICULT TO DISTRIBUTE INTO UZBEK LANGUAGE.» International journal of artificial intelligence 4.03 (2024): 592-594.
9. Habibullayev, Nodirbek Nosirjon OʻGʻLi. «Qozoq Va Oʻzbek Tilidagi Modal SoʻZlar ChogʻIshtirmasi.» Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.5 (2023): 27-33.

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ATAMA VA TERMINOLOGIYANI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

*Haydarova Dilafruz Zakirovna,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Ispan tili nazariy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Maqolada terminologiyaning asosiy muammolarini o'rganish tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri ekanligi ta'kidlangan. Bunda muallif terminologiya mustaqil ilmiy fan sifatida alohida ilmiy yo'nalishlarning rivojlanishi natijasida bosqichma-bosqich rivojlanib, keyinchalik ularning sintezi natijasida vujudga kelganligini e'tirof etilgan.*

*Kalit so'zlar: tilshunoslik, faoliyat, mutaxassis, terminologiya, atama, tushuncha, atamashunoslik*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИЗУЧЕНИЯ ТЕРМИНОВ И ТЕРМИНОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

*Хайдарова Дилафруз Закировна  
Узбекский государственный университет мировых языков  
Старший преподаватель кафедры теоретических наук испанского языка*

*Аннотация. В статье утверждается, что изучение основных проблем терминологии является одной из важнейших задач языкознания. При этом автор признавал, что терминология как самостоятельная научная дисциплина постепенно развивалась в результате развития отдельных научных направлений, а затем возникла в результате их синтеза.*

*Ключевые слова: языкознание, деятельность, эксперт, терминология, термин, понятие, терминология.*

## THEORETICAL FOUNDATIONS AND MAIN DIRECTIONS OF THE STUDY OF TERMS AND TERMINOLOGY IN MODERN LINGUISTICS

*Khaydarova Dilafruz Zakirovna  
Uzbek State University of World Languages  
Senior Lecturer, Department of Theoretical Sciences of the Spanish Language*

*Annotation. The article states that studying the main problems of terminology is one of the most important tasks of linguistics. In this, the author recognized that terminology as an independent scientific discipline gradually expanded because of the development of separate scientific directions, and then emerged because of their synthesis.*

*Key words: linguistics, activity, expert, terminology, term, concept, terminology*

*Kirish. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida terminologiya muammolarini o'rganish tilshunoslikning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda terminologiya aloqa sohasida yetakchi o'rinni egallaydi va axborot manbai, tajribani rivojlantirish vositasi va hatto ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish vositasi ham hisoblanadi. Kundan-kunga rivojlanib borayotgan XXI asrda har bir shaxs o'zining kasbiy malakasiga qarab baholanadi. Shunga ko'ra, mutaxassis o'z kasbiy faoliyatida samarali muloqot qilish uchun ma'lum bir professional tilning yuqori darajadagi tashuvchisi bo'lishi kerak. Terminologiya lug'atning tashqi ta'sirlarga juda sezgir bo'lgan qismidir. Ayniqsa, terminologiyada jamiyatning tilga ta'siri yaqqol namoyon bo'lib,*

bu davlatlarning tarixiy rivojlanishi, shakllanishi bosqichlarini o'rganish, sivilizatsiya turlarini tahlil qilish, ularning madaniy, ilmiy-texnikaviy salohiyatini aniqlash imkonini beradi.

Ma'lumki, kasbni egallash kasb tilini o'rganish, shu bilan birga tushunchalar va ularni ifodalovchi atamalar tizimini o'zlashtirish bilan amalga oshiriladi. Hozirgi zamon atamashunosligi tom ma'noda keng va murakkab atamalar tizimi hisoblanib, bir necha yuz ming so'z va so'z birikmalarini o'z ichiga oladi. Fan, texnika, ishlab chiqarishning har qanday sohalarida ham muvaffaqiyat bilan ish olib borish uchun mutaxassis o'sha sohaga tegishli maxsus leksikani, ya'ni atamani to'g'ri tushunishi va qo'llashi zarur.

Atamaning asosiy vazifasi ilmiy tushunchani bir ma'noda aniq ifodalab berishdan iborat. Kundalik turmushda ishlatiladigan so'zlardan farqli o'laroq, ilmiy tushunchaga definitsiya (lotincha – definito) yoki qisqacha tushuntirish qo'shimcha ravishda yoziladi. Definitsiyada ilmiy tushunchaning ba'zi bir muhim tomonlari ochib beriladi.

Ilmiy tushuncha mohiyatini bilish, bu bir tushunchani ikkinchisi bilan bog'lay bilish – fanning tushunchalar tizimida uning o'rnini belgilab berish demakdir. Ma'lum bir fan, atamashunosligi tushunchalar tizimidagi ilmiy tushunchani ifodalashda o'zaro bir-biri bilan aloqada va munosabatda turgan nomlar, so'zlar, so'z birikmalari tizimidir. Atamashunoslik lug'atning boshqa qatlamlaridan farq qilib tartibga, normaga solish predmeti hamdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Terminologiya tilshunoslikning atamalarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi bo'limidir. Tadqiqotchilar orasida qabul qilingan fikr shundan iboratki, atamashunoslik mustaqil ilmiy fan sifatida alohida ilmiy yo'nalishlarning avtonom rivojlanishi natijasida asta-sekin rivojlanib, so'ngra ularning sintezi natijasida paydo bo'lgan. 18-19-asrlarda kimyogar A.L.Lavuazye, tabiatshunos K.Linney, tabiatshunos M.V. Lomonosov, faylasuf-Gusserl kabi mashhur olimlar fan va atamashunoslik bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligiga mustaqil ravishda kelishib oldilar. 20-asrda atamaning mohiyatini o'rganish uchun A. S. Gerd, V. P. Danilenko, A. Y. Shaykevich kabi filologlar ham jalb qilingan. Hozirgi vaqtda atama tushunchasi, uning lingvistik-semantik xususiyatlari va mazmunini ochib beruvchi qator tadqiqotlar mavjud. Zamonaviy terminologik tadqiqotlarda atamalarining murakkab tuzilishi alohida ta'kidlanadi, bu ko'p qirrali va ko'p qirrali terminologik tahlilni nazarda tutadi. Ayrim mualliflar hatto atamalarining umumiy nazariyasini yaratish g'oyasini ham ilgari surdilar, biroq hozirgacha atamalarini alohida tilshunoslik fani sifatida tadqiq qilishga urinishlar ijobiy natija bermadi. "Terminologiya"ni yangi fan sifatida yaratish tarafdorlaridan biri A.D. Xayutin bo'lib, 1970-yillarning boshlarida ushbu yo'nalish rivojlanishining uchta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatdi:

- terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari umumiy tilshunoslik tamoyillariga asoslangan tizim sifatida belgilanadi;

- terminografiya ma'lum bir soha uchun terminologik lug'atlarni tuzish uchun qarama-qarshi tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

- muayyan tillarda yoki ma'lum sohalarida ma'lum atamalar va atamalar tizimini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan terminologik tadqiqotlar (maxsus-lingvistik tadqiqotlar) [Xayutin 1972:115-116].

Har qanday bilim sohasidagi terminologik mahsuldorlik nafaqat yangi tushuncha va nomlar yaratilgan sohaning samaradorligiga, balki tilning yangi atamalarini shakllantirish qobiliyatiga ham bog'liq. Rus va ingliz tillari terminologik jihatdan yaxshi rivojlangan va doimiy muloqot tillari bo'lib, bu ikki til terminologiyasida o'ziga xos lingvistik va tipologik tavsiflarni aniqlash maqsadida olimlarning ilmiy lug'atga qiziqishini uyg'otadi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda 3000 dan ortiq atama tushunchasi haqida qoidalar mavjud, ammo shunga qaramay uning mazmuni to'liq aniqlanmagan. V. D. Tabanakova nima

uchun atamaning umumiy qabul qilingan ta'rif yo'q, degan savolga javob berishga urinib ko'rdi: "bir tomondan, bu atamaning nazariy asoslari hali ishlab chiqilmaganligi, uning asosiy tushunchalari farqlanmaganligi bilan izohlanadi. Ilmiy va texnologik atama nima ekanligi haqida umumiy fikr mavjud emas.

Boshqa tomondan, adabiyotlarda mavjud bo'lgan turli ta'riflar har doim ham aniqlanayotgan hodisaning mohiyatini to'liq aks ettirmaydi» [Tabanakova 1982: 24]. A. B. Superanskaya, N. V. Podolskaya va N. V. Vasileva kabi turli fanlarning vakillari o'zlarining ta'riflaridan foydalanadilar, o'ziga xos tushunchalar va g'oyalar bilan bog'liq bo'lgan atamalar teng bo'lmagan mazmunga ega va boshqacha ta'riflanadi [Superanskaya. 1989:11]. Xususan, atamaning falsafiy ma'nosining kelib chiqishi Arastuga borib taqaladi. U atamalarga alohida og'zaki birliklar sifatida e'tibor qaratgan va atamalar tushunchasini ko'plab fanlarga, ya'ni tibbiyot, ilohiyot, falsafa va hokazolarga kiritganlardan biri edi [Grinev, Leychik 1999].

Bugungi kunda ushbu atamaning eng keng tarqalgan ta'riflari quyidagilardir:

1. «ma'nosi ilmiy nazariya doirasida aniqlangan empirik yoki mavhum obyektlarni ifodalovchi so'z yoki ibora» [Gritsanov 2003: 709];
2. "rasmiy qabul qilingan va qonuniylashtirilgan fan, texnika va san'atda qandaydir tushunchani ifodalovchi so'z (yoki ibora)" [Reformatskiy. 2007:1 15];
3. «ilmiy tushunish haqida aniq ma'lumot beruvchi tabiiy tilning eng informatsion birligi» [Kvitko 1976:19];
4. «ilmiy yoki kasbiy soha tushunchasi» [Kraus, Schnerrer. 1988:42].

So'zlarning so'zlarga nisbati haqida savol tug'iladi. So'zning asosiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin: leksik va tarkibiy tarkibning butun shakllanishi, idiomatikligi, barqarorligi. Bundan tashqari, leksik darajadagi birlik sifatida so'z o'ziga xos vazifasi bilan belgilanadi - u nominal vosita bo'lishi kerak, chunki so'zlar birinchi navbatda turli xil voqelik hodisalarining nomlari sifatida mavjud bo'lib, ularning ma'nolari ushbu hodisalarining umumlashtirilgan tasvirlari haqida ma'lumot beradi. Bu belgilar ham atamaga xosdir. Bu terminologik sohaga ham taalluqlidir, chunki atamalar an'anaviy tushuniladigan semantik sohani emas, balki obyektiv guruhlarni, konseptual sohalarni tashkil etadi, ya'ni tilda nafaqat umumiy ma'noga ega, balki umumiy maqsadni ham ko'zda tutuvchi so'z birikmalari mavjud.

Termin faqat terminologik soha doirasida asosiy xususiyatlarga ega, lekin undan tashqarida o'zining aniq va tizimli xususiyatlarini yo'qotadi.

Fan tilida lug'atning uch qatlami mavjud:

- 1) terminologik bo'lmagan - mavhum ma'noga ega so'zlar – mohiyat, belgi, obyekt;
- 2) umumiy ilmiy – tezlik, chastota;
- 3) terminologik xossa - maxsus nomlar

Terminlar lug'atning eng tartibga solinadigan qismini tashkil qiladi

Tilshunoslik fani atamani belgilashda terminologiyani lingvistik xususiyatlarini aniqlash va aniqlashga intiladi - shuning uchun qaysi leksik birliklarni atama deb hisoblash mumkin, degan savol tug'iladi. Klassik pozitsiya O. S. Axmanova tomonidan ifodalangan bo'lib, u terminologik birlikning asosiy belgisi uning substantiv xususiyati deb hisoblaydi. [Axmanova 1969:11].

Ko'p sonli atamalarning mavjudligi atama ma'nosini tushunishga to'sqinlik qilmaydi. Biroq, bilim sohasiga qarab atamalar faqat so'z yoki iboralar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, fizika, matematika, kimyo kabi fan sohalari o'z sohasida atama, so'z yoki atama-iboralar emas, balki atama-belgi, atama-ramz va atama-formulalar ham terminologik yuklamani tashkil qiladi. Shunday qilib, atamalar mavjud fanlarning "mohiyatini" belgilaydi, ularning har biri atamani o'z nuqtai nazaridan tavsiflashga

intiladi. Binobarin, C.B.Rojdestvenskiyning fikricha, bu atama ma'lum bir sohaning maxsus sohasiga mansub, alohida ma'noga ega bo'lgan va kasbiy ma'lumotlarni yetkazish uchun qo'llaniladigan so'z birligi ekanligini aniqlash mumkin.

Maxsus lug'atning turli sohalarini o'rganish natijasida atamalar bilan bir qatorda umumiy belgilarga ega bo'lgan, lekin bir oz farq qiluvchi boshqa maxsus leksik birliklar mavjudligi aniqlandi. Shuning uchun atamalarni maxsus leksik birliklardan farqlash asosiy muammolardan biridir. Bunday birliklarning xilma-xilligi G. O. Vinokur (1939), N. P. Kuzmin (1970), L. Skvortsov (1972), A. D. Xayutin (1972), N. M. Gladkaya (1977), V. M. Leychik (1981), S. V. Grinev (1990, 1993) kabi bir qator olimlar tomonidan aniqlangan va aniqlangan.

S.V. Grinev atamalar semantikasining izchillik, o'ziga xoslik, to'liqlik, til me'yorlariga moslik, leksik va formal reduksiya, hosilalanish qobiliyati, tizimlilik, umumiy qabul qilish, iste'mol qilish, baynalmilallik, zamonaviylik, tendentsiya kabi asosiy talablarining sxematik tizimini yaratdi. Ushbu talablar atamalarning asosiy turlarini tartibga solish va ajratishda keng qo'llaniladi. Shunga qaramay, S.V. Grinevning fikricha, ba'zi terminologiya yoki individual atamalarda bu talablardan katta yoki kichik og'ishlar bo'lishi mumkin. Bu atama sun'iy belgi emas, balki maxsus tushunchani ifodalash vazifasini bajaradigan so'z yoki iboradir, chunki terminologiyada umumiy adabiy til leksikasidagi kabi leksik-semantik jarayonlar sodir bo'ladi.

Xulosa. Terminologiyada yetarlicha aniq belgilanmagan professionallik muammosini ko'rib chiqish kerak. Shunday qilib, ba'zi tadqiqotchilar professionallikni umume'tirof etilgan atamalar yoki «umumiy atamalar» ning variant birliklari deb hisoblaydilar va ularni terminologiyaga kiritadilar, boshqalari esa professionallikni terminologik tizimdan olib tashlashni va ularni birlashtirmasdan alohida yopiq tizimga yoki qandaydir tasvirga kiritishni afzal ko'radilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Volodina M. N. Termin maxsus ma'lumot vositasi sifatida. M.: nashriyot uyi Moskva Univ., 1996. 74 b.
2. Grinev S.V. Terminologiyaga kirish. M.: Moskva. Litsey, 1993. 309 b.
3. Kapanadze L. A. «Terminologiya» va «terminologiya» tushunchalari to'g'risida // Lug'atni rivojlantirish zamonaviy rus tili. M.: Nauka, 1965. 135 b.
4. Khojaeva L.U. Latin language. - Tashkent: OME State Scientific Publishing House, 2005.
5. Kubryakova E. S. Til va bilim: til haqida bilim olish yo'lida. Gap qismlari bilan kognitiv nuqtai nazar. Dunyoni anglashda tilning roli. M.: Slavyan tillari madaniyat, 2004. 555 b.

## CHARACTERISTIC FEATURES OF MRS. DANVERS IN “REBECCA” BY DAPHNE DU MAURIER

Sharipov Mamur Mansurovich  
Teacher, Bukhara state university, Uzbekistan

*Abstract.* This article underlines compelling issues of character of Mrs. Danvers in Rebecca novel, which are crucially important in analysing the role of antagonist in literature. There is an antihero in every story. After all, without that antagonist, there is nothing standing between the hero and their goal, which makes for a pretty boring story. In Rebecca novel Mrs. Danvers stands as a antagonist. But life is not always that easy, and neither is literature. Sometimes that “bad guy” is not a person at all, but gets the form of societal illnesses or political upheaval. In other novels, it is the main character themself. This is why the term “bad guy” can be too simplistic for this significant role: an antagonist in a story.

*Key words:* antagonist, character, hateful, spite, widower aristocrat, servants, noble lady, haunting presence, mistress’ doubts, the complies of Mrs. Danvers, distraught, committing suicide.

## DAPHNE DU MAURIERNING “REBEKKA” ASARIDAGI DANVERS XONIMNING XUSUSIYATLARI

Sharipov Ma’mur Mansurovich  
O’qituvchi, Buxoro davlat universiteti, O’zbekiston

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada antagonistning adabiyotdagi rolini tahlil qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lgan «Rebekka» romanidagi Danvers xonim xarakterining asosiy masalalari yoritilgan. Har bir hikoya antiqahramonga muhtoj. O’sha antiqahramonsiz, qahramon va ularning maqsadi o’rtasida hech qanday bog’liqlik bo’lmasa, bu juda zerikarli hikoyani keltirib chiqaradi. Rebekka romanida Danvers xonim antagonist sifatida turadi. Ammo hayot har doim ham u qadar oddiy emas, adabiyot ham. Ba’zida bu «yomon odam» butunligicha yomon odam emas, balki ijtimoiy kasalliklar yoki siyosiy g’alayonlar shaklida bo’ladi. Boshqa hikoyalarda esa bu bosh qahramonning o’zi. Shuning uchun «yomon odam» atamasi ushbu muhim rol uchun juda oddiy bo’lishi mumkin: hikoyadagi antagonist.

*Kalit so’zlar:* antagonist, xarakter, nafrat, g’azab, beva aristokrat, xizmatkorlar, olijanob xonim, ta’surotli mavjudlik, bekaning shubhalari, Danvers xonimning roziligi, talvasaga tushish, o’z joniga qasd qilish.

## ХАРАКТЕРНЫЕ ЧЕРТЫ МИССИС ДЭНВЕРС В «РЕБЕККЕ» ДАФНЫ ДЮМОРЬЕ

Шарипов Маъмур Мансурович,  
Преподаватель, Бухарский государственный университет

*Аннотация.* В этой статье подчеркиваются важные вопросы характера миссис Дэнверс в романе «Ребекка», которые имеют решающее значение для анализа роли антагониста в литературе. В каждой истории нужен антигерой. В конце концов, без этого антигероя ничто не стоит между героем и его целью, что делает историю довольно скучной. В романе Ребекки миссис Дэнверс выступает в роли антагониста. Но жизнь не всегда так проста, как и литература. Иногда



*этот «плохой человек» вообще не является человеком, а принимает форму социальных недугов или политических потрясений. В других историях это сам главный герой. Вот почему термин «плохой человек» может быть слишком упрощенным для этой важной роли: антагониста в истории.*

*Ключевые слова: антагонист, персонаж, ненавистный, злоба, вдовец-аристократ, слуги, благородная дама, преследующее присутствие, сомнения хозяйки, подчинение миссис Дэнверс, обезумевшая, совершения самоубийство.*

Introduction. In literature, an antagonist is described as the character or force that resists the protagonist. This pushback creates disagreement in the story and builds tension. Several types of antagonist can be available that oppose the protagonist: another character, the status quo, forces of nature, or even the protagonist himself.

In a fiction work, the antagonist is often, but not always, the “bad guy.” Let’s point out about the seven types of conflict in literature:

- Person versus person
- Person versus self
- Person versus nature
- Person versus society
- Person versus machine/technology
- Person versus supernatural being
- Person versus fate/destiny

In the beginning of the story, a young woman whose name is never demonstrated meets Maximilian de Winter, a widower aristocrat, in Monte Carlo. Couples fall in love and get quickly married, and Maxim takes his wife to his country manor of Manderley, and all the servants working there welcome this woman warmly.

The new Mrs. de Winter meets the servant (housekeeper) Mrs. Danvers, who greets her rather coldly but politely. Mrs. Danvers shows her the lady’s quarters and study, where every bedsheet and piece of paper bear an embroidered “R,” that is the initial of Maxim’s first wife, Rebecca: a pretty and sophisticated lady who seemed to be the perfect noble woman in all regards, but passed away a year ago in mysterious circumstances, when her yacht sank.

Methods. The new Mrs. de Winter, who comes from a modest background, has serious troubles to adapt to her new role and to cope with Rebecca’s haunting presence, which marks the manner as if she was still living there. A presence kept alive by Mrs. Danvers, that keeps Rebecca’s old bedroom perfectly clean and organized like a shrine of some sort.

Mrs. Danvers uses her new mistress’ doubts against her, always offering or making it seem that Rebecca was a better lady and even a better wife than her, to such extent that the new Mrs. de Winter starts to doubt Maxim’s love for her, believing that he still prefers Rebecca. It also seems that Rebecca’s «cousin» Jack Favell, (in fact one of her lovers) often visits Manderley when Maxim is not at home, being on friendly terms with Mrs. Danvers.

At some point, Mrs. de Winter orders Mrs. Danvers to get rid of everything in her quarters that belonged to Rebecca, mentioning that she is the new Mrs. de Winter. Mrs. Danvers complies, and in what first appears to a better disposition towards her new mistress, she advises her to wear similar dress as one of Maxim’s female ancestors, that is represented in a painting, for the upcoming costume party.

It soon appears that Rebecca tried on the exact same dress in a party of costume the year before, something that infuriates Maxim to the point of yelling at his wife, just as Mrs. Danvers predicted. Distraught and confused, Mrs. de Winter runs to her room and enters a sort of trance. As Mrs. de Winter is standing near the open window, Mrs.

Danvers approaches and nearly causes her to commit suicide, by saying her that no one will ever replace Rebecca.

Shortly after, the sunken yacht of Rebecca is discovered. It appears that the ship was sabotaged so that it would sink at sea and that the corpse of Rebecca is still inside, Maxim having clarified another drowned woman as his first wife one year ago.

Results and discussions. The author acknowledges that Maxim is immediately suspected of having murdered Rebecca. Then he confesses to his wife that he always hated Rebecca, who is revealed to have really been a vain and spiteful woman he wed for an arranged marriage, who antagonized him and cheated on him openly many times, while cultivating the image of a paragon of virtue.

There is also another view that he also confesses that Rebecca died during a heated argument, in which she had claimed to be pregnant with an illegitimate baby who would inherit Maxim's name and title, driving him over the edge. In the original novel, Maxim shot Rebecca on purpose, in the movie adaptation she died when she hit her head in an accidental fall in the midst of their skirmish. Later Maxim sabotaged her yacht and put her corpse in, so that it would disappear at sea.

Now that the suicide of Rebecca has been established, Maxim returns to Manderley, only to find it ablaze. His wife then welcomes him in a loving embrace, telling him that Mrs. Danvers set the manor on fire, for she would rather destroy it than witness them happily living in it. The demented housekeeper is last seen wandering in the midst of the fire, shortly before the blazing roof collapses killing her (in the novel, it is said that Mrs. Danvers escaped before burning Manderley, never to be seen again).

In the final stage of the novel, the flames are seen devouring the embroidered 'R' on a pillow (in a fashion similar to the flames devouring the 'Rosebud' sled in Orson Welles' masterpiece Citizen Kane) ending Rebecca's haunting grasp over those who knew her for good.

#### References:

1. Akhmedova Mekhrinigor. The meaning of spirituality: different approaches and development of the word. Science and practice: a new level of integration in the modern world. 2018/4/28. - P.110-113.

2. Sumaira Nawaz, Khaitova Gulshan Bahodirovna, and Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. "Explanation of Agricultural Terms in Dictionaries". Indonesian Journal of Innovation Studies, Vol. 18, May 2022, doi:10.21070/ijins.v18i.606.

3. Bahodirovna A.M. "Semantic Field and Sema in Uzbek (In the Example of 'Ma'naviyat')". International journal of inclusive and sustainable education, vol. 1, no. 4, Oct. 2022, pp. 77-80, <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/173>.

4. Sharipov M.M. "Intertextuality and Intertext: Main elements and determination. 2022/10/21 International journal of inclusive and sustainable education <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/download/187/148> .

5. Sharipov M.M. Modernist prose in the light of intertextuality in modern literary criticism 2022/3/31 Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects <https://www.openconference.us/index.php/ISPADP/article/view/258>.

6. Sharipov M.M. THE AUTHOR'S SKILL IN DESCRIBING THE CHARACTER OF THE SERVANT IN THE NOVELS OF ABDULLA KADIRI AND OYBEK 2023/9/24 INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE» THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS»

7. Sharipov M.M. Understanding image and artistry in literature // international journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630, vol. 12, no. 08, Aug. 2023, pp. 20-23. (Impact Factor: 7.429)

8. Sharipov M. Servant Characters in English Literature: A Study of Their Significance and Role // Spanish Journal of Innovation and Integrity, vol. 19, June 2023, pp. 3-6. (Impact Factor: 6.692).

9. Sharipov M.M. The Problem of Intertextuality in Modern Literature // Indonesian Journal of Innovation Studies. Vol. 18. April 2022 DOI: 10.21070/ijins.v18i. - P. 604. (Impact Factor: 5.649)

10. Sharipov M.M. The Image of a Servant in Abdulkhamid Cho'lpon's Work "Night and Day" // Electronic journal of actual problems of modern science, Education and training. August, 2023. 8- son. ISSN2181-9750. – P.80-84 (10.00.00. №22).

11. Sharipov M.M. Charles Dickens asarlarida xizmatkor obrazini yaratishning lingvopoetik vositalari. "Moddiy va nomoddiy madaniy meros uyg'unligi" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya, 9 sentyabr, 2023. - B. 252

12. Sharipov M.M. Dafne du Mauriarning "Rebekka" asaridagi xizmatkor obrazi. "Moddiy va nomoddiy madaniy meros uyg'unligi" xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya, Buxoro. - 9 sentyabr, 2023. - B. 253

13. M.M. Sharipov, Z.I Rasulov. THE EFFECT OF THE MORPHOLOGICAL LEVEL OF ECONOMY ON LANGUAGE CHANGES. Theoretical & Applied Science, 2020

14. N. Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., "O'qituvchi", 1999

## POETIK MATNLARDA VATAN KONSEPTI TAHLILI

Shodieva Shoxida Inatovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

*Annotatsiya: Maqolada o'zbek poetik matnlarini tahlil qilish asosida Vatan konsepti leksik-semantik maydoni keng qamrovli ekanligi yuzasidan mulohaza yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: poetik til, umumestetik makon, realistik unsur, vizuallashuv, lingvomadaniyat, voqeabandliq, poetik qolip.*

## ANALYSIS OF THE CONCEPT OF HOMELAND IN POETIC TEXTS

Shodieva Shokhida Inatovna

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University

*Abstract: The article discusses the wide lexical-semantic scope of the concept of Homeland based on the analysis of Uzbek poetic texts.*

*Keywords: poetic language, general aesthetic space, realistic element, visualization, linguistic culture, event-based, poetic pattern.*

## АНАЛИЗ КОНЦЕПТА РОДИНЫ В ПОЭТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ

Шодиева Шохиди Инатовна

Джиззакский государственный педагогический университет – преподаватель

*Аннотация: На основе анализа узбекских поэтических текстов в статье рассматривается комплексное лексико-семантическое поле концепта Родина.*

*Ключевые слова: поэтический язык, универсальное эстетическое пространство, реалистический элемент, визуализация, лингвокультура, происшествие, поэтический образец.*

Kirishю. ugungi globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlash va mustahkamlash masalasi dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bu jarayonda milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda adabiyot, xususan, poetik matnlarning o'rni beqiyosdir. Poetik asarlar orqali Vatan konsepti nafaqat estetik zavq ulashuvchi badiiy obrazlar orqali, balki chuqur semantik qatlamlarda, ramzlar va lingvopoetik vositalar orqali ham ifodalanadi.

Vatan konsepti poetik matnlarda keng ma'no qamroviga ega bo'lib, shoirlar dunyoqarashi, ijtimoiy voqelik, tarixiy jarayonlar va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shoirlar o'z she'riy asarlarida vatanga bo'lgan mehr va sadoqat, milliy iftixor va istiqloq tuyg'ularini aks ettirib, o'quvchini bu qadriyatlarni anglashga chorlaydilar. Shu bois, Vatan konsepti tahlili milliy madaniyatni va qadriyatlarni chuqurroq o'rganishga zamin yaratadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi poetik matnlarda Vatan konseptining lingvistik va badiiy ifodalanishini tahlil qilishdir. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- Vatan konseptining poetik matnlardagi semantik qatlamlarini o'rganish;
- Shoirlar ijodida bu konseptni ifodalashda qo'llanilgan lingvistik vositalarni aniqlash;
- Vatan konseptining milliy va universal jihatlarini aniqlash orqali madaniy qadriyatlarni yoritish.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbek va boshqa millatlar adabiyotidagi vatan mavzusiga bag'ishlangan poetik matnlar tanlandi. Ushbu ish poetik matnlarni tahlil qilish orqali milliy o'zlikni mustahkamlashda adabiyotning rolini yoritib berishni maqsad qilgan.

Zamonaviy she'riyatning yangilik alomatlaridan biri uning ommalashganida ko'rinadi.

Endi ijodkor muayyan doira vakillari uchungina emas, keng omma uchun asar yozayotganini his qilib turardi. Bu esa poetik til va vazning soddalashishiga olib keladi. Komunikativ vosita sifatida ham badiiy adabiyot asrlar davomida yashab kelgan g'oyalarni, umumestetik makon sifatida shakllangan ko'ngil kechinmalarini emas, balki mavjud ijtimoiy vaziyat haqidagi informatsiyani tashishga yo'naltiriladi. Lirik mushohada ob'ekting san'atkor ko'nglidan chiqib, voqelikka qaratilishi badiiy obrazning bir qadar jonli, realistik unsurlar bilan to'yinishiga, uning vizuallashuviga olib keladi. Albatta, bu jarayon boshqa san'atlarning ifodaviy imkoniyatlari ko'magida, xususan, she'riyat va tasviriy san'atning o'zaro badiiy sintezi natijasida yuzaga kela boshlagandi.

Shu bois poetik matnda ijodkor Vatan tushunchasini ifodalashda bevosita xalqning ijtimoiy hayot tarzi, tarixi, buguni, ruhiyati, kayfiyati bilan bog'liq leksemalarni qo'llaydi. Shu tariqa Vatan konsepti leksik-semantik doirasi kengaya boradi. Masalan, Erkin Vohidovda bu yurt, O'zbekiston, ash'or, doston, g'ururim, nomusim, shodlik, g'amim, obodu payhonim, shavkatli dehqon, tuproq, Farg'ona kabi so'zlar vositasida ifodalansa, Xurshid Davronda Vatan yurakdagi quvonch, qayg'u, shasht, quyosh, oq arg'umoq, o'lka, bahor, tilak, diyor, jon ichra jon, osmon, armon, ona, Registon, Ichanqal'a, qo'shiq, bitik tosh, bobolar qalbi tarzida tavsiflanadi.

Professor Q. Yo'ldoshev poetik matnlar bo'yicha kuzatishlar olib borar ekan, "She'riyat uchun voqea va tafsilotlar tasviri emas, balki inson ruhiyati ifodasi muhimdir. Bu borada o'zbek she'riyati ayricha yuksak maqomda turadi. Shu bois milliy she'riyat uchun voqeabandliqdan ko'ra inson tuyg'ulari jilvasi, chigal kechinmalarini hissiyotga ta'sir etadigan, uni titroqqa soladigan yo'sinda ifoda etish muhimdir. Qat'iy poetik qoliplarga amal etilgan holda she'riy kashfiyotlar qilish zaruriyati o'zbek she'riyatining mukammallashuviga olib keldi." degan fikrni bildiradi.

Shoir Sirojiddin Sayyid "Vatan qolar ekan, vatan abadiy..." she'rida Vatan konsepti mohiyatini quyidagicha ochib beradi. Uning tasvirlashicha Vatan konsepti semantik maydoniga jayron, rayhon, osmon leksemalari kiradi:

Shabnam-shabnam tonglarda jayronlarga aylangan,  
Onang suvlar sepganda rayhonlarga aylangan,  
Bir kechada sog'inching osmonlarga aylangan,  
Sog'inchlaringday zangor osmonlari Vatandir.

Keyingi misralarda esa bu maydon laylo, harir, pariroy, mijgon, qo'lcha, ko'zcha, gulg'uncha, kulcha, ayvon, narvon, davron, qo'rg'on leksemalari kiritiladi.

Vatan tushunchasining konseptlashgan sohasini lingvomadaniyat nuqtai nazaridan uni quyidagi to'rt mazmuniy doirada faollashuvchi strukturalar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin:

- geografik sharoit bilan shartlangan hududiy-makon-zamon;
- mamlakat hayotidagi ma'lum voqealar bilan bog'liq tarixiy-madaniy;
- olamni idrok qilish va unga munosabatni aks ettiruvchi psixologik;
- Mazkur konseptni obrazi, metaforik qayta anglash bilan bog'liq badiiy. Vatan konseptining leksik-semantik guruhlari to'g'risida fikrlarni yana davom ettirish mumkin. Ammo quyidagi ta'rif bu boradagi fikrlarimizni ma'lum ma'noda umumlashtiradi:

Yana aytishdiki, «Vatan - hech kimga berilmas ma'vodir, dushmanning oyog'i qirqiladigan tabarruk tuproq. Vatan Ona ekan, yaxshiyu yomon bolasin tishida tishlab o'tar ekan Vatan. subhidamda, chol tushda, uzun tunda taraladigan Ona allasi ekan Vatan!»

Vatan - ota yurt, ajdodlarning ko'milgan qabriston, mung'aygan pastakkina tomli uy ekan... Ota-onang izlari qolgan ko'chalar, birinchi bor qorni ko'rgan, o'ynoqi qorga hayratlanib termilgan joying ekan Vatan. Vatan - birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan yering, birinchi muallimingni, birinchi muhabbatningni tanigan makon ekan - Vatan.

Davom etdilarki, "Vatan ordir, nomusdir, qomusdir, sharafdir-shondir. Vatan – opa-singil,

aka-uka, qarindosh urug'im... Vatan jigargo'shalarim yurti, otamni, meni va farzandimni tebratgan beshik, ana shu tabarruk beshik izlari chizilgan zamin, ana shu muqaddas beshikning g'ichirlagan kuyi ekan – Vatan! Akam bilan poyga o'ynab kirar hovli-eshik ekan Vatan. Ha chindan ham o'xshashi yo'q ekan Vatanning, ilohiy tushuncha ekan Vatan. Vatan sajdagoh ekan, onam kabi qiblagoh, otam kabi tog' ekan Vatan.

Murg'ak singlimni asragan kabi muhofaza qilinadigan, akamdan g'ururlangan singari g'ururlanadigan, ukamdan faxrlangandek faxrlanadigan, ona va opamning ibosiday pok xilqat ekan Vatan! Faqat odamlarigina emas, bir siqim tuprog'ining isi ham aziz ekan Vatanning.

Vatan - vodiy, tep-tekis qumliklardan iborat cho'lu biyobon - betakror manzaralar, bog'lar, anhoru soylar, to'rt faslining beqiyos ob-havosi bilan mo'tadil, serquyosh makon ekan.

Poetik matnlarda Vatan konsepti shoirlarning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va o'z davrining ijtimoiy-tarixiy sharoitlari bilan chambarchas bog'liq ravishda ifodalanadi. Ushbu tadqiqot davomida aniqlanganki, Vatan tushunchasi nafaqat milliy o'zlik va birligimizning ramzi sifatida, balki insoniy his-tuyg'ularning eng chuqur va ilohiy ko'rinishi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shoirlar ijodida Vatan konsepti metaforalar, simvolik obrazlar, parallelizm va boshqa lingvistik vositalar orqali boy badiiy ifodaga ega bo'lgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, Vatan konsepti quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1.Semantik chuqurlik: Vatan tushunchasi poetik matnlarda ona tabiat, tuproq, tarix, madaniy meros va insoniy qadriyatlar bilan bog'liq ravishda ifodalanadi.

2.Ramziy ifoda: Shoirlar vatan tuyg'usini badiiy ramzlar orqali jonlantirib, uni milliy g'urur va sevgining timsoli sifatida aks ettiradilar.

3.Milliy va universal qiymat: Vatan konsepti milliy o'zlikning shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi, shu bilan birga, u universal qadriyatlar bilan uyg'unlikda talqin qilinadi.

Ushbu tadqiqot poetik matnlarda Vatan konseptining lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish orqali milliy adabiyot va madaniyatni anglashga hissa qo'shdi. Shoirlarning asarlarida Vatan konseptini o'rganish milliy va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari Vatan tushunchasining poetik va madaniy talqinlarini o'rganishda yangi ilmiy istiqbollarni ochib berishi mumkin.

Kelgusida bu mavzuga oid tadqiqotlar Vatan konseptining boshqa badiiy janrlardagi aks etishini, shuningdek, turli madaniyat va davrlardagi o'ziga xosliklarini chuqurroq o'rganishga yo'naltirilishi lozim. Bu esa milliy merosni yanada kengroq o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Xullas, o'zbek poetik matnlarini tahlil qilish asosida Vatan konsepti leksik-semantik maydoni keng qamrovli bo'lib, uning aniq chegaralarini belgilab bo'lmaydi, bunda ijodkorning individual uslubiga bog'liq holda bu semantik maydon yangi leksemalar hisobiga doimo o'zgarib turadi degan xulosaga kelish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Йўлдошев Қ.Шеърият. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-sh/sheriyat-uz/>
2. Чўлпон шеъриятида бадий образнинг визуаллашуви <https://quronov.uz/%>
3. <https://concept.mgimo.ru/jour/article/view/210/175>
4. <https://uza.uz/uz/posts/vatan-nima-degan-savolga-ni-oyat-zhavob-topganday-b-ldim-amm-21-08-2020>

## ARAB ADABIYOTIDA SHAKLLANGAN BAYOZCHILIK AN'ANASI VA UNING O'RTA OSIYOGA TA'SIRI

*Shukurova Zilola Yusufovna*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD*

*Annotatsiya: Mazkur maqola arab adabiyotida shakllangan bayozchilik an'anasi va uning O'rta Osiyo madaniy-adabiy hayotiga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qiladi. Bayozchilik an'anasining tarixi, shakllanish jarayonlari hamda uning fors-tojik va o'zbek adabiyotiga integratsiyasi chuqur o'rganiladi. Xususan, bu an'ananing Markaziy Osiyoda adabiy asarlarni yig'ish va saqlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bayozlarning ilmiy va badiiy qiymati, ularning adabiy merosni o'rganishdagi roli muhokama qilinadi.*

*Kalit so'zlar: Bayozchilik, arab adabiyoti, O'rta Osiyo, madaniy ta'sir, adabiy meros, fors-tojik adabiyoti, o'zbek adabiyoti.*

## ТРАДИЦИЯ СОСТАВЛЕНИЯ БАЙОЗОВ В АРАБСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СРЕДНЮЮ АЗИЮ

*Шукурова Зилола Юсуфовна*

*Доцент Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, PhD.*

*Аннотация: В статье рассматривается традиция создания антологий (байозов), сформировавшаяся в арабской литературе, и её влияние на культурно-литературную жизнь Средней Азии. Исследуются история, процесс формирования этой традиции и её интеграция в персидско-таджикскую и узбекскую литературы. Особое внимание уделяется значению байозов в сборе и сохранении литературных произведений в Центральной Азии. Также обсуждаются научная и художественная ценность байозов и их роль в изучении литературного наследия.*

*Ключевые слова: Байозы, арабская литература, Средняя Азия, культурное влияние, литературное наследие, персидско-таджикская литература, узбекская литература.*

## THE TRADITION OF COMPILING BAYOZ IN ARABIC LITERATURE AND ITS INFLUENCE ON CENTRAL ASIA

*Shukurova Zilola Yusufovna*

*Associate Professor, PhD, Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature*

*Abstract: This article examines the tradition of compiling anthologies (bayoz) developed in Arabic literature and its influence on the cultural and literary life of Central Asia. The history and formation of this tradition, as well as its integration into Persian-Tajik and Uzbek literature, are thoroughly analyzed. Particular attention is paid to the significance of bayoz in collecting and preserving literary works in Central Asia. Additionally, the scholarly and artistic value of bayoz and their role in studying literary heritage are discussed.*

*Keywords: Bayoz tradition, Arabic literature, Central Asia, cultural influence, literary heritage, Persian-Tajik literature, Uzbek literature.*

*Ma'lumki, o'zbek adabiyoti tarixi uzoq va boy madaniy merosga ega bo'lib, ko'plab mutafakkirlar, allomalarni yetishtirgan. Turonzamin yerlarida o'sib ulg'aygan*

ajdodlarimiz ilm-ma'rifat egallash orqali olamshumul yutuqlarga erishganlar. Qadimdan madaniyat o'chog'iga aylangan bu hududlarda islom dini kirib kelib esa aholining dini, madaniyati, turmush tarzi yangi bosqichga ko'tarildi. Fan taraqqiyoti, xususan, ilmiy va badiiy adabiyotda ham evrilish yuz berdi. Adabiyot ahli ijodida tub burilish kuzatilib, yaratiladigan deyarli barcha asarlarda Qur'on, Hadisga murojaat qilindi, ularga sharhlar yozdi. Ko'plab asarlarning arab tilida yaratilgani holda kitobatchilik ham islom ma'rifati bilan bezaldi. Natijada mumtoz adabiyotda yangi adabiy janrlar, badiiy san'atlar, aruz vazni kirib keldi. Ana shunday yangiliklar qatorida bayozlarning kirib kelishi mumtoz adabiyot namunalarimizni yanada boyitdi.

Bayozlar turli davrda yashagan shoirlarning ijodini shu kunga qadar yetib kelishida xizmat qilgan muhim vositalardan biri. Shu sababli tadqiqot ishimizda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, bayoz tarixi haqida atroflicha to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Ma'lumki, arab she'riyatining yaralishi olis tarixga borib taqaladi. Manbalarda berilishicha, dastlabki "arab she'riyatining tug'ilish joyi Arabiston shimolidagi Hijoz va Najd yerlari bo'lgan. Arablar dastlab sarkash tuyalarni chaqirish uchun so'zlarni ma'lum bir ritmga, qofiya va ohangga solib kuylashgan. Shu orqali sekin-astalik bilan arab she'riyati paydo bo'lgan". Keyinchalik u rivojlanib, kishiga zavq beruvchi va favqulotda kuchli ta'sir etuvchi xususiyatga ega bo'la boshlagan. Shu sababli she'r aytuvchilarning jamiyatda obro'yi baland bo'lgan. Masalan, qadimgi Quraysh qabilalari orasida maxsus roviylar bo'lib, ular og'zaki ijod namunalarining nasriy yoki nazmiy turi bo'lsin bir eshitishda yodlab olib, uni boshqalarga og'zaki usulda yetkazishgan. Bularga Mahrama ibn Nufl, Huvaytab ibn Abd al-Azza va boshqalarni misol qilish mumkin. Biroq keyinchalik turli janglar yoxud ma'lum bir she'rlarning aytilmay qolishi natijasida bu turlarning ayrimlari yo'qola borgan. Toki bu xavf og'zaki ijod namunalarining yozma adabiyotga muhrlanishiga qadar davom etdi.

VIII asrda yashagan Amr al-Aliya "Islomga qadar yaratilgan adabiyot namunalarining ko'pchiligi yetib kelmagan va agar ularning barchasi yetib kelganida ilmning ko'p qirralarini va she'rlarning ko'p namunalarini bilar edingiz", deya keltirgan. Haqiqatda ham, har qanday og'zaki ijod namunasi yillar davomida taraqqiy etish yoki unutilish xususiyatiga ega bo'ladi. Har qanday sabablarga ko'ra og'zaki ijro to'xtasa, shu millatning tarixi xavf ostida qoladi. Shu sababli ularni yozma adabiyotga muhrlash tarixni kelajakka muhrlash deganidir. Xanna al-Faxurining aniqlashicha, "er avv 532-yilda islom madaniyati kirib kelmasidan avval ilk yozma manbalarda arab adabiyoti haqida ma'lumotlar berilgan". Bu ma'lumotlar shoir va yozuvchilarning biografiyasi, ijod namunasi dan parchalar tuzish va ijodiga yengil baho berishdan iboratdir. Bu uslub tazkiraga xos xususiyatlarni eslatadi. Ushbu ma'lumotlar arab adabiyotini o'rganishning dastlabki kurtaklari bo'lib, muhim tadqiqot ob'ekti hisoblangan.

Islom ma'rifati butun arab diyoralari bo'ylab yoyila boshlagach, turli sohalar qatorida qadimgi arab she'riyatini saqlash va kelajak avlodga yetkazishga ahamiyat berila boshlandi. Shu davrda yashagan Hammad ar-Roviy (771), Halaf al-Axmar (796), Abu Amr Is'hoq ibn Mirar ash-Shaybani (821), Asma' abd al-Malik ibn Qarib (828), Abu Said al-Hasan as-Sukkari (888), Abu Bakr Muhammad ibn al-Qosim al-Anbari (939) lar ana shu an'anani davom ettirishdi. Shu bilan birga arab she'riyatining tili, uslubi, tabiati, sofligi o'zgarib ketmasidan avval ularni yozma adabiyotga muhrlab qo'yish lozimligi dolzarb masalaga aylandi. Bundan tashqari ularning qadimgi arab she'riyatni yozib olishga bo'lgan harakatlarning boshqa bir sababi ham bor edi. Gap shundaki, islom rivoj topib Arabiston hududidan tashqarida yashovchi xalqlar ham islomni qabul qilish uchun kela boshlaganlarida, bu dinni qabul qilish bilan birga mazkur o'lkadagi she'rlarni eshitib, mahliyo bo'lgan va uni yodlab, diyoralarga tarqatishgan. Keyinchalik bu she'rlarning



ma'no-mazmuni o'zgargan holda yoki uning ayrim parchalari shoirlarning she'rlaridan joy ola boshladi. Bu esa arab she'riyatining butun dunyo bo'ylab tarqalishiga sabab bo'lgan. Asl arab she'riyatining mazmuni o'zgarib, o'zlashtirila boshlaganini sezgan soha fidoyilari bu ma'naviy yodgorliklarni yozma adabiyotga ko'chirishga qaror qilishdi. Ana shunday "islomgacha yaratilgan qadimgi arab she'riyatini saqlab qolishga harakat qilgan olimlardan doktor Margolius va doktor Doho Husaynlardir". Ular she'rlarni yozib olish bilan birga o'sha davrda g'azal, faxr, madh, risa, hajv, zuhd kabi janrlar bo'lganligini aniqlashgan. Ayniqsa, o'sha davrda maqtua (7 baytdan oshmagan she'r) ancha rivojlanganligini ta'kidlashgan.

Hijriy 2-yilda soha jonkuyarlari islomga qadar yashagan shoirlarning she'rlarini yozib ola boshladilar, ularga izoh yozdilar, hattoki o'zlarining ijod namunalari arab she'riyatining kuchli ta'sir qilish xususiyatidan kelib chiqib, qadimiy she'rlardan foydalandilar. Chunki lirikaga Ibn Qutayba "She'rlar va shoirlar" kitobida (828-829) berishicha "she'riyat insonning ma'lum bir ruhiy holati jarayonida vujudga keladi (quvonch, shodlik, jahl, may ichigandan keyin) deb ta'rif bergan. Qadimgi arab she'riyati tarixini tadqiq qilgan K.Osipova uni 3 davrga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'radi:

1. Johiliyat davri she'riyati: Bishr ibn Abi Xazim (vaf 533), 'Abda ibn at-Tabib (vaf 530), Imru'ulqays ibn Xujr (vaf 565), 'Alqama ibn A'bada al Faxl (vaf 588), Amr ibn Kulsum (vaf VI asr), Al-Xadira (vaf VI asr), Shubruma ibn at-Tufayl (vaf VI asr) va hokazo;

2. Ummaviylar davri she'riyati: Abu Zubayd al Valid ibn Uqba (670 vaf), Hasan ibn Sabit (674 vaf), Yazid ibn al-Mu'aviya (684 vaf), Jamil ibn Ma'mar al-Uzri (701 vaf), Imron ibn Xittan (703 vaf), Al-Axtal (640-710), Al-Kutami-Umayr ibn Shuyaym (710 vaf), Malik ibn Asma' ibn Xarij (718 vaf), Ar Ra'i Husayn ibn Mu'auya an-Numayr (738 vaf), Al-Valid ibn Yazid (707-744) va hokazo;

3. Abbosiylar davri she'riyati: Abu Tammom, Habib ibn Avs (805-845), Al Buxturi, al Valid ibn Ubayd ibn Yaxya; Abu Ubada (821-897), Ibn ar Rumi/ Ali ibn al Abbas (836-896), Ibn Durayd (837-933), Ibn Bassam (844-914), Ibn al-Mu'tazz/ Abu al-Abbos Abdulloh (861-908).

Manbalarda berilishicha, 750-yilda taxt boshqaruvi ummaviylardan abbosiylar qo'lga o'tadi. Bu davrda arab diyorlari va ularning qo'l ostida bo'lgan hududlarda ilmfan yanada rivojlandi. Xususan, adabiyotshunos olimlar soha rivojida yangi adabiy tur va janrlar ustida izlanib, arab adabiyotini boyitish va poeziyada original asar yaratish maqsadida ko'p ishlar amalga oshirdilar. Bu davr she'riyatida Bashar ibn Burd (783 vaf) va Abu Nuvas (810 vaf) boshlab bergan yo'nalishni ko'rish mumkin. Ular she'riyatda yangi uslub va poetik vositalarni olib kirishdi. Adabiyot bu davrda ancha rivoj topdi. Shunday bo'lsa-da o'sha davr shoirlari ijodida islom davridan oldingi yaratilgan she'riyatga qiziqish kuchli edi. "Filologiya sohasida amalga oshirilgan eng muhim tadqiqotlar, asosan, islomgacha bo'lgan arab poeziyasi va tili bilan bevosita bog'langan edi. Binobarin, ko'pgina arab shoirlari o'z ijodlarini ana shu traditsiya bilan mahkam bog'lagan holda davom ettiradi"

Xanna al-Faxuri va X.A.Gibb qadimgi arab she'riyatini tadqiq qilish asnosida o'sha davr she'riyati haqida ma'lumot beruvchi asarlarni sanab o'tishgan :

1. "Al-Muallaqot" to'plami. VIII asrda yashagan Hammad ar-Raviy tomonidan tuzilgan. 7 muallaqotdan iborat bo'lib, unda VI asrda yashagan mashhur shoirlarning she'rlari keltirilgan.

2. "Al-Mufaddaliyat" tanlangan asarlar to'plami. Al-Mufaddal ad-Dabbi tomonidan tuzilgan. 128 ga yaqin islomgacha yashagan shoirlarning qasidalaridan iborat.

3. “Devon al-Xamasa” (“Jasorat she’rlari” to‘plami) ikki qismli she’riy to‘plam. IX asrda mashhur shoir Abu Tammom tuzgan. Bu kitob mavzusiga ko‘ra 10 ta qismga bo‘linib, unda ko‘plab islomga qadar yashab o‘tgan shoirlarning she’rlari o‘rin olgan. Kitob tuzilgan davrda qadimgi an‘analarga murojaat qilish va qadimgi davr shoirlari ijodi orqali she’r ilmi qoidalarini chuqurroq o‘rganish kuchaygan edi. Ana shu qiziqishlar samarasi o‘laroq arab shoiri Abu Tammom tomonidan dastlabki bayoz tuzildi. U katta ishga qo‘l urib, o‘zi yashagan davr shoirlarining orzu-istaklarini amalga oshirdi. Shoir eng qadimgi davrlardan o‘zigacha bo‘lgan shoirlar ijodini jam qilib, uni 7 qismga bo‘ladi.

Qadimgi arab adabiyotini o‘rganish asnosida Xanna al-Faxuriy Abu Tammomning ham ijodiga murojaat qiladi va bu asarning har bir qismini keltirib tahlil qiladi. Biz ham tadqiqotimizda mana shu olimaning tasnifidan foydalanamiz. Asarning 7 qismi quyidagilardan iborat:

1. “Kitobul ixtiyor minash shiorul qaboil” (Shoirlar turkumining tanlangan asarlari);
2. “Kitobul ixtiyorat min shiorush shuaro” (Shoirlarning tanlangan she’riy asarlari);
3. “Kitobul fuxul” (Ulkan shoirlar kitobi);
4. “Kitobul xamasa” (Qahramonlik kitobi);
5. “Ixtiyorul muqattaot” (Tanlangan she’riy parchalar);
6. “Muxtorot min shiorul muhdasina” (Zamondosh shoirlarning tanlangan she’rlari);
7. “Annaqoid Jarir val Axtal” (Ikki shoirning bir-biriga qarshi yozilgan 20 ta hajviy she’rlarining to‘plami).

Abu Tammomning ushbu tuzgan kitobidan ko‘rish mumkinki, u mashhur shoir bo‘lish bilan birga o‘z davrining ma‘rifatli kishisi ham bo‘lgan. Abu Tammom tamomila yangi bir yo‘nalishga asos solib, shoirlar uchun yangi an‘anani boshlab berdi. Bu asar arab she’riyatini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lganligi sababli keyinchalik Ryukert tomonidan nemis tiliga ham tarjima qilingan.

Abu Tammomdan keyin yashagan shoirlar ham bu an‘anani davom ettirishadi. Xususan, uning shogirdi Al-Buxturiy “o‘z to‘plamini ustozining asaridan boshqacharoq xarakterda tuzishga intilgan. Ular o‘rtasidagi tafovut tematika, material tanlash va joylashtirish prinsiplarida ko‘zga tashlanadi. Al-Buxturiy asari turli hajmdagi 174 bobdan iborat bo‘lib, ularda 600 ga yaqin shoirning (islomgacha va ilk islom davri shoirlari) she’riy parchalari keltirilgan”. Shu tarzda she’riy to‘plam tuzish an‘anasi sekin-asta arab davlatlari va uning atrofida ham yoyila boshladi.

4. Abu al-Faraj al Isfahoniyning (vaf 976) “Kitob al-ag‘oni” (Qo‘shiq kitobi) va Ibn Qutaybaning “She’riyat va shoirlar” to‘plamida ham islomga qadar yashab o‘tgan ko‘plab shoirlarning ijod namunalari berilgan.

Bag‘dodda yashab ijod etgan mashhur olim, yozuvchi, tarixchi Abul Farajning (897-967) 20 jildidan iborat qo‘shiqlar haqida yaratilgan ushbu asarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, Abul Faraj islomdan oldingi davrlardan tortib o‘ziga qadar yaratilgan qo‘shiqlar, ularning kuylarini bastalagan bastakorlar va shoirlar haqida ma‘lumot beradi. “Abul Faraj Isfahoniyni baytlarni joylashtirish vaqtida ba‘zan o‘sha baytlarga yaqin ma‘nodagi she’rlarni ham qo‘shib keltirgan, chunki vaziyat shuni talab qilgan. Bu asarda keltirilgan bastakorlar zamon yoki martabalarini e‘tiborga olib tartiblanmagan”. Bunda u Abu Tammom va Al Buxturiy to‘plamlarida kiritilgan shoirlarni kiritmaydi. Aksincha ularning to‘plamlariga kirmay qolgan shoirlar haqida ma‘lumot, uning she’rlari hamda qo‘shiqlarini kiritgan. Shuningdek unda islomgacha va islomning ilk davrlariga yuz bergan qiziqarli voqealarni ham kiritgan.

1. Ibn ash-Shajariy va Abu Zayd al-Quraysh tomonidan tuzilgan arab she’rlaridan iborat she’riy to‘plam.

Bayozlarning arab diyorlaridan turkiy adabiyotga ko'chishida Ibn Mammotiyning 1200-1207-yillarda tuzgan "A'lom un nasr" ("G'alaba bayroqlari") asarining o'rni bor. "To'plam bir necha bobdan iborat bo'lib, unda jami 80 dan ortiq shoir ijodiga mansub bo'lgan she'riy parchalar muayyan tartib bilan joylashtirilgan. To'plamda nomlari uchraydigan shoirlarning aksariyati abbosiy davri va ba'zilar qadimgi davrda yashab ijod etgan. Shuningdek to'plamda avtor noma'lum bir qancha she'rlar ham uchraydi. Ana shu xususiyatlar bu asarni o'zbek va fors-tojik adabiyotidagi bayozlarga ancha yaqinlashtiradi". Ushbu asarda amal qilingan she'rlarni boblarga bo'lib joylashtirish prinsipi arab shoirlari va tuzuvchilarining bayoz tuzishda qat'iy qoidaga amal qilganini ko'rsatadi.

Demak, arab she'riyatini yozib olishga bo'lgan harakat VIII asrdayoq Hammad ar-Raviy tomonidan boshlab berilgan bo'lsa, uning takomili Abu Tammom faoliyati bilan bog'lanadi. Abu Tammomdan keyingi shoirlar esa bu an'anani davom ettirgani holda uning tuzilishlarida o'zgartirishlar kiritishgan. O'rta Osiyoga bayozchilikning kirib kelishida Ibn Mamotiyning alohida o'rni bo'lgan ekan. Bundan shu xulosaga kelish mumkinki, VIII asrdayoq turli davrlarda yashab o'tgan arab shoirlarining she'rlarni to'plab kitob holida keltirish shakllanib bo'lganligini ko'rish mumkin. Biroq O'rta Osiyoga bayozchilik an'anasi aynan qachon kirib kelgani haqida hozircha aniq bir ma'lumotga ega emasmiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ханна аль-Фахури. История арабской литературы. 1 том. Издательство Иностранной Литературы. Москва. 1959. С 37-51
- 2.Осипова К.Т.. «Винные стихи (хамрийят) в арабской классической поэзии VI - IX ВВ.: генезис и эволюция» Москва 2007 С 22
- 3.Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. – Тошкент: Фан. 1976, 81 б
- 4.Гибб Х.А. Арабская литература (классический период) Москва: ИВЛ, 1960 С 15;
- 5.[https://royallib.com/read/gibb\\_h/arabskaya\\_literatura.html#40960](https://royallib.com/read/gibb_h/arabskaya_literatura.html#40960) 16.03.2024
- 6.Крачковский И.Ю. Избранные произведения, том 2. – Москва: Изд-во АН СССР, 1956 стр 128-138
- 7.Тўхтиев Ш. Ислом манбашунослиги фанидан маърузалар матни. – Тошкент: 42 бет
- 8.Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. – Тошкент: Фан. 1976. 82 бет

## THE STYLISTIC FEATURES OF POLITICAL TEXTS ATTRACT THE ATTENTION OF THE PUBLIC

*Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna*  
*PhD teacher at Fergana State University*

*Annotation: The stylistic features of political texts play a crucial role in capturing the attention of the public. Politicians and public figures often use various linguistic tools to convey their messages effectively and engage with their audience. These features include rhetorical devices like repetition, parallelism, and emotive language, which can evoke strong emotions and create a sense of urgency or importance. Additionally, the use of vivid imagery, anecdotes, and persuasive language techniques can help politicians connect with the public on a more personal level, making their messages more memorable and impactful. By carefully crafting their language and employing persuasive techniques, political figures can influence public opinion, shape narratives, and ultimately garner support for their causes or campaigns.*

*Keywords: Alliteration, emotional arguments, ethics, aesthetics, euphemistic constructions, antithesis.*

## СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ ПРИВЛЕКАЮТ ВНИМАНИЕ ОБЩЕСТВЕННОСТИ

*Адамбоева Нафиса Кодирбергановна*  
*Кандидат наук, преподаватель Ферганского государственного университета*

*Аннотация: Стилистические особенности политических текстов играют решающую роль в привлечении внимания публики. Политики и общественные деятели часто используют различные лингвистические инструменты для эффективной передачи своих идей и взаимодействия с аудиторией. Эти особенности включают в себя риторические приемы, такие как повторение, параллелизм и эмоциональный язык, которые могут вызывать сильные эмоции и создавать ощущение срочности или важности. Кроме того, использование ярких образов, анекдотов и методов убедительного языка может помочь политикам установить связь с общественностью на более личном уровне, делая их сообщения более запоминающимися и впечатляющими. Тщательно разрабатывая свой язык и используя методы убеждения, политические деятели могут влиять на общественное мнение, формировать нарративы и, в конечном итоге, заручиться поддержкой своих идей или кампаний.*

*Ключевые слова: аллитерация, эмоциональные аргументы, этика, эстетика, эвфемистические конструкции, антитеза.*

## SIYOSIY MATNLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI JAMOATCHILIK E'TIBORIDA

*Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna*  
*Farg'ona Davlat Universiteti katta o'qituvchisi, PhD*

*Annotatsiya: Siyosiy matnlarning uslubiy xususiyatlari jamoatchilik e'tiborini jalb qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Siyosatchilar va jamoat arboblari ko'pincha o'z xabarlarini samarali etkazish va tinglovchilari bilan muloqot qilish uchun turli xil lingvistik vositalardan foydalanadilar. Ushbu xususiyatlar takrorlash, parallellik va emotsional til kabi ritorik vositalarni o'z ichiga oladi, ular kuchli his-tuyg'ularni*

*uyg'otishi va zudlik yoki ahamiyat hissini yaratishi mumkin. Bundan tashqari, yorqin tasvirlar, latifalar va ishonarli til texnikasidan foydalanish siyosatchilarga jamoatchilik bilan shaxsiy darajada aloqa o'rnatishga yordam beradi va ularning xabarlarini yanada unutilmas va ta'sirli qiladi. Siyosiy arboblarning o'z tillarini sinchkovlik bilan ishlab chiqish va ishontirish usullarini qo'llash orqali jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatishi, hikoyalarni shakllantirishi va oxir-oqibat o'z sabablari yoki kampaniyalarini qo'llab-quvvatlashi mumkin.*

*Kalit so'zlar: Alliteratsiya, hissiy dalillar, etika, estetika, evfemik konstruktsiyalar, antiteza.*

**INTRODUCTION.** Since ancient times, political rhetoric has been at the center of the attention of many orators. Rhetoric was considered a valuable skill of communication. Nowadays, political leaders are concerned about their use of language, too. They often pay attention to various rhetorical techniques how to enhance their ideas. Politicians participating in debates and public speaking activities usually construct arguments that explain or persuade, proving those arguments. Moreover, speakers who truly want their words to be memorable employ a variety of stylistic devices to figuratively illustrate their ideas. A good orator's speech depends not only on the collection of statements worthy of belief but also on the logical and progressive arrangement and an effective style. Politics is supposed to be an incredibly emotional subject. It is evident that logical arguments have the strongest direct effect on the mind, emotional arguments influence feelings, and aesthetic arguments stimulate imagination.

**METHODS.** Arguments more or less depend on the emotional status of the audience and the emotional content of the argument. So, it may be true that people's feelings regularly carry much more drive than their reason. Lawmakers can be recognized by the identifiable propensities of speech, which oversee the linguistic structures and gadgets they use to extend the effect of their thoughts. An author can utilize a range of explanatory methods joined into the dialect used to influence the peruser. In other words, a great speaker understands not only how to communicate with a gathering of people but also how to impact and influence others. Influencing includes being able to persuade others to require fitting activities. How the author chooses to characterize issues, bolster claims, approve premises, and state conclusions is pivotal to whether an audience is likely to acknowledge a contention or not. It is famously accepted that to get it, politicians' thoughts of individuals ought to be more accurate and to pay more consideration to what is said. That's why politicians' addresses are considered repetitive, and it is troublesome to see the thoughts that are displayed by politicians. Concerning Mio, "metaphors allow the general public to grasp the meanings of political events and feel a part of the process". Hayes depicts that "politicians have also recently started to show an interest in metaphor as a means of engaging with people.

## RESULTS

Of course, political speech writers have long been aware of the power of metaphors, but what seems to be different now is how metaphor-laden speeches are being constructed to appeal to the emotions of the audience". The politician not only fills his political text with linguistic riches, but creates it into a perfect text based on subtle devices in ethics, aesthetics, sociology, psychology, logic, and literature. In more detail, it means that the speech-language should fulfill at least these functions:

- to present the sound and correct political opinion;
- to attract the audience and make them into serious thinking;
- to move and persuade them to accept the speaker's viewpoints;

- to encourage the audience to do what the speaker wants them to do.

Specific characteristics of political discourse are the following four features:

- 1) agonistic ability;
- 2) aggressiveness;
- 3) ideological character;
- 4) theatricality.

It is widely used from stylistic features to characterize political texts specifically, whether that text is oral or written. In both forms, stylistic techniques are used to enhance the appeal of the speech and to engage the public. Below are the most commonly used stylistic features of them. Alliteration is the most frequently used stylistic device, which is one of the powerful speechmaking techniques that guarantee the success of the speech. It helps to make the speech more influential and effective. In the literature, the definition of alliteration varies. For quantification, alliteration must be unambiguously defined. Here, it is noticed following seven criteria :

1. Phonology (not orthography) determines what alliterates. No ‘eye-alliteration’ is included. (in an augural, addresses are written, first and foremost, for a listening audience) such as citizens of the Senate, five Let Every Nation Know, six Justice and Generosity,

2. Repetition is not counted as an alliteration. Repetition is a different rhetorical device. Example: ill-housed, ill-clad, ill-nourished, high even six power to stop evil, power to do good.

3. Only content words (nouns, verbs, adjectives, adverbs), i.e., words that are chosen and not required by the grammar, are looked at. (function words cannot be chosen to the extent that content words can) included perils and penalties, freedom impelled, and independence inspired today or tomorrow.

4. The initial sounds of words have been looked at, not the stressed syllables. (Initial word selection is not likely to happen based on stress placement in any given word) included reconstruction, readjustment, and restoration.

5. Only three words can intervene between the words that are counted to alliterate. (Alliteration is based on proximity of alliterating elements.) such as the fulfillment of our whole faith.

6. Words are not treated as alliterating if they cross a sentence boundary. (Alliteration is conventionally understood as a sentence – internal or phrasal phenomenon.) excluded: ... our whole people. May we pursue ....

7. Proper names and titles have not been counted. (Like function words, proper names are not chosen by the speaker to the extent that content words are.) excluded: Senator Mitchel, Speaker Wright, Senator Dole....

Another stylistic highlight found within the discourse and commonplace of English political addresses is euphemistic constructions. Euphemism is the language reflection of Social culture . Therefore, changes in social development will propel those in language. In each international vicissitude, political euphemism will be booming. Due to the US’s important role in international politics as well as its dynamic domestic politics and economy, rich soil is provided for the creation of political euphemism. For example, from US economic decline are “recession,” “disinflation,” and “negative growth” created, hence giving birth to some euphemistic expressions such as “downsize” or “workforce adjustment.” After the Watergate Scandal, quite a few euphemistic expressions were produced to hide such political scandal. In addition, military actions are also an extension of politics. It is said that war has brought about not only death and destruction but new euphemistic expressions because they will make death sound less horrible. US Department of Defense named their air attack in Vietnam as “air support” and “protective action,”

their destruction over Vietnamese villages as “pacification program” and those homeless refugees as “ambient non-combat personnel. Similarly, deaths and injuries caused by their bombardment over other nations were expressed as “collateral damage.” It is no wonder that the English Teachers’ Council of the US once awarded the Best Political Euphemism Award to its Department of Defense. It is shown in the above analysis that political euphemism is different from others expressing physical phenomena or used in other fields, such as in career, because it is equipped with obvious political language characteristics. Political language is neither romantic as literature nor precise as that in foreign trade but purpose-oriented. Political euphemism is made in political life and serves political purposes. Generally speaking, it could be an instrument for political participants to cover up embarrassments, mask the truth, and direct public considerations when examining social issues or occasions. Parallelism, combined with other stylistic devices like repetition and antithesis, is the next most frequently used stylistic device in English political speeches. The word “Parallelism” is derived from the Greek ‘*paralelas*’ which means phrases or sentences of similar construction and meaning placed side by side, balancing each other. Parallelism has the power to produce foregrounding in a text by inviting the reader to search for the meaning and connections between parallel structures. Thus, foregrounding is not only a result of linguistic deviation but also a result of repetition and parallelism. The connection between parallelism and political speeches lies in the fact that politicians rely on linguistic repertoire to obtain and achieve their objectives and aims, one of these linguistic configurations is parallelism. For example, Parallel Sentences: «Three reasons were given for the concert’s cancellation: the lead singer was sick, ticket sales were low, and the drummer had left the band.»; «America is stronger because of President Obama’s leadership, and I’m better because of his friendship.» ; «the young people who threw their hearts and souls into our primary»; «You’ve put economic and social justice issues front and center»; «And to all of your supporters here and around the country: I want you to know, I’ve heard you. Your cause is our cause. Our country needs your ideas, energy, and passion»; « He’s taken the Republican Party a long way from «Morning in America» to «Midnight in America.» He wants us to fear the future and fear each other.»; «Too many people haven’t had a pay raise since the crash. There’s too much inequality. Too little social mobility. Too much paralysis in Washington. Too many threats at home and abroad»; «We have the most tolerant and generous young people we’ve ever had. We have the most powerful military. The most innovative entrepreneurs. The most enduring values — freedom and equality, justice and opportunity»; «Trump ties in China, not Colorado. Trump suits in Mexico, not Michigan. Trump furniture in Turkey, not Ohio. Trump picture frames in India, not Wisconsin».

Another common stylistic device is a metaphor. Metaphors are the essential core of human thought and creativity. To take a metaphor means to take a political claim. The main rhetorical strategy used by McCain is metaphors, and the main metaphorical concept that underlies many of his arguments is what Lakoff calls THE STRICT FATHER MORALTY. Lakoff argues that this view of morality derives from a common conservative ideal model of what a family should be. According to this view, the parent knows what is best for the child. Morality has to be taught to the child by punishing immoral behavior and praising moral behavior. Subsequently, the ideal family model is extended to concern nations where the parent is equivalent to the leader of the nation, or one nation is understood as the leader of other nations. The first quote is an example of the state as a person, and the state is a leader metaphor; “... our nation showed its strength and its deep sense of global responsibility.” In this quote, the U.S. is presented as if it is a person who has strength and a sense of morality, similar to the way a person

has muscles and a mind. This sense of morality stretches as far as around the world. Consequently, The State as a person metaphor is extended and becomes the State as a leader metaphor. In addition, the nation is not just a leader of its citizens; it is a global leader, the USA is the moral leader metaphor. In the following quote, The Fairy of the Just War metaphor is combined with a journey metaphor and additionally stressed by a three-part list; "...we have before us a hard road. But it is the right road. It is necessary and just." Here, McCain conveys an assurance of the action (war) to be purposeful, similar to the way a journey has a destination. The purpose is of a particular kind; it is a good and moral purpose, and therefore, the actors (America/the American soldiers) are heroes. To portray the war as if it is a gamble brings about thoughts of winning or losing money. While money represents a form of security, gambling represents a form of excitement. This is a metaphor and a three-part list. "Our most vital security interests are at stake in Iraq. The stability of the entire Middle East [...] is at stake. The United States' credibility as a moral and political leader is at stake." In addition, if something is at stake, there have been bets placed. Therefore, a withdrawal will result in losing these bets, and as long as you stay in the game, there are chances of winning. The gambling excitement overshadows the fact that the bets that are placed are real lives and not just the lives of soldiers but the lives of ordinary people who may never have wanted a war of any kind, not between nations and not within their nation.

The progressive increment in expression, which makes the following very regularly utilized elaborate device – the climax, is an indivisible portion of English political discourses. Another feature of political dialect is the utilization of Biblical references to God, particularly in introduction addresses it is utilized to pick up bolster. The Bible has been used both in the founding era and in subsequent eras:

- 1) to enrich a common language and cultural vocabulary through distinctively biblical allusions, phrases, figures of speech, proverbs, aphorisms, and the like;
- 2) to enhance the power and weight of rhetoric through its identification with a venerated, authoritative sacred text;
- 3) to identify and define normative standards and transcendent rules for ordering and judging public life;
- 4) to marshal biblical authority in support of specific political agendas and policy objectives;
- 5) to gain insights into the character and designs of God, especially as they pertain to God's providential oversight of the material world and, more specifically, His dealings with men and nations.

#### DISCUSSION

American politicians living in a society favorably disposed toward the Bible have long employed biblical language in their public discourse because, as an authoritative and sacred text, its mere invocation, some believe, lends rhetorical weight to their words. (This may be changing in an increasingly secular culture as evidenced by recent criticism of the presence of Bibles and scriptural readings at presidential inaugurations.) The evocative use of biblical language stirs an audience's religious imagination. Such uses of Scripture, which sometimes mimic pulpit oratory, are calculated to persuade by capturing an audience's attention (with, perhaps, the fear of God), emphasizing the gravity of an idea or argument, solemnifying a discourse, projecting an aura of transcendence and truth, arousing a righteous passion, and/or underscoring an argument's moral implications or sacred connotations. The speech, reverberating with revivalistic fervor, was so permeated with biblical language that it read like a lay sermon. Henry lifted entire lines nearly verbatim from the King James Bible to emphasize the urgency of the



moment – phrases like “having eyes, see not, and, having ears, hear not” , “The battle . . . is not to the strong alone”, “to fight our battles for us,” “why stand we here idle, and “...is life so dear”. Other biblical phrases liberally seasoned the speech.

#### CONCLUSION

In general, the widespread use of stylistic styles in political texts below serves to further increase the community’s interest in political discourse. This, in turn, helps the speaker to have confidence in himself, to what extent he reveals the truth, and to express his emotions skillfully with words, phrases, slang, and word units.

#### BIBLIOGRAPHY

1. Mio J. S. Metaphor and Politiccs. Metaphor and Symbol. 1997. – P.113 -133.
2. Hayes S. C., Strosahl K. D. & Wilson K. G. Acceptance and Commitment Therapy, Second edition: The process and practice of Mindful change. – New York, The Guilford Press, 2011. – P.20 – 25.
3. Stepanyan L. Stylistic peculiarities of political speeches in English and Armenian. – YSU, p.3
4. Jonathan R. Alliteration in Culture. – Macmillan, published by Palgrave, 2011. – P. 49
5. Roosevelt T. An Inaugural address //Washington D.C. March 4, 1905.
6. Warren G. Harding Inaugural address //Washington D.C. March 4, 1921.
7. The Chance for Peace speech. The Speech of U. S. President Dwight D. Eisenhower. Washington D.C. on April 16, 1953.
8. The Speech of George H. W. Bush on Memphis Honoring Volunteers//Nov. 22, 1989.
9. Peng W. M., Yadong L. Learning to Compete in a Transition economy: Experience, Environment and Performance, 1999. – P. 269 -295.
10. Page C. Another War. Another Euphemism to Disguise the Horror of War //The Salt Lake Tribune, March 29, 2003.
11. Cuddon J. A. A dictionary of literary terms and literary theory. – Penguin Books, 1992.- P.187.
12. Short M. H. Exploring the language of poems, plays, and prose. – London: Longman, 1996. – P. 339.
13. Hillary Clinton’s speech at «the fourth and final night of the Democratic National Convention» in December 2016.
14. Lakoff, G. Metaphor, Morality and Politics, 1995. – 47 p.
15. Jeremiah 5: 21 – The New International Version. Bible.
16. Ecclesiastes 9: 11 – The New International Version. Bible.
17. Samuel 8: 20 – The New International. Bible.
18. Matthew 20:6 – The New International. Bible.

## 19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

### MURAKKAB HISOBLANGAN SPORT TURLARIDA SPORTCHINING EMOTSIONAL HOLATLARINI NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Eshnazarova Farida Jo‘raqulovna*

*Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologik jihatdan murakkab hisoblangan sport turlarida sportchining emotsional holatlarini namoyon bo‘lishi yuzasidan ma‘lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, sportchilarning emotsional holati darajasini o‘lchashda qo‘llaniladigan usullar, sportchilarning musobaqalardagi ishlash qobiliyatini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan psixologik intervensiyalarni rejalashtirish masalalari muhokama etilgan.*

*Kalit so‘zlar: sport, sportchi, sport turi, musoboqa, psixologik tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, motivatsiya.*

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ СПОРТСМЕНА В СЛОЖНОМ СПОРТЕ

*Эшназарова Фариди Журакуловна*

*Доцент Самаркандского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов физического воспитания и спорта, доктор философских наук (PhD)*

*Аннотация: В статье представлены сведения о проявлении эмоциональных состояний спортсменов в психологически сложных видах спорта. Также обсуждались методы, используемые для измерения уровня эмоционального состояния спортсменов, вопросы планирования психологических вмешательств, необходимых для улучшения результатов спортсменов на соревнованиях.*

*Ключевые слова: спорт, спортсмен, вид спорта, соревнования, психологическая подготовка, специальная подготовка, мотивация.*

### PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE MANIFESTATION OF AN ATHLETE'S EMOTIONAL STATES IN COMPLEX SPORTS

*Eshnazarova Farida Juraqulovna*

*Associate Professor, Samarkand Branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports, Doctor of Philosophy (PhD)*

*Abstract: This article presents information on the manifestation of the athlete's emotional states in psychologically complex sports. Also, the methods used to measure the level of the emotional state of athletes, the issues of planning psychological interventions necessary to improve the performance of athletes in competitions were discussed.*

*Key words: sport, athlete, type of sport, competition, psychological training, special training, motivation.*

Kirish. Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ertangi kuni, jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ommaviy sportning inson va oila hayotidagi roli, uning istiqbollari aynan jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarga o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishda sportning ahamiyati juda katta ekanligini doimo ta'kidlab kelinadi.

Hozirgi vaqtda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash va sportni takomillashtirish uzoq yillik va ko'p bosqichli jarayondir. Zero, sportchining mashg'ulotlariga adaptatsiyasi, musobaqalarga tayyorgarlik vazifalari, sportchi mahoratining jismoniy va psixik sifatlarining dinamikligi hamda strukturasi uning morfofunktsional va psixologik statusiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Psixologik jihatdan murakkab hisoblangan sport turlari orasida gimnastika, suzish, golf, boks va figurali uchish kabi sport turlari alohida o'rin tutadi. Ushbu sport turlari nafaqat jismoniy, balki kuchli psixologik bosimni ham talab qiladi. Sportchilarning ushbu turlarda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nafaqat jismoniy ko'nikmalarni mukammal egallash, balki shuningdek, o'zlarining psixologik holatlarini samarali boshqarish qobiliyatlarini ham rivojlantirish zarur. [1,52]

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda sport bilan shug'ullanayotgan yoshlarni jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish texnik, taktik, psixologik tayyorgarligi bo'yicha ilmiy izlanishlarni yetakchi mutaxassis va olimlar tomonidan olib borilgan. Ulardan F.A.Kerimov, T.S.Usmonxodjaev, J.A.Akramov, R.S.Salomov, R.Q.Qudratov, K.T.Shokirjonova, M.S.Olimov, R.D.Xolmuxamedov, N.T.To'xtaboevlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlarda sportchining faoliyati, uning psixologik tayyorgarligi sport musobaqasida muhim omillardan biri ekanligi tadqiq qilinadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan I.P.Volkov, G.M.Gagaeva, G.D.Gorbunov, E.P.Ilin, V.L.Marishchuk, V.A.Plaxtienko, A.T.Puni, P.A.Rudik, A.V.Rodionov, V.K.Safonov, T.N.Stambulova va boshqalar tomonidan sport psixologiyasida faoliyat, konkret sport turlarining psixologik xususiyatlari, sportning sportchilar rivojlanishiga ta'siri, sport natijalari darajasiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning akmeologik jihatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Natija va muhokama. Psixologik jihatdan murakkab hisoblangan sport turlarida sportchining emotsional holatlari turlicha darajada namoyon bo'ladi. Masalan, gimnastika sportchilardan nihoyatda yuqori darajada aniqlik va diqqat talab etadi. Har bir harakat aniq va muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak, bu esa sportchiga katta psixologik bosim yuklaydi. Gimnastikachilarning psixologik tayyorgarligi ularning musobaqalardagi ishlashini to'g'ridan-to'g'ri belgilaydi, chunki har qanday kichik xato ularning natijalariga jiddiy ta'sir qilishi mumkin. [3,32].

Suzishda esa, sportchilarning musobaqalar davomida o'zlarining psixologik holatlarini boshqarish qobiliyatlari alohida ahamiyatga ega. Uzun masofali suzish poygalarida sportchilar ko'pincha o'zlarini yolg'iz his qilishadi, bu esa ularga qo'shimcha psixologik bosim yaratadi. Ushbu sport turida sportchilar o'z diqqatlarini saqlab qolishlari va charchash hissini yengishlari kerak, bu esa katta psixologik mustahkamlikni talab qiladi.

Golf esa noyob psixologik qiyinchiliklarni taqdim etadi, chunki sportchilarga ko'p vaqt davomida o'z diqqatlarini jamlash va bir vaqtning o'zida sakrash qobiliyatini saqlash talab etiladi. Golfchilar o'zlarining har bir zarbasini diqqat bilan rejalashtirishlari va atrofdagi har qanday chalg'ituvchi omillardan qochishlari kerak, bu esa ularga psixologik jihatdan katta bosim yaratadi.

Boks va figurali uchish kabi sport turlari ham o'ziga xos psixologik qiyinchiliklarga ega. Boks sportchilari raqibning zarbalaridan himoyalaniish bilan birga, tezkor qaror

qabul qilish qobiliyatini namoyish etishlari kerak. Figurali uchishda esa, sportchilar mukammal texnik ko'nikmalar va musiqa bilan uyg'unlikni ta'minlashlari zarur, bu esa ularga qo'shimcha psixologik bosim yuklaydi.

Shunday qilib, psixologik jihatdan murakkab hisoblangan sport turlari, sportchilardan nafaqat jismoniy, balki kuchli psixologik tayyorgarlikni ham talab qiladi. Ushbu sport turlari sportchilarga o'zlarining psixologik barqarorliklarini saqlab qolish va bosim ostida samarali ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Sportchini asosiy harakatlardan chalgituvchi kuchli salbiy his - tuygular bilan bog'liq fikrlardir. Bu fikrlar sportchi ongida yetakchi bo'lib ular asosiy harakatlarni buzilishiga olib keladi. Sportchi musobaqalar davomida quyidagilarni o'z boshidan kechiradi.

- Jarohat olishdan qo'rqish, masalan, harakalarni keragidan kam darajada bajarish.
- O'z raqibining darajasi yuqoriligidan qo'rqish.
- Hakamlarni noto'g'ri harakatlar to'g'risiga fikrlar.
- Yutqazib qo'yishdan qo'rqish.
- Tomoshobinlarning munosabati bilan bog'liq fikrlar.

Demak mana shu vaziyatlar ham sportchida emotsional holatlarini namoyon bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. [4,5].

Sportlardagi emotsional harakatlar sport musobaqalari jarayonida vujudga keladi. Harakatning kuchlanish dinamikasi raqib bilan musobaqalashishda katta kuchlanish va qiyinchiliklarni yengishda paydo bo'ladigan irodaviy faollik, sportchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish yo'lida ko'rinadi. Bularning hammasi sport faoliyati jarayonida paydo bo'ladi. Yuqori kuchlanish bilan emotsionallik holatning o'zgarishi: xursandlik bilan xafagarchilikning almashinib turishi yoki aksincha, qarama – qarshi o'zgarish, ya'ni xafagarchilik va g'azablanish, yana ishonch, xursandchilik, g'alaba, yaxshi kayfiyat va boshqa emotsional xususiyatlar egallashi tabiiy holatdir. Aynan shu holat sportchi ruhiy holatini boshqarish muammolarini keltirib chiqaradi.

Sportchilarning emotsional holati darajasini o'lchashda bir qator ilmiy usullar qo'llaniladi. Bu usullar orqali sport psixologlari sportchilarning emotsional barqarorligini, tashvish darajasini, motivatsiya holatini va boshqa psixologik ko'rsatkichlarni aniq baholay oladilar. Ushbu o'lchovlar sportchilarning musobaqalardagi ishlash qobiliyatini yaxshilash uchun zarur bo'lgan psixologik intervensiyalarni rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Birinchi va eng keng tarqalgan usul bu so'rovnomalar va standartlashtirilgan testlardir. Masalan, POMS testi sportchilarning kayfiyat holatini o'lchashda juda mashhur. Bu test orqali sportchilar tashvish, depressiya, g'azab, charchash va boshqa kayfiyat holatlarini baholay oladilar.

Ikkinchi usul bu fiziologik ko'rsatkichlarni o'lchashdir. Masalan, yurak urish tezligi, terlash darajasi, va nafas olish tezligi kabi ko'rsatkichlar sportchilarning stress va tashvish holatlarini aniq o'lchashga yordam beradi. Bu ma'lumotlar, sportchilar musobaqa davomida qanday emotsional holatda ekanligini aniqroq tushunishda yordam beradi.

Uchinchi usul, kuzatuv va atroflicha tahlil qilishdir. Bu usulda, sport psixologlari sportchilarni mashg'ulot va musobaqa davomida kuzatib, ularning emotsional ifodalari va xulq-atvorlarini diqqat bilan kuzatishadi. Bu kuzatuvlar, sportchilarning emotsiyalarga qanday javob berishini va bu holatlarini qanday boshqarishini aniqroq tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi usul, suhbat va muloqot asosida olib boriladigan psixologik baholashlardir. Bu jarayonda sport psixologlari sportchilar bilan chuqur suhbatlar o'tkazib, ularning emotsional holatlarini, shaxsiy tajribalarini va musobaqa davomida boshdan kechirgan

hissiyotlarini tushunishga harakat qiladilar. [3,70].

Xulosa. Ushbu usullar yordamida sport psixologlari sportchilarning emotsional holatlarini samarali o'ldiradilar va ular uchun eng mos keladigan psixologik yordam va intervensiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Natijada, bu o'lovlar sportchilarning musobaqa ishlash qobiliyatlarini yaxshilash va ularning ruhiy salomatligini saqlashda katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, sportchilarning musobaqa davomida ruhiy holatini optimallashtirish, ularga eng yaxshi ishlash imkonini beradi. Ushbu texnikalar sportchilarga o'zlarining emotsiyalarini samarali boshqarish, stress va tashvishlarni kamaytirish va musobaqa sharoitida psixologik jihatdan mustahkam bo'lish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1.Y.M.Masharipov, F.J.Eshnazarova. Sport psixologiyasi. Uslubiy qo'llanma. (to'ldirilgan ikkinchi nashr) - Samarqand: 2020. -105 b.

2.Волков Н.И., Карасев А.В., Разумовский Е.А. Критерии специальной работоспособности и построение тренировки в беге на короткие дистанции. В сб. «Современный взгляд на подготовку легкоатлетов» Монография под редакцией Е.Е. Аракеяна, Ю.Н. Примакова, М.П. Шестакова. Москва., 2006., с. 32-52.

3.Граевская Н.Д., Долматова Т.И., Лакин В.В., Лаптева К.В. Применение новых технологий в спортивной медицине //Теория и практика физической культуры, 2007, №7с. 67-71

4.Xalbayeva.G.A. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -Samarqand: SamDU nashri, 2021 y. - 296 bet.

5.X.X.Jabborov, O.R.Avezov, N.Z.Jumaev. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Durdona" nashriyoti. 326 b.

6.<https://www.sports.ru/>

## **YOSH PEDAGOGNING KASBIY RIVOJLANISHIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI**

*Jamolova Mahmuda Husenovna*

*Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti  
1-bosqich tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagoglar kasbiy faoliyatlarini rivojlantirish jarayonida duch keladigan muammolardan kasbiy qoniqish va g'azabga doir ma'lumotlar keltirilgan. Oliy ta'limda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar kasbiy qoniqishi uchun qulay mehnat sharoitlari, kasbiy rivojlanish uchun imkoniyatlarining mavjudligi, ish yuklamalari, o'qituvchilik mavqeyining yuqoriligi asosiy ekanligi bayon etilgan. Shuningdek, o'qituvchilar eng ko'p duch keladigan hissiyotlardan biri g'azab bo'lib, bunga talabalarning xatti-harakatlari, ota-onalarning munosabati, hamkasblar va ma'muriyat, gender farqi sabab bo'lishi mumkin. Ta'lim jarayonida g'azabni boshqarishda kognitiv xulq-atvor yondashuvi va amaliy ko'nikmalar foydali ekanligi ta'kidlangan.*

*Kalit so'zlar: o'z kasbidan qoniqish, g'azab, pedagog, kasbiy o'zlikni anglash, kollegial hamkorlik, kognitiv xulq-atvor yondashuvi.*

## **IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF A YOUNG TEACHER SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS**

*Jamolova Mahmuda Husenovna*

*Institute for the Study of Youth Problems and Training of Prospective Personnel  
1st stage Phd student*

*Abstract. This article presents information on professional satisfaction and anger with the problems faced by pedagogues in the process of developing their professional activities. It was stated that favorable working conditions, availability of opportunities for professional development, workload, and high teaching position are the main factors for the professional satisfaction of teachers working in higher education. Also, one of the most common emotions teachers face is anger, which can be caused by student behavior, parental attitudes, colleagues and administration, and gender differences. In the educational process, it is emphasized that the cognitive-behavioral approach and practical skills are useful in anger management.*

*Key words: satisfaction with one's profession, anger, pedagogue, professional identity, collegial cooperation, cognitive behavioral approach.*

## **В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ МОЛОДОГО ПЕДАГОГА СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ**

*Джамолова Махмуда Хусеновна*

*Институт изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров  
Докторант I ступени*

*Аннотация. В данной статье представлена информация о профессиональной удовлетворенности и недовольстве проблемами, с которыми сталкиваются педагоги в процессе развития своей профессиональной деятельности. Установлено, что благоприятные условия труда, наличие возможностей для профессионального развития, нагрузка и высокая преподавательская должность являются основными факторами профессиональной удовлетворенности преподавателей, работающих*

в сфере высшего образования. Кроме того, одной из наиболее распространенных эмоций, с которыми сталкиваются учителя, является гнев, который может быть вызван поведением учеников, отношением родителей, коллег и администрации, а также гендерными различиями. В образовательном процессе подчеркивается, что в управлении гневом полезны когнитивно-поведенческий подход и практические навыки.

*Ключевые слова:* удовлетворенность своей профессией, гнев, педагог, профессиональная идентичность, коллегиальное сотрудничество, когнитивно-поведенческий подход.

**Kirish.** Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, huquqiy jihatdan rivojlanishi kadrlar salohiyati va ularning samarali faoliyat olib borishlariga bog'liqdir. Ayniqsa O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng pedagoglar soni va mavqeyini oshirishga katta e'tibor bermoqda. Rasmiy tan olingan manbalardan tuzilgan Jahon banking rivojlanish ko'rsatkichlari to'plamiga ko'ra, O'zbekistonda oliy ta'lim dasturlari bo'yicha har ikki jinsdagi o'qituvchilar soni 2008-yilda 24000 ni, 2019-yilda 26664 nafarni tashkil qilgan [15]. Keying 5 yil ichida oliy ta'limdagi pedagoglar soni 67% ga ko'payib, 2024-yilda 44553 nafarni tashkil etmoqda. Shulardan 23,57% fan nomzodi, 5,25% fan doktori, 15,71% dotsent, 4,21% professorlarni tashkil etadi [16]. Albatta bu ko'rsatkichlar pedagoglar umumiy sonidan anchagina kam, biroq mamlakatimizda oliy ta'limga, oliy ta'limdan keying ta'limga katta e'tibor berilib, professor-o'qituvchilar sonini ko'paytirishga harakat qilinmoqda. Buni mamlakatda 2024-yil holatiga ko'ra 9938 nafar tayanch doktorant, 14501 nafar mustaqil tadqiqotchi fan nomzodligi uchun ilmiy tadqiqot olib borayotganida ham ko'rish mumkin [17]. Yildan-yilga oliy o'quv yurtlarida yosh pedagog kadrlar soni ko'paymoqda. Buning birinchi sababi yoshlarga o'z mehnat faoliyatlarini boshlashda yengilliklar berilayotgani bo'lsa, ikkinchi tomondan, mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari sonining ko'payishini aytish mumkin. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Oliy o'quv yurtlarida yosh pedagoglar soni ko'payib borayotgan ekan ular qanchalik kasbiy faoliyatlariga ruhan tayyor? Pedagog kasbiy faoliyatida yuksak natijaga erishishi, qadr topishi uchun bilim, salohiyatning o'zi yetarlimi yoki hissiyotlar ham ma'lum rol o'ynaydimi?

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tajribalar tahliliga ko'ra, hamda olimlarning ilmiy asarlarida asosan pedagog shaxsi psixologik portretida - bilimli, malakali, qobilyatli va o'quvchi-talabalar bilan samarali muloqot qila oladigan, ularni hissiyotlarini tushunadigan bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Albatta bular pedagogning kasbiy o'zligini anglashda muhim xususiyatlar hisoblanadi. Ammo o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida duch keladigan muammolar borki ularning ruhiyatiga ta'sir qilib, salbiy hissiyotlarni vujudga keltiradi. Chunki o'qituvchilar talabalar, ota-onalar, hamkasblar va rahbarlar bilan o'zaro aloqada bo'lib, talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilishi, ayni damda rahbar bo'lish kabi keng ko'lamlil vazifalarni bajarishi kerak bo'ladi. Ushbu maqolada biz o'qituvchining o'z kasbidan qoniqishi, ish faoliyati davomida yuzaga keladigan g'azab, ularning idroklari va xatti-harakatlari ta'lim jarayoniga ta'sir qiladigan tizimning bir qismi sifatida ko'rib chiqamiz.

Nazariy qism

Tuyg'ular juda qiyin tuzilmalar bo'lib, ularni ilmiy jihatdan aniqlash va empirik tarzda qo'lga kiritish qiyin. Olimlardan K.Mulligan, K.R Scherer, fikrlariga ko'ra, his-tuyg'ular shaxs va uning atrof-muhit o'rtasidagi bog'lovchi vosita sifatida ko'rib chiqilib, voqealar va ijtimoiy kontekstlar, shaxsning xatti-harakatlari va tajribalari o'rtasida doimiy vositachilik qiladi. His-tuyg'ularni markaziy asab va periferik-

fiziologik reaksiyalarning sinxron, izchil shakllari sifatida tushunish mumkin, ular harakat tendentsiyalarida, yuz, ovoz toni va imo-ishoralarda aks etadi, ular sub'ektiv tajribalar bilan birlashadi [10]. Masalan, g'azablanish holatida odam o'zini juda salbiy tutadi va unda qo'zg'atuvchiga nisbatdan "kurash" istagi paydo bo'ladi. Bunda qovog'ini solib, qo'rqinchli imo-ishoralari qiladi. Shunday qilib, his-tuyg'ular muhim motivatsion ta'sirga ega, chunki ular maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni qo'zg'atishi va qo'llab-quvvatlashi mumkin [3]. Bundan tashqari, N.H. Frijda o'qituvchilarning ta'lim berishdan zavqlanishi va hissiy charchashini jamoaning qo'llab-quvvatlashi va dars jadvallarning tuzilishiga qarab o'zgarishini ta'kidlagan [4].

Pedagoglar kasbiy o'zliklarini angalashda avvalo o'zlari faoliyat olib borayotgan kasblaridan qoniqishni his qilishlari lozim. Aniqroq aytganda, o'qituvchilarning ishidan qoniqishi ularning ish yuki, hamkasblari bilan hamkorligi va talabalar intizomi, va o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lgan omillardir. Bundan tashqari, o'qituvchilar ishidan qoniqishning ikkita asosiy komponenti e'tirof etiladi: ishning qulayligi va ishni bajarilishi. Birinchisi, ish sharoitlari shaxs uchun qanchalik qoniqarli ekanligini bildirsa, ikkinchisi ishning mazmunli jihatlari doirasidagi shaxsiy yutuqlardan qoniqish darajasini bildiradi. Ishdan qoniqish nafaqat o'qituvchilarining farovonligiga, balki o'qituvchilik kasbiy mavqeini oshirishga yordam beradi. O'z kasbidan mamnuniyatni his qilgan pedagog yanada samarali dars berishga harakat qiladi. Buning natijasida o'quvchi va talabalarining bilim darajasi oshadi. Bunda pedagogga nisbatdan o'quvchi va ularning ota-onalari tomonida qoniqish va hurmat paydo bo'ladi.

O'qituvchilar kasbidan qoniqishi ish sifati bilan ham bog'liqdir. Toropova, A., Myrberg, E., & Johansson, S. kabi olimlar tomonidan o'qituvchilarning ish sifatini ta'minlaydigan eng muhim omillar sifatida yetarli resurslar, belgilangan ish yuklamasi, kollegial hamkorlik, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, yetakchilikni qo'llab-quvvatlash va qarorlar qabul qilish qobiliyatlari ekanligini o'z tadqiqotlarida bayon etilgan [13]. Xalqaro kontekstda S.Sims dunyoning 35 mamlakatidagi o'qituvchilarni 2013-yildagi Ta'lim va o'rganish bo'yicha xalqaro tadqiqoti (TALIS) ma'lumotlariga asoslanib, ta'limdagi muhitni va ish sharoitlarini tahlil qildi. U talabalar intizomi va o'qituvchilar hamkorligi barcha mamlakatlarda o'qituvchilar ishidan qoniqish bilan ijobiy bog'langanligini aniqladi [12]. AQShda o'qituvchilar ishdan bo'shashlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchilar o'rta yoshli hamkasblariga qaraganda ko'proq maktablarni tark etishi va asosan ayollar ishdan bo'shash ehtimoli ko'proqligi kuzatildi. Bu natijalar, asosan, yosh ayol o'qituvchilarning oila tarbiyasi sabab ish joylarini tark etishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin; ammo, bu o'qituvchilar ham keyinroq ta'lim tizimiga qaytishga ko'proq moyil bo'lishlari ta'kidlangan [1].

Kasbiy faoliyat davomida pedagoglar eng ko'p duch keladigan hissiyotlardan biri bu g'azablanish bo'lib, o'zlari va talabalar uchun salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. G'azablanish odatda shaxsning noroziligidan, tanqid qilinishidan, nafratlanishidan yoki to'sqinlik qilishidan kelib chiqadigan kuchli norozilik, bezovtalik va dushmanlik hissi sifatida tavsiflanadi. Yolg'izlanib qolish hissi odatda ob'ektlarga zarar yetkazish niyatiga olib keladi. Kengroq ma'noda Kassinove, Sukhodolsky, Maşarogullari, Koçakgöl kabi olimlar g'azablanishni ijtimoiy, psixologik, nevrologik, gormonal, atrof-muhit omillariga ega bo'lgan va kimningdir rejalari, ehtiyojlari va umidlari amalga oshganda yoki ulardan mahrum bo'lganda adolatsiz munosabatlarda paydo bo'ladigan asosiy insoniy tuyg'ulardan biri sifatida ta'riflaydilar [8]. Bundan tashqari, Frenzel, Goetz, Pekrun va Yakoblar o'qituvchining g'azabi ta'lim samaradorligiga, Klassen, Perry, & Frenzellar esa talabalar bilan ijobiy qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar o'rnatishga putur yetkazishini aniqlashgan [5]. Oliy ta'limda o'qituvchilarning g'azabi va hissiyotlari



bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar odatda salbiy his-tuyg'ularni nazorat qilishni maqsad qilgan bo'lsa-da, hissiyotlarni namoyish qilishga to'g'ri keladigan holatlar ham mavjud. Talabalar g'azab ifodalarini noto'g'ri va shiddatli deb bilishadi bu esa ularning ta'lim olishiga salbiy ta'sir qiladi. Boshqa bir guruh olimlarning ta'kidlashicha, g'azab zarur paytda e'tiborni chalb qilish uchun foydali o'qitish usuli bo'lishi mumkin. Bu esa g'azab salbiy hissiyot degan tushunchaga qarshi turadi. Biroq o'qituvchilarning g'azab darajasi o'qitiladigan guruh darajasi va ishdan qoniqish kabi omillarga qarab o'zgarishi mumkin, bunda o'smirlarga dars beradigan va o'z kasbini yoqtirmaydiganlar, boshlang'ich sinflarga qaraganda g'azablanish darajasi yuqori bo'ladi [9]. Aytish joizki, o'qituvchilarning g'azablanish holati hatto etnik jihatdan ahamiyatga ega. Misol uchun avstraliyalik o'qituvchilar ko'proq ijobiy his-tuyg'ularni ifodalab, g'azablarini bostirishga harakat qilishadi. Nemis hamkasblari ko'proq g'azablanishadi va buni oshkora namoyish etishadi. O'zbekistonlik pedagoglar esa g'azablanadigan vaziyatlarni yuzaga keltirmaslikka harakat qilishadi.

Kummings, Vogel, va El-Sheikh tomonidan kattalarning g'azabini ifodalash uslubi va ularning bolalari bilan munosabatlariga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kattalarning tajovuzkor xatti-harakatlari bolalarda stress yoki g'azabni keltirib chiqaradi va bolalar kattalarga taqlidan salbiy reaksiyalarni ko'rsatishadi.

M.Mertog'lu, olib borgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning jinsi, martabasi yoki o'z kasblariga qiziqishlari g'azablanishlariga sezilarli ta'sir o'tkazmaydi. Shuningdek, o'z kasbini yoqtiradigan o'qituvchilarning g'azabni boshqarish bo'yicha ko'rsatkichlari kasbini yoqtirmaydiganlarga qaraganda yuqori bo'lgan. Binobarin talabalarning shaxsiy rivojlanishi va akademik muvaffaqiyatlariga erishishi uchun tinch va ijobiy ta'lim muhitiga ega bo'lish juda muhimdir [9]. Quyidagi bo'limlarda o'qituvchilardagi g'azabning manbalari, ta'siri va uni boshqarish guruhlarga bo'lingan.

#### G'azablanish manbalari

•Talabalarning xatti-harakatlari: O'qituvchilar ko'pincha talabalarning dangasaligi va noto'g'ri xatti-harakatlari asosida g'azabni boshdan kechiradilar, bu ularning ta'lim maqsadlariga to'sqinlik qilishi mumkin.

•Ota-onalar: G'azab - farzandiga g'amxo'rlik qilmaydigan yoki mas'uliyatsiz bo'lgan ota-onalar bilan o'zaro munosabatlardan kelib chiqishi mumkin.

•Hamkasblar va rahbariyat: Hamkorlik qilmaydigan hamkasblar va ma'muriy bosimlar o'qituvchilarning axloqiy va kasbiy maqsadlariga to'sqinlik qilganda ularning g'azablanishiga olib keladigan muhitni yaratishi mumkin. Shuningdek, rahbariyat mehnat qonunchiligini buzishi, rag'batlantirish tizimini nomukammal tashkil etishi, pedagoglar o'rtasida ish yukining notekis taqsimlanishi salbiy his-tuyg'ular va nizolarga sabab bo'ladi [14].

•Gender farqlanish: Ayol o'qituvchilar erkaklarga nisbatdan ko'pincha mehnat va oilaviy munosabatlardagi parallel sabab qo'shimcha hissiy bosimlarga duch kelishadi, bu esa ularda stress, depressiya, hasad, g'azab tuyg'ularini kuchaytirishi mumkin.

•Ta'lim tizimi: Ta'lim tizimidagi tez o'zgaruvchan yondashuvlar, yetarli bo'lmagan moddiy-texnik va o'quv uslubiy resurslar, o'qituvchilar orasida umidsizlik va g'azab hislarini kuchaytirishi mumkin, chunki ular ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun faoliyat olib boradilar [12].

#### G'azabning ta'siri

•Kognitiv jarayonlar: Odatda g'azab o'qituvchilar kognitiv resurslarini kamaytirishi bilan pedagogik samaradorlik va talabalarning ishtirokini pasaytirishi mumkin.

•Rahbariyat bilan munosabatlar: O'qituvchilarning rahbariyatga bo'lgan g'azabini ochiq ifodalashi turli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, bu esa tashkilot ichidagi ish muhitini hamda o'quv jarayonini beqarorlashtiradi. Birinchidan, rahbariyat va

o'qituvchilar o'rtasidagi ishonch yo'qolishi mumkin, natijada muhim qarorlar qabul qilish jarayonida muloqot va hamkorlikka zarar yetadi. Bu jarayonda o'qituvchilarning ish motivatsiyasi pasayadi va ular o'z vazifalarini layoqatsiz bajarishlari mumkin. Shuningdek, bunday salbiy munosabat o'quvchilarga ham ta'sir qilishi ehtimoldan holi emas, chunki o'qituvchilarning ruhiy holati o'quvchilarga ta'lim jarayonida aks etishi mumkin.

G'azabni boshqarish strategiyalari

•Kognitiv xulq-atvor yondashuv: Novakoning fikriga ko'ra, g'azab shakllanishi va uning kechishida kognitsiyalar (ya'ni fikrlash jarayonlari) muhim rol o'ynaydi. Bu nuqtai nazar shuni anglatadiki, g'azabni keltirib chiqaradigan narsa hodisa yoki vaziyatning o'zi emas, balki shaxsning ushbu hodisani qanday qabul qilishi va unga qanday ma'no berishidir. Insonning vaziyatga nisbatan o'zi ichki bahosi (yoki tahlili) hodisaga qanday hissiy reaksiya qilishi bilan bog'liq; masalan, biror kishi hamkasbining tanqidini konstruktiv fikr sifatida emas, balki shaxsiyatiga hujum sifatida talqin qilsa, unda g'azab paydo bo'lishi mumkin. Kognitiv xulq-atvor yondashuvida bu noto'g'ri fikrlar va talqinlarni tanib olish va qayta ko'rib chiqish orqali ushbu hissiy reaksiyalarni yengillashtirish mumkin. G'azabni keltirib chiqaruvchi kognitiv jarayonlarni tushunish orqali sog'lomroq fikrlash va reaksiya bildirish usullarini ishlab chiqilishi mumkin, bu esa g'azab darajasi va intensivligini kamaytirishga yordam beradi [2].

•Chekinish va Uzoqlashish Usuli: G'azabni chekinish va uzoqlashish orqali boshqarish keskin vaziyatlarning kuchayib ketishining oldini olishda samarali usul bo'lishi mumkin. G'azab ma'lum bir darajaga yetganda, muhitni vaqtinchalik tark etish mojaroni yanada kuchaytirib yubormaslikka yordam beradi va hissiy reaksiyalarni boshqarishga imkon beradi. Bu tanaffus o'zini g'azabni qo'zg'atuvchi omillardan uzoqlashtirish va miyadagi "signal tizimi"ni tinchlantirish uchun zarur bo'lib, o'z navbatida, vaziyatga aniq fikr bilan yondashish imkonini yaratadi. Maqsad – tinchlik bilan qaytib, muammoni konstruktiv tarzda hal qilishdir [2].

Xulosa

Hozirgi kunda o'qituvchilar his-tuyg'ularining ta'lim samaradorligiga ta'siri borasida olib borilayotgan tadqiqotlar ko'payib bormoqda. Pedagoglar kasbiy rivojlanishidagi muammolar sifatida o'z kasbidan qoniqishga to'sqinlik qiladigan holatlar va g'azablanishni aytish mumkin. Pedagogik kasbiy qoniqish sifatida ish sharoitlari, yuklamalar, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, kollegial hamkorlik, o'qituvchilik kasbi mavqeyi asosiy ekanligi olib borilgan olimlar izlanishlarida ayon bo'ldi. Biroq kasbiy qoniqishning yosh chegaralari bilan bog'liq emperik tahlillari xulosa chiqarishga yetarli emas. Shuningdek, o'qituvchilar kasbiy qoniqishining etnopsixologik jihatlar O'zbekiston sharoitida yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu borada emperik, meta tahlilga asoslangan taqiqotlar zarur.

G'azab to'g'ri boshqarilmasa o'qituvchilarning farovonligiga salbiy ta'sir qilib, jismoniy, ruhiy va shaxslararo muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Biroq g'azab muammo haqida ogohlantirib, o'zini himoya qilish instinktlarini qo'zg'atadi. To'g'ri ifodalanganda, fikrlash, o'zini himoya qilish, muammolarni hal qilish va sog'lom kurashish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu o'z navbatida sinfdagi tartibuzar talabalarni boshqarishda foydalanish mumkin. Biroq pedagoglar kasbiy faoliyatida g'azabni boshqarish ko'nikmasini egallashlari kerak. Kognitiv xulq-atvor va chekinish-uzoqlashish usullari bu jarayonda foydali bo'ladi. Ta'lim sharoitida g'azabning har tomonlama tabiatini, darajasini tushunish o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda muhimdir. Bu jihatlar ham etnopsixologik jihatdan yortilmagan va psixologik, pedagogik jihatdan tadqiq etilishi lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Borman, G. D., & Dowling, N. M. (2008). Teacher attrition and retention: A meta-analytic and narrative review of the research. *Review of Educational Research*, 78(3), 367–409.
2. Bulut M., & Yüksel, Ç.(2023). Self-Help techniques in anger management with cognitive behavioral interventions: Understanding Atif Cite and managing anger. *Humanistic Perspective*, 5 (2), 844-856. <https://doi.org/10.47793/hp.1222353>
3. Frijda, N. H. (2013). *The laws of emotion*. Psychology Press.
4. Frenzel, A. C., Daniels, L., & Burić, I. (2021). Teacher emotions in the classroom and their implications for students. *Educational Psychologist*, 56(4), 250–264.
5. Frenzel, A. C. et al. (2015). Measuring Teachers' Enjoyment, Anger, and Anxiety; The Scale of Teachers' Emotions (TES)
6. Kummings, E. M., Ballard, M., El-Sheikh, M., & Lake, M. (1991). Resolution and children's responses to interadult anger. *Developmental Psychology*, 27(3), 462-470. <https://doi.org/10.1037/0012-1649.27.3.462>
7. Kassinov, H., & Sukhodolsky, D. G. (1995). Anger Disorders: Basic Science And Practice Issues. *Disorders: Definition, Diagnosis (1-26)*. Washington. <https://doi.org/10.3109/01460869509087270>
8. Maşaroğulları, G., & Koçakgöl, M. (2011). *Dictionary of Psychology*. Nobel Akademik ISBN-9786051331591
9. Mertoğlu, M. (2018). Investigation of Teachers Anger Control Problems. *Journal of Education and Training Studies*.
10. Mulligan, K., & Scherer, K. R. (2012). Toward a working definition of emotion. *Emotion Review*, 345 357.
11. Rosemary, E., Sutton. (2007). 3. Teachers' Anger, Frustration, and Self-Regulation. doi: 10.1016/B978-012372545-5/50016-
12. Sims, S. (2017). TALIS 2013: Working conditions, teacher job satisfaction and retention (Department for Education Statistical Working Paper). London: Department of Education.
13. Toropova, A., Myrberg, E., & Johansson, S. (2020). Teacher job satisfaction: the importance of school working conditions and teacher characteristics. *Educational Review*, 73(1), 71–97.
14. Tojiboyeva G.R, Elmurodova G.M. Rahbar va xodimlar o'rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etish yo'llari. *CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH*. 2022. 70-71b.
15. Uzbekistan - Teachers In Tertiary Education, Both Sexes. <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/teachers-in-tertiary-education-both-sexes-number-wb-data.html#:~>
16. <https://stat.edu.uz/>
17. <https://phd.mininnovation.uz/>

## **TIBBIY PSIXOLOGIK TASHXISNING KLINIK PSIXOMETRIK MEZONLARINI MUVOFIQLASHTIRISH DIAGNOSTIKA VOSITALARINI BELGILASH OMILI SIFATIDA**

*Melibaeva Ruzaxon Nasirovna,  
Toshket tibbiyot akademiyasi Pedagogika va psixologiya kafedrasida professori,  
psixologiya fanlari doktori*

*Annotatsiya: Maqola bugungi kunda jahonda tibbiy psixologiya fanida shaxsning xulq-atvori, bilish jabhasi, faoliyati va psixik imkoniyatlarini o'lchashga xizmat qiluvchi psixodiagnostika metodikalarini shakllantirish, psixometrik mezonlarning muvofiqligini ta'minlash va ulardan tibbiy psixodiagnostik maqsadlarda foydalanish bo'yicha xalqaro va mahalliy tajribalarga tayaniladigan yangi tizim sifatida mazmungan yoritishga bagishlangan.*

*Kalit so'zlar: tibbiy psixodiagnostika, metodika, mezon, psixometrik mezon, o'lchov, tuzilma, shaxs, bemor, nevrotik buzilishlar, psixik buzilishlar, so'rovnomalar, diagnostika*

## **КООРДИНАЦИЯ КЛИНИКО-ПСИХОМЕТРИЧЕСКИХ КРИТЕРИЕВ МЕДИЦИНСКОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ КАК ФАКТОРА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ ИНСТРУМЕНТОВ**

*Мелибаева Рузахон Насировна  
Профессор кафедры педагогики и психологии Ташкентской медицинской академии, доктор психологических наук*

*Аннотация: Статья посвящена развитию психодиагностических методов служащих для измерения поведения, когнитивного аспекта, активности и умственных способностей человека, в современной мировой медицинской психологии, как новой системы, основанной на международном и отечественном опыте обеспечения совместимости психометрические критерии и использовать их в медицинских психодиагностических целях.*

*Ключевые слова: медицинская психодиагностика, методология, критерии, психометрические критерии, мера, структура, личность, пациент, невротические расстройства, психические расстройства, опросник, диагноз.*

## **COORDINATION OF CLINICAL PSYCHOMETRIC CRITERIA IN MEDICAL PSYCHOLOGICAL DIAGNOSIS AS A FACTOR IN DETERMINING DIAGNOSTIC TOOLS**

*Melibaeva Ruzakhon Nasirovna  
Professor of the Department of Pedagogy and Psychology, Tashkent Medical Academy, Doctor of Psychological Sciences*

*Annotation: The article is devoted to the development of psychodiagnostic methods that serve to measure a person's behavior, cognitive aspect, activity and mental capabilities in the world of medical psychology today, as a new system based on international and local experiences to ensure the compatibility of psychometric criteria and use them for medical psychodiagnostic purposes.*

*Key words: medical psychodiagnostics, methodology, criteria, psychometric criteria, measure, structure, person, patient, neurotic disorders, mental disorders, questionnaire, diagnostics.*

Kirish. Tibbiyotda psixodiagnostika psixologiya fanining nazariyasi va usullariga asoslanib, kasallik sharoitida yoki deyarli sog'lom insonlardagi ruhiy salomatlik buzilishiga tahdid soladigan holatlarda ruhiy funksiyalar, jarayonlar, holatlar, shaxs va xatti-harakatlarning xususiyatlari va buzilishlari haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Uning yordamida klinik tekshirishning umumiy tizimidagi bemorlarning nozologik va sindromologik xususiyatlari aniqlanadi, psixologik korreksiya, psixoterapiya va reabilitatsiyaga oid tadbirlar shakllantiriladi.

Bugungi kunda shaxsning xulq-atvori, faoliyat va psixik imkoniyatlarini o'lchashga xizmatqiluvchi psixodiagnostika metodikalarini shakllantirish, psixometrik mezonlarning muvofiqligini ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, American Psychological Association (AQSh), University of Nebraska (AQSh), The British Psychological Society (Buyuk Britaniya), University of Kent (Buyuk Britaniya), Freie Universität Berlin (Germaniya), Janubiy Ural universiteti (Rossiya Federatsiyasi), «Imaton» kompaniyasi (Rossiya Federatsiyasi) tomonidan olib borilayotgani bu yo'nalishdagi ijobiy xolatdir.

Adabiyotlar taxlili. Jahonda tibbiy psixodiagnostika muammolarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni tahlil va talqin qilib ularni quyidagi jabhalarini alohida ko'rsatib o'tish joiz:

psixologik testlar va diagnostika metodikalarni unifikatsiyalash asosida tibbiy psixologlarning testlarni operativlik va tejamkor shakllari yaratilgan (American Psychological Association, Amerika Qo'shma Shtatlari);

klinik psixometrikaning joriy etish orqali psixologik o'lchashning psixometrik mezonlari takomillashtirilgan (University of Nebraska, Amerika Qo'shma Shtatlari);

testlarning kompter diagnostikasi texnologiyasini takomillashtirish natijasida test jarayoni standartlarini professional darajada amaliyotda qo'llash tamoyillari ishlab chiqilgan (The British Psychological Society, Buyuk Britaniya);

psixologik test batareyalari qo'llash dasturini ishlab chiqish orqali bemorlarni kompleks diagnostikalash yo'lga qo'yilgan (University of Kent, Buyuk Britaniya);

testlardan foydalanish standartlarini takomillashtirish asosida mutaxassislarning metodikalarni tatbiq etish imkoniyatlarini optimallashtirishga erishilgan (Freie Universität Berlin, Germaniya);

psixodiagnostika metodikalarini tayyorlash texnologiyalarini kuchaytirish asosida test tuzish bosqichlari tizimlashtirilgan (Janubiy Ural universiteti, Rossiya Federatsiyasi);

testlarning samarali joriy etish tizimini shakllantirish orqali testlarni tuzish, moslashtirish va modifikatsiyalash tamoyillari kuchaytirilgan («Imaton» kompaniyasi, Rossiya Federatsiyasi).

Qayd etilgan ma'lumotlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, jahonda tibbiy psixologik diagnostika muammolari bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, turli kasallik soha va tizimlar uchun tibbiy psixodiagnostik usullarini samarali qo'llash asosida kasallikka sabab bo'luvchi omillarni aniqlash orqali yangicha, davolash usullarini taklif etish, shaxsning psixologik xolatlari va kechinmalarining kasallikni kelib chiqishiga psixologik ta'sirini aniqlashni inobatga olgan holda psixologik diagnostikani amalga oshirish, tibbiyot xodimlari shaxsining professional faoliyatini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi kasbiy-shaxsiy xususiyatlari bo'yicha tibbiyot xodimi psixologik qiyofasi modelini shakllantirishga e'tibor qaratish, kasallik turlariga ko'ra tibbiy psixodiagnostikani tashkillashtirish, bemorlarni davolashda tibbiy psixologik diagnostika bilan bir qatorda psixokorreksion va psixoprofilaktik tadbirlarini takomillashtirish kabilar, shular jumlasidandir.

Klinik psixodiagnostika maqsadlarida foydalanishi ko'zda tutilgan metodikalarning

amaliyotda qo'llash uchun zarur mezonlari keltirib o'tamiz:

a) nazariy va amaliy izlanishlarning sifatli parametrlariga ega klinik psixodiagnostika uchun muhim bo'lgan psixologik testlar tizimini shakllantirish;

b) muhit uchun mos bo'lgan me'yoriy ko'rsatkichlarni ta'minlash;

v) klinik maqsadlarda psixodiagnostika metodikalarni tatbiqining metodologik muammolarini doimiy ravishda yechimi yuzasidan tadqiqotlar olib borish;

g) klinik psixodiagnostika metodikalarni tibbiy va psixodiagnostika tadqiqotlarida qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish;

d) tibbiyot va psixologiyaning tutash tarmoqlari bo'yicha mutaxassislarni kasbiy tayyorlash bosqichida tibbiy va klinik psixodiagnostika, klinik psixometrika kurslarini o'qitilishini joriy etish;

ye) istiqbolda mahalliy ilmiy nashrlarda klinik psixologik diagnostika metodikalarini tatbiqi bo'yicha ilmiy ma'lumotlar taqdim etish zarur bo'ladi.

Ruhiy salomatlik va kasallikni baholashga biopsixosotsial yondashuvning asosiy metodologik tamoyillaridan biri inson moslashuvi masalasidir. Ushbu konsepsiyaga ko'ra inson ruhiyat bilan biosotsial omillar ta'siri masalasi tadqiq qilingan bo'lib, bu tushuncha umumiy biologik va umumiy tibbiy xarakterga ega ekanligi ma'lum. Moslashish tushunchasi va uning tizimli tushunishni biopsixosotsial yaxlitligi inson hayotining dinamik jihatlarini, sog'liqni saqlash barqarorligini yoki patologiya shakllanishining asosiy qonunlarini ochib beradi.

Shu nuqtai-nazardan e'tiborimizni shaxs buzilishlari diagnostikasi ma'salasiga qaratish tibbiy diagnostikada o'ta muhim sanalib, o'ziga xos o'ringa egadir. Shaxs buzilishlari diagnostikasining ma'lum jihatlari shaxs psixologiyasining asosiy tamoyillari va xususiyatlarining ekstremal varianti sifatida bemorni tadqiq qilishning beshta global yo'nalishi mezonlari doirasida amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Shu asosda shaxs buzilishlari diagnostikasi doirasida qo'llaniladigan metodikalarning umumiy tasnifini ajratishga erishdik. Unga ko'ra shaxsning tobeligi bilan bog'liq buzilish; shaxsning xavotirlanishi bilan bog'liq buzilishi; shaxsning anankastik (pedantik) buzilishi; shaxsning shizoid buzilishi; shaxsning paranoyid buzilishi; impulsiv tip yoki shaxsning emotsional-beqaror buzilishi; siklotimiya; shaxsning isterik buzilishi; shaxsning diassotsiativ buzilishi; shaxsning jinsiy buzilishlari; shaxsning aralash buzilishlariga ajratilgan edi.

Tadqiqot natijalari taxlili. Mezonlar diagnostika vositalarini belgilash imkonini berishi shubhasiz. Tadqiqotimizda tibbiyot soha mutaxassislari va talabalarining shaxsdagi chegaraviy buzilishlar bilan bog'liq psixodiagnostika metodikalaridan xabardorlik holati yuzasidan so'rov o'tkazildi. Mazkur so'rovnoman amalga oshirishda oldin shaxsning chegaraviy psixik buzilishlari diagnostikasida qo'llanilayotgan metodikalarning tizimlashtirildi [1]. Metodikalarni tizimlashtirishda psixodiagnostika va tibbiy psixodiagnostika amaliyotida shakllantirilgan ilmiy adabiyotlardagi holati tadqiq etildi va metodikalarni quyidagi yo'nalishlarga ajratildi [2;3]:

1. Ko'p omilli shaxs so'rovnomalari.

2. Ko'p o'lchamli shaxs so'rovnomalari.

3. Shaxs buzilishi psixologik diagnostika so'rovnomalari.

4. Shaxs xarakter aksetuatsiyasi.

5. Xavotirlanish darajasi diagnostikasi.

6. Depressiya holatlari diagnostikasi.

7. Psixik holatlarni ekspressiv diagnostikasi.

8. Proektiv metodikalar.

Natijada tibbiyot xodimlari (professor-o'qituvchilar) va tibbiyot oliy gohi talabalarining

shaxsning psixik buzilishlari diagnostikasiga doir metodikalarning tatbiqiy xususiyatlari bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnoma natijalari va ilmiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, shaxs psixik buzilishlar diagnostikasi uchun zarur bo'lgan metodikalarning quyidagi yo'nalishda klassifikatsiyalashtirildi.

Shaxs buzilishining diagnostikasiga doir metodikalar klassifikatsiyasida ko'p omilli shaxs so'rovnomalari alohida yo'nalishga ega bo'ldi. Ushbu yo'nalishdagi metodikalardan yetakchilari sifatida R.B.Kettellning 16 RF so'rovnomasi va uning shakllari kiritildi. Mazkur so'rovnomaning ustuvor xususiyati inson kasalligini diagnostikasi uchun emas, balki bemorlar shaxsining psixologik qiyofasini yoritish uchun foydalanish o'rinlidir.

R.Kettell so'rovnomasi bemorlar shaxsiga xos xususiyatlar hamda keyinchalik ularning psixologik profiliga ko'ra davolash chora-tadbirlarini belgilashga xizmat qiladi.

Ikkichni guruh metodikalariga esa MMPI va uning modifikatsiyalari, u asosida shakllantirilgan so'rovnomalar kiritilgan. Mazkur so'rovnomalarda klinik shkalalar mavjud ekanligi hamda xulq-atvori va qirralariga xos o'zgarishlarni baholaydi (MMPI va Mini-mult so'rovnomasi, Missisipi shkalasi).

Shaxs buzilishi psixologik diagnostika so'rovnomalari esa yaqqol tibbiy psixodiagnostik xarakterga ega bo'lib, uning shkalalari DSM-III va DSM-IV da aks ettirilgan mezonlarni aniqlashga mo'ljallangan shkalalardan iborat. Biroq uchinchi toifadagi so'rovnomalar asosan xorijiy psixologiyadagi tadqiqotlarda qo'llanilganligi haqida qator ma'lumotlar mavjud [3;4;5;6], ammo mahalliy tadqiqotlarda tatbiqiy xususidagi empirik ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmadik. To'rtinchi guruh metodikalar, ya'ni shaxs xarakter aksentuatsiyasi so'rovnomalarining mahalliy tadqiqotlarda qo'llanilishi kuzatiladi. Bu tadqiqotlar me'yordagi shaxsdagi xarakterologik o'zgarishlar xususida ma'lumotni ifodalagan. Yuqoridagi tahlili materiallarda shaxsdagi buzilishlar bilan xarakter aksentuatsiyasiga bir xilda mazmun berilgan holatlar mavjud.

Beshinchi guruh metodikalarini ham aynan shaxsiga xos buzilishlar sifatida qabul qilish mumkin. Ushbu toifa metodikalarga Spilberger-Xanning "Xavotir darajasini aniqlash" test-so'rovnomasi, Psixik faollik va emotsional tonusni baholash (N.A.Kurganskiy, T.A.Nemchin), Asab-psixik zo'riqishlarni baholash (T.A.Nemchin), Rigidlikni o'lchash testlari kiradi. "Xavotir darajasini aniqlash" test-so'rovnomasi (professor E.G'.G'oziev tomonidan moslashtirilgan) mahalliy tadqiqotlarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Psixik faollik va emotsional tonusni baholash (N.A.Kurganskiy, T.A.Nemchin), Asab-psixik zo'riqishlarini baholash (T.A.Nemchin), Rigidlikni o'lchash testlari haqida hatto psixologik tadqiqotlarda qo'llanilganligi yuzasidan hech qanday empirik ko'rsatkichlarni qayd etish qiyin.

Depressiya holatlari diagnostikasiga (oltinchi guruh) aloqador metodikalar toifasiga Depressiya holatini differensial diagnostikasi (V.A.Jmurov), Bass-Dark agressivlik diagnostikasi, Depressiyani baholash Gamilton shkalasi, Montgomeri-Asberg depressiya shkalasi, Bekning depressiya so'rovnomasi, V.M.Bexterev nomidagi ITI depressiya shkalasi (Kudryashov A.F, 1992), Zigmondning xavotir va gospital shkalasi (Zigmond A., Snaith R., 1983; Wade D., 1992) kiritilgan. Ushbu shkalalarning mahalliy manbalarda ham tatbiq etilishi bo'yicha variantlari mavjud (Bass-Dark agressivlik diagnostikasi, Depressiyani baholash Gamilton shkalasi [4]). Biroq ularning miqdori ancha cheklanganlik xarakterga ega. Bu toifa metodikalarning shaxs buzilishlari bo'yicha tibbiyot psixodiagnostikasi yo'nalishida tatbiqini ta'minlash ham tibbiyot, ham psixologiya sohalari mutaxassislar tomonidan e'tibor talab etadi.

Dastlabki kasallik to'g'risida tezkor ma'lumot olishda tibbiyot xodimlar birlamchi suhbatdan ham samarali foydalanadilar. Bu boradagi yana bir yo'nalishda psixik holatlarni ekspressiv diagnostikasi metodikalarini (ettinchi guruh) tatbiq etish ancha

qulaydir. Ushbu metodikalarning qulayligini o'rganilayotgan xususiyatlarning baholash mezonlari aniq, vaqt jihatdan tejamkor, tezkor ma'lumot olish imkoniyatiga ega. Xususan, Psixik holatlarni o'zi tomonidan baholash (G. Ayzenk), Toronto aleksitimiyaning baholash shkalasi va Frusiratsiya holati diagnostikasi (Vassermana-Boyko) metodikalarning qo'llash xususiyati yuqorida sanab o'tilgan mezonlarga mos va ekspressiv xarakterlidir. Masalan, Nevrotizatsiyalashuv holati diagnostikasi (Vassermana-Boyko) metodikasi 40 ta mulohazadan iborat va ularga javob berishda esa 4 daqiqa vaqt sarflanadi. So'zsiz metodika operativlik va tejamkorlik xarakterga ega.

Sakkizinchi guruh metodikalari proektiv texnikaga aloqadordir. Proektiv metodikalarning psixologik konsultatsiya va psixologik diagnostikada qo'llanish holati amaliy jihatdan uchraydi. Ulardan tibbiy diagnostika maqsadlarida foydalanish bo'yicha ham izlanishlar olib borilgan va o'quv qo'llanmalar shakllantirilgan [7]. Bolalar shaxsidagi buzilishlar diagnostikasi uchun proektiv metodikalarni tatbiqiga e'tibor qaratilgan. Bu yo'nalishga tematik xarakterli testlar, persepsiya testlari, konstruktiv testlar, konstruktivni simvallashtirish testlari va assotsiativ testlarni kiritish o'rinlidir. Proektiv testlarni qo'llash uchun ham tajribalar shakllantirish lozim degan qarorga kelinmoqda.

Shaxs buzilishlar diagnostikasida psixologik diagnostika metodikalarini joriy etish bo'yicha metodologiya vazifasini o'tovchi aniq mezonlar va metodikalar mavjud.

#### ADABIYOTLAR

1. Батаршев А.В. Психодиагностика пограничных расстройств личности и поведения. - М.: Издво Института Психотерапии, 2004. - 320 с.
2. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders: DSM-IV. — 4-е издание. — Вашингтон: American Psychiatric Publishing, май 1994. — 620 с.;
3. Ibodullaev Z. Tibbiyot psixologiyasi: darslik. - Toshkent: «Zamin Nashr» nashriyoti. - 2019. - В.407-438.;
4. Березин Ф.Б., Мирошников М.П., Рожанец Р.В. Методика многостороннего исследования личности. - М., 1976.;
5. Бурлачук Л.Ф. и др. Основы психотерапии: Учеб. пособие. - Киев; Москва, 1999. ; Бурлачук Л. Ф., Морозов СМ. Словарь-справочник по психодиагностике. - СПб., 2000.;
6. Немов Р.С. Психология: Учебник. В 3 кн. Кн. 3. Психодиагностика. Введение в научное психологическое исследование с элементами математической статистики. - М., 2000
7. Чиркова Ю.В. Проективные методы в диагностике нарушений развития личности в детском возрасте : учебное пособие для вузов / Ю.В. Чиркова, Т.А. Колосова. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 218 с.



## PSYCHOLOGICAL FEATURES OF TEACHING PSYCHOLOGY IN MEDICAL UNIVERSITIES

*Melibaeva Ruzakhan Nasirovna,  
Professor of the Department of Pedagogy and Psychology of Toshket Medical Academy, Doctor of Psychology*

*Abstract. Changing ideas about health, emphasizing psychophysiological and social characteristics of a person, along with medical and biological ones, contributed to the replacement of the nosocentric worldview with an anthropocentric one. This, in turn, stimulated the restructuring of views on the tasks and functions of health care in general and medical activity in particular.*

*Key words. psychology, medicine, education, doctor, psychological characteristics, psychotherapy, professional self-awareness, psychosomatics.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПСИХОЛОГИИ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ

*Мелибаева Рузахон Насировна,  
Профессор кафедры педагогики и психологии Ташкентской медицинской академии, доктор психологических наук*

*Аннотация. Изменение представлений о здоровье, акцентирование в них психофизиологических и социальных особенностей человека, наряду с медико-биологическими, способствовало замене нозоцентрического мировоззрения на антропоцентрическое. Это, в свою очередь, стимулировало перестройку взглядов на задачи и функции здравоохранения в целом и врачебной деятельности в частности.*

*Ключевые слова. психология, медицина, образования, врач, психологические особенности, психотерапия, профессиональное самосознания, психосоматика.*

## TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA PSIXOLOGIYANI O'QITISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Melibayeva Ruzaxon Nasirovna,  
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Pedagogika va Psixologiya kafedrasini professori,  
psixologiya fanlari doktori*

*Annotatsiya: Salomatlik haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi, unda insonning psixofiziologik va ijtimoiy xususiyatlariga tibbiy-biologik jihatlar bilan bir qatorda urg'u berilishi natsotsentrik dunyoqarashning antropotsentrik dunyoqarash bilan almashtirilishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida sog'liqni saqlash tizimining vazifalari va funksiyalariga, xususan, tibbiy faoliyatga bo'lgan qarashlarning qayta qurilishiga turtki berdi.*

*Kalit so'zlar: psixologiya, tibbiyot, ta'lim, shifokor, psixologik xususiyatlar, psixoterapiya, professional o'zlikni anglash, psixosomatika.*

**Introduction.** One of the most important tasks of modern medicine is to ensure the somatic and psycho-emotional well-being of a person. The place, role and importance of psychology in higher medical school are largely determined by the nature of the relationship between psychology and medicine, for which higher medical education works. It is known that contradictions arise as a result of the interaction of oppositely directed tendencies. The interaction of psychology with medicine in the «development of

